

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

---

**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI**

---

**B.M. TOJIBOYEV**

**CHORVACHILIKNI  
MEXANIZATSIYALASHTIRISH  
VA AVTOMATLASHTIRISH**

Ozbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus talim vazirligi  
Orta maxsus kasb-hunar talimi markazi tomonidan  
kasb-hunar kollejlari uchun darslik sifatida tavsiya etgan

*(To 'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri)*

**TOSHKENT  
sIQTISOD-MOLIYA»  
2014**

**Taqrizchilar:**

**D.A.ALIJONOV** – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti «Chorvachilik fermalarini mexanizatsiyalash» kafedrasi dotsenti,

**R.P.IBROHIMOV** – Qishloq xo‘jaligi mutaxassislari va tad-birkorlari, fermerlari malakasini oshirish hamda axborot bilan ta’minlash respublika Markazining bosh direktori.

**T60 Chorvachilikni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlash-tirish.** Kasb-hunar kollejlari uchun darslik / B.M. Tojiboyev; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi, O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014, -272 bet.

Ushbu darslikda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda zamonaviy ilg‘or texnologiyalar, mashina va jihozlarning tuzilishi va sozlanishi, ulardan unumli foydalanish, chorvachilik inshooti hamda binolar loyihamarini respublikamiz sharoitidan kelib chiqib baholash, ozuqalarni mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan holda zootexnik talablari asosida tayyorlash masalalari keng yoritilgan.

Shuningdek, sutni mexanizatsiya vositalari bilan sog‘ib olish, unga dastlabki ishlov berish, uy sharoitida sut mahsulotlari tayyorlash, qo‘y junini qirqish, unga ishlov berish jarayonlari bayon etilgan.

Darslik kasb-hunar kollejlari, litsey o‘quvchilari va fermer xo‘jaliklarining ishchi-texnik xodimlari uchun mo‘ljallangan. Undan oliy o‘quv yurtlari talabalari ham foydalanishlari mumkin.

UO'K 631.171:636.08(075)  
KBK40.715ya722

---

---

## KIRISH

Chorvachilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lib, mamlakatimiz aholisini sut, go‘sht, tuxum va boshqa hayotiy zarur mahsulotlar bilan ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Veterinariya to‘g‘risida», «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida», «Naslchilikni rivojlantirish to‘g‘risida»gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvarda «Ichki bozor uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikrokreditlar berish tartibi to‘g‘risida»gi qarori asosida qishloq xo‘jaligi, chorvachilik bosqichma-bosqich rivojlanib, keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollar sonini yanada ko‘paytirish, shu asosda qishloq aholisi bandligi hamda daromadini oshirish, ichki iste’mol bozorini go‘sht-sut mahsulotlari bilan ta’minalash bo‘yicha kompleks tadbirlar ro‘yobga chiqarilmoqda. So‘nggi yillarda chorvachilikni rivojlantirish, ayniqsa, nasldor qoramolchilikni yaxshilash va sifatli mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilishi natijasida muayyan ijobjiy natijalarga erishildi. Chunonchi, qoramollar soni oxirgi besh yilda o‘rtacha hisobda 122,5 foiz o‘sdi. Shundan 9 million 817 ming bosh qoramol dehqon xo‘jaliklarida, 525,6 ming bosh qoramol fermer xo‘jaliklarida, 104,2 ming bosh qoramol esa qishloq xo‘jaligi korxonalarida boqilmoqda. Hozirgi vaqtida mamlakatimizning 442 ta nasldor qoramolchilik xo‘jaligida nasldor qoramollar parvarishlanib, ularda har bir sigirdan yiliga 3340 kilogramm sut sog‘ib olinayotibdi. 2012-yilda mazkur xo‘jaliklar tomonidan 7786 bosh nasldor qoramol o‘stirilib, fermer va dehqon xo‘jaliklariga sotilgan.

2014-yilning birinchi choragi yakuniga ko‘ra mamlakatimizda go‘sht ishlab chiqarish 1461,4 ming tonnaga (106,0 %), sut ishlab chiqarish 1 mln 408 ming tonnaga (106,7 %), tuxum 3058,8 mln donaga (112,6 foiz), baliq ishlab chiqarish 9 ming tonnaga (123 %) yetkazilgan. Barcha toifadagi xo‘jaliklardagi sigirlar soni

3935,0 ming boshga (6,4 foizga), qo'y va echkilar 17128,8 boshga yetkazilib, 6,2 foizga o'sishga erishildi, jun 26510 tonnaga (6,1 foiz) ko'paydi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, servis xizmatlari tarmog'ini tashkil etishga doir chora-tadbirlar dasturining amalga oshirilishi natijasida chorvachilikni rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd etilmoqda.

Mamlakatimizda chorvachilikda yuqori samaradorlikka erishish uchun chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi, texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni yuqori darajada o'zlashtirgan, uni amaliyotda qo'llay oladigan mutaxassislarini tayyorlash zarur. Shu sababli chorvachilikni yanada rivojlantirish maqsadida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida chorvador-fermer, parrandachi-fermer va asalarichi-fermer mutaxassisligi bo'yicha yoshlarga kasb berishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mutaxassislar chorvachilik xo'jaliklari turlari va yo'nalishlari, chorvachilikda nasldor podani yuzaga keltirish, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi, chorvachilik xo'jaliklari, bino va inshootlarini bilishi, amaliyotda qo'llay olishi, ozuqalarini tayyorlash texnologiyasi, qo'llaniladigan mashina jihozlar, ularning tuzilishi, sozlanishi, me'yoranishi hamda texnologik ish jarayoni, zootexnik talablar asosida ozuqa tayyorlashni bilishi, ulardan foydalinish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Ushbu darslik chorvachilikni mustahkam ozuqa bazasi bilan ta'minlash, barcha qo'shimcha ozuqa resuslaridan foydalanish texnologiyasi va jihozlari, sigirlarni mexanizatsiyalashgan holda sog'ib olish va sutga dastlabki ishlov berish, zooveterinariya talablariga mos ravishda chorva binolarini isitish, shamollatish, yoritish, ekskrementlardan tozalash va qayta ishlash, qo'yga ishlov berish va junini qirqish qo'llaniladigan mashina jihozlarini bilishi hamda ulardan foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Darslik kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, chorvador-fermer xo'jaliklari xodimlari uchun mo'ljallangan. Undan oliv ta'lim muassasalari talabalari o'quv qo'llanmasi tariqasida foydalanishlari mumkin.

## **1-BO‘LIM**

### **FERMANI LOYIHALASHTIRISH ASOSLARI**

#### **1.1. FERMER XO‘JALIKLARI TURLARI VA YO‘NALISHLARI**

Chorvachilik xo‘jaligi – qishloq xo‘jalogining tarmog‘i bo‘lib, chorva mahsulotlarini yetishtirish uchun xizmat qiladi. Chorva fermalari mahsulot ishlab chiqarish, naslchilik yoki reproduktiv (nasldor mollarni ko‘paytirish) yo‘nalishida bo‘ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan fermalar aholini go‘sht, sut, tuxum va boshqa ozuqa mahsulotlari, sanoatni jun, teri kabi xomashyo bilan ta‘minlaydi. Naslchilik fermalari hayvonlar naslini takomillashtirish va ularni ko‘paytirish bilan shug‘ullansa, tarqatish esa reproduktiv fermalari tomonidan amalga oshiriladi.

Chorvador fermer xo‘jaligi – chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi, ayrim hollarda ularga ishlov berib tayyor mahsulot sifatida tayyorlovchi, ozuqa bilan ta‘minlovchi yer maydoniga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonasıdir.

Chorvachilik kompleksi – yirik ixtisoslashgan chorvachilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonasi, oddiy fermalardan baracha texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiya va avtomatizatsiyalashganligi, ishlab chiqarishni uzlusizligi, bir joyda ko‘p sonli hayvonlarni yig‘ilganligi, asosan, bir yo‘nalishdagi mahsulot ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi.

Hozirgi kundagi mavjud chorvachilik fermalarini tashkiliy nuqtayi nazaridan uch guruhga bo‘lish mumkin:

- oilaviy xo‘jaliklar va korxonalar qoshida tashkil etilgan yordamchi kichik fermalar;

- chorvador fermer xo‘jaliklari, 30 shartli bosh va undan ortiq moli bor hamda uzoq muddatli ijara ga berilgan yerdan foydalangan holda chorva mahsulotini yetishtirishga mo‘ljallangan subyektlar;

- shirkat xo‘jaliklaridagi fermalar va komplekslar.

Chorvachilik mahsulotlarini kishloqxo‘jaligi korxonalarida, fermer xo‘jaliklarida va xonadonlarda yetishtirishda, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biri hayvonlarni qanday usulda boqilishi va ularning biologik ehtiyojini qondirishiga bog‘liqdir.

Hayvon organizmi atrof-muhit bilan bevosita bog‘langan. Bu uning hayoti uchun zarur bo‘lgan ozuqani tabiatdan olish va hayot faoliyatini ta’minlashida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli hayvonlarni boqishda, saqlashda zoogigiyena talablariga rioya qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtida chorvachilikning turli tarmoqlarida hayvonlari saqlash va ko‘paytirishda turli xil tizimlardan foydalanimoqda. Tizimni tanlashda hayvon turi, ozuqa va suv bilan ta’minlanish shakli, go‘nglarni tozalash talablari, tashqi muhit, sutni sog‘ib olish usuli, xo‘jalikning iqtisodiy imkoniyatlari, yer maydoni sharoiti inobatga olinadi.


Qoramolchilikda bugungi kunda mollarni saqlashning quyidagi tizimlari qo‘llanilib kelinmoqda:

- mollarni bog‘lab boqish;
- chuqur to‘sama ustida mollarni erkin holda yayratib boqish;
- bog‘lamasdan to‘samasiz erkin holda bokslarda boqish. Qayd etilgan tizimlarning har biri yozda yaylovlardan foydalanimigan holda yoki yil mobaynida ferma og‘illarida boqilganda ham qo‘llanilishi mumkin.

### Bog‘lab boqish tizimi


Bu tizimda qoramollarning har biri ayrim og‘ilga bog‘langan holda boqilib, individual sug‘orish jihози, oziqlanish joyi va umumiyligi oziqlanish oxuriga ega bo‘ladi (1-chizma).

Mollarni bog‘lab boqish uchun mo‘ljallangan molxonalarda og‘illar hayvonlarni “boshiga-boshi” yoki “dumiga-dumi” shaklida joylashtirilishi mumkin (2-chizma). Og‘illarga to‘sama uchun somon yoki yog‘och qirindisidan foydalanimiladi. To‘samalarning har kuni almashtirilishi maqsadga muvofikdir. Bu molxonalarda ozuqa oxurlarga qo‘zg‘almas joylashgan yoki harakatlanuvchi ozuqa tarqatgich jihozlar yordamida tarqatiladi.



1-chizma. Mollarni bog‘lab boqish:

1—oxur; 2—og‘il; 3—go‘ng arig‘i



**2-chizma. Bog'lab boqishga mo'ljallangan molxonaning ko'ndalang qirqimi:**


1—go'ng tozalash arig'i; 2—og'il; 3—bog'lagich; 4—oxur;

5—ozuqa tarqatish yo'li.

Omixta yemlar, donli, sochiluvchi ozuqalar qo'lda yoki zambil-g'altakdan foydalanilgan holda tarqatiladi. Mollar har kuni yayratish maydoniga chiqariladi.

Sigirlar bir kunda uch marta sog'iladi (ayrim hollarda ikki mar-ta). Sut sog'ish apparatlari orqali chelaklarga yoki sut quvurlariga sog'ib olinadi. Sigirlarni maxsus sog'ish zalida qurilma yordamida ham sog'ish mumkin.

Bog'lab boqish tizimida har 25–50 sigirga bir sog'uvchi uzoq muddatga biriktirib qo'yiladi. Bu mas'ul xodimning javobgarligini orttirib, sigirlarni sog'ib olish, oziqlantirishi sifatini orttiradi. Bu tizim mehnat sarfini balandligi bilan farqlanadi.




**3-chizma. Bog'lab boqish uchun mo'ljallangan molxona:**

1—ozuqa yo'li; 2—oxur ichida tasmali (zanjirli) transportyor joylasgan; 3—bog'lagich; 4—og'il; 5—go'ng tozalash arig'i; 6—go'nngi chiqarish yo'lagi.

### **Bog'lamasdan erkin holda yayratib boqish tizimi**

Bu tizim xo'jalikda mustahkam ozuqa bazasi, yetarli daraja-da to'shama material bo'lganda qo'llaniladi. Tizim hayvonlarni bog'lamasdan boqishga asoslangan bo'lib, isitilmaydigan binolarda almashtirilmaydigan qalin to'shamalarda dam olishiga mo'ljallangan (4-chizma).



#### **4-chizma. Bog'lamay erkin boqish molxonasi:**


1—hayvonlar dam olish makoni; 2— go'ng transportyori; 3—oxur;  
4—harakatli ozuqa tarqatgich.

Oziqlantirish alohida ajratilgan maxsus maydonchalarda bos-tirma ostida yoki yayratish-oziqlantirish hovlilarida amalga oshiriladi. Ozuqalar harakatlanuvchi tarqatgichlar yordamida tarqatiladi. Hayvonlar ozuqaga erkin holida keladi. Sigirlarni sog'ish qo'zg'almas qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Hayvonlar ko'p vaqt toza havoda bo'ladi, bu esa ularning organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sigirlar sog'ilishi, yoshi va fiziologik holati bo'yicha guruhlarga taqsimlanadi.

Bog'lamasdan erkin yayratib boqish tizimi hayvonlarni boqish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarni keskin kamaytiradi. Tizim uchun har bir sigirga yiliga bir tonnaga yaqin somon to'shamasi talab etiladi.

#### **Bog'lamasdan to'shamasiz erkin holda bokslarda boqish tizimi**

Bu tizimda sigirlar dam olishlari va oziqlanishi uchun bokslar va oxur o'rnatilgan binoda joylashadi (5-chizma). Sigirlar ozuqalarga erkin holda yaqinlashib oziqlanadi. Bokslar va oziqlanish zonasining o'tish oralig'ida tirqishli pollar o'rnatiladi. Ekskrementlar ana shu tirqishlar orqali polning tubida joylashgan kanallarga hayvon oyoqlari bilan bosishi natijasida tushadi. Go'ng har kuni mexanik



**5-chizma. Bog'lamasdan boksdan saqlash molxonasining ko'rinishi:**  
1—oxur ichida tasmali transpoptyori bilan; 2—panjaralari ozuqa go'ng yo'li;  
3—mol dam olish boksi.

yoki gidravlik moslamalar yordamida tozalab turiladi. Ayrim hol-larda tirqishli pol tubiga chuqur joylashgan go'ngo'ra o'rnatilishi mumkin. Bunda go'ng go'ngo'radagi hajmiga ko'ra bir yilda 1–2 marotaba mexanik tozalash-yuklash moslamalari yordamida chiqariladi.

Sigirlar sog'ish zalida o'rnatilgan qurilmalar yordamida sog'ib olinadi. Bog'lamasdan to'shamasiz erkin holda boqish tizimi mammakatimizning shimoliy hududida qo'llanilishi mumkin.

**Hayvon va parrandalar strukturasini to'g'ri tanlash** — hayvon bosh sonining doimiy ravishda tiklanib borishi hamda yetarli darajada mahsulot yetishtirishga imkon beradi.

Qoramolchilik fermalari mahsulot yetishtiruvchi mahsulot turi-ga qarab uch yo'nalishda bo'ladi. Sut, go'sht-sut va bo'rdoqichilik fermalari. Ulardagi poda tarkibining o'zgarishi 1-jadvalda keltiril-gan.

**Cho'chqachilik fermalarida** quyidagi boqish tizimlari qo'llani-ladi: erkin-yayratib, stanokda yayratib va yayratmasdan boqish.

Erkin-yayratib boqish tizimi — o'stirilayotgan, emuvchi va bo'g'oz ona cho'chqalar uchun qo'llaniladi. Bu tizimda cho'chqalar kun mobaynida cho'chqaxona devorida qoldirilgan darchadan yay-ratish maydoniga chiqib kira oladi.

Stanokda-yayratib boqish tizimida erkak, 3–4 oyli bo'g'oz va emizikli ona cho'chqalar bolalari bilan ayrim-ayrim yoki guruhlari bilan yayratish maydoniga chiqarib boqiladi.

**Qoramolchilik fermasining poda tarkibi, foiz**

Hayvon guruhি	Maxsus sut yo'nalishidagi buzoqlarnи 20 kun mobaynida boqishga mo'ljallangan	Maxsus sut yo'nalishidagi buzoqlarnи 6 oy boqishga mo'ljallangan	Go'sht-sut yo'nalishida, tugallangan poda aylanishi bilan	Maxsus bo'rdoqichilik
Sigirlar	60-65	50	35-37	—
G'unajinlar	9-10	8-10	6	—
1 yoshdan katta urg'ochi buzoqlar	11-12	9-10	—	—
6 – 12 oylik urg'ochi buzoqlar	7-8	6-7	—	—
6 oygacha bo'lgan urg'ochi buzoqlar	8-10	—	—	—
Bir yoshdan katta mollar	—	—	22-24	—
6–12 oyli yosh mollar	—	—	17	—
6–14 oyli o'stirishga qo'yilgan yosh mollar	—	—	—	70
14–18 oyli bo'rdoqidagi yosh mollar	—	—	—	30

**Qo'ychilik fermalarida** hayvonlarni yaylovlarda yoki yaylov-qo'yxonalarda boqish tizimlari keng tarqalgandir.

Qo'ylar quyidagi guruhlarga bo'linadi. Mamlakatimizda qo'ylar asosan, qorako'lchilik yo'nalishida bo'ladi. Qo'ylardan teri olish bir yarim ming yil avval ham ma'lum bo'lgan. Qorako'l terilaridan qora (arabi), shirozi, sur, qambar turlari mavjud. Qo'zisi olingandan so'ng sovliqlar 2–5 kgacha sut berishi mumkin. Qorako'lchilik Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlarida keng

**Qoramolchilik fermalarida hayvonlar bosh soshshya aniqlash  
uchun hisoblash koeffitsiyentlari**

Hayvon guruhi	Sut yo‘nalishidagi fermalar			Bo‘rdoqichilik fermalarida	
	50 %	60 %	90 %	Barcha buzoqlar boqilganda, sigirlar 40 %	O‘stirishda, sigirlar podada 85 %
1. Sigirlar	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
shu jumladan, sog‘in sigirlar	0,75	0,75	0,75	—	—
Sutdan chiqarilgan bo‘g‘oz sigirlar	0,13	0,13	0,13	—	—
Tug‘ish oldi va yangi tuqqan sigirlar	0,12	0,12	0,12	0,29	0,29
So‘rg‘ich buzog‘i bor sigirlar	—	—	—	0,71	0,71
2. Tug‘ishiga 2–3 oy qolgan g‘unajinlar	0,12	0,12	0,12	0,20	0,20
3. 14–20 kunli buzoqlar	0,6	0,6	0,6	—	—
14–20 kunlidan 3–4 oygacha bo‘lgan buzoqlar	0,30	0,30	—	—	—
3–4 oydan 6 oygacha buzoqlar	0,30	0,30	—	—	—
jami buzoqlar	0,60	0,60	—	—	—
4-yosh mollar	0,35	—	—	1,15	—
shu jumladan, 6–12 oylik	0,10	—	—	—	—
8–12 oyliklari va 6–7 oylik bo‘goz g‘unajinlar	—	—	—	1,15	—
12–18 oylik va 6–7 oylik bo‘g‘oz g‘unajinlar	0,25	—	—	—	—
Jami	2,13	1,78	1,18	2,35	1,2

*3-jadval*

### **Cho‘chqachilikda podaning tarkibi, foiz**

Hayvon guruhi	Reproduktiv yo‘nalishdagi	Bo‘rdoqichilik yo‘nalishdagi
Asosiy ona cho‘chqalar:	60	—
shu jumladan, 2 yoshdan katta ona cho‘chqalar bolalari bilan	30	—
Yosh ona cho‘chqalar:	40	—
shu jumladan, 2 yoshdan katta ona cho‘chqalar 8 ta bolasi bilan	20	
Cho‘chqa bolalari: 2–3 oylik (20–30 kg og‘irlilikda)	—	20
3–4 oylik (30–40 kg og‘irlilikda)	—	20
4–6 oylik (40–55 kg og‘irlilikda)	—	20
7–8 oylik (55–80 kg og‘irlilikda)	—	20
8–10 oylik(80–100 kg og‘irlilikda)	—	20

*4-jadval*

### **Qo‘ychilikda podaning tarkibi, foiz**

Hayvon guruhi	Yo‘nalishi	
	Reproduktiv	Bo‘rdoqichilik
Sovliqlar	100	—
Sovliqlarga nisbatan qo‘zilar	90	—
1–2 oylik qo‘zilar (og‘irligi 20 kg gacha)	—	25
3–4 oylik qo‘zilar (og‘irligi 30 kg gacha)	—	25
5–6 oylik to‘qli va qo‘chqorchalar (og‘irligi 40 kg gacha)	—	25
6–7 oylik to‘qli va qo‘chqorchalar (og‘irligi 50 kg va undan ortiq)	—	25

rivojlangan. Qorako‘chilik bilan bir qatorda go‘sht-yog‘ uchun o‘stirilayotgan qo‘y zotlari ham mamlakatimizda o‘z mavqeyiga ega.

**Parrandachilik fermalarida** parrandalarni kataklarda, polda, to‘r ostida (волерда) va erkin boqish tizimlari qo‘llaniladi. Kataklarda boqish tizimi ozuqdan, binodan foydalanish nuqtayi nazariidan samarali hisoblanadi.

*5-jadval*

### **Parrandachilikda podaning tarkibi, foiz**

Parranda guruhi	Tovuqlar		O‘rdaklar	G‘ozlar	Kurkalar
	Naslchilik fermalari	Mahsulot yetishtiruvchi fermalar			
Makiyonlar	90	92	85	80	90
Xo‘rozlar	10	8	15	20	10

Hayvonlarning mavjud bosh sonini shartli bosh soniga aylantirish muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Buning uchun 6-jadvaldan foydalanish mumkin.

*6-jadval*

### **Hayvonlarni shartli bosh soniga aylantirish koeffitsiyenti, Ksh**

Hayvon turi	Koeffitsiyent Ksh
Sigirlar	1,0
20 kunlik buzoqlar	0,2
Bo‘rdoqidagi mollar:	
12–16 oylik	1,0
6–12 oylik	0,6
20 kunlikdan 6 oygacha	0,47
Cho‘chqalar:	
bo‘g‘oz	1,0
emizikli, 10 ta cho‘chqa bolasi	1,3
emizikli, 8 ta cho‘chqa bolasi	1,25
Bo‘rdoqi cho‘chqalar, (og‘irligi, kg)	
20-30	0,2

## 6-jadvalning davomi

30-40	0,4
40-55	0,65
55-80	0,85
80-100	1,0
Sovliq qo‘ylar	1,0
Qo‘zili sovliq qo‘ylar	1,1
Boquvdagi qo‘ylar (yoshi , oy):	
2-3	0,4
4-5	0,52
6-7	0,8
8-10	1,0
Tovuqlar:	
Makiyonlar	1,0
Xo‘rozlar	1,1
Go‘shtli (broyler) zoti	1,0

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Chorvachilik xo‘jaliklarini ta’riflang.
2. Bog‘lab boqish, erkin holda yayratab boqish va bokslarda erkin hodida boqish tizimlari orasida qanday farqlar bor?
3. Podadagi hayvon strukturasi qanday aniqlanadi?
4. Mavjud hayvon yoki parrandalar shartli bosh sonlari qanday hisoblanadi?

### **1.2. FERMER XO‘JALIGINI LOYIHALASHTIRISH, XO‘JALIK UCHUN JOY TANLASH**

**Fermier xo‘jaligini loyihalashtirish** deb, chorva mahsulotlarini yetishtirish bilan bog‘liq bo‘lgan texnologik jarayonni ta’minlash maqsadida texnologik, texnik, ekologik, zootexnik va tashkiliy masalalarni yuqori iqtisodiy va ijtimoiy talablar negizida yechilishiga aytildi.

**Fermani loyihalastirishni texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)** deb, fermaning chorva mahsulotlarini yetishtirish reja quvvati, ixtisosli-

gi, hayvon yoki parrandani saqlash tizimi, hayvonlardan mahsulot olish, ozuqa ishlab chiqish va tayyorlash texnologiyasi, oziqlantirish usuli, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, asosiy va yordamchi binolarni, ferma yer maydonidan foydalanish asosida yuqori mehnat unumiga, sifatli raqobatbardosh mahsulot yetishtirishga, uning iqtisodiy jihatdan rentabelligini, daromad keltirishi ni ta'minlovchi hujjatga aytildi.

Fermer xo'jaligidagi asosiy va yordamchi binolar, texnologik jarayonlar, jihozlarni loyihalashtirish chorvachilik komplekslari, fermalarini loyihalashtirish jarayoniga mos ravishda olib boriladi.

Fermer xo'jaligini qurishda joy tanlash eng muhim omillar dan biri hisoblanadi. Tanlanadigan joy xo'jalikning kelajakdag'i taraqqiyoti, sanitar-gigiyenik, ekologik, yong'in xavfsizligi tabalblariga javob berishi lozim. Joy tanlashda yo'lni, mahsulot bozorini, energiya, suv, ozuqa manbalarini, aholi yashash joylarini, yayloving yaqinligi va boshqa bir qator omillar e'tiborga olinadi. Ferma yer maydonida qurilish ishlarini olib borish uchun yaroqli, yer osti sizot suvlari kamida 2-2,5 m chuqurlikda joylashgan, 3-5° qiyalikka ega bo'lishi lozim.

*7-jadval*

### **Chorva fermasi hududining bo'linishi**

Bo'linmaning nomlanishi	Bo'linma tarkibi
Ma'muriy-xo'jalik	Veterinar-sanitar o'tkazgich, ma'muriy-maishiy bino, oshxona, avtomashinalar maydonchasi
Ishlab chiqarish	Hayvonlarni saqlovchi bino va inshootlar, yayratish va yayratish-oziqlantirish qo'rалари
Ozuqa (ozuqalarni tayyorlash va qayta ishlash)	Ozuqalarni saqlash bino va inshootlari, ozuqa sexi, avtotorozilar
Qo'shimcha bino va inshootlar	Qozonxona, yonilg'i saqlash binosi, transforma-tor podstantsiyasi, suv ta'minoti inshootlari
Veterinar-sanitar	Veterinar shoxobchasi, kasallangan hayvonlar izolyatori, sanitar-qushxona shoxobchasi, hayvon terisiga ishlov berish maydonchasi
Go'ngni saqlash va qayta ishlash	Go'ngo'ra, go'ngni qayta ishlash inshooti

Sanitar-gigiyena talablarga ko‘ra, fermaning veterinar himoya hududi yetarli, ishlab chiqarish binolari oralig‘i sanitar talablariga javob beradigan, atrofi daraxtlar, yashil hudud bilan o‘ralgan bo‘lishi kerak.

Chorvachilik fermasi aholi joylashgan hududning shamol o‘tib turadigan tomonida, relyef jihatidan pastroqda joylashishi zarur.

Ferma binolari, inshootlar shamolga yon tomoni bilan tanlanadi. Binolar oralig‘i ularning shamollab turishini, sanitar yong‘in xavfsizligini taminlashi lozim. Harakat uchun yo‘llar tanlanganda ozuqa va go‘ng tashish yo‘llarning kesishmasligiga e’tibor berish kerak.

*8-jadval*

### **Chorvachilnk bino va inshootlari oralig‘iga zooveterinar talabi, m**

Bino yoki inshoot	Molxona	Buzoqxona	Cho‘chqaxona	Qo‘yxona	Tovuqxon	Sutxona
Molxona	Yox*	30	150	150	200	Yox
Buzoqxon	30	Yox	150	150	200	Yox
Cho‘chqaxona	150	150	Yog‘	150	200	150
Qo‘yxona	150	150	150	Yox	200	150
Tovuqxona	200	200	200	200	Yox	200
Go‘ngo‘ra	50	50	50	50	150	150

\*Yox – Yong‘in xavfsizligi masofasi.

Yonilg‘i saqlash, mineral o‘g‘it omborxonalari, veterinar va boshqa inshootlarining yong‘in hamda sanitar xavfsizligini ta’minalash maqsadida chorva fermasi shamol osti tomonida, relyef jihatdan pastroqda, 300 m masofadan kam bo‘lmagan joyga quriladi.

Qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik va otchilik fermalarning o‘zaro oralig‘i 150 m, parrandachilik fermasida 200 m, parrandachilik fabrikasida 1000 m bo‘lishi lozim. Ferma davlat ahamiyatiga ega yo‘llardan 300 m, mahalliy yo‘llardan kamida 50 m uzoqlikda joylashadi.

Ishlab chiqarish binolari (molxona, buzoqxona, yayratish maydonchalar, qo'ralar va hokazo)ni tanlashda, hayvonlarni saqlash texnologiyasiga mos ravishda, har bir hayvon uchun ajratilgan me'yoriy maydon ko'rsatkichlari 9-jadvaldan olinadi.

*9-jadval*

### **Chorvachilik binosida har bir hayvonga ajratilgan me'yoriy maydon yuzasi, m<sup>2</sup>**

Bino	m <sup>2</sup>
Molxona, saqlash usuli:	
bokslarda	8,0
bog'lab boqilganda	8,2
bog'lamay, to'shamda ustida boqilganda	4,3
Molxona (uch bosqichli)	3,2
Qoramol tug'ruqxonasida	11,8
Buzoqxona (karantin)	2,6
Qoramol karantinda bo'lganda	2,9
Buzoqxona:	
2–4 oylik buzoqlar	2,7
4–6 oylik buzoqlar	2,9-3,05
O'stirilayotgan qoramollar, oy	
6-10	5,0
10-14	6,0
14-21	6,7
21-24	7,2
Qochmagan va bo'g'oz ona cho'chqalar binosi	3,3
Bo'g'oz ona cho'chqalar binosi	2,6
Ona cho'chqalar tug'ruqxonasi	10,6-15,7
Emizishdan ajratilgan cho'chqa bolalari	0,6-0,8
Bo'rdoqiga boqilayotgan cho'chqaxona	1,2
Qo'yxona	2,2-2,6

Hayvonlarni oziqlantirish kengligi, ularning yoshiga qarab 0,5–1,0 m oralig'ida olinadi. Tovuq makiyonlari yerda boqilganda 1 m<sup>2</sup> maydon yuzasiga 4–5 bosh, kataklarda saqlanganda 11 boshdan

joylashtiriladi. Yirik sut fermalari hayvonlarni saqlash binolari bilan bir qatorda tug'ruqxonada, karantinxona, buzoqxonalar bilan ta'minlanadi.

Tug'ruqxonada saqlanishi lozim bo'lgan bo'g'oz mollar soni  $M_t$  umumiy mollar soni  $M_u$  ga nisbatan quyidagicha hisoblanadi:

$$M_t = (0,12-0,20) M_u.$$

O'stirilayotgan yosh mollar va qisir qolgan mollar soni umumiy mollar soniga nisbatan quyidagicha hisoblanadi:

$$M_k = (0,10-0,15) M_u.$$

Karantinda joylashadigan mollar soni:

$$M_b = (0,10-0,11) M_u.$$


20 kunlik buzoqlar soni:

Bir binoda bir guruhga tegishli mollar soni quyidagicha topiladi.

$$M_r = F_r / M_m$$

bu yerda:  $F_r$  – bino maydoni,  $m^2$ ;  $M_m$  – hayvon uchun ajratilgan me'yoriy maydon,  $m^2$ .

**Sakkiz bosh sog'in sigirga mo'ljallangan, tugallangan ishlab chiqarish bosqichiga ega qoramolchilik fermasi.** Bu fermaga 2 kishi xizmat ko'rsatadi (6-chizma).



**6-chizma. 8 bosh sigirga mo'ljallangan, tugallangan ishlab chiqarish bosqichiga ega qoramolchilik fermasi (loyihasi va qirqimi):**

1-sigir va g'unajinlar uchun og'ilxona; 2–20 kunligidan olti oylikkacha bo'lgan buzoqlar seksiyasi; 3–o'stirilayotgan buzoqlar seksiyasi; 4-bo'rdoqi buzoqlar seksiyasi; 5–sut bo'limi; 6–yangi tug'ilgan buzoqlar profilaktoriyasi; 7–ozuqa tayyorlash xonasi.

10-jadvalga binoan, keltirilgan koeffitsiyentlar yordamida hisoblanganda bu kichik ferma poda strukturasi mazkur ko'rinishda bo'ladi.

10-jadval


## Tugallangan ishlab chiqarish bosqichiga ega 8 bosh sigirlari qoramol fermasining poda strukturasi

Haycon guruhi	Bosh soni hisobi	Bosh soni
Jami sigirlar	8x1	8
shu jumladan: Sog‘iladigan sigirlar	8x0,75	6
Sutdan chiqqan bo‘g‘oz sigir	8x0,13	1
Tug‘ishi yaqin sigirlar	8x0,12	1
Tug‘ishiga 2–3 oy qolgan g‘unajinlar	8x0,12	1
20 kunlik buzoqlar	8x0,06	1
6 oylik buzoqlar	8x0,6	5
6–12 oylik urg‘ochi buzoqlar	8x0,1	1
6–7 oylik bo‘g‘oz, 18–25 oylik g‘unajinlar	8x0,25	2
O’stirilayotgan 6–12 oylik yosh mollar	8x0,4	3
O’stirilayotgan 12–18 oylik yosh mollar	8x0,4	3
Jami		24

Binoda sigirlar bog‘liq holda boqilayotgan va o’stirilayotgan yosh mollar buzoqlar bilan guruh kataklarida saqlanadi. Sigirlar harakatlanuvchi individual sut sog‘ish agregatlari yordamida sog‘ib olinadi. Ozuqa zambilg‘altak bilan qo‘lda tarqatiladi. Bu zoqlarga sut so‘rg‘ichli sug‘orgichlarda beriladi. Yirik mollar suvni individual sug‘orgichlar yordamida iste’mol qiladi. Molxonadagi go‘ng aravachalardan foy-dalanilgan holda olib chiqiladi.

10 bosh sigirga mo‘ljallangan, tugallangan ishlab chiqarish bosqichiga ega oilaviy sutchilik fermasi (7-chizma) yordamchi xo‘jalik sifatida korxonalar qoshiba tashkil etilishi mumkin.

Ferma ikki zonadan tashkil topadi. Birinchi zona fermada xizmat qiluvchilarning turarjoyi (uy-joyi, yordamchi xo‘jalik binolari, yozgi oshxonasi, yonilg‘i va sabzavot ombori, garaj, yozgi yuvinish



7-chizma. Oilaviy sutchilik fermasining shakli.

xonasi, tovuqxona, issiqxona, tomorqa va yem-xashak maydoni). Ikkinchı zonada molxona, yayratish maydoni, go'ngo'ra, suv hovuzi, dezinfeksiya to'sig'i joylashgan.

### **Fermaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari:**

Sog'in sigirlar soni	- 10
Umumiyl qoramol bosh soni	- 43
Yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi, s	
sut	- 400
go'sht	- 53,2
Xizmatchilar soni, kishi	- 2
Ferma yer maydoni, ga	- 0,3
Yem-xashak maydoni, ga	- 10

Sigirlar bino ichida 1,2x2,0 m o'lchamli og'illarda, buzoqlar turuh holida kataklarda ikki qatorda joylashtiriladi.


Sigir ADM-8A turidagi sog'ish aggregatida sog'iladi. Sutga sutxonada dastlabki ishlov berib saqlash mumkin. Ozuqa otli arava yordamida tarqatiladi.

Go'ng binodan TCH tipidagi surgichli transportyor yordamida tozalanib so'ngra go'ngo'raka chiqariladi. 10 bosh sigirni bog'lab boqish uchun mo'ljallangan molxona loyihasi yuqoridagi chizmada keltirilgan (8-chizma).

Molxonaning umumiy maydoni 542, yayratish maydoni bilan 840 m<sup>2</sup> tashkil etadi. Binoning qurilish hajmi 1065 m<sup>3</sup>. Yigirma bosh sigirga mo'ljallangan podani to'ldirib boruvchi ferma binosi 9-chizmada keltirilgan.

### **Fermaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari**

Ferma o'lchami, sigirlar	- 20
Sig'imi, hayvon joyi soni	- 40
Yillik ishlab chiqarish hajmi, s:	
sut	- 1048
go'sht (tirik og'irlikda)	- 42,6
Xizmatchilar soni, kishi	- 3
Qurilishlar maydoni, m <sup>2</sup>	- 453
Suv sarfi, bir sutkada m <sup>3</sup>	- 3,4
Kanalizatsiya oqiziqlar hajmi, bir sutkada m <sup>3</sup>	- 1,48
Isitish va ventilyatsiyaga issiqqlik sarfi, kkal/soat	- 40000
Bir yillik elektr quvvati sarfi, mint kVt/soat	- 52
Iste'mol quvvati, kVt	- 30




**8-chizma. 10 bosh sigir bog'lanib boqiladigan molxona:**

1—og'illar joylashgan xona; 2—hojatxona; 3—profilaktoriya-karantin xonasi;  
4—go'ng tozalagichni harakatga keltirish stansiyasi; 5—omixta yem ombori;  
6—mashina bo'linmasi va elektr shiti xonasi; 7—sutxona; 8—tambur.

**9-chizma. 20 bosh sigirga mo'ljallangan podani to'ldirib boruvchi ferma binosi:**

a—yon kurinish; b—loyiha; d—qir-qim; e—bo'ylama ko'rinish, fasad;  
1—sigirlar, g'unajinlar va yosh mollar og'ilxonasi; 2—tug'ish bo'linmasi;  
3—olti oylik buzoqlar seksiyasi; 4—o'n ikki oygacha bo'lgan buzoqlar seksiyasi; 5—sut bo'limi; 6—vakuum nasos xonasi; 7—yangi tug'ilgan buzoqlar profilaktoriysi; 8—ot saqlash xonasi  
9—kartoshka saqlash ombori;  
10—ildizmevali ozuqalar ombori; 11—donli, sochiluvchi ozuqalarni saqlash ombori; 12—go'ngdan kompost tayyorlash maydonchasi;  
13—yayratish maydoni.




## 20 bosh sigirga mo‘ljallangan tugallangan podani to‘ldirish sikliga ega ferma hayvonlari strukturasi

T/r	Hayvon guruhi	Bosh soni
1.	Sog‘in sigirlar	20
2.	Tug‘ishgacha 2-3 oy qolgan g‘unajinlar	2
3.	20 kunlik buzoq	1
4.	6 oygacha bo‘lgan urg‘ochi buzoqlar	12
5.	6-12 oygacha bo‘lgan urg‘ochi buzoqlar	2
6.	12-18 oylik g‘unajinlar	5
	Jami	24

Fermada tug‘ilgan buqachalar 20 kunlik davrida boshqa xo‘jaliklarga bo‘rdoqiga sotib yuboriladi. Xo‘jalikda kichik hajmdagi ishlarni bajarish uchun bir bosh ot saqlanadi. Binoda sigirlar va g‘unajinlar bog‘lab og‘illarda, yosh mollar va buzoqlar guruhlari bilan kataklarida saqlanadi. Sigirlar individual sog‘ish apparatlari yordamida chelaklarga sog‘iladi. Ozuqlarni tarqatish imkoniyatga qarab, ikki usulda amalga oshirilishi mumkin. Kichik o‘lchamli ozuqa tarqatgich yordamida va kichik traktor bilan agregatlangan holda yoki ot qo‘shilgan aravada tarqatiladi. Buzoqlarni sut bilan oziqlantirish so‘rg‘ichli uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Si-


gir, g‘unajin va yosh mollar suv bilan avtosug‘orgichlarda sug‘oriladi. Go‘ng transportyor yordamida tozalanadi, so‘ngra undan kompost (go‘ng chirindisi) tayyorlanadi. 400 bosh sigirni bog‘lab boqishinga mo‘ljallangan sutchilik fermasi shakli 10-chizmada keltirilgan.

Bu shakldagi fermalardan ko‘p yillardan beri foydalaniib kelinmoqda. Fermalarda mahsulot ishlab chiqarish sanoat usuliga mos keladi. Sog‘in sigirlar yayratish maydonchalariga ega bo‘lgan ik-



**10-chizma. 400 bosh sigirga mo‘ljallangan sutchilik yo‘nalishidagi ferma:**  
 1—tug‘ruqxona; 2—ozuqa sexi;  
 3—yayratish maydonchalar; 4—har biri ikki yuz bosh sigirga mo‘ljallangan molxona;  
 5—sut bloki.

kita molxonada boqiladi. Bo'g'oz, tug'ishi yaqinlashgan, tuqqan va birinchi bor tuqqan sigirlar uchun 48 o'ringa mo'ljallangan tug'ruqxona binosi mavjud (11-chizma). Tug'ruqxona ichida vetrinar shoxobchasi bo'lib, unda ambulatoriya va 12 bosh sigirga mo'ljallangan statsionar bor. Ambulatoriyada hayvonlarni tutib turish uchun stanokli manej, dorixona va yorib tekshirish maydonchasi bor. Tug'ruqxona yangi tug'ilgan buzoqlar uchun mo'ljallangan profilaktoriyaga ham ega. Profilaktoriyada 10-20 kun mobaynida qarovda saqlangan buzoqlar keyinchalik g'unajin yetishtirish yoki bo'rdoqiga boqishga ixtisoslashtirilgan fermalariga sotiladi.



11-chizma. 48 bosh sigirga mo'ljallangan tug'ruqxona:


- a—binoni yon tomonidan ko'rinishi (fasadi); b—bino loyihasi; d—bino qirqimi (bo'ylama ichki ko'rinishi); 1—bo'goz va yangi tuqqan sigirlar xonasi;
- 2—ozuqa saqlash xonasi; 3—tug'ruqxona binosining inventar xonasi;
- 4— inventar profilaktoriya; 5— xizmatchilar xonasi; 6—sutxona;
- 7—vakuumnasos xonasi; 8, 18—tambur; 9—oltita buzoq uchun mo'ljallangan profilaktoriya seksiyasi; 10, 27—koridor; 11—vetapteka; 12—feldsher xonasi;
- 13—biopreparatlar saqlagich; 14—hojatxona; 15—yechinish xonasi;
- 16—dushxona; 17—yorib tekshirish xonasi; 19—dezinfeksiya vositalari xonasi;
- 20—qabul maneji; 21—kasal hayvonlar izolyatori; 22—ozuqa saqlash xonasi;
- 23—elektroshit xonasi; 24, 26—ventilyatsiya kameralari; 25—to'shamma saqlash xonasi; 27—dahlidiz.

Molxonalarda bog'lab boqiladigan sigirlarni sog'ishda ikki xil variant qo'llaniladi: 1 – molxona ichida sut quvuriga, olib yuriladigan sog'ish apparatlari yordamida sog'ish; 2 – sog'ish zalida statsionar apparatlar yordamida sut quvurlariga sog'ish. Tug'-ruqxonada sigirlar olib yuriladigan apparatlar yordamida chelak-larga sog'iladi. Sutga dastlabki ishlov berish va vaqtincha saqlash sut blokida amalga oshiriladi.

Hayvonlarga ozuqa (pichan, silos, senaj, lavlagi va omixa-ta yem) molxona ichida harakatlanuvchi tirkama ozuqa tar-qatgichlarda qo'zg'almas oxurlarga tarqatib beriladi. Ozuqalar maxsus sexda tayyorlanadi. Qoramollarni sug'orish individual avtosug'orgichlarda, go'ng tozalash esa surg'ichli transportyor-larda amalga oshiriladi.


Yuz sovliqqa mo'ljallangan tugallangan ishlab chiqarish sikli-dagi qo'ychilik fermasi (12-chizma)ga ikkita xizmatchisi bo'lgan oilaviy fermer xo'jaligi xizmat ko'rsatishi mumkin.

Qo'tonda 100 ta sovliqqa to'rtta, podani to'ldiruvchi 30 ta to'qliga bitta, 40 bosh bo'rdoqi yosh qo'ylarga bitta, 5 ta nasldor qo'chqorga bitta seksiya joylashtirilgan. Shu bilan birga qo'tonning o'rtasida sovliqlarni bolalashi uchun issiq joy va yordamchi xonalar mavjud (13-chizma).



**12-chizma. 100 bosh sovliqli  
tugallangan ishlab chiqarish  
siklidagi qo'ychilik fermasining bosh  
loyihasi:** 1–qo'ton; 2–xo'jalik bloki;  
3–fermerning uyi;  
4– yayratish-oziqlashtirish qo'ras;  
5–pichan saqlash maydoni; 6–silos  
saqlash o'rasi; 7–garaj-ustaxona;  
8–issiqxona.

Quylar yaylov-og'il tizimiga mos ravishda boqiladi. Qo'tonda boqish davrida qo'ylar ostiga qalin to'shama solinadi. Qo'ylar faqat qishning sovuq kunlarida qo'tonga kiritiladi. Sovliqlarning yiliga fiziologik imkoniyati darajasida qo'zi berishishiga erishish uchun ularni bir yilda ikki marta kuzda va bahorda qo'zilashini ta'minlash zarur. Qo'zilar onasi bilan 3–4 oy muddat ichida birga boqiladi. Agar sovliq ikkita va undan ortiq qo'zilagan bo'lsa, u holda bu qo'zilar sun'iy ravishda oziqlantirib o'stiriladi. Bahorgi qo'zilarning baquvvat,



13-chizma. Sovliqlarning bolalash xonasi.


**a**—loyiha; **b**—qirqim:

1—qo‘ylarni saqlash joyi; 2—tug‘ish uchun issiq joy; 3—omixta yemlarni saqlash xonasi; 4—yordamchi xona; 5—tambur; 6—ot yoki boshqa hayvonlarni saqlash xonasi; 7—ozuqa tayyorlash xonasi; 8—ozuqa saqlash xonasi; 9—inventar xonasi.

yaxshi rivojlanganlaridan 30 bosh to‘qli ajratib olinadi va podani to‘ldirishga qoldiriladi. Qolganlari 8 oy mobaynida go‘sht va teri olish uchun boqiladi.

Ozuqa qo‘ylarga harakatli yoki qo‘l transportyorlarida tarqatiladi. Sug‘orish qo‘tonda va yayratish qo‘ralarida joylashgan avtosug‘orgichlar yordamida bajariladi. Go‘ng qo‘tondan yiliga ikki marotaba qo‘lda va yayratish-ozuqalantirish qo‘rasidan buldozer yordamida tozalanadi. Qo‘ylarning juni bir yilda uch marta elektr jun qirqish agregatlari bilan qo‘tonda olinadi.

Otxilikda otxona, otxona-yaylov (bahordan kuzgacha) va yaylovda (yil bo‘yi) asrash usullari mavjud. Nasl olinadigan biyalar, ayg‘irlar va mashq qiladigan toydar uchun 35x35 m, bir yarim yoshgacha toylargacha 2,5x3,0 m, yirik zotli otlar uchun 1,75x3,0 m, maydalari uchun 1,6x2,85 m o‘lchamli o‘ralgan og‘illardan foydalaniadi. Otxona 2 qatorli qilib quriladi. O‘rtasidagi yo‘lakcha kengligi 2–3 m, uning ikki tomoni o‘ralgan og‘illar bo‘lib, umumiyl maydonchalarga esa oxurlar o‘rnataladi. Otxonalar umumiy tarzda 40–




#### **14-chizma. 50 bosh biyaga mo‘ljallangan ferma bosh loyihasi:**

1–50 bosh biya otxonasi, qimiz ishlab chiqarish sexi bilan; 2–ayg‘irlar uchun yayratish maydonchasi (poddon); 3–biya va toylar uchun yayratish maydonchasi (poddon); 4–otlar uchun qo‘ra; 5–ferma xizmatchilari uyi; 6–donli, sochiluvchi ozuqalar ombori; 7–silos xandag‘i; 8–dezbarer; 9–torozixona; 10–hayvonlarni yuklash estakadasi; 11–ferma o‘rov; 12–avtomobillar uchun turar joy; 13–go‘ngni yig‘ish maydonchasi; 14–lavlagilarni saqlash maydonchasi; 15–yem-xashakni saqlash maydonchasi.

100 bosh otga mo‘ljallab quriladi. Biyalar umumiy maydonda erkin holda yoki qo‘lda qochiriladi. Ular aprel, may oylarida qulunlaydi. Toylar sakkiz oydan so‘ng og‘irligi o‘rtacha 220 kg ni tashkil etganda biyadan ajratiladi. So‘ngra toylar fermaga o‘sirish va bo‘rdoqi uchun yuboriladi. Yozgi mavsumda biyalar 25 tadan qilib doimiy ravishda yaylovda saqlanadi. Faqat sog‘ish davrida ferma ga keltirilib, yopiq yayratish maydonchalarida saqlanadi. Ayg‘irlar, biyalar va toylar og‘ilda boqilganda yem-xashak, suvli-shirali va konsentrat ozuqalar bilan boqiladi. Ozuqa ot-arava yoki traktor tirkamalarida tarqatiladi.

Barcha otlar guruh yoki individual avtosug‘orgichlarda sug‘-oriladi. Yayratish maydonlarida biyalar va toylar guruh shaklida quyuluvchi sug‘orgichlarda sug‘oriladi. O‘ralgan og‘illardan va guruh seksiyalaridan go‘ng har kuni qo‘lda tozalanib, ot-arava yordamida tashib chiqariladi. Biyalarni sog‘ish davomiyligi 240 kun. Sog‘ish biyaning qulunlaganidan so‘ngra 25-30 kun o‘tgach boshlanadi. Biyalarni sog‘ish kuniga olti marta sog‘ish apparatlari yordamida kun tartibiga ko‘ra har 3 soatda o‘gkaziladi. Sog‘ilgan sut qimiz sexiga ishlov berish uchun jo‘natiladi.



**15-chizma. 50 bosh biya otxonasi, qimiz sexi bilan:**


a—binoning oldi ko‘rinishi (fasad); b—joylashish loyihasi; d—I-II qirqim;  
 I—biyalarni boqish guruh sekxiyalari; 2—toylarni boqish guruh sekxiyalari;  
 3—ayg‘irlar uchun joy (дэнник); 4—biya og‘ili (дэнник); 5—o‘tish joylari;  
 6—sog‘ish maydonchasi; 7—ozuqa xonasi; 8—inventar xonasi; 9—tamburlar;  
 10—xizmatchilar xonasi; 11—achitqi tayyorlash xonasi; 12—ishlab chiqarish  
 xonasi; 13—yuwish xonasi; 14—idish va inventarni saqlash xonasi;  
 15—ekspeditsiya xonasi; 16—sovutish kamerasi va qurilmalari; 17—elektr  
 shit xonasi; 18—qozonxona; 19—ventkamera; 20—vakuumnasos xonasi;  
 21—hojatxona; 22—koridor; e—texnologik jihozzlarni joylashish loyihasi:  
 1—individual avtosug‘orgich; 2—maishiy chang yig‘gich; 3—bakteritsid  
 nurlatgich; 4—universal qo‘l aravachasi; 5—sog‘ish qurilmasi; 6—rotatsion  
 butilka yuvish mashinasi; 7—sut nasosi; 8—uzoq pasterizatsiya qilish vannasi;  
 9—achitqi tayyorlash vannasi; 10—quyish-yopish mashinasi;  
 11—sut qabul qilish baki; 12—flyaga; 13—sovutish kamerasi; 14—shkaf;  
 15—stol; 16—guruh suv sug‘orgichi.

Parrandaxona va parranda fermalarini qurishda parrandalar ni saqlash va yetishtirish usuliga mos ravishda ular uchun zarur bo‘lgan me’yoriy maydon yuzasini bilish zarur.

12-jadval

### Yerda boqishda parrandalarga zarur bo‘lgan me’yoriy maydon, m<sup>2</sup>

Tovuq	O’rdak	G’oz	Kurka	Marjon tovuq (sesarka)
0,25	0,4	0,8	0,7	0,2



16-chizma. 50 ta makiyon va 140 ta yosh tovuqni saqlash tovuqxonasi:  
a—tovuqxona loyihasi; b—tovuqlar boqiladigan binoning umumiy ko‘rinishi;

I—inventar va ozuqa xonasi; II—yosh tovuqlarni yetishtirish binosi;  
III—tovuqlarni saqlash binosi; 1—sug‘orgich; 2—mineral ozuqlar oxuri;  
3—qo‘noqlar; 4—jo‘jalarni isitgich reflektor; 5—taxta; 6—quruq ozuqa oxuri;  
7—aralash ozuqa oxuri; 8—kirib-chiqish darchasi; 9—nazorat qilish uyasi va  
qum-kul vannasi; 10, 11—deraza.

Har bir parrandaxonada yirik parranda va jo‘jalarning yoshi-ga qarab ayrim joylar belgilanishi lozim. Ularni barchasini bir binoda ushslash noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki yosh parrandalarni o‘sishi jarayonida ularning tanasida yuzaga keladigan mikroflo-ra xavf tug‘dirmaydi, lekin hali tanasi kuchga kirmagan yosh jo‘jalar uchun xavflidir.

50 ta makiyon va 140 ta yosh tovuqlar uchun mo‘ljallangan tovuqxona balandligi 2 m va 4x7,5 m o‘lchamli taxta to‘silqlarida yasalgan binodan iborat (16-chizma).

Tovuqxona enlama to‘silqlar bilan uchta ayrim xonaga bo‘lingan. I – ozuqa va inventarni saqlash xonasi; II – yosh tovuqlarni yetish-tirish xonasi; III – tovuqlar xonasi. Parrandalar joylashgan xonalar 300x300 mm o‘lchamdagи darchalar va shamollatish tizimi bilan ta’minlangan.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Fermer xo‘jaligini loyihalashtirish deb, nimaga aytildi?
2. Ferma loyihasini texnik-iqtisodiy asoslashda qanday omillar hisobga olinadi?
3. Ferma xo‘jaligi uchun joy qanday tanlanadi va ferma hududi qanday bo‘linmalardan iborat?
4. 100 bosh sog‘in sigirga mo‘ljallangan fermadagi hayvonlar struk-turasi soni va ular uchun zarur yer maydonini hisoblang.
5. 10 bosh sog‘in sigirga mo‘ljallangan oilaviy sutchilik fermasini ta’riflab bering.
6. 48 o‘ringa mo‘ljallangan sigirlar tug‘ruqxonasini vazifasi nima va qanday tuzilgan?
7. 100 bosh sovliqqa mo‘ljallangan tugallangan ishlab chiqarish siklidagi ishlab chiqarish texnologiyasini tushuntiring.
8. Otchilikda asrash usullari, saqlash texnologiyasini tushuntiring.

### **1.3. OZUQA SAQLASH INSHOOTLARINI LOYIHALASHTIRISH VA HISOBBLASH**

Ozuqa saqlash inshootlarini loyihalashtirish va hisoblashda fermadagi mayjud hayvon turi va bosh soni *m*, ratsion asosida sutkalik ozuqa berish miqdori *n*, fermada hayvonlarni og‘ilda saqlash davri *t* hamda zaxira oziqni qo‘shib hisoblab topiladi.

Sutkalik iste'mol qilinadigan ozuqa miqdori

$$R_s = n_1 \cdot m_1 + n_2 \cdot m_2 + \dots + n_n \cdot m_n = \sum n_i \cdot m_i.$$

Ozuqaga bo'lgan yillik ehtiyoj:

$$R_y = R_s \cdot t_b \cdot k + R_q \cdot t_y \cdot k,$$

bu yerda:  $R_s$  va  $R_q$  – yozgi va qishki davrdagi bir kunlik ozuqa sarfi;  $t_b$  va  $t_y$  – ozuqadan yozgi va qishki foydalanish kunlari soni.  $k$  – ozuqani tashish va saqlash davrida uni yo'qolishini inobatga olish koeffitsiyenti (konsentratsiyalangan ozuqalar uchun  $K=1,01$ ; lavlagi, ildizmeva ozuqalar uchun  $K=1,03$ ; silos uchun  $K=1,1$ ; yashil massa uchun  $K=1,05$ ). Qishki og'ilxonada saqlanadigan kunlar soni 245–270 kun va yozgi mavsum 90–120 kun oralig'ida olinadi.

Oziqlarni yo'qotmasdan saqlashda inshootlarni to'g'ri tanlash katta ahamiyatga egadir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, qoplama ega xandaqlarda ozuqa siloslanganda yo'qotish 10–25 foizni, oddiy xandaqlarda 15–25 foizni, minoralarda 10–11 foizni tashkil etar ekan. Silos bosish texnologiyasi buzilgan hollarda bu ko'rsatkich 40 foizgacha ortadi. Dag'al ozuqalar, yem-xashak, somon g'aram holida saqlanadi.

*13-jadval*

### **Silos saqlash xandaqlari sig'imi va ulardan foydalanish ko'rsatkichi**

Saqlash xandag'i turi	Sig'imi $V_x$ , M <sup>3</sup>	E
Silos va senaj xandag'i	500, 700, 1000, 1500, 2000, 3000, 4000, 5000, 6000	0,95-0,98
Minora	420, 600, 900, 1200, 1600, 2000, 2700, 3700, 4200	0,95-0,98
G'aram	1000, 1500, 2000, 3000, 4000	1,0
Lavlagi xandag'i yoki to'plami	150, 200, 250, 300, 350, 400, 450, 500	0,85-0,90
Konsentrat ozuqa ombori	500, 1000, 1500, 2000, 2500, 3000, 3500, 4000, 5000, 6000	0,65-0,75

Talab etiladigan saqlash inshootlari soni:

$$N = V / (V_x \cdot E)$$

bu yerda:  $V_x$  – saqlash inshooti sig'imi, M<sup>3</sup>;  $E$  – saqlash inshooti sig'imididan foydalanish koeffitsiyenti.

*14-jadval*

### Saqlash inshootlarining tavsiya etilgan o‘lchamlari

Saqlash inshooti	Kengligi, m	Balandligi, m
Silos xandag‘i	12-18	2-3
Senaj xandag‘i	6,9,12,16	2,5-3
Pichan g‘arami	5-8	2-6
Somon g‘arami	5-8	4-6

Saqlagich inshootining sig‘imi, balandligi va kengligi tanlan-gandan so‘ng uning uzunligi aniqlanadi, m.

$$L = V_x / (B \cdot h),$$

bu yerda: B – saqlagich kengligi, m; A – saqlagich balandli-gi, m.

Fermada konsentrat ozuqalarga zaxirasi ehtiyojning 16 foiz miqdorida saqlanadi. Inshootning o‘lchamlari qabul qilingandan so‘ng unda saqlanadigan ozuqani hajm zichligini bilgan holda har bir inshootda saqlanishi mumkin bo‘lgan ozuqaning miqdorini hi-soblab topishimiz mumkin.

*15-jadval*

### Ozuqalarning saqlashdagi hajm zichligi, kg/m<sup>3</sup>

Ozuqa	Zichligi
Zichlanmagan pichan	65-120
Senaj	250-300
Zichlangan pichan	250-320
Silos	650-700
Somon:	
maydalanmagan (sochilgan holda)	30-40
maydalangan (sochilgan holda)	60-80
zichlangan	120-220
O‘t uni	180-200
Omixta yem:	
sochilgan holda	500-650
granul	650-790
Makkajo‘xori doni	70-750
Suli	400-550

## 15-jadvalning davomi


Ozuqa lavlagi	570-700
Bug‘doy	650-830
Kepak	180-440
Yangi o‘rilgan ko‘k o‘t	270-300

Silos va senaj xandaqlarini qurishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- konservatsiyalangan mahsulotlarda mikroblarni rivojlanishi mumkin bo‘lgan havo kirishidan saqlash;
- siloslash jarayonida silos sharbatini xandaqdan tashqariga chiqmasligini, xandaq ichiga suv tushmasligini ta’minlash;
- xandaq devori va tubining materiallari 2-3 foiz konsentratsiyali sut va uksus ishqoriga chidamli bo‘lishlari hamda silos sifatiga ta’sir ko‘rsatmasligiga;
- devorlari tekis bo‘lib, uni dezinfeksiya qilish va siloslash hamda silosni kavlab olish jarayonlarini mexanizatsiyalashga e’tibor berishi.

Silos xandaqlari yerga to‘la chuqurlatib, yerga yarim chuqurlangan holda va yer ustiga quriladi. Xandaq turi yer osti suvlarining yaqin uzoqliligiga qarab tanlanadi. Chuqur xandaqlarning ikki tomoni mashinalarning kirib chiqishi uchun 1:5 qiyalikda tayyorlanadi. Xandaqlarning yon devorlari yer sathidan 0,15-0,20 m balandlikka ko‘tariladi. Xandaqning ikki yonidan yog‘ingarchilik suvlarini chetlatish uchun ariqchalar qoldiriladi. Bunday xandaq uchun yer osti sizot suvlarini chuqurligi kamida 4,2 m bo‘lishi lozim.

Yer ustagi silos xandaqlarining qurilish konstruksiyalari statsionar va ayrim hollarda tashib yurish uchun qulay bo‘lakli bo‘ladi (17-chizma).



**17-chizma. Yer ustiga qurilgan silos xandag‘ining konstruktiv elementlari:**  
 1-tayanch qurilmasi; 2-temirbeton devor; 3-nishab qurilmasi;  
 4-zichlangan tuproq; 5-tashqi muhit suvlarini chetlatish arig‘i.

Xandaq devorlari tashqariga 1:10 qiyalikda o‘rnataladi. Devorlarni tayyorlashda temirbeton, beton, tosh va g‘isht materiallaridan foydalanish mumkin. Devorlarni mustahkamligini ta‘minlash maqsadida har 3–4 m oraliqda tayanch qurilmalari o‘rnataladi.


Ildizmevali ozuqa saqlash inshootlari ham silos xandaqlari kabi yerga chuqurlatib, yarim chuqurlangan va yer usti holatida quriladi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR


1. Talab etilgan ozuqani saqlash xandaqlari, g‘aramlari qanday hisoblanadi?
2. Saqlagich xandag‘i uzunligi qanday aniqlanadi?
3. Xandaqlarni qurilishiga qanday talablar qo‘yiladi?

### 1.4. CHORVA BINOLARINI LOYIHALASHTIRISH VA JIHOZLASH


Mamlakatimizda ko‘p xonadonlar ayniqsa, qishloq aholisining aksariyati 1–2 bosh sog‘in sigir va 1–2 ta buzoq boqadi. Bu qoramolni boqish uchun uncha katta bo‘lmagan molxona zarur. Molxonadagi og‘il 1,8–2,0 m uzunlikda va 1,4 m kenglikda, yon tomoni to‘sig‘ini balandligini 1,5 m qilib yasaladi. Buzoqlari bo‘lgan holda og‘il o‘lchami kattaytirib olinadi (18-chizma).



18-chizma. Kichik xo‘jaliklarda qoramolni saqlash og‘ilining loyihasi:  
a—bitta sigirga; b—sigir buzoqlari bilan bo‘lganda;  
d—sigir emizikli buzog‘i bilan.



**19-chizma. Hayvonlarni yoshiga (qoramol) va og'irligiga (cho'chqalar) qarab o'lchamlarini o'zgarishi.**



T1-T3—buzoqlar; MKPC1-MKPC3—yosh qoramollar;  
OKPC1-OKPC3—bo'rdoqidagi qoramollar.

Yirik fermalarda hayvonlar yoshiga mos ravishda guruhlariga bo'linadi. Bu hollarda ular uchun og'illar o'lchamini tanlash hayvonlar yoshi va jussasini o'lchamlariga mos ravishda o'tkaziladi (19, 20-chizmalar).

Chorvachilik binosi ayrim burchaklar, hududlar va texnologik elementlardan tashkil topadi. **Texnologik elementlar** og'illar, bokslar, individual va guruh stanoklari, seksiyalar, katakl batareyalar hamda sug'orgichlar, oxurlar, individual va guruh bog'lagichlari, ozuqa va go'ng yo'llarini o'z ichiga oлади. Texnologik elementlar konstruksiyasi, shakli va hayvonlarni saqlash texnologiyasi, o'lchami hamda mexanizatsiyalash jaryoniga qarab farqlanadi.

Og'illar go'ng arig'i bilan bog'lagich qurilmasi oralig'ida joylashadi. U hayvonni toza, issiq saqlanishini ta'minlaydi. Og'illar yuqorida qayd etilgan hayvonlar yoshiga va o'lchamiga mos ravishda tanlanadi.

**20-chizma. Bog'lamay boqishda qoramol og'ili (boksi) o'lchamlari:**  
1-dam olish boksining uzunliga, mm;  
2—to'la teshik pollarda stanok maydoni, m<sup>1</sup>; 3-dam olish boksining kengligi, m<sup>2</sup>; 4—oxurning kengligi, m;

**Bog'lagichlar** – hayvonlarni bir joyda turishi, oxurga, go'ng arig'iga oyoqlari bilan tushib ketmasliklarini va og'ilga nisbatan ko'ndalang yotib qolmasligi uchun xizmat qiladi. Hayvonlar bo'ynidan bog'ichlar yordamida oxurning va og'ilning tirkamasiga bog'lab qo'yiladi (21-chizma).


Bog'ichlar sigirni bo'g'masligi, ularni erkin suv ichishi va oziqlanishiga, yotib dam olishiga, turishi-ga halaqit bermasligi lozim. Xonadonlarda shoxli sigirlar shoxidan bog'lab boqiladi. Bog'lagichlar qattiq (xomutli yoki ramali) va zanjirli (ikki yoki uch tomonli) bo'lishi mumkin (22-chizma).

**Oxur** o'lchamlari va shakli hayvonlarni ozuqaga to'la yeta olishi va oxirigacha qoldirmay iste'mol qila olishini ta'minlashi zarur (23-chizma).


**Ozuqa yo'lkasi** – ozuqalarni tashish va tarqatish uchun xizmat qiladi. Uning kengligi tarqatuvchi vositaning harakat g'ildiraklari kengligida tanlanadi. Traktorli tirkama tarqatgichlar uchun yo'lak kengligi 2–2,3 m, tor koleyada 1,2–1,6 m, harakatlanuvchi elektr karalari uchun ham 1,2–1,6 m qabul qilinadi. Stationar holda oxur ichida joylashgan tasmali transportyorlar bilan ozuqa tarqatilganda, ularni vaqtida tozalab turish va texnik xizmat ko'rsatish uchun yonida 1–1,2 m kenglikda ozuqa yo'li qoldiriladi.

**Bokslar** – hayvonlarni bog'lamay boqish tizimida bog'lamasdan yayratib boqib, so'ngra dam olishida foydalaniladi. Mahsulot ishlab chiqaruvchi va nasldor sigirlar uchun individual bokslar uzunligi 1,9–2,1 m, kengligi 1,0–1,2 m va to'siqlarining balandligi 1,0 m qabul qilinadi (24-chizma).

**Yosh buzoq katagi.** Yosh buzoqlar tug'ilishi bilan ikkinchi kundan boshlab profilaktoriyada joylashgan katakka joylashtirilib, 10–




21-chizma. Individual holda sigirlarni og'ilda qo'lda bog'lash va mexanizm yordamida yechishni ta'minlovchi bog'lagich ko'rinishi: 1—bog'lash turnigi; 2—suv ta'minoti quvuri; 3—guruh tarzida bog'lagichdan bo'shatuvchi tortqi; 4, 5—qamrab oluvchi individual zanjir; 6—tirkak; 7—avtosugorgich; 8—go'ng tozalash arig'i; 9—og'il; 10—oxur.




*22-chizma. Qoramollarni og'ilda bog'lab boqish qurilmalari:*


a—xomutda guruhli bog'lash; 1—avtosug'orgich; 2—karkas; 3—guruhli bog'lash mehanizmi; 4—bo'yin ramasi; 5—havo va sut quvurlarini mustahkamlash kronshteyni; 6—bog'lagichlarni harakatga keltirish uzatmasi; 7—chegaralash zanjiri; b—zanjirli guruh bog'lagichi; 1—og'il ramasi; 2—boshni chegaralagich; 3—kronshteyn; 4—sozlash plankasi; 5—og'il ramasini chegaralagich; 6—yon to'siq.



*23-chizma. Sigir oxuri: a—oxurning yon ko'rinishi; b—sigirning oziqlanishi; 1—sigir yag'ini; 2—oziqlanish hududi.*



*24-chizma. Sigirlar uchun boks.*



*25-chizma. 20 kunlik buzoqlar uchun katak.*

20 kunligigacha boqiladi. Kichik fermer xo‘jaliklarda yog‘ochdan tayyorlanadigan kataklardan foydalanish mumkin (25-chizma).


20 kunlikdan katta buzoqlar 10–20 tadan qilib, guruh kataklarida saqlanadi. Buzoqlarning yoshi kattarishi, vaznining ortishi bilan ular ayrim guruh seksiyalarida saqlanadi.

#### *16-jadval*

#### **Qo‘ylarni qo‘tonda boqishdagи me’yoriy maydon, m<sup>2</sup>/bosh**

Qo‘y guruhlari	Mahsuldarlik yo‘nalishi		
	Qorako‘l va go‘sht-yog‘	Mayin junli	Po‘stinbop va go‘sht-jun-yog‘-sut
Qo‘chqorlar	2-3	1,9-3,1	2-3
Sovliqlar 45 kunlik qo‘zilari bilan	1,1-1,3	1,8-2,2	2,2
Bo‘g‘oz sovliqlar	0,8-0,9	1,4-1,7	1,7
Qisir sovliqlar	1,0	1,0	1,0
45 kunlik qo‘zilar	0,3	0,3	0,3
Bir yoshgacha to‘qlilar	0,6-0,8	0,6-0,8	0,8
45 kundan 4 oylikgacha bo‘lgan qo‘zilar	0,4	0,4	0,4

Ona echki bino ichida saqlanganda unga uloqlari bilan birga 2,0–2,5 m<sup>2</sup>, qisir echki uchun – 1,5 m<sup>2</sup>, takas uchun – 2,0 m<sup>2</sup> va yoshli uloqlarga 1,0–1,5 m<sup>2</sup> me’yoriy maydonchalar ajratiladi.



*26-chizma. Ishchi ot og‘ilining ko‘rinishi.*

qismiga yem-xashak solinadi.

Zotdor otlar, ayg‘irlar va emizikli biyalar uchun atrofi to‘silgan, uzunligi 3,5–4,0 m va kengligi 3,0–3,5 m bo‘lgan va ichida oxur va suv ichish moslamasi o‘rnatilgan og‘illardan foydalaniлади.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Qoramol uchun qanday o‘lchamdagи og‘illar tanlanadi?
2. Hayvonlarning yoshiga qarab og‘il o‘lchami aniqlanishini tu-shuntirib bering.
3. Chorva binosining texnologik elementlariga nimalar kiradi?
4. Bog‘lagichlarning vazifasi va ularning qanday turlari mavjud?
5. Bokslarning vazifasi va ularning o‘lchamlari qanday?
6. Qo‘ylar, echkilar va ishchi otlarni boqish me’yoriy maydonlari ni tushuntirib bering.

## 1.5. CHORVA BINOLARINI SHAMOLLATISHNI HISOBBLASH. SHAMOLLATISH TIZIMI VA JIHOZLARI

**Chorvachilik binosi mikroiqlimi** – fizik-kimyoviy omillar ta’sirida ichki havoning o‘zgarishidir. Mikroiqlimga havoning harorati, nisbiy namligi, harakat tezligi, kimyoviy tarkibi, chang va mikroorganizmlarning mavjudligi ta’sir ko‘rsatadi.

Havoning kimyoviy tarkibini baholashda, organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini susaytiruvchi zararli ammiak, vodorod sulfidi, uglerod oksidi va is gazlarining miqdori o‘rganiladi.

Shu bilan birga mikroiqlimning hosil bo‘lishiga yoritilganlik, texnologik jihozlarning ichki sirti harorati, havoning ionlashuvi kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Chorva binolarini texnologik loyihalashtirish me’yorlari mikroiqlim ko‘rsatkichlarini zootexnik va sanitар-gigiyenik talablari asosida belgilab beradi. Unda bino ichidagi havoning nisbiy namligi, harorati, tezligi va tarkibidagi zararli gazlarning ruxsat etilgan chegaralari, miqdori ko‘rsatiladi.

Mikroiqlimni hosil qilish chora-tadbirlari o‘z ichiga tashqarida kirayotgan havoni changdan tozalash, hidini yo‘qotish (dezodoratsiya), zararsizlantirish (dezinfeksiya), isitish, namlash (quritish) va sovutish kabi jarayonlarini oladi.

Mikroiqlimni belgilangan me’yorlardan cheklanishi sut olishni 10–20 foiz, semirishni 20–30 foiz, yosh mollar rivojini 5–40 foiz, tuxum berishni 30–35 foiz tushirib yuboradi. Ozuqalar sarfi oshadi, mashina jihozlar va binoning foydalanish muddati qisqaradi.

*17-jadval*

### **Chorvachilik binolarida me’yoriy mikroiqlim ko‘rsatkichlari**

Inshoot	Bino ichidagi optimal harorat, K	Nisbiy namlik, foiz	Havoning harakat tezligi, m/s	Yoritilganlik, lk
Molxona	281-289	80	0,4-0,5	50-70
Bo‘rdoqi buzoqxona	281-291	80	0,3	20-30
Ona cho‘chqaxonasi	288	70	0,8	75
Bo‘rdoqi cho‘chqaxona	288	75	0,3	50
Qo‘ton	278	75	0,5	30
Tovuqxona, yerda boqqanda	285-297	70	0,3	15

*18-jadval*

### **Gazlarning inshootlar ichida ruxsat etilgan miqdori**

Zararli gazlar	Inshoot	
	Chorvachilik	Parrandachilik
Is gazi, %	0,25	0,18-0,20
Ammiak, mg/dm <sup>3</sup>	0,02	0,01
Vodorod sulfidi, mg/dm <sup>3</sup>	0,01	0,005

## Shamollatishni hisoblash

Chorva binosida hayvon tirik vaznining har 100 kg uchun almashinishi lozim bo‘lgan havo hajmi zootexnik talablarga ko‘ra quyidagicha hisoblanadi:

$$V_{\min} = 0,01 \cdot L \cdot m \cdot G, \text{ kg/m}^3,$$

bu yerda:  $L$  – 100 kg tirik vaznga almashinishi lozim bo‘lgan havo me’yori,  $\text{m}^3/\text{soat}$ ;  $m$  – bino ichidagi hayvonlar bosh soni, bosh;  $G$  – bir hayvonning o‘rtacha tirik vazni, kg.

Binoda bir soat ichida yig‘ilgan va almashinishi lozim bo‘lgan Havo hajmi  $V_{\min}$  ni, binoning foydali hajmi  $V_f$  ga nisbati *havo almashinish darajasi* deyiladi.

$$k_f = \frac{V_{\min}}{V_f}.$$

Bu ko‘rsatkich bir soat ichida binodagi havoning qancha marta almashinishi lozimligini ifodalaydi. Chorvachilik binolari uchun  $k_f = 3-4$  qabul qilinadi. Koeffitsiyent qiymati 5–6 dan oshmasligi lozim. Aks holda shamol tezligi belgilangan me’-yordan ortib ketadi.

Havo almashadigan kanallarning umumiy kesim yuzasi  $F$  quydagicha topiladi:

$$F = V_{\min} / 3600 \cdot v,$$

bu yerda:  $v$  – havoning kanal balandligiga mos ravishda harakatlanish tezligi ( $\text{m/s}$ ).

Havoning kanal ichida harakat tezligi quyidagicha topiladi:

$$v = 2,2\sqrt{H \cdot (T_i - T_t) / 273}$$

bu yerda:  $H$  – so‘rish kanali balandliga,  $\text{m}$ ;  $T_i - T_t$  – ichki va tashqi havo farqi.

Oqib kirish va so‘rish shamollatish tizimidagi 7 m balandlikdagi so‘rish kanallari mavjud molxonada havo tezligi 0,94–1,42  $\text{m/s}$  tashkil etadi. Bunda havo almashinish darajasi 3,7–5,5 marta teng.

Ventilyatsiya kanallari soni:

$$n = F / f,$$


bu yerda:  $f$  – havo oqib kirish kanali kesim yuzasi,  $\text{m}^2$ .

**Ventilyatsiya tizimlari** shamollatish shakli bo'yicha: tabiiy, mekanik tarzda yoki aralash holda bo'ladi. Turli chovachilik inshootlarida mikroiqlimni tashkil etish 27-chizmada keltirilgan.

Chovachilik va parrandachilik inshootlarini shamollatish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:


Havo oqib kiruvchi kanallar bino ichining tepe yoki o'rtaligiga joylashtirilib, havo oqimi yo'nalishini o'zgartirishga imkon beruvchi moslamalar (deflektor) bilan ta'minlanishi zarur.

Havoning tashqariga so'rilib chiqishini ta'minlovchi kanallar binoning pastki qismida yoki pol ostida joylashtiriladi. Havo kiruvchi va chiquvchi kanallarning qarama-qarshi holatda 2,5 m kam masofada joylashishi mumkin emas.



27-chizma. Turli chovachilik inshootlarida mikroiqlimni tashkil etish tizimlari:

a—qoramollarni bog'lab va bog'lamay boqish tizimlarida; b—go'ngni pol ostida saqlash chorva inshootida; d—24 ming boshga mo'ljallangan cho'chqachilik kompleksida; e—108 ming bosh cho'chqachilik kompleksida; 1—kalorifer; 2—havo kiritish ventilyatori; 3—havo quvuri; 4—so'rish shaxtasi; 5—darcha; 6—so'rish kanali; 7—so'rish ventilyatori; 8—so'rish tizimidagi havo quvuri; 9—ventilyatorli so'rish shaxtasi; 10—so'rish kanallari; 11—shamollatash-isitish agregatlari.



**28-chizma. Mo‘ri orqali tabiiy shamollatish shakli.**

Tabiiy shamollatish ichki va tashqi havoning harorati farqi va havo zichligini o‘zgarishi natijasida amalga oshiriladi (28-chizma). Tabiiy ventilyatsiya havoning tortilishiga qarab quvurli yoki quvursiz bo‘ladi. Quvursiz ventilyatsiya oddiy – oyna, darcha va derazalarni ochilishi asosida amalga oshiriladi.

Quvurli ventilyatsiya havoning kirishi, so‘rib chiqarilishida ham ishlaydi. Bu ventilyatsiya tashqi havo harorati 286 K bo‘lganda, samarali ishlaydi. Mamlakatimizda havo almashinishini ta’minlash uchun tashqaridagi havoni ichkariga kiritish uchun ventilyatorlaridan foydalaniladi.

### **Mexanik holda isitilgan havo bilan shamollatish tizimi**


Mexanik holda shamollatish tabiiy tizimga nisbatan samaralir-oq hisoblanadi. Bu tizimdan yirik chorvachilik fermalarida foydalanish, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Toza havoga markazlashgan holda mexanik tarzda ishlov beriladigan (isitish yoki sovutish) va havo quvurlari orqali teng taqsimlanadigan tizim quyidagicha bo‘ladi (29-chizma, a, b): a – tizimi qoramolchilik fermalarida, b – tizimi parrandachilik va cho‘chqachilik fermalarida foydalanishi tavsiya etiladi. Markazdan qochma holda mexanik shamollatish tizimi (29-chizma d, e) quyidagicha bo‘ladi: d – tizimi asosan, cho‘chqachilikda va e – tizimi cho‘chqachilik va qoramolchilikda foydalaniladi.

Kirayotgan havo oqimini taqsimlovchi quvurlarni arzon sintetik materiallardan tayyorlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Qishki mavsumda bino ichiga kirayotgan havo oqimini isitish uchun elektrokalarifer, suv kaloriferi va issiqlik generatorlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Havo haroratiga qarab shamollatish tizimini rejimini o‘zgartirish imkonи bo‘lishi kerak.



**29-chizma. Mexanik ta'sir hamda havoni isitish yordamida shamollatish tizimlari:**

a—havoni markazlashgan holda kiritish va tabiiy so'rib chiqarish tizimi;  
 b—o'qbo'ylab yo'nalgan ventilyatorlar yordamida markazlashgan holda havoni kiritish va so'rish tizimi; d—kiritish-so'rish qurilmalari yordamida markazlashmagan tizim; g—elektrokalarifer agregatlar yordamida havoni markazlashmagan holda kiritish va so'rib chiqarish; 1—so'rish shaxtasi;  
 2—havo kiritgich; 3—go'ng ariqlaridan havoni so'rish; 4—deraza orqali havo kirishi; 5—havo kirish shaxtasi; 6—so'rish o'h ventilyatori; 7—kiritish-so'rish qurilmasi; 8—elektrokalarifer agregati; 9—kiritish ko'ndalang havo yo'li.

### Ventilyator qurilmalari va ventilyatorlar


Ventilyator qurilmalari tarkibiga ventilyator, ventilyatsiya quvurlari (so'rvuchi va haydovchi), havo qabul qiluvchi kiradi.

Ventilyator — havoni majburiy siljituvchi mashina bo'lib u korpusga o'rnatilgan ishchi g'ildirak va harakatga keltiruvchi elektr-yuritgichdan tashkil topgan. G'ildirakka kurakchalar o'rnatilgan. Aylanish davrida kuraklar havoni so'riliши va haydalishini ta'minlab beradi.

Ventilyatorlar markazdan qochma va o'q yo'nalish turlariga bo'linadi. O'q ventilyatorlarning ishchi g'ildiragi silindrik korpus ichida joylashgan. G'ildirak aylanganda uning kurakchalari havoni so'rib, o'q yo'nalishida zo'riqtirib haydaydi. O'q ventilyatorlari 490–500 Pa bosimda  $120000 \text{ m}^3/\text{soat}$  hajmida havoni haydaydi. Markazdan qochma ventilyatorlar ko'p hollarda so'rish-isitish-shamollatish tizimlarida qo'llaniladi.

Aralash shamollatish tizimida ventilyator orqali so'rilgan tashqi

havo (30-chizma) elektrokalorifer orqali o'tib, havo quvuri orqali shamollatish tizimiga uzatiladi, shamollatish tizimida havo yig'gich orqali kelayotgan sovuq havo bilan aralashib, oxurlar tagida joylashgan darcha orqali binoga kiradi. So'rvuchi ariqlar go'ng o'tish joyida joylashgan.



*30-chizma. Aralash shamollatish tizimi;*

1—oxur; 2—havo quvuri; 3—so'rish arig'i yuzasini chegaralagich; 4—boshqarish pulti; 5—elektroisitgich; 6—devor; 7—ventilyator; 8—tashqari havo so'rvuchi mo'ri; 9—quduq-lyuk; 10—oqib keluvchi havo darchasi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Chorvachilik binosida mikroiqlim tushunchasini ta'riflab bering.
2. Molxonada me'yoriy mikroiqlim qanday ko'rsatkichlarga ega?
3. Almashinishi zarur havo hajmi qanday hisoblanadi?
4. Bir soat vaqt mobaynida chorva binosi havosi me'yoriy ravishda necha marta almashinishi mumkin?
5. Chorva inshootlarida mikroiqlimni tashkil etish tizimi turlari va ularga qo'yilgan talablar nimadan iborat?
6. Mexanik holda isitilgan havo bilan shamollatish tizimini bayon eting.
7. Ventilyatorning vazifasi va turlarini so'zlab bering.

## **2-BO'LIM**

### **FERMANING SUV TA'MINOTI VA LOYIHALASHTIRISH**

#### **2.1. SUV, UNING SIFATI, TALABNI HISOBLASH VA LOYIHALASHTIRISH**

Suv bu obi-hayot. Mamlakatimizda suvning xalq xo'jaligida ahamiyati juda kattadir. Chorvachilikda suv hayvonlarni sug'orish, ozuqa tayyorlash, go'ngdan tozalash, sigirlarni sog'ishda profilaktik ishlarni olib borish (elinni, sut idishlarni, quvurlarni yuvish), molxonalarda sanatsiya ishlarni o'tkazish, xizmatchilarning maishiy ehtiyojlarini va boshqa bir qancha ishlarda foydalaniлади.

G. Brandning ma'lumotlariga ko'ra qoramol uchun ichimlik suvining harorati minimum 12 °C bo'lgani ma'qul. Suv harorati 10 °C dan tushganda suv iste'moli kamayadi, 6 °C da esa minimum qiymatiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday suvdan ham foydalanim bo'lmaydi. Ichimlik suvi shaffof, rangsiz bo'lib, hidi va ta'mi bo'lmaydi. Suv sifatini baholash uchun uning tarkibi fizik, kimyoviy, bakteriologik va radiologik jihatidan tahlil qilinadi.

*19-jadval*

#### **Iste'moldagi suvning tasnifi**

Modda	Ruxsat etilgan konsentratsiyasi, mg/l
Temir	0,1
Marganes	0,05
Rux	5,0
Qo'rg'oshin	0,1
Xlor-ion	175-300
Nitrat	20-40
Ftor-ion	1,0
Bir atomli fenol	0,0001
Kislород	6,0
Xlor	0,1
Margimush	0,05
Mis	3,0

Bu tahlillarda suvning rangi, ta'mi, harorati, kimyoviy elementlar mavjudligi, mikroorganizmlar bilan zararlanganligi, radioaktivligi o'rganiladi. Suvning rangi va ta'mi ballar bilan bahanadi, rangi 20 va ta'mi 2 balldan yuqori bo'lmasligi kerak. Suvning umumiy qattiqligi 7...14 mg ekv/l erigan tuzga teng bo'lishi va kimyoviy elementlar uchun ham belgilangan miqdordan ko'p bo'lmasligi lozim.

### **Suvga ehtiyojni aniqlash va loyihalashtirish asoslari**

Suvga ehtiyojni aniqlashda chorvachilik fermasidagi hayvonlar bosh soni, tarkibi, yoshi, boqish usuli e'tiborga olinadi. Chorvachilik fermasidagi suv iste'moli yil fasliga, oyiga hatto kuniga qarab doimo o'zgaruvchan bo'ladi. Shu sababli ham iste'moli uchun taviya etiladigan ko'rsatkichlar ma'lumotnomalarda suv sarfining bir kecha kunduzlik o'rtacha qiymati sifatida beriladi.

#### *20-jadval* **Hayvonlarga bir kecha kunduzdagি suv sarfi me'yori**

Hayvon turi	Bir boshga suv sarfi, l/bosh
1	2
Sut yo'nalishidagi sog'in sigirlar	100
Bo'rdoqichilikdagi sog'in sigirlar	80
Buqa va g'unajinlar	60
Yosh qoramollar	30
Buzoqlar	20
Qo'chqor va sovliqlar	8
Yosh qo'ylar	4
Sun'iy o'stirilayotgan qo'zilar	3
Nasldor ayg'irlar	70
Biyalar toychasi bilan	80
Biyalar va 1,5 yoshdan katta otlar	60
1,5 yoshgacha bo'lgan otlar	45
Erkak cho'chqalar	25
Bo'g'oz va qisir ona cho'chqalar	25
Ona cho'chqalar, bolalari bilan	60
Emizikli cho'chqa bolalari	5
O'stirilayotgan cho'chqalar	15
Bo'rdoqi cho'chqalar	15
Katta tovuqlar	0,5
Yosh tovuqlar	0,4

## 20-jadvalning davomi

1	2
Katta kurkalar	0,65
O'stirilayotgan kurkalar	0,6
Katta g'oz va o'rdaklar	2,65
O'stirilayotgan g'oz va o'rdaklar	2,2

Chorva fermasi bo'yicha sutkalik o'rtacha suv sarfi, l/suv qu-yidagicha aniqlanadi:

$$Q_{o'rt.sut} = m_1 q_1 + m_2 q_2 + \dots + m_n q_n = \sum m_i q_i$$

bu yerda  $m_1, m_2, \dots, m_n$  – suv iste'molchi guruhlardagi hayvonlar bosh soni;  $q_1, q_2, \dots, q_p$  – guruh hayvonlarini suv iste'moli me'yor, l/sut.

O'rtacha sutkalik suv sarfini bilgan hodisa sutkalik maksimal suv sarfi hisoblanadi. Bunda hayvonlarning sutkalik suv iste'molini o'zgarishi inobatga olinadi. Bu ko'rsatkich 1,3–1,4 atrofida belgilanib, sutkalik suv iste'moli o'zgarishi koeffitsiyenti  $K_{sut}$  deb yuritiladi.

Sutkalik maksimal suv sarfi  $Q_{max\ sut}$  teng.

$$Q_{max\ sut} = K_{sut} \cdot Q_{o'rt.sut}$$

Suv iste'molining soatlik o'zgarishi koeffitsiyenti,  $K_s$  deb bir soatda iste'mol qilingan maksimal suv miqdori  $Q_{s\ o'rt}$  ning o'rtacha iste'mol qilingan suv miqdori  $Q_{s\ o'rt}$  ga nisbatiga aytildi.

$$K_s = Q_{s\ max} / Q_{s\ o'rt}$$

$K_s = 2,5–4,5$  qabul qilinadi.

Soatlik o'rtacha suv sarfi quyidagicha hisoblanadi,  $m^3/soat$

$$Q_{s\ o'rt} = Q_{max\ sut} / 24$$

Suv ta'minoti tizimini hisoblash maksimal sekundli suv sarfi bilan amalga oshiriladi.


$$q_{max} = Q_{s\ o'rt} K_s / 3600$$

Tabiatdan inson foydalanayotgan barcha suv manbalarini ikki guruhga bo'lish mumkin: yer yuzasida joylashgan suv manbalari (daryolar, ko'llar, kanallar, ariqlar, va hokazo) hamda yer osti suv manbalari (artezian suvlari, buloqlar).

Daryolar suv sathining mavsumiy ravishda o'zgarib turishi, loy-qaroq ham bo'lishi, tarkibida ko'plab organik moddalarni, bakte-


riyalarni uchrashi bilan tasniflanadi. Shu bilan birga uning suvida mineral tuzlarning kamligi, yumshoqligi ma'lum.

Suv ta'minotini yer yuzasidan va yer ostidan ta'minlash tizimi quyidagi chizmalarda (31, 32-chizmalar) keltirilgan:



#### **31-chizma. Yer osti manbayidan suv oluvchi tizim shakli:**

1—manba; 2—o'zi oqib tushish quvuri; 3—suv yig'iluvchi inshoot; 4—birlamchi ko'taruvchi nasos stansiyasi; 5—tozalash inshooti; 6—toza suv rezervuari; 7—ikkilamchi k'taruvchi nasos stansiyasi; 8—suv bosimi minorasi; 9—suv quvuri tizimi; 10—iste'molchilar.



#### **32-chizma. Yer osti suv ta'minoti manbayi tizimi:**

1—burg'ulangan quduq; 2—nasos stansiyasi; 3—suv quvuri tizimi; 4—iste'molchilar; 5—suv bosimi minorasi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Chorvachilikda suv nimalarga ishlataladi va ichimlik suviga bo'lgan talablar.
2. Suvga bo'lgan ehtiyoj qanday hisoblanadi?
3. Qanday suv manbalari mavjud?
4. Suv ta'minoti tizimlarini bayon eting.

## **2.2. SUV KO‘TARGICHLAR, NASOSLAR TURI VA ULARDAN FOYDALANISH**

Suyuqlikni ko‘tarish, siljitishtish va haydash uchun xizmat qiladigan gidravlik mashinalar **nasoslar**, deb ataladi.

Suv ko‘targichlar faqat suyuqlikni ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

Nasoslar va suv ko‘targichlarni harakatlantirish uchun elektr, shamol va issiqlik manbalaridan foydalanish mumkin.

Ishlash prinsipiga qarab quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

**qanotli** – suyuqliklarni qanotlar (markazdan qochma, diagonal va o‘q yo‘nalishdagi) yordamida haydovchi;

**hajmiy** – porshen va rotor (vint, shesternya, shiber) yordamida siqb chiqaruvchi;

**oqim** – (ejektor), suyuqlikni siljitishtish uchun boshqa suyuqlik energiyasidan foydalanuvchi.

Ishlash prinsipiga qarab suv ko‘targichlarning quyidagi xillari mavjud:

**gidrozarbali** (gidravlik taran) – gidravlik zarba-bosim ta’sirida suvni ko‘taruvchi;


**tasmali va bog‘ichli** – doimiy harakatdagi tasma yoki bog‘ich suvlanishi va shu asosda uni yuqoriga ko‘taruvchi;

**inersion** (vibratsion).

### **Markazdan qochma nasoslar**


Markazdan qochma nasoslar tuzilishi sodda, kichik gabaritli, foydalanishda mustahkam, ta’mirlash va texnik qarov ishlari kamxarj bo‘lganligi tufayli bugungi kunda qishloq xo‘jaligida keng tarqalgan.

Markazdan qochma nasos asosan korpus (3), bosim ostida suv uzatish quvuri (1) va ish g‘ildiragi (2) dan tashkil topgan (33-chizma). Valga o‘rnatalgan ishchi g‘ildirak mufta orqali elektryuritgich bilan bog‘langan. Nasos quyidagicha ishlaydi. Suyuqlik nasosning so‘ruvchi quvuri (4) tubida joylashgan qabul klapani va quvur yordamida so‘rib olinib, ishchi g‘ildiragiga uzatiladi. Ishchi g‘ildiragi aylanib, suyuqlikka korpus ichida markazdan qochma bosim hosil qiladi. Bu bosim ostida suyuqlik spiral shaklidagi kameraga, so‘ng bosim yo‘naltiruvchi quvurga uzatiladi.



**33-chizma. Markazdan qochma nasos:**

1—bosim ostida uzatish quvuri; 2—ishchi g'ildiragi; 3—korpus; 4—so'ruchchi quvur; 5—val.



so'ruchchi kameralar; 12—qaytarmas klapan.

Hozirgi kunda mayda xo'jaliklarda katta bo'Imagan (massasi 3,3 kg, gabarit o'lchamlari 100x100x275 mm) vibratsion nasoslardan foydalanish mumkin (34-chizma).

Nasos barcha suv yoki suyuqliliklarni uzatadi, shuningdek, undan foydalanish juda qulay va mustahkam.

Elektromagnitli vibroqo'zg'atgich  $\Pi$  shaklidagi ikki g'altakli elektromagnit (6)va yakor (5), shtok bilan rezinometall element (4) orqali bog'langan. Diafragma (3) privodni suyuqlikdan ajratib turadi. Korpus (9) bilan ishchi organ (2) birgalikda kamera (1) ni hosil qiladi. Kamerada qaytarmas klapan (12) joylashgan. Ish jarayonida suyuqlik kamera (1)dan ishchi organ (2) orqali siqib, halqa shaklidagi bo'shliqqa chiqariladi. Bo'shliqdan bosimli quvurcha (7) orqali iste'molchiga uzatiladi. Elektromagnit bir fazali elektr tizimidan kabel (8) yordamida ta'minlanadi. Nasos suvgaga tushirilganda uning kamerasi (11)ga suyuqlik qaytarmas (12) klapan orqali kiradi. Elektromagnit ti-

**34-chizma. Vibratsion nasos:**

1—shtok; 2—ishchi organ; 3—diafragma; 4—rezinometall element; 5—yakor; 6—elektromagnit; 7—bosimli quvurcha; 8—kabel; 9—korpus; 10 va 11—bosim hosil qiluvchi va

12—qaytarmas klapan.

zimga ulangach, porshen minutiga 6000 tebranish qiladi va svnvi haydaydi.


**Suv ko'targichlar.** Ishlash prinsipi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi: havo suv ko'targichlari; gidravlik taran; tasmali va bog'ichli suv ko'targichlar.

Yaylovlarda tasmali suv ko'gargichlar keng tarqalgan hisoblanadi. Tasmali suv ko'targich suv 0,5 m qatlAMDAGI, chUqURLIGI 100 m bo'lGAN quduqlardan ko'tarib berish imkoniyatiga ega. Tasmali suv ko'targich (35-chizma) suv ko'taruvchi lenta (3), yetaklovchi (2) va yetaklanuvchi shkiv (4), yuk (5), ichki vanna (6) va tashqi sirt (1)dan iborat. Ustki yetaklovchi shkiv elektryuritgich yoki ichki yonish yuritgichi yordamida katta tezlikda aylantiriladi. Shkivga kiydirilgan tasma ham tez harakatga kelib, quduq tubidagi svnvi qamrab oladi va yuqoriga olib chiqadi. Ko'tarilgan suv tashqi sirtga tegib ichki vannaga tushadi.

Tasmali suv ko'targichlar konstruksiysi bo'yicha sodda va foydalanish mustahkamligi yuqori. Foydali ish koeffitsiyenti 20–65 foizni tashkil etadi. Suv ko'tarish balandligi, tasmani aylanish tezligi qancha baland va tasmani suvga kiriishi darajasi qancha past bo'lsa, suv ko'targichning foydali ish koeffitsiyenti shu darajada yuqori bo'ladi.


**Havoli suv ko'targichi (эрлифт)** (36-chizma). Quduqqa pastki qismida forsunka (5) o'rnatilgan ikkita quvur (3, 4) tushiriladi. Quvurlarning biri (4), ostki qismi ochiq holda, diametr jihatida kattaroq tayyorlanadi va svnvi ko'tarish uchun xizmat qiladi. Diametri kichik ikkinchi quvur (3) ustki bilan siqilgan havoli rezervuar bilan tutashgan. Rezervuarga kompressor qurilmasi siqilgan havo yuborib turadi. Shu sabab ham havoli suv ko'targich nomini olgan.

Ish jarayoni quyidagicha kechadi. Ingichka quvur (3) orqali rezervuardan siqilgan havo forsunka (5) orqali keng diametrli quvur (4) ichida havo va svnning aralashmasini (emulsiya) hosil qiladi. Hosil bo'lgan aralashmaning zichligi svnning zichligidan



35-chizma. Tasmali suv ko'gargich:

- 1—tashqi sirt;
- 2—ustki yetaklovchi shkiv;
- 3—suv ko'taruvchi tasma;
- 4—pastki yetaklanuvchi shkiv;
- 5—yuk;
- 6—ichki vanna



*36-chizma. Havoli suv ko‘targich bilan jihozlangan quduq shakli:*

1—qaytargich; 2—qabul baki; 3—havo quvuri; 4—suv ko‘tarish quvuri;  
5—forsunka.

past bo‘lganligi sababli quvurni o‘rab turgan suv aralashmani yuqoriga ko‘taradi. Ko‘tarilgan aralashma qabul bakiga qaytar-gich orqali suvgaga havoga ajra-lib tushadi.

Afzalligi: konstruktiv sodda tuzilgan; quduq tubida harakatlanuvchi elementlarning yo‘qligi; ishlashda mustahkamligi va osonligi; ish unumini sozlashning yengilligi; kichik diametrli, qiyshiq quduqlarda ham ishslash qobiliyati; qumli quduqlar suvni ham torta olishi.


Kamchiliklari: foydali ish ko-effitsiyenti kichik (20–35 foiz); nasosli qurilmaga nisbatan quduqning chuqurroq kavlanishi; suvni haydash uchun yer sathida ikkinchi nasosni o‘rnatish lozimligi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Nasoslar va suv ko‘targichlarni tasniflab bering.
2. Markazdan qochma nasosning tuzilishi va ishslash prinsipi qanday?
3. Suv ko‘targichlari, ularning turlarini bayon eting.
4. Tasmali suv ko‘targich tuzilishi va ishslash prinsipi.
5. Havoli suv ko‘targichi, tuzilishi va ishslash prinsipi.

### 2.3. SUV TA’MINOTI TIZIMI, QUVURLAR, MONTAJ QILISH VA FOYDALANISH QOIDALARI

Suv ta’mnoti tizimi suvni manbadan yoki bosim minorasidan iste’molchilarga yetkazib beradi. Suv ta’mnoti tizimi tarmoqli berk va aylanma shaklda bo‘ladi (37-chizma).



**37-chizma. Suv ta'minoti tizimi:**  
a—tarmoqli berk; b—aylanma.

**Tarmoqli berk** tizim iste'molchilarga suvni faqat bir tomondan yetkazib beradi. Bu tizim iste'molchilarni har tomonda joylashganda va kam suv iste'mol qilganda foydalaniлади. Tizimning kamchiliги uning mustahkam ishonchli emasligida, chunki tizimning biron qismi buzilsa, iste'molchilarning bir qismi suvsiz qoladi.

**Aylanma suv ta'minoti** – iste'molchilar joylashgan har bir nuqtani ikki tomonlama suv bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Tarmoqning birorta iste'molchisida buzilish bo'lsa, uni alohiда to'xtatib qo'yish mumkin, bu boshqa iste'molchilarga ta'sir ko'rsatmaydi. Aylanma suv ta'minoti tarmoqdagi bosimni bir xil bo'lishi, gidravlik zarba, suv muzlashi ehtimolini pasayishi, kichik diametrli quvurlardan foydalanish mumkinligi singari bir qator afzalliklariga ega. Shu sababli ham loyihalashtirishda ko'p hollar da shu tizimdan foydalaniлади. Amaliyotda tarmoqlangan va aylanma tizimlarning omixtasi bo'lgan kombinatsiyalashgan tizim dan ham foydalaniлади.

### Quvurlar va ularni montaj qilish

Suv ta'minoti tizimida po'lat, cho'yan, asbestosement, plastmassa va boshqa materiallardan tayyorlangan quvurlar foydalaniлmoqda. Cho'yan quvurlar montaj qilish, ulash ishlarini olib borish uchun kengaytirilgan og'izli yoki gardish (flanes) shaklida tayyorlanadi. Birlashtirish joylari quvurdan suv oqmasligi uchun har xil materiallardan (rezina, bitum, saqichlangan kanoptola) tayyorlangan zichlagich qistirmalar bilan mustahkamlanadi. Ingichka silliqlangan quvur kengaytirilgan quvur og'ziga kiritiladi, flanesli quvurlar boltlar yordamida biriktiriladi.

Bosimi  $10^6$  Pa/gacha va 50 mm va undan yuqori diametr talab qilingan joylarda 2–7 m uzunlikda tayyorlanadigan cho‘yan quvurlar qo‘llaniladi. Quvurlarni ulash, tarmoq armaturasi va boshqa tarmoqlantirish jihozlarini o‘rnatish uchun mufta, uchtalik tiqinlardan foydalaniлади.

Po‘lat quvurlar diametri 15 mm va undan yuqori qilib tayyorlanadi va bosimi  $10^6$  Pa dan baland bo‘lgan suv tarmog‘i tizimlarida foydalaniлади. Quvur kavsharlash, ayrim hollarda flanes va muftalar yordamida biriktiriladi. Po‘lat va cho‘yan quvurlarni korroziyadan saqlash uchun bitum, plastmassa va boshqa materiallardan tayyorlanuvchi izolyator bilan o‘rab qo‘yiladi. Asbestosement quvurlar sirtqi suv tarmog‘ida, tizim bosimi 0,3; 0,6; 0,9 va 1,2 MPa bo‘lgan hollada foydalaniлади.

Quvurlar rezina zichlagichlar bilan mufta orqali birlashtiriladi. Afzalligi: bu quvurlar issiq-sovuq, korroziyaga chidamli, masassi kichik, bahosi nisbatan arzon hisoblanadi. Kamchiligi: dinamik kuchlanish va zarbalarga ko‘p ham chidamli emas.


Plastmassa quvurlar hozirgi kunda suv ta’mnoti tizimida keng qo‘llanilmoqda. Eng ko‘p qo‘llanilayotgan polietilen quvurlari hisoblanadi. Ular metalldan 6–8 marta yengil, issiq-sovuq, korroziyaga chidamli va gidravlik qarshiligi kam. Eng katta kamchiliги quyosh radiatsiyasi ta’sirida tez yemiriladi,  $55^\circ$ – $70^\circ$  C haroratda yumshaydi.

**Suv quvuri armaturasi.** Suv quvurlarida bosimni sozlovchi, asrovchi, taqsimlovchi armaturalardan foydalaniлади (38-chizma).

*Bosimni sozlovchi armatura* deb, suv sarfini sozlash, yopibochish uchun xizmat qiladigan surma klapan, diskali buriluvchi tambaga aytildi.

Asrovchi armatura quvurlar yuqori bosim uchun qo‘llanilib, ularga qaytarmas va asrovchi klapanlar, havo vantzuzi kiradi. Qaytarmas klapanlar bosim yuqori bo‘lgan quvurlarga o‘rnatilib, nassis to‘xtab qolgan taqdirda suvni quvur bo‘ylab orqaga qaytmay ushlanib qolishi uchun xizmat qiladi. Quvurlarni yuqori bosimdan saqlash uchun asrash klapanlari qo‘llaniladi.

Vantuzlar quvurlarning yuqori nuqtalariga o‘rnatilib, yig‘ilib qolgan havolarni chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi. Taqsimlovchi armaturaga taqsimlash kolonkalari, kranlar va yong‘in gidranlari kiradi.



### 38-chizma. Suv tarmog'i armaturasi:

a—surma klapan: 1—korpus; 2—qopqoq; 3—maxovik; 4—shpindal; 5—poka;  
 6—bosim ventil muftasi; b—kran: 1—korpus; 2—klapan; 5—maxovik;  
 4—shpindel; 5—zichlagich; 6—klapan; d—qaytarmas klapan mufta: 1—korpus;  
 2—klapan; e—qaytarmas flanesli klapan; f—qabul klapani: 1—korpus;  
 2—qopqoq; 5—klapan; 4—tur; g—dastak shaklidagi asrash klapani: 1—korpus;  
 2—tirgak; 3—dastak; 4—yuk; 5—qopqoq; 6—klapan; h—vantuz: 1—korpus;  
 2—qopqoq; 3—gayka; 4—havo chiaaruvchi teshik; 5—shar; 6—tayanch;  
 j—suv olish krani: 1—probkali; 2—ventilli.

Suv ta'minoti tizimidan foydalanishning asosiy vazifalari:

1) suvni ifloslanmasligi uchun suv manbayini sanitar himoyalash;

2) suv ta'minoti tarmog'ini texnik tayyor holda saqlash.

Suv manbayini toza holda saqlanishini ta'minlash uchun sanitar himoya doirasini hosil qilish zarur. Suv sifati nazorati yiliga 1–2 marta tahlil qilinib, quvurlar xlor ohagi bilan ishlov beriladi. Suv quduqdan doimiy ravishda bir xilda, tekis olinishi zarur. Aks hollarda quduq suvi bilan loyqa chiqishi, quduq debiti kamayishi mumkin. Xo'jalikda chorvachilik fermasi, inshooti, binosi suv ta'minoti chizmalari saqlanishi lozim.

Suv tarmog'i bosim tizimi, armaturalari doimiy ravishda vaqtiga-vaqt bilan kuzatilib, tekshirilib turiladi. Quvurlar ularga ruxsat etilganidan yuqori bosim ostida ishlashlari man etiladi. Tekshirish vaqtida quduqlari tozalanadi. Tarmoqdagi nosozlik suvni oqishi bilan kuzatiladi. Buning ta'sirida: 1) yerning yuzasida namlik paydo bo'ladi; 2) suvning bino yerto'lalarida paydo bo'lishi; 3) bosimning pasayishi sodir bo'ladi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Suv ta'minoti tizimi turlari, ularning afzallikkleri va kamchiliklari.
2. Suv quvurlari, ularning turlari, tasnifi va montaj qilishni tushuntiring.
3. Suv quvuri armaturasi, turlari tuzilishi va vazifalari.
4. Suv ta'minoti tizimidan foydalanish talablari nimalardan iborat?

## **2.4. AVTOSUG‘ORGICHLAR, ULARDAN FOYDALANISH VA MONTAJ QILISH**


Chorvachilik fermalarida, yaylovlarda hamda hayvonlarni laglerlarda saqlaganda sug‘orish qo‘zg‘almas yoki harakatlanuvchi avtosug‘orgichlar yordamida amalga oshiriladi. Bir yo‘lasiga sug‘oriladigan hayvonlar bosh soniga qarab sug‘orgichlar guruh va individualga bo‘linadi. Ish jarayoniga qarab sug‘orgichlar avtomatlashgan yoki avtomatlashmagan holda bo‘lib, qo‘srimcha qurilmalari mavjudligiga qarab suvni isitib yoki isitmasdan bera-

di. Konstruktiv tuzilishi bo'yicha sug'orgichlar klapan yoki vakuum asosida ishlovchi bo'ladi. Klapanli sug'orgichlar o'z navbatida pedalli va qalqili bo'ladi.

Sug'orgichlar molxonalarda suv tarqatish tarmog'i tizimiga, yaylovlarda, yozgi lagerlarda suv tashib kelinadigan sisterna va rezervuarlarga ulanadi. Ayrim hollarda sug'orgichlar o'rniga suv tarqatgichlardan foydalaniladi.


Xo'jaliklarda keng qo'llaniluvchi bir kosalik individual avtosug'orgich bir vaqtning o'zida ikkita yonma-yon joylashgan hayvonaga xizmat ko'rsatishi mumkin (39-chizma).

Sug'orgich quyidagicha ishlaydi. Suv tarmog'i (1) bilan kosa (5) oralig'ida klapan (2) to'siq bo'lib joylashgan. Tinch holatda prujina (3) klapanni korpusga surib, suv tushuvchi teshikni yopadi va suvni quvurdan kosaga o'tkazmaydi. Hayvon suv ichmoqchi bo'lib tumshug'i bilan pedalni pastga bosadi. Natijada pedal orqasida joylashgan turtki klapani prujinaning kuchini yengib suradi. Klapan va kosa orasidagi tirqish ochilib, suv kosaga tushadi. Hayvon suv ichishdan to'xtashi bilan prujina klapanni o'z holatiga qaytarib, teshikni yopadi. Qoramollarni va otlarni yayratish maydonlarida isitilgan suv bilan sug'orish uchun 80–100 bosh hayvonga mo'ljallangan guruh tipidagi avtosug'orgichlardan foydalaniladi (40-chizma). Ularni molxona ichiga ham o'rnatish mumkin.



### 39-chizma. Individual avtosug'orgach:

a—sug'orgichni suv bilan ta'minoti shakli: 1—suv bosimi minorasidagi suvning sug'orgichga nisbatan darajasi; 2—suv bosimi minorasi;  
 3—avtosug'orgich; 4—avtosug'orgichning klapanli mexanizmi;  
 b—avtosug'orgich shakli: 1—suv keltiruvchi quvur; 2—klapan;  
 3—prujina; 4—pedal; 5—kosa.



#### **40-chizma. Guruh avtosug'orgichi shakli:**

1—korpus; 2—oqizish quvuri;  
3—tiqin; 4—sug'orish kosasi;  
5—qopqoq; 6—qopqoq-klapan;  
7—qalqi; 8—tortqili mexanizm;  
9—klapanli mexanizm; 10—suv  
haroratini ta'minlovchi rele-  
sozlovchi; 11—elektroisitgich;  
12—eleketrotermik lampa;  
13—shlang; 14—elektrokabel  
tarmog'i; 15—issiqlik  
izolyatsiyasi.


Qo'ylni yaylov va yozgi lagerlarda joylashganda 0,9–1,4 klass-dagi traktorlar bilan agregatlanuvchi suv tarqatgich yordamida ham sug'orish mumkin (41-chizma). Suv tarqatgich to'rt g'ildirakli shosse (5)ga o'rnatilgan silindrsimon sisterna (6), suv nasosi (10) dan tashkil topgan.

BYO-3A sug'orgichi BY-3A bazasida yaratilgan (42-chizma).

Yaylovlarda havo harorati 0 °C dan bo'lganda 850 bosh qo'yga xizmat ko'rsatadi. Sug'orish tog'oralari barchasi bir xil shaklga va sig'imga ega bo'lib yig'uvchi, o'rta va chekkadagilarga bo'linadi. Yig'uvchi tog'ora yon devorining ichki tomonidagi kronshteyn-ga vakuum sozlagich va to'kuvchi quvurcha biriktirilgan. O'rta tog'oraning boshqalaridan farqi ikki yon devori orqali boshqa tog'oralari quvurcha bilan biriktirilgan. Chekka tog'oralari bitta-

Guruh avtosug'orgichi termoizol-yatsiyali korpus (1), sug'orish kosasi (4), klapan-qalqili mexanizm (9), suv quvuriga ulash shlangasi, elektroisit-gich elementi (11) va termoizolyator-dan tashkil topgan. Kosadagi suv sathi qalqili mexanizm bilan sozlanib turadi. Sug'orish kosasi ostida joylashgan elek-troisitgich belgilangan suv haroratini avtomatik holda saqlab turadi.

Qo'ylar guruh avtosug'orgichlari, sug'orish tog'oralari yoki individual sug'orgichlar yordamida sugoriladi. Qo'tonlarda boqish davrida qo'ylar isi-tiladigan guruh avtosug'orgichlari yor-damida sug'oriladi. Suvning harorati 10 °C dan past bo'lmasligi lozim. 25–30 qo'yga bir sug'orish joyi rejalashti-riladi. Atrofi panjara bilan o'ralgan qo'ralarda qo'ylarni sug'orishda in-dividual sug'orgichlardan foydalanish mumkin. Sug'orgichning kosasi usti panjaralni poldan 200–500 mm, somon to'shamasi bilan boqilganda 400–450 mm balandlikda joylashtirilishi lozim.




**41-chizma. BY-3A suv tarqatgichi:**

1—kordanli val; 2—tayanch; 3—so‘ruvchi shlang; 4—suv sathini o‘lchagich; 5—yurish qismi; 6—sisterna; 7—texnik xizmat ko‘rsatish maydonchasi; 8—bosim ostida so‘rish shlangasi; 9—bosim tirsagi; 10—nasos privodi bilan; 11—tortqi; 12—xavfsizlik zanjiri.

dan teshikka ega. Tog‘oralar tubida chiqitlarni tozalab turish uchun teshik qoldirilgan. Sisternani suvgaga to‘latishdan avval, to‘kish shlangalari yopiq va bosim quvurchasi ochiq bo‘ladi. Sisterna suvgaga to‘lgach, bosim quvurchasi ham yopiladi. Tog‘orani vakuum trubasining pastki chetiga suv yetguncha to‘ldiriladi, sisternaga havo kirishi to‘xtaydi. Natijada sisternada vakuum hosil bo‘lib tog‘oraga suv kelishi to‘xtaydi. Tog‘oraga suv iste’mol natijasida vakuum quvurchaning pastki darajasidan tushganda, tog‘ora yana suvgaga to‘la boshlaydi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Sug‘orgichlarning turlari va konstruktiv farqlari nimada?
2. Individual avtosug‘orgichlar tuzilishi va ishslash prinsiplarini tushuntiring.
3. Guruh avtosug‘orgichi tuzilishi va ishslash prinsipi.
4. Qo‘ylarga suv tarqatgichlar tuzilish va ishslash prinsipini tushuntiring.



**42-chizma. BYO-3A harakatlanuvchi sug‘orgich:**

1—yurish qismi; 2—sisterna; 3—lyuk; 4—kran; 5—to‘kish quvuri; 6—suv o‘lchash oynasi; 7—tog‘ora; 8—to‘kish quvuri; 9—birlashtiruvchi quvurcha.

### **3-BO‘LIM**

#### **OZUQA TAYYORLASH**

##### **3.1. OZUQA TAYYORLASHGA TALAVLAR. OZUQAGA BO‘LGAN EHTIYOJNI HISOBLASH**

Dag‘al ozuqalarga pichan, somon, to‘pon, qamish, makkajo‘xori poyasi, ayrim urug‘lar po‘chog‘i va boshqalar kiradi.

Dag‘al ozuqa qoramol, qo‘y va otlar ratsionining zarur komponentlaridan biri hisoblanadi. Uni kichik me’yorlarda cho‘chqa va parrandaga ham berish mumkin. Dag‘al ozuqaning tarkibida 40 foizgacha qiyin hazm bo‘luvchi biriktiruvchi to‘qima bo‘lib, ishlov berilmasa, hayvonlar yomon iste’mol qiladi. Yaxshi yeyiliishi uchun dag‘al ozuqa mexanik-issiqlik ishlovidan o‘tishi zarur. Davlat standartlariga javob beruvchi pichanni sigirlar va qo‘ylarga issiqlik ishlovchisiz berish mumkin, lekin uni ham mexanizatsiyalashgan holda tarqatish uchun maydalash maqsadga muvofiqdir.

Qoramol uchun somon va pichan 30–50 mm, otlarga 15–30 mm, qo‘ylarga 10–20 mm uzunlikda qirqib berish kerak. Agar dag‘al ozuqa svuli-shirali ozuqalar bilan birgalikda omixta holda tayyorlansa, uning maydalanish o‘lchami 6–10 mm qilib tayyorlanadi. Dag‘al poyali o‘simliklar (shuvoq va boshq.) qorako‘l zotli qo‘ylar uchun 3–9 mm o‘lchamgacha, parranda va cho‘chqalarga quritilgan o‘simliklar o‘t uni 1 mm va boshqa hayvonlarga 2 mm gacha maydalanadi.

Dag‘al ozuqalardan somon, pichanning maydalanganida to‘yimliligini oshirish uchun ildizmevali ozuqa, silos, konsentrat, ozuqa achitqisi aralashtirilib, omixta qilib beriladi.

Svuli-shirali ozuqalarga: ildizmeva (lavlagi), kartoshka, yashil ozuqa, poliz ekinlari mahsulotlari, yangi karam, suv o‘simliklari kiradi. Ildizmeva hayvonlarga berishdan avval yuviladi, qirqiladi va aralashtiriladi. Ildizmevani qoramolga berishda 10–15 mm, buzoqlarga – 5–10, cho‘chqalarga – 5–10 va parrandaga – 3–4 mm qalinlikda qirqiladi. Kunjara sigirlarga 10–15 mm o‘lchamda maydalab beriladi. Ildizmevali ozuqalar maydalanganda uning sharbatli oqib ketmasligi lozim. Ildizmeva ozuqalar hayvonlarga iste’molga

berishda, ko‘pi bilan 2 soat avval tayyorlanadi. Aks holda ozuqa buzilib qolishi mumkin.

Konsentrat ozuqalar sigirlar uchun 1,84–4 mm, cho‘chqa va parrandalar uchun 1–1,8 mm gacha maydalab beriladi.

Makkajo‘xorini siloslash davrida uni 15–80 mm o‘lchamda maydalanadi. Silos lavlagilar bilan qo‘sib tayyorlanganda uning o‘lchami 5–7 mm dan oshmasligi lozim.

Ozuqalarning ifloslanganligi: lavlagi 0,3 foiz, donli ozuqa 1 foiz qum, 0,004 achchiqmiya, spora va 0,25 foiz randak, qorakuya, mastak bilan zararlangan bo‘lishi mumkin.

### **Ozuqa ishlab chiqarish va uning sarfini rejalashtirish**

Chorva mahsulotlarini hayvon fiziologiyasi imkoniyati darajasida to‘la olish uchun yetarli darajada ozuqaga ega bo‘lish lozim. Xo‘jalik hayvonlarning ozuqaga ehtiyojidan kelib chiqib, ozuqabop ekin maydonlari yuzasi, tashqaridan olinadigan ozuqa hajmi rejasini ishlab chiqadi. Buning uchun ozuqa muvozanati va ozuqadan foydalanish rejasi tuziladi.

*Ozuqa muvozanati* deb – ozuqaga bo‘lgan yillik ehtiyojni, xo‘jalikda yetishtiriladigan va olib kelinadigan ozuqa miqdoriga solishtirib ko‘rishga aytildi.

Sarflanadigan ozuqa birligidan ko‘proq mahsulot olish maqsadida undan rejali foydalanish zarur. Ozuqa bazasini loyihalash-tirish va qurish chorvachilik fermasi yoki fermer xo‘jaligi tashkil bo‘imasdan oldin hal etilishi lozim.

Xo‘jalik ozuqa muvozanatini tuzishda sug‘oriladigan yerlar bilan bir qatorda tabiiy o‘tloqlar, yaylovlardan olinadigan ozuqa miqdorini ham hisobga olinishi zarur.

Ozuqabop o‘simliklardan ketma-ket ozuqabop donlar, ozuqa lavlagisi, yashil konveyerni tashkil etuvchi o‘simliklar eqiladi. Har bir tur ozuqabop o‘simlik hosildorligini uning ekin maydoniga ko‘paytirib, jami yig‘iladigan ozuqa miqdorini topamiz.

Sigirlarni ozuqaga bo‘lgan ehtiyojini unga zarur bo‘lgan ener-giya hisobidan topish mumkin.

21-jadval

### Sigirlarning yillik ozuqa ratsioni tarkibi, to‘yimliligiga nisbatan foiz hisobida

Yillik sut sog‘ib olish hajmi, l	Pichan	Somon	Qirqila-digan yashil	Senaj	Silos	Ildiz-meva	Konsentrat	Yashil ozuqa
2500	6	2	10	12	12	2	16	40
3000	6	1	6	12	12	2	19	42
3500	5	1	5	11	12	2	21	43
4000	5	—	1	10	12	2	23	47
4500	5	—	1	8	11	2	28	45
5000	4	—	1	8	9	3	34	41
6000	4	—	2	6	7	4	39	38

22-jadval

### Sutining yog‘liligi 3,8–4,0 foiz bo‘lgan sigirning energiya va hazm bo‘luvchi proteinga talabi

Yillik sut sog‘ib olish hajmi, l	1 l sutga ozuqa birligi sarfi	Bir ozuqa birligiga hazm bo‘luvchi protein talab qilinadi, g	Bir yilda talab qilinadi		
			Ozuqa birligi	Almashinuvchi energiya, mJ	Hazm bo‘luvchi protein, kg
2500	1,25	95	3125	37500	297
3000	1,15	98	3450	41055	338
3500	1,10	100	3850	45430	385
4000	1,05	102	4200	43140	428
4500	1,03	104	4635	53766	482
5000	1,02	106	5100	58650	540
5500	1,01	108	5555	63882	600
6000	1,00	110	6000	69000	660

Ozuqaga bo‘lgan yillik talab dag‘al, suvli-shirali, yashil va konsentrat ozuqalarini yozgi va qishki davrda o‘rtacha kunlik beriladigan me’yoridan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Bunda har bir hayvon turiga oylik o‘rtacha talab, hayvonlar bosh soni asosida ma’lum bir davrga, yilga bo‘lgan ozuqa miqdori topiladi.

Yillik ozuqaga bo‘lgan talabni quyidagicha ham hisoblab topish mumkin. Mayjud hayvonlarni shartli hayonn bosh soniga o‘tkazib, ozuqa me’yori ko‘rsatkichiga ko‘paytiriladi va ozuqa birligi hisobi-da yillik ehtiyoj topiladi. Ozuqalarning to‘yimliligin bilgan holda ularning haqiqiy – fizik miqdorini topish mumkin.

Ozuqa muvozanatini hisoblashda shirkat xo‘jaligi a’zolariga, fermer xo‘jaliklariga beriladigan, boshqa xo‘jaliklarga sotiladi-gan hamda zaxirada saqlanadigan ozuqa miqdorini ham inobat-ga olish zarur.

Zaxira uchun konsentrat ozuqalar bir oylik talab va dag‘al ozuqalar og‘ilda saqlash muddatining 15–20 foiz miqdorida oli-nadi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ozuqalarni hayvon va parrandalar iste’moliga tayyorlash shartlari.
2. Ozuqa muvozanati deb nimaga aytildi?
3. Ozuqa bo‘lgan yillik ehtiyoj qanday hisoblanadi?
3. 4000 l sut beruvchi sigirning ozuqa ratsioni tarkibida silos necha foizni tashkil etishi lozim?
4. 2500 l sut (yog‘liligi 3,8–4,0 foiz) beruvchi sigir uchun bir yilda qancha ozuqa birligi talab etiladi?

### 3.2. OZUQA TAYYORLASH TEXNOLOGIK TIZIMI

Ozuqa tayyorlashning mexanik, kimyoviy, issiqlik va biologik usullari mavjud. Bu usullar tanlangan tayyorlash texnologiyasiga mos ravishda ayrim holda yoki bir-biri bilan uyg‘unlashgan hol-da ishlataliladi.

**Mexanik usulda** ozuqa tayyorlash o‘z ichiga tozalash, yuvish, saralash, qirqish, maydalash, ezg‘ilash, sindirish, yassilash, aralashtirish, me’yorlash, zichlash, donalash, briketlash va boshqalar ni oladi.

**Maydalangan** ozuqa hayvon organizmida yengil hazm bo‘lishi, o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga maydalangan ozuqaning boshqa ozuqalar bilan omixta bo‘lishi uni aralashishini yengillashtiradi va bir xil tarkibda bo‘lishligini ta’minlaydi.

**Kimyoviy usul** ozuqaga kimyoviy moddalar (mochevina, ohak suvi, tuz ishqori va boshq.) bilan ishlov berishga asoslangan.

**Issiqlik usulida** ayrim ozuqlarga bug'lash, quritish, qoqlash, qaynatish, suvsizlash, zararsizlantirish, sterilizatsiya qilish yo'li bilan ishlov beriladi.

**Biologik usulda** (siloslash, achitqilash, solodlash) ozuqlarga har turli mikroorganizmlar va fermentlar yordamida ishlov beriladi.

**Barotermik usulda** yuqori bosim ostida issiqlik bilan ozuqlarini (ozuqa qoldig'i, somon, don) fizik-mexanik va fizik-kimyoviy o'zgarishlari asosida ishlov beriladi.

### Ozuqlarga ishlov berish yo'nalishlari

**Somon va dag'al pichanga** quyidagi usullarda ishlov beriladi:

- a) maydalash—me'yorlash—aralashtirish;
- b) maydalash—bug'lash—me'yorlash—aralashtirish;
- c) maydalash—biologik (biokimyo) yoki kimyoviy ishlov berish—me'yorlash—aralashtirish—briketlash.

Beda unini tayyorlashda ko'k massa 8–12 mm uzunlikda qir-qiladi, so'ng quritilib, yana qayta maydalanadi. Beda uni donalanadi (granul) va boshqa ozuqa aralashmalariga qo'shiladi.

**Suvli-shirali ozuqa** (ozuqa lavlagisi)ga quyidagi tarzda ishlov beriladi:

- a) yuvish—maydalash—me'yorlash—aralashtirish;
- b) yuvish—bug'lash—ezg'ilash—me'yorlash—aralashtirish;
- c) yuvish—maydalash—me'yorlash—achitqi bilan ishlash—aralashtirish.

*a*—shakli qoramolchilik; *b*—shakli cho'chqachilik va *d*—shakli turli fermalarda qo'llanilishi mumkin.


**Konsentrat ozuqalar** quyidagi usullarda ishlov beriladi:

- a) tozalash—maydalash—solodlash—me'yorlash—aralashtirish;
- b) tozalash—maydalash—me'yorlash—aralashtirish;
- c) tozalash—maydalash—me'yorlash—aralashtirish—briketlash—donalashtirish;
- e) tozalash—o'stirish.

**Dukkakli ozuqalar** tozalangandan so'ng ivitib qo'yiladi, *b* va *d* shakllari bo'yicha omixta yemlar tayyorlanadi.

Ozuqa tayyorlash shakliga mos ravishda texnologik mashina-

lar, uskunalar va jihozlar tanlanadi. Masalan, quyidagi texnologik jarayon: donni qabul qilish—bunkerga yuklash—donni bunkerdan bo'shatish, tozalash moslamalariga yetkazib berish—aralashmalarni dan tozalash—bunkerga yuklash—donni bunkerdan bo'shatish—maydalash—bunkerga saqlash uchun uzatish—donni bunkerdan tushirish—me'yorlash—aralashtirish—tayyor ozuqani tarqatish, lavlagi va donli ozuqalardan ozuqa aralashmasi tayyorlashning ko'rgazmali shakli 43-chizmada keltirilgan.



#### 43-chizma. Ko'rsatmali ozuqa tayyorlash texnologik tizimi:

1—yuk tushirish o'rasi; 2—sabzavot transportyori; 3—yuvib ildizmeva maydalagich; 4—bug'latgich-aralashtirgich; 5—yuklash bo'yintirig'i; 6—magnitli ushlagich; 7—shnek-aralashtirgich; 8—maydalangan ozuqa bunker; 9—shnek; 10—siklon; 11—kovsh; 12—don noriyasi; 13—qabul bunker; 14—maydalagich; 15—yuklash kovshi; 16—ventilyator uzatgich; 17—orqaga havo qaytish quvuri; 18—me'yorlagichlar; 19—ozuqa quvuri.

Texnologik jarayonni ta'minlovchi mashina jihozlar ozuqaga yangi sifat holatini va uni to'yimliligini oshirish uchun xizmat qiladi. Texnologik jihoz, mashina tanlanganda bir yo'lasiga bir qancha operatsiyalarni bajara olish imkoniyatiga ega bo'lganlarini ham tanlash va ulardan foydalanish zarur. Masalan, ildizmevali ozuqalar uchun ham yuvish, ham maydalash mashinasi yoki ozuqaga issiqlik bug' bilan ishlov beruvchi bug'lash va aralashtirish jihozni va hokazo. Texnologik jarayonni uzlusizligini ta'minlovchi qo'shimcha yordamchi jihozlar transportyorlar, ozuqa xandaqlari, elektryuritgichlar, issiqlik, suv, elektr manbalari va boshqalar hisoblanadi.

## Somonni oziqlantirishga tayyorlash

Hozirgi kunda mamlakatimizda g‘allachilik jadal rivojlanayotganligi tufayli qo‘sishimcha ozuqa zaxirasi – somondan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratildi. G‘alla o‘rimi yig‘ishtirilganda somon g‘alla hosilining 70–75 foiz miqdori hajmida olinadi. Yaxshi ishlov berilgan somonning to‘yimliligi har 1 kg hisobiga 0,16–0,28 dan to 0,40–0,50 gacha yetib boradi.

Somonga mexanik usulda ishlov berishning asosini maydalash tashkil qiladi. Somon qoramollar uchun shirali konsentrat va suv ozuqalari (barda, pivo durdasi, jom) bilan qo‘shib tayyorlanganda 4–5 sm uzunlikda qirqiladi. Otlar va qo‘ylar hamda briket va donalash uchun tayyorlanadigan maydalash 2–3 sm uzunlikda bo‘ladi. Bundan ortiq maydalash maqsadga muvofiq emas, chunki kovsh qaytaruvchi hayvonlar uni yaxshi hazm qila olmaydi, qolaversa, sigirlarning sutidagi moy ham kamayadi.

Somonni suvli-shirali ozuqalar, konsentratlar, lavlagi shinnisi bilan aralashtirilishi uning yeyilishi, hazm bo‘lishini oshiradi, lekin bu ozuqalarning qo‘shilish nisbatlarini belgilangan miqdorda bo‘lishi kerak. Bunda ozuqalar tarkibidagi shakar va protein miqdorini 1:1 nisbatda saqlash lozim.

Ma’lumki, hozirgi kunda somonni konsentrat (donli) bilan aralashtirib berish keng tarqalgan. Bunda maydalangan 100 kg somon 100 l qaynab turgan yoki issiq suv bilan aralashtirib ishlov beriladi. 100 l suvga 2 kg tuz solinadi. Agar 100 kg somonga 5 kg dan kamroq konsentrat aralashtirilsa, konsentrat tuzli suvda oldindan yaxshilab uvitiladi. Aralashma o‘lchamlari 1,5x1,5x1,5 m bo‘lgan taxta yig‘ma yashikda tayyorlanadi. Yashikda somon 1,5–2,0 soat mobaynida qaynoq suvga solib qo‘yiladi.

Lavlagi shinnisini somonga aralashtirish uning yeyilishini orttiradi, lekin bunda shinnidagi shakar bilan protein nisbatini 1:1 nisbatda saqlash zarur. Shinni somonga nisbatini 1:3 yoki 1:4 nisbatda olinib suvda eritiladi.

Mochevinadan foydalanishda 100 kg somonga 2,0–2,2 kg aralashtirilsa, shakar-protein muvozanati saqlanadi. Shinni suvda eritilgandan so‘ng, mochevina har 100 kg somonga 4–8 hisobida aralashtiriladi. Aralashmani 2 soat vaqt ichida mollarga berish zarur.

**Bug'lash** somonga don hidini berib yumshatadi va ta'mini yaxshilaydi. Somon maydalangandan so'ng yashikka solinib 100 kg somon 80–100 l suv bilan ivitiladi. So'ngra yashik zichlab yopilib, 30–40 minut bug'lanadi. Bug'langan somon yana 3 soat mobaynida yumshatish uchun ushlab turiladi. Somonni issiq paytida boshqa ozuqalar bilan aralashtirilgan holda iste'molga berish zarur, aks holda sovigan somon quruq somonga nisbatan yomon yeylimadi.

### Somonga kimyoviy ishlov berish

**Ohak** bilan somonga ishlov berish kimyoviy ishqorli reagentlar ichida eng ko'p tarqalgani hisoblanadi. Somonga ishlov berish uchun qumsiz, mayda toshlari bo'lмаган, 90 foizdan kam kalsiy oksidi ( $\text{CaO}$ ) bo'lgan ohak ishlataladi. Ishlov berishda so'ndirilgan va so'ndirilmagan ohaklardan ham foydalaniladi.

Ohakni so'ndirishda 1  $\text{m}^3$  idishga 1,5 tonna ohak aralashmasi solinadi. Bir tonna somonga 90 kg ohak aralashmasi sarf bo'ladi. So'ndirilmagan ohak har tonna somonga 30 kg sarf bo'ladi. Tartibga ko'ra ohak bilan somonga ishlov berish uni bug'lash bilan birgalikda olib boriladi. Bu ohakni somon to'qimasiga ta'sirini kuchaytirib, kimyoviy ishlovning samaradorligini orttiradi.

Idishda tayyorlangan ohak, ohak suti shaklida 1 tonna somonga 2–2,5  $\text{m}^3$  me'yorda somonga aralashtiriladi, so'ng unga bug'berib, 1,5–2 soat mobaynida bug'lanadi. Somonga ishlov berish vaqtin somonni maydalanganlik darajasi, bug' harorati va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. 1 kg somonga 0,30–0,35 kg bug' sarflanadi. Jarayonning yakunida somondan donning yaxshi hidi chiqadi. Sifatli ishlov berilgan somon sariq-yashil tusga kirib undan ohak hidi chiqmaydi, yengil uziladi. Somon issiq holatida boshka ozuqalar (silos, konsentrat) bilan aralashtiriladi. Agar somon faqat konsentratlar bilan aralashtirilsa, u 60...65 °C haroratgacha sovitilib, so'ng chiqariladi. 500–600 kg somonga bir vaqtida ishlov berish imkoniyatiga ega kurilma 200 bosh qoramoli bo'lgan ferma uchun yetarli hisoblanadi.

**Ohak va kaustik soda (NaON) aralashmasi yordamida somonga ishlov berish.** Bu usulda 1 tonna somonga 15–20 kg so'ndirilmagan ohak (45–60 kg so'ndirilgan) va 15–20 kg kaustik soda aralashti-

riladi. Ohak va ishqor 1–1,2 m<sup>3</sup> hajmli idishdagi suvda eritiladi. Bu eritmaga yana 15 kg miqdordagi mochevinani ham qo'shish mumkin. Tayyorlash texnologiyasi quyidagicha: maydalangan somonni qalinligi 0,5 metrdan qilib eritma bilan aralashtirilib zichlab taxlanadi. Eritmani sochishda dezinfeksiya qurilmalari yoki suyuq go'ng yig'gichlardan foydalanish mumkin. Eritma bilan ishlov berilgan somon bakteriyalar ta'sirida qiziy boshlaydi. 4–5 kunda uning harorati 45...50 °C ga ko'tariladi. Bir necha kun mobaynida ishqor to'laligicha neytrallashadi va sirka kislotasi hosil bo'ladi. Somon pH 5,5–6,0 gacha achiydi.

Tajribada somonni organik tarkibi 69–72 foiz va to'qimalar 77–82 foizgacha hazm bo'lishga erishilgan.

### **Somonni siloslash**

Somonni siloslashga hayvonlar iste'moliga tayyorlashning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Somonni suv bilan namlab siloslash, uning yeyilishini yaxshilaydi, shu bilan birga azotsiz ekstraktiv moddalarning va to'qimalarning hazm bo'lishini bir oz pasaytiradi. Bu uning tarkibidagi shakar va yengil hazm bo'luvchi uglevodlarning pasayib ketishi sababli bo'ladi.

Somonni ildizmevalar (lavlagilar) va poliz ekinlari (qovoq, tarvuz, qovun) bilan siloslash yaxshi natijalar beradi. Siloslash xandaqlarda olib boriladi. Bunda 1 qism somonga 3 qism lavlagi yoki poliz ekinlari omixta qilinadi. Ular qancha yaxshi aralashsa, silos shu darajada sifatli bo'ladi. Bu jarayonni ta'minlovchi aralashtirgichlar bo'limgan holda silos somon va lavlagilarni qatlam-qatlam qilib yotqiziladi. Xandaq tubiga dastlab somon 35–40 sm qalinlikda qatlam qilib joylashtiriladi, so'ngra traktor yordamida zichlanadi. Uning ustiga poliz yoki lavlagi qatlami yotqizilib zichlanadi. Zichlash jarayonida traktor zanjiri somon, lavlagi yoki poliz mahsulotini shirasini chiqarib aralashtiradi. Lavlagilar aralashtirish oldidan zootexnik talablarga mos ravishda yuviladi. Siloslash davri 5 kundan oshmasligi kerak. Yakunda silos xandaqdagi havo tegmaydigan qilib zichlanib yopiladi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR


1. Ozuqaga ishlov berishning qanday usullari mavjud va ularni ta’riflang?
2. Dag’al, suvli-shirali va konsentrat ozuqalarga ishlov berish usuli va tartibi.
3. Ozuqa tayyorlash texnologik jarayon shaklini keltiring va ishlash jarayonini tushuntiring.
4. Somonni oziqlantirishga tayyorlash.
5. Somonga kimyoviy ishlov berish va siloslash.

### 3.3. OZUQALARNI YUVISH VA TOZALASH MASHINA JIHOZLARI

Yuvish mashinasiga qo‘yiladigan talablar:

- har turdagи ozuqalarni yuvish uchun imkoniyati;
- 0,4 l/kg suv sarflagan holda yuqori sifatda yuvishi;
- ozuqaning suvda qisqa muddat bo‘lishligi;
- ozuqaga mashina ishchi organlarining jarohat yetkazmasligi;
- tosh va boshqa aralashmalarni ajrata olishligi;
- yuklash va chiqarib olishni mexanik holda bajarilishi;
- yuvish qoldig‘i loyqani tozalab olish imkoniyati;
- yuvish sifatini sozlanishi.

Konstruksiyasi bo‘yicha ozuqa yuvish mashinasi kulachokli, barabanli, diskali va shnekli bo‘ladi (44-chizma).



44-chizma. Ozuqa yuvgichlar:


*a*—kulachokli; *b*—barabanli; *d*—shnekli; *e*—diskali

Ish jarayonini borishi bo‘yicha to‘xtab-to‘xtab ishlovchi va timsiz ishlovchilarga bo‘linadi.

**Kulachokli ozuqa-yuvgich** panjaralari vanna (8) va vint shakli-da joylashgan kurakli val (10)dan iborat (45-chizma). Vanna tar-

nov shaklida metall, beton yoki taxtadan uzunligi 3260 va kengligi 1400 mm qilib yasaladi. Vanna uzunligi bo'ylab tosh ushlash, loydan tozalash va tayyor mahsulotni saqlash seksiyalariga bo'lingan. Vanna har bir kg lavlagiga 0,6–0,8 l suv hisobida to'ldirilib, lavlagi bilan yuklanadi. Yuvisht jarayoni lavlagilarni val atrofida aylanishi va siljishi jarayonida yuz beradi. Yuvilgan lavlagilar chiqish darchasi orqali ishlovni davom ettirishga yuboriladi.

**Baraban ko'rinishidagi yuvgich** plankali baraban – ishchi organi bilan ta'minlangan. Lavlagilar suvli vannaning yuqori qismidan yuklanib baraban bo'ylab harakat qildi va o'tgan yo'lida loydan tozalanadi. Loy vanna ostiga cho'kib, tozalangan lavlagi esa chiqarish darchasini ichki devoriga o'rnatilgan kurakli baraban yordamida tashqariga chiqariladi. Bu maydalagichlar quruq holda tozalash uchun ham foydalaniladi.



45-chizma. Kulachokli ozuqa yuvgich tosh ushlagichi bilan:  
1–kovshli elevator; 2–yuvilgan lavlagilarni chiqarib yuborish kurakchasi;  
3–to'siqcha; 4–tosh ajratgich; 5–loy tushirish tuynugi; 6–tosh tushirish  
tuynugi; 7–qopqoq; 8–vanna; 9–panjaralari tub.

**Diskli ozuqa-yuvgich** baquvvat yuvish-ishchi disk bilan disk esa sirtiga kavsharlangan burtlar bilan ta'minlangan. Lavlagilar aylanayotgan disk bo'rtig'iga tegib, disk bilan aylanib hamda siltanib, harakatga keladi. Aylanma suv ta'minlagich lavlagini to'la yuvilishini ta'minlaydi.

Shnekli ozuqa-yuvgich vannaga o'rnatilgan shnek holatida bo'ladi. Shnek quvur ichiga joylashib, gorizontalga nisbatan 25–90° holda bo'ladi. Quvurning pastki qismi suvli bunker ichida joylashib, panjara shaklida bo'ladi. Shnek aylanganda uning o'rami lavlagini qamrab olib shnek bo'ylab yuqoriga yo'naltiradi. Lavlagiga qarama-qarshi yo'nalishda, unga vanna tindirgichidan suv yuboriladi. Loyqa vannaning tubiga cho'kadi va vaqt-i-vaqt bilan maxsus darcha orqali tozalab turiladi.

### **Noozuqa aralashmalarini tozalash mashinalari**

Ozuqalar tarkibida noozuqa aralashmalar mavjud bo'lib, ular zaharli yoki ozuqa hazm bo'lishi va texnologik jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mexanik aralashmalar – metall, tosh, qum va boshqalar *noorganik aralashmalar* deb ataladi.

Begona va zaharli o'tlar urug'lari – *organik aralashmalardir*.

Tasodifiy ravishda ozuqa turli xil narsalar bilan ifloslangan bo'lishi mumkin. Masalan, lavlagini qazib olishda ajratgich bo'l-magan hollarda unga o'Ichami bir xil toshlar, kesaklar bilan iflossenishi mumkin. Noozuqa aralashmalarini tozalash uchun yuqorida qayd etilgan yuvgichlar, magnit separatorlari va turli don tozalash triyerlari qo'llaniladi.

**Magnit separatorlari** doimiy yoki elektr magnitlari bilan jihozlanadi. Mahsulot qiya holda joylashgan taxta tarnovidan tekis tarqalgan holda, tushish jarayonida tarnov tagida joylashgan magnit metall zarralari, aralashmalarini ushlab qoladi.

**Magnit separatorlari** magnit juftligi yoki soni yoki magnitning ishchi yuzasi uzunligi bilan farqlanadi.

Magnitli separatorlarda donni tozalash sifatini ta'minlashda magnit tarnovga uzatilganda, qalinligi maydalangan mahsulot uchun 5–6 mm va don uchun 8–10 mm dan ko'p bo'lmasligi lozim.

**Tosh ajratgachlar** lavlagi va kartoshkadan toshni ajratish uchun

xizmat qiladi. Toshning hajmiy zichligi lavlagi va kartoshka va suvning zichligidan yuqori, shu sababli ular suv to‘ldirilgan moslama-ga solinganda, tosh moslama tubiga cho‘kadi, kartoshka va lavlagi esa suvdan qalqib chiqadi.


## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ozuqalarini yuvish mashinalariga qo‘yilgan zootexnik talablar.
2. Yuvish mashinalarining qanday konstruktiv turlari bor?
3. Kulachokli ozuqa yuvish mashinasi tuzilishi va ishlashini tu-shuntirib bering.
4. Barabanli, diskli va shnekli ozuqa yuvish mashinalarining ish-lash jarayonlari.
5. Noozuqa aralashmalarni tozalash mashinalari tuzilishi va ish ja-rayoni.

### 3.4. OZUQALARNI MAYDALOVCHI MASHINA MEXANIZMLARI


Maydalash – ozuqalarini hayvon fiziologiyasidan kelib chiqqan holda ozuqlantirish uchun tayyorlashning muhim bir bosqichi hisoblanadi. Hayvon organizmi ozuqani eritgan holda hazm qiladi, shu sababli ham ozuqa zarralarini tez va foydali hazm bo‘lishligi ozuqa maydoni yuzasiga to‘g‘ri proporsionaldir. Maydalash esa ana shu ozuqa maydoni yuzasini oshirishga yordam beradi.

Ozuqalarini maydalashning quyidagi usullari mavjud (46-chizma).



*46-chizma. Maydalash usullari:* a–ezg‘ilash; b–bo‘laklash; c–sindirish; d–qirqish; e–qirqish; f–arralash; g–ishqalash; h–siquq zarba; i–erkin zarba.

Mayjud asosiy sakkiz usuldan ko‘proq ezg‘ilash, sindirish, qir-qish, ishqalash va zarba keng qo‘llaniladi. Ozuqalarni maydalash usuli uning fizik-mexanik holatiga, deformatsiyaga bo‘lgan qarshiligiga mos ravishda tanlanadi. Tanlangan maydalash usuli va maydalashga qo‘yilgan zootexnik talablar asosida aniq mashina va mexanizmlar tanlanib olinadi. Ayrim hollarda bitta mashina yoki mexanizm maydalashning bir necha turlaridan foydalangan holda ishlaydi (47-chizma).



47-chizma. Maydalovchi mashina ishchi organlarining shakli:  
 a—qirqib ishlovchi; b—siquq va erkin zarba — shtiftli va bolg‘ali ishchi organlari;  
 d—bo‘laklash va qirqish, aralash ishchi organlari; e—zarba va  
 ezg‘ilash — bolg‘ali ishchi organlari; f—ezg‘ilash — jo‘vali baraban.

Erkin zarba bilan maydalash bolg‘ali maydalagichlarda qo‘llaniladi. Bolg‘alar maydalagichning vazifasiga, maydalash texnologik

jarayonini tashkil etilishiga qarab, turli shaklga, o‘lchamga ega bo‘ladi. Bolg‘alar aylanma rotorga erkin holda osilib turadi va aylanish davrida maydalash kamerasiga uzatilgan ozuqani maydalaydi, shamol hosil qilib maydalangan mahsulotni panjaradan o‘tishini ta’minlaydi yoki zarur holatlarda ozuqaga vintli aylanma harakat beradi. Ozuqaning maydalanishi faqat bolg‘acha zarbasi bilan emas, balki maydalash kamerasi ichki sirtida joylashgan qobirg‘ali dekalarga ishqalanish natijasida ham maydalanadi. Maydalangan ozuqalar kamerani ostida joylashgan teshikli panjaralardan o‘tib ketganidan so‘ng tark etadi. Maydalash darajasi turli diametrli teshik panjaralarni almashtirish bilan sozlanadi. Maydalagichlar turli va bir necha ozuqalarni maydalashiga qarab maxsus yoki universal bo‘ladi.

Jo‘vali (vales) tegirmonlarning ishi sindirish va qirqishga asoslangan. Taramlab yasalgan juft jo‘valar aylanganda materialni qamrab olib, ish tirqishidan o‘tkazib maydalaydi. Juft jo‘valarning aylanish tezliklari har xil, bu taram tirqishlarini to‘lib qolmasligini ta’minlaydi. Maydalash darajasi va sifati jo‘vali disk tirqishi katitaligi va jo‘valar aylanish sonini o‘zgartirish bilan sozlanadi.

Bolg‘ali maydalagichlar namligi 20–22 foizgacha bo‘lgan ozuqalarni maydalashi mumkin. Pichan va o‘t uni tayyorlashda ularning namligi 10–12 foizdan ko‘p bo‘lmasligi lozim. Universal maydalagichlar yuqoriroq namlikka ega pichanni ham maydalashi mumkin. Tegirmonlar va jo‘vali maydalagichlar 16 foizdan yuqori namlikdagi donlarni maydalay olmaydi. Qurib ketgan donlarni (12 foizdan past namlikdagi) maydalanishi ularni changga aylanishi yoki juda maydalanim ketishiga olib keladi. Bu esa ozuqani yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi.

Maydalangan ozuqaning sifatini aniqlash maqsadida nazorat uchun maydalangan ozuqadan olib, har xil diametrdagi to‘rdan (elakdan) iborat tasniflagichdan 5 minut mobaynida o‘tkaziladi. Har bir to‘rning ustida to‘plangan maydalangan massa tortib olinadi va maydalangan zarracha o‘lchamining o‘rtta arifmetik qiyamati (moduli) topiladi.

$$M = (0,5 - P_0 + 1,5 - P_1 + 2,5 - P_2 + 3,5 - P_3)/P,$$

bu yerda:  $P_0$  – tasniflagich tubida qolgan fraksiya massasi, g;  $P_1$ ,  $P_2$ ,  $P_3$  – to‘rlar ustida qolgan fraksiyalar massasi, g;  $P$  – olingan

umumiylarni massasi, g. 0,5; 1,5; 2,5; 3,5 – zarraning o‘rtacha arifmetik qiymatlari.

Ozuqa maydalanishining uch darajasi quyidagicha belgilangan:

M = 0,2–1,0 mm – nozik maydalash;

M = 1,0–1,8 mm – o‘rta maydalash;

M = 1,8–2,6 mm – dag‘al maydalash.


Amaliyotda nozik maydalash cho‘chqalarga, o‘rta maydalash qoramollarga va dag‘al maydalash parrandalarga ishlatiladi.

### **Bolg‘ali maydalagichlar**

Bolg‘ali maydalagich rama (16), pichoqli baraban (12), maydalash kamerasi (1), shlyuz tambali siklon (6), yuklash bunkeri (3) va quvurlar (7) va (8)dan iborat (48-chizma). Uzatish transportyori (14) va zinchlash transportyori (17)dan iborat ta‘minlovchi qurilma hamda pichoqli baraban sochilmas ozuqalarini yetkazib berish va dastlabki maydalashni amalga oshiradi.

Ish jarayoni. **Donli sochiluvchi ozuqalar** bunker (3)dan tirkishli darcha va magnitli separator orqali metall zarrachalardan tozalanib, maydalash kamerasiga kelib tushadi. Maydalash kamerasida ozuqa katta tezlikda aylanayotgan rotorga osilgan bolg‘achalarga duch keladi va erkin zarba ta’sirida maydalanadi. Ozuqaning maydalanish davrida bolg‘acha va maydalash kamerasi sirti bo‘ylab joylashgan qobirg‘ali deka orasida o‘tishi yanada maydalanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Ventilyator maydalangan ozuqani teshikli panjaralar orasidan patrubok orqali so‘rib oladi. Ventilyatordan ozuqa zo‘riqtirish quvurida havo bilan birga siklonga kelib tushadi va ozuqa havodan ajraladi. Siklondan ozuqa shlyuzli tamba orqali keyingi ishlov uchun yo‘naltiriladi. Havo esa quvur orqali yana maydalash kamerasiga qaytib kiradi. Bir qism havo siklonning qo‘l filtri yordamida tozalanib, tashqi atmosferaga chiqadi.

**Pichan, makkajo‘xori so‘talari va boshqa sochilmas ozuqalar** dastlab pichoqli barabanda maydalab olinadi. Bunda donli ozuqa bunkeri to‘sig‘i yopiq holda bo‘lishi lozim. Maydalangan ozuqa bolg‘ali barabanga tushib ikkinchi bor maydalanadi. Kamera ostida joylashgan teshikli panjara diametrlarini 4, 6, 8, 10 mm ga o‘zgartirilib, zarur bo‘lgan maydalanish darajasiga erishiladi.



#### *48-chizma. Universal КДУ-2 ozuqa maydalagich:*

1—maydalash kamerasi; 2—ventilyator; 3—yuklash bunkerı; 4—bo'shatish qo'li; 5—shlyuzli tamba; 6—siklon; 7—ozuqa quvuri; 8—havo quvuri; 9—qo'l filtr; 10—ampermetr-indikator; 11—chervyakli reduktor; 12—pichoqli barabani; 13—ozuqani uzatish va to'xtatish dastagi; 14—uzatish transportyor; 15—elektryuritgich; 16—rama; 17—zichlagich transportyor; 18—reduktor.

Suvli-shirali va nam ozuqa ham dastlab pichoqli barabanda maydalanadi. Bunda ish boshlanmasdan avval teshikli panjara olinib, o'rniga gorlovina qo'yiladi. Ozuqa to'g'ri maydalanib, bolg'ali kamerani tark etadi.

Maydalagich traktor quvvat olish validan yoki elektryuritgichidan harakat oladi. Rotorni sekin tezlanishi uchun avtomatik frik-

sion mufta o'rnatilgan. Maydalagichni ishga tayyorlash barcha qismlar mustahkamligini, tasmalar va zanjirli uzatmalar tarangligini tekshirish va sozlashdan, reduktor va podshipniklarni moylashdan boshlanadi. Baraban pichoqlari va qarshi qirqish taxtasi orasida tirkish 1 mm dan ko'p bo'lmasligi lozim. Sozlash va nazorat qilish uchun kojux ag'dariladi, zichlash transportyori uzatmasi yechilib, yuqoriga ko'tarib qo'yiladi. Har bir pichoq baraban krestovinasidan bo'shatilib, so'ng ikkita joylashtirish vinti yordamida krestovina tirkishida siljitib sozlanadi. Maydalash barabani tasmalari elektryuritgichni surish ta'sirida, zanjirlari esa tortqi roligi va yulduzchalar yordamida sozlanadi.


Uzatuvchi transportyor tasmasi uning dum qismida joylashgan sozlash boltlari, zichlagich transportyori o'z korpusi ichida joylashgan tortqi yulduzchalari yordamida sozlanadi. 60–70 N kuchlanishda transportyor tasma va zanjirlari egilishi 20–25 mm dan oshmasligi lozim. Har 250–300 soat ishdan so'ng transportyor va shlyuz tambasi reduktorlarining transmissiya moylari almashtiriladi. YC-2 va YC-3 bilan transportyor vali, reduktor, maydalash barabani, qirqish barabani va tortqi roliklar podshipniklari moylanadi. Qirqish barabani validagi mufta 70–90 soat ishdan so'ng moylanadi.

### **Panjarasiz maydalagich**

Panjarasiz maydalagich 17 foizgacha namlikka ega bo'lgan donlarni maydalaydi. Ikki xil modifikatsiyada chiqarilgan: omixta yem tayyorlash agregatlari bilan va mustaqil ishlashga mo'ljallangan.

Maydalagich rama (1), maydalash kamerasi (3), bolg'ali baraban (17), deka (19), don bunkeri (12), ajratish kamerasi (11), separator (9), yuklash (13) va chiqarish (6) shneklaridan hamda elektryuritgich uzatmalari va boshqarish qurilmasidan tashkil topgan (49-chizma).

Maydalash texnologik jarayon quyidagicha: yuklash shnegi (13), yuklashga yordam beruvchi shnek (20) yordamida donni don bunkeriga uzatadi. Bunkerda yuklash shnegi ishini nazorat qilib boshqaruvchi sath ko'rsatkichi (14) joylashgan. Sath ko'rsatkichi bunkerdagи donning sathiga qarab yuklash shnegining elektryuritgichi (5)ni ishga soladi yoki to'xtatadi. Don bunkerdan magnit



**49-chizma. Panjarasiz maydalagich:**

1—rama; 2—korpus; 3—maydalash kamerasi; 4—chiqarish shnegi; 5—elektryuritgich; 6—shnek korpusi; 7—ozuqa quvuri; 8—to'siq; 9—separator; 10—ajratish kamerasi shnegi; 11—ajratish kamerasi; 12—don bunkeri; 13—yuklash shnegi; 14—sath ko'rsatkichi; 15—bunker to'sig'i; 16—doimiy magnit; 17—bolg'ali baraban; 18—maydalash kamerasi qopqog'i; 19—deka; 20—don uzatish yordamchi shnegi.


(16) orqali maydalash kamerasiga tushadi. Maydalash kamerasida bolg'ali baraban (17) va deka (19) ta'sirida maydalangan. Maydalangan don havo oqimida ozuqa quvuri (7) orqali separator (9)ga uzatiladi. Undan elanib o'tgan don zarrachalari ajratish kamerasiga kelib tushadi va ajratish kamerasi shnegi (10) va chiqarish shnegi (4) yordamida tashqariga keyingi ishlov uchun uzatiladi. Ajratish kamerasining to'sig'i (8) don zarralarini yirik va mayda fraksiyalarga ajratadi. Yirik fraksiyalar yana qayta maydalash uchun

maydalash kamerasiga, mayda fraksiyalar esa mashinadan tashqari-ga chiqariladi. Donni maydalash darajasi separatorni almashtirish va to'siqni holatini o'zgartirish bilan sozlanadi.

Donni maydalash kamerasi kirish oqimi avtomatik sozlagich yordamida amalga oshiriladi. Maydalash elektryuritgichiga tushayotgan kuchlanish ortgan taqdirda bunker to'sig'i (15) bunkerdan maydalash kamerasiga don tushishini kamaytiradi.

### Panjarasiz universal maydalagich

Yirik chorvachilik ferma va komplekslarida yuqori ish unumi-ga ega bo'lgan maydalagichlardan foydalanilishi maqsadga mu-vofiqdir. Ana shunday maydalagichlar turkumiga panjarasiz uni-versal maydalagich kiradi (50-chizma). Bu maydalagich yordami-da poliz ekinlari, lavlagi, makkajo'xori silosi va ozuqa qoldiqla-



**50-chizma. Panjarasiz universal ДБУ-Ф-20 maydalagich:**

1—sozlash bolti; 2—rama; 3—elektryuritgich; 4—maydalagichning pastki korpusi; 5—hajmli bolg'a; 6—o'q; 7—maydoncha; 8—qobirg'a; 9—podshipnik; 10—val; 11—ustki korpus; 12—chiqarish og'zi; 13—yuklash og'zi; 14—disklar; 15—parallelogramm shaklidagi bolg'a; 16—qopqoq; 17—to'siq.

rini maydalash mumkin. Maydalagich ikki qismdan iborat, pastki va ustki korpus (4,11), yuklash (13) va chiqarish (12) og‘izlari, hajm (5) va parallelogramm shaklidagi bolg‘alar o‘rnatilgan rotor, qopqoq (16), elektryuritgich (3) va uzatma (8)dan iborat. Bolg‘ali rotor 30 ta hajm bolg‘alari va 24 ta yassi bolg‘alar, disklar, o‘qlar o‘rnatilgan. Disklar va bolg‘alar oralig‘i vtulkalar bilan birlashtiriladi. Hajm bolg‘alari aylanish yo‘nalishiga nisbatan 30° burchak ostida joylashtirilgan.

**Texnologik ish jarayoni.** Maydalanadigan material maxsus yuklash transportyori orqali maydalagichning yuklash og‘ziga yetkazib beradi. Ozuqa maydalash kamerasiga kelib tushadi. Katta tezlikda aylanayotgan rotorga osilgan hajm bolg‘alari ozuqani zarba bilan uradi va maydalash kamerasi ichki sirti bo‘ylab vintsimon harakat beradi. Maydalash kamerasining chiqarish zonasida joylashgan yassi bolg‘alar ozuqani yanada maydalash va chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi.

23-jadval

### Panjarasiz universal maydalagichning texnik tasnifi

Ish unumi, t/s:	
ozuqa qoldiqlari	30
ildizmevalar	20
silos	10
O‘rnatilgan quvvati, kVt	30
Maydalash darajasi, %	
Ozuqa qoldiqlari:	
20 mm gacha	70
40 mm gacha	30
Iddizmevalar:	
5 mm gacha	20
10 mm gacha	80
O‘lchamlari, mm:	
uzunligi	2380
kengligi	1840
balandligi	1220
Massasi, kg	1710

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ozuqalarni maydalashning qanday usullari bor?
2. Ozuqalarni maydalovchi ishchi organlarining texnologik jaramoni.
3. Maydalangan ozuqaning o‘rtacha zarrachasi o‘lchami (moduli) nima?
4. Boltali maydalagichning tuzilishi, ish jarayoni va har xil ozuqalar ni maydalashga sozlash.
5. Panjarasiz maydalagichning vazifasi, tuzilishi, sozlanishi va texnologik ish jarayoni
6. Panjarasiz universal maydalagichning vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va texnik tasnifini tushuntiring.

### 3.5. OZUQALARINI QIRQIB MAYDALASH MASHINA JIHOZLARI

Yashil ozuqalarni qirqib maydalash mashinalari tirkama va o‘zi-yurar holda bo‘ladi. Yashil ozuqalar natural holda oziqlantirish, silos va senaj, o‘t uni tayyorlashda maydalanadi.


Bu mashinalarning konstruktiv-texnologik chizmalari bir-biriga mos keladi. Maydalash ishchi organi silindrik shaklda yasalgan 2 tadan 8 ta yoki ayrim hollarda 12 tagacha almashtiriladigan pichoq o‘rnatilgan barabandan iborat. Pichoqlar sonini qirqish uzunligiga mos ravishda almashtirib turiladi. Mashinaning tinimsiz ishlashi uchun ikkita shart bajarilishi lozim:

1. Uzluksiz va o‘z vaqtida qirqish apparati pichoqlarini charxlab turish. 30 mm uzunlikgacha maydalashga erishish. 75 foiz holatda pichoq tig‘ining qalinligi  $q < 0,25$  mm bo‘lganda, ya’ni o‘tkirashdan so‘ng 500–600 t yashil massaga ishlov berib, qayta charxlash zarur.

2. Pichoq tig‘i va qayta qirqish barabani orasida 0,5–1,2 mm tirkishni doimiy ravishda saqlab turish (51-chizma).

Barabanli qirqish apparatlarida qarshi qirqish plastinasi barabanning diametral chizig‘idan pastda joylashadi.


**Somonqirqqichlar.** Somonqirqqichlar poyali ozuqalarni 5–100 mm uzunlikda qirqib berish uchun xizmat qiladi. Qirqish apparatining konstruksiysi bo‘yicha bu mashinalar diskali yoki barabanli bo‘ladi. Diskali qirqish apparatlari o‘z navbatida



**51-chizma. Maydalash-ta'minlash apparati shakli:**

1, 2, 10, 11—biterlar; 3—maydalash barabani; 4—ajratib qirqich; 5—silos quvuri; 6—deka; 7—qarshi qirqish brusi; 8—tozalagich; 9—ta'minlagich valigi.

pichoq tig'ining shakli bo'yicha to'g'ri chiziqli yoki egri chiziqli bo'ladi. Barabanli somonqirqqichlar pichog'i vintsimon shaklda bo'ladi.



Somonqirqqichlarga PCC-6Б, КДУ-2 va "Волгар-5А" kiradi. Somonqirqqich PCC-6Б (52-chizma) dag'al yoki yashil ozuqalarni (o't, silos) maydalash uchun xizmat qiladi. Ozuqalarni maydalagichga uzatish va chiqarib olish mexanik tarzda amalga oshiriladi. PCC-6Б o'z elektryurit-


**52-chizma. Somonqirqqich PCC-6B shakli:**

1—rama; 2—ueatuvcchi transportyor; 3—zichlash translortyori; 4—ta'minlagich valeslar; 5—deflektor; 6—taroqlar; 7—pichoq; 8—qarshi qirqish plastinasi; 9—qanotli disk.

gichi yoki traktor harakat olish validan yuritish moslamasi bilan chiqarilgan.

PCC-6Б ishchi organi rotor disk shaklida bo'lib, pichoqlari tig'i to'g'ri qilib yasalgan. Pichoqlar diskka nisbatan burchak os-tida o'rnatilib, poyalarni qamrab olishga yordam berib sirpantirib qirqishga imkon tug'diradi.

**Ish jarayoni.** Noozuqa aralashmalardan tozalangan mahsulot gorizontal uzatish transportyori (2)ga tashlanadi. Mahsulot uzatish transportyorida siljishi mobaynida zichlash transportyori (3) yordamida tekislanib zichlanadi. Keyin ta'minlagich-zichlagich valeslar (4) yanada tekislanib-zichlanib, qirquvchi juftlik pichoq (7) va qarshi qirqish plastinasi (8)ga uztatiladi. Qirqilgan mahsulot diskka o'rnatilgan uchta kurakcha yordamida deflektor orqali tashqariga chiqarib yuboriladi. Qirqish uzunligi diskka (2, 3) va 6 ta pichoq o'rnatish hamda uzatish transportyori tezligini o'zgartirish



53-chizma. Somonqirqqich PCC-6Б:

- 1—deflektorni burash dastasi; 2—deflektor; 3—halqa; 4—kardanli uzatma;
- 5—ampermetr; 6—almashtiriluvchi shesternya; 7—zichlash valigi halqasi;
- 8—boshqarish qutisi; 9—kuchlanish shkafi; 10—uzatish transportyori;
- 11—rama; 12—charxlash qurilmasini yo'naltirish karetkasi; 13—charxlash qurilmasi supporti; 14—elektryuritgich chanasi; 15—elektryuritgich;
- 16—tasmali uzatma; 17—qirqish apparati to'sig'i.


bilan sozlanadi. Buning uchun almashtiriluvchi yulduzchalar o‘z-gartiriladi. Sifatli qirqilgan materialga erishish uchun pichoq tig‘i bilan qarshi qirqish plastinasi orasidagi tirqish sozlanadi. Tirqish diskda o‘rnatilgan sozlash boltlari va qistirmani o‘zgartirish bilan amalga oshiriladi. Silos o‘simliklari uchun 0,5 mm, dag‘al ozuqalar uchun 1 mm tirqish o‘rnatiladi. Transportyor tasmasining ostki qismi 70 mm dan ko‘p osilib turmasligi lozim. Zichlash darajasi qobirg‘ali valeslar prujinasi tarangligini o‘zgartirish bilan sozlanadi. Elektryuritgichni siljitim bilan tasmali uzatmalar tarangligi sozlanadi. Pichoqlarni o‘tkirlash burchagi  $25^{\circ}$  va qarshi qirqish plastinasiniki  $75^{\circ}$  qo‘yiladi. O‘tkirlash moslamasi tasma bilan harakatga keltiriluvchi dumaloq qayroq tosh, yo‘naltiruvchi kareta va supportdan iborat. Pichoqni o‘tkirlash uchun diskdan yechilib, karetaga qotiriladi. O‘tkirlash karetani siljitim bilan amalga oshiriladi. Pichoqning dumaloq qayroq toshga nisbatan holati support yordamida ta’milanadi. O‘tkirlangan pichoqlar yana diskka, qayroq tosh tasmasi esa yechilib, ramaga o‘rnatiladi.

Somonqirqqich somonni maydalashda – 2,5 t/s, yashil massada – 7 t/s ish unumiga ega.

Maydalagich ish jarayoni davomida ozuqaga begona predmetlarning tushmasligini ta’minalash zarur. Ish oldidan mashinaning barcha birikmalar mustahkamligi tekshiriladi, zarur hohlatlarda sozlanadi.

«Болгар-5» (54-chizma) rama, uzatuvchi (8) va zichlovchi transportyor (3), birlamchi qirqish apparati (2), ikkilamchi qirqish apparati (10), shnek (1), tortqi yulduzchalar (5, 6, 7), avgomat o‘chirgich (11) va elektryuritgichdan tuzilgan. Elektryuritgich (22) kVt quvvatga ega.

**Texnologik ish jarayoni.** Material ozuqa qabul qiluvchi moslama orqali yoki qo‘lda uzatib beruvchi transportyor (8)ga bir tekisda yetkazib beriladi. Material transportyorda harakati davomida zichlagich transportyor (3) yordamida yanada tekislaniб zichlanadi va birlamchi qirqish apparatiga uzatiladi. Apparat pichoqli barabani (2) yordamida massani 20–80 mm uzunlikda birlamchi maydalaydi. Maydalangan ozuqa baraban ostida joylashgan shnek (1)ga kelib tushadi. Shnek massani ikkilamchi barabanga uzatadi. Ikkilamchi baraban 9 ta qo‘zg‘almas va 9 ta aylanuvchi pichoqlardan tashkil topgan. Ozuqa qo‘zg‘almas va aylanuvchi pichoqlar



*54-chizma. "Болгар-5" озуқа майдалагичи:*

1—шнек; 2—бirlамчи qирqish apparati; 3—zichlagich transportyor;  
4—boshqarish tortqisi; 5, 6, 7—tortqi yulduzchalar; 8—uzatuvchi transportyor;  
9—uzatuvchi transportyorni taranglash qurilmasi; 10—ikkilamchi qirkish  
apparati; 11—avtomat-to'xtatgich.

орасидан о‘тib 2–10 mm o‘lchamgacha maydalani. Maydalangan ozuqa ikkilamchi apparatning pastki teshigidan tushib ketadi.

Birlamchi apparatdagi spiral Г shaklidagi pichoqli baraban diametri 450 mm ni tashkil etadi. Barabanda 6 ta pichoq o‘rnatilib o‘tkirlanish burchagi  $35^{\circ}$ – $40^{\circ}$ , vintning ko‘tarilishi  $70^{\circ}$  tashkil etadi. Qarshi qirkish plastinasi  $75^{\circ}$  burchak ostida o‘tkirlanadi. Pichoq tig‘i va qarshi qirkish plastinasi oralig‘ida 0,5–1 mm tir-qish o‘rnatiladi.

Ikkilamchi apparat quyidagicha tuzilgan. Tarnov ichida maydalagich kengligiga teng bo‘lgan diametri 440 mm li ikki tomoni konsolli valda shnek joylashgan. Konsolli valning ozuqa chiqadigan tomonidagi shponka kanavkasiga sirti shlitsali bo‘lgan vtulka kiydirilgan. Valning shlitsalangan vtulkasiga ketma-ket qo‘zg‘almas (shlitsasiz) va qo‘zg‘aluvchi (shlitsali) pichoqlar kiydirilgan.

Qo‘zg‘almas pichoqlar tashqi tomoni bilan tarnov korpusidagi plankalarga qotirilgan.


“Болгар-5” uch xil texnologik tizimda ishlaydi. Qoramollariga dag‘al va suvli-shirali ozuqalarini maydalashda faqat birlamchi qirqish apparatidan foydalaniladi.

Cho‘chqa va parrandalarga ozuqa maydalanganda ikkilamchi qirqish apparatining birinchi qo‘zg‘aluvchi pichog‘i tig‘i bilan shnekning oxirgi o‘rami qirrasi orasidagi burchak o‘zgartiriladi.

Parrandalar uchun bu burchak  $9^{\circ}$  (pichoq aylanishi yo‘nalishida) va cho‘chqalar uchun  $54^{\circ}$  (pichoq aylanishiga qarama-qarshi) o‘rnatalidi. Qolgan barcha pichoqlar spiral bo‘ylab aylanishga qarama-qarshi yo‘nalishda  $72^{\circ}$  da qoldirilib joylashtiriladi.

**Dag‘al ozuqa maydalagich ИГК-30Б** – 30 foiz namlikka ega bo‘lgan somonlarni yuqori sifatda maydalaydi (55-chizma). Maydalagich ozuqa sexlari texnologik tizimlarida ham unumli foydalanishi mumkin. Maydalagich rama, ta’minalash transportyori, maydalash apparati, buriluvchi deflektor va 30 kVt quvvatga ega elektryuritgichdan tashkil topgan.

Mexanizatsiyalashgan holda ozuqani yetkazib berish uchun xizmat qiluvchi ta’minalagich gorizontal (11) va qiya (10) transportyorlardan tashkil topgan. Maydalash apparati shtiftli tipga kira-di. Shtiftlar ko‘ndalang kesimi bo‘yicha ponacha shakliga ega bo‘lib, o‘tkir tomoni bilan harakat yo‘nalishiga qaratilgan.



55-chizma. Dag‘al ozuqa maydalagich  
ИГК-30Б shakli:


- 1—kuraklar;
- 2—qaytargich;
- 3—rotor kuraklari;
- 4—disk;
- 5—sozlanuvchi qaytargich;
- 6—buriluvchi deflektor;
- 7—shtiftlar;
- 8—deka;
- 9—qabul kamrsasi;
- 10, 11—gorizontal va qiya transportyor.

**Texnologik ish jarayoni.** Ozuqa te-  
kis qilib, gorizontal transportyorga uza-  
tib turiladi. Gorizontal transportyor qiya  
transportyor bilan birga ozuqani zichlab  
va tekislab, shtiftli baraban tomonga sura-  
di. Shtiftli rotorda o‘rnatalgan qanotchalar  
havoni transportyorlar joylashgan zonadan  
so‘rib buriluvchi deflektorga yo‘naltiradi.  
Natijada ozuqa ham so‘rilab borib, deka-  
ga qotirilgan qo‘zg‘almas va aylanuvchi  
diskda joylashgan shtiftlar orasidan o‘tib  
maydalanganadi. Maydalangan ozuqa deflek-  
tor orqali keyingi ishlovga uzatiladi.

Quruq somonni maydalashda maydalagich ish unumi eng yuqori darajada bo‘ladi. Somonni namligi 18 foizdan ko‘p bo‘lsa, somon kamroq uzatiladi, 20 foizdan oshib ketsa uzatuvchi transportyor tezligi reduktoring birlamchi valiga (15), oraliq valiga (20) tishli yulduzchalar qo‘yish bilan pasaytiriladi. Somon namligining 13 dan to 36 foizga ko‘tarilishi ish unumini 1,5 marotaba pasayishiga olib keladi.

**ИРМ-50 maydalagichi** yuqori va o‘rta namlikdagi makkajo‘xori so‘talarini maydalash, cho‘chqalar uchun aralash (kombinatsiyalashgan) silos, qoramol, qo‘ylar uchun dag‘al va suvli-shirali ozuqalardan ozuqa aralashmasi tayyorlash uchun xizmat qiladi. Maydalagich rama (1), maydalash barabani, qarshi qirqish elementi (10) bilan ta’minlangan deka (9), deflektor va yuklash latogidan iborat (56-chizma).

Maydalagich harakatni elektryuritgich yoki traktoring quvvat berish validan oladi. Bolg‘ali maydalash apparati qurama ishchi organlari bilan yuklash tarnovi orqali uzatilgan ozuqani qamrab olib dekaning taram-taram (рифленные) yuzasi va pichoqlari orasida titkilab maydalaydi. Maydalangan material yuqoriga mahsulot quvuriga yoki pastga silos quvuriga uzatiladi. Maydalagich rotorida pichoqlar bolg‘a, qarshi qirqish elementlari kesik piramida yasalib, dekaga sharnir holatida biriktirilib qo‘yilgan. Pichoq va qarshi qirqish elementlari yon qismida ariqchalar yasalgan bo‘lib,



*56-chizma. ИРМ-50 maydalagichi shakli:*

1–rama; 2–elektryuritgich; 3–to‘siq; 4–bunker; 5–qopqoq, 6–pichoq; 7, 8–roliklar; 9–deka; 10–qarshi qirqish elementi.

qo'shimcha qirqish elementlari hisoblanadi. Bu maydalash energiyasi sarfini pasaytirishga, texnologik jarayon mustahkamligini oshirishga imkon beradi. Maydalagich almashtiriladigan deflektor bilan ta'minlanib ular maydalangan massani transheyaga yoki transport vositasiga yo'naltirishga imkon beradi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Somonqirqich PCC-6Б vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
2. «Волгар-5» ozuqa maydalagichi tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
3. ИГК-30Б ozuqa maydalagichi vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
4. ИРМ-50 ozuqa maydalagichi vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.

### **3.6. OZUQALARGA ISSIQLIK BILAN ISHLOV BERISH MASHINA JIHOZLARI**

Issiqlik bilan ozuqaga ishlov berishdan maqsad ularning to'yimliligi, yeyilishi, hazm bo'lishini oshirish hamda kasallik tug'diruvchi bakteriyalarни, zararli qo'shilimalarni yo'qotish hisoblanadi. Issiqlik bilan dag'al ozuqa, ildizmeva, don, omixta yem, kraxmal va yog' ishlab chiqarish qoldig'i va hayvon ozuqalariga ishlov beriladi.

Dag'al ozuqa qaynoq yoki issiq suv bilan ivitib qo'yiladi. Buning uchun 100 kg maydalangan ozuqaga 1,5–2,0 kg tuz qo'shilgan 80–100 l suv sarflanadi. Shu maqsadda qirqilgan somon ham silos damlamasi bilan ishlov beriladi. Silos damlamasi 20 kg silosni 20–30 l issiq suvda 20–30 minut davomida ivitib qo'yish bilan olinadi. Silos damlamasi bilan somonni ikki marta aralashtirgandan so'ng unga yana 20–30 l tuzlangan (1 l suvga 20–25 g tuz solinadi) qaynoq suv quyib qo'yiladi. Somonni zararsizlantirish va ta'mini yaxshilash maqsadida tuzli yoki tuzsiz suv bilan namlab, so'ng ozuqa bug'lagich ichiga 0,4–0,4 Mpa bosim ostida bug' beriladi va 30–40 minut mobaynida saqlanadi. Bug' uzatish to'xtagandan so'ng somon 3–12 soat mobaynida ushlab turilib, keyin oziqlantirishga beriladi.

**Ildizmevalar** – maydalash va issiqlik bilan ishlov berishdan avval tuproq, tosh va kesaklardan tozalanadi. Zootexnik talablarga ko‘ra tozalangan ildizmevalarning iflosligi 3 foizdan, suv sarfi oqar suvda yuvilganda – 1 tonnasiga 200 l, aylantirilib yuvganda – 100 litrdan ko‘p bo‘lmasligi shart. Lavlagilarni saqlashdagi buzilish kuzatilishi va bug‘lantirib ishlov berilishi bilan darhol oziqlantirishga uzatiladi. Aks holda uning tarkibidagi nitratlar hayvonlar uchun zararli nitritlarga aylanadi.

Dukkakli va boshoqli ekinlar donlari cho‘chqa, qo‘y va qoramol-larga parcha-parcha qilib, ezg‘ilab berish oldidan bug‘ bilan ishlov beriladi. Donlar 0,06–0,07 MPa bosim ostida tonnasiga 200 kg bug‘ ishlatib pishiriladi. Pishirilgan don bilan cho‘chqa va parrandalar oziqlantiriladi. Yosh qoramollar uchun dondan omixta yem tayyorlashda don infraqizil nur issiqligi bilan ishlov beriladi.


**Qand lavlagidan shakar tayyorlash sanoati chiqindilari** – lavlagi shinnisi somon ta’mini yaxshilash maqsadida issiq 313...323° K haroratdagi suv bilan aralashtirib tayyorlangan suvda aralashma bilan ishlatiladi. Bunda 100 l aralashmani tayyorlash uchun 35–55 kg shinni, 75 l suv foydalaniladi. Bir tonna somon uchun 1000 l aralashma sarflanadi.

Yog‘ sanoati chiqindisi kunjara – maydalangandan so‘ng ikki soat davomida 373° K haroratda qaynatiladi va 1,5–2,0 soat mobaynida ushlab turilib so‘ng qoramol, cho‘chqa, qo‘y va parandalarga beriladi.

Ozuqaga ishlov berish ozuqa bug‘lagich issiqlik almashtiruvchi to‘xtovsiz yoki davriy ishlovchi qurilmalarida amalga oshiriladi. Ular konstruksiyasi bo‘yicha bug‘lash qozoni, bug‘lash aralashtirgichi va ozuqa bug‘lash agregatlariga bo‘linadi. Hozirgi kunda chorvachilikda davriy ishlovchi bug‘lagich-ralashtirgichlari va doimiy ishlovchi bug‘lash agregatlari keng qo‘llanilmoqda.

Bug‘lagich-ralashtirgich chorvachilik fermalarida ozuqalarni bug‘lash va aralashtirish uchun qo‘llanilmoqda. 65–80 foiz namlikda ozuqa aralashmasini tayyorlash uchun C-2, C-12 tipidagi davriy ishlovchi bug‘lagich-ralashtirgichlar qo‘llaniladi. Agregatlarni ishlashi uchun unga solinadigan ozuqa komponentlari maydalangan holda bo‘lishi lozim.

Bug‘lagich-ralashtirgich C-2 (57-chizma) korpus (1), vint shaklida joylashtirilgan kurakli valdan iborat ikki aralashtirgich,



### 57-chizma. C-2 bug'lagich-arashtirgich:

1—korpus; 2—boshqarish pulti kronshteyni; 3—pult; 4—elektryuritgich; 5—himoya to'sig'i; 6—tortqi; 7—reduktor; 8—to'siq; 9—taqsimlagich; 10—manometr; 11—cheqaralagich; 12, 14—darcha qopqoqlari; 13—yuklash transportyori; 15—chapval; 16 va 17—o'ng va chap qanotlar; 18—bo'shatish shnigi; 19—o'ng val; 20—kronshteyn; 21—bo'shatish transportyori; 22—quvur; 25, 24—bug' quvurlari; 25—o'q; 26—narvon; 27—tortqi.


yopiq turdag'i yuklash va chiqarish transportyorlari (13, 21), elektr uzatma va boshqarish shkafidan tuzilgan.

Bug'lagich-arashtirgichning bug' taqsimlash qurilmasi korpusning ikki yon tomonida joylashgan.

Ishlash jarayoni quyidagicha: ozuqa komponentlari ketma-ket bug'lagichga yuklanib, qanotli aralashtirgichlar bilan aralashtirilib boradi. Bug'lash vaqtida yuklash va bo'shatish darchalari germetik (zich) yopiladi. Ozuqaning maydalanganlik darajasiga va turi ga qarab jarayon 30—75 daqqa davom etadi. Bug'lanish yakunida aralashmaga issiqlik bilan ishlov berilishi lozim bo'lмаган ozuqa komponentlari qo'shiladi. Bo'shatish shnek yordamida bajariladi. Aralashtirgich vali, bo'shatish shnigi 5,5 kVt quvvatli elektryuritgichdan reduktor orqali harakatga keladi. Yuklash va bo'shatish transportyorlarining har biri 1,1 kVt quvvatli elektryuritgichlar dan harakat oladi. Bug'lagich sig'imi  $3 \text{ m}^3$  aralashtirish ish unumi 3,5—8,7 t/s, bug'lash ish unumi 2 t/s. Ishchi bug' bosimi 0,14 MPa dan ortmasligi lozim.

Bug' sarfi 1 kg mahsulotga 0,23 kg tashkil etadi. Bug'lagich massasi 2790 kg, o'lchamlari 6000x3230x2985 mm.

**C-12A bug‘lagich-arashtirgich** (58-chizma) tuzilishi S-2 kabi, lekin ayrim konstruktiv va parametrlari farqlanadi.



58-chizma. **C-12A bug‘lagich-arashtirgich:**

1—bunker; 2—bug‘taqsimlagich; 3—kurakli qorgich; 4—bo‘shatish shnigi;  
5—qopqoq; 6—bo‘shatish shnegini boshqarish tizimi; 7—qopqoq;  
8—muhofaza to‘sig‘i; 9—uzatma;

Bug‘lagich-arashtirgich sig‘imi  $12 \text{ m}^3$ , ozuqalar aralashtirishda ish unumi  $10 \text{ t/s}$  va bug‘lashda —  $5 \text{ t/s}$  tashkil etadi. Qanotli aralashtirgich elementlar C-2 kabi bir-biriga qarab aylanib aralashtiradi. Bug‘lash uchun bug‘ sarfi  $250\text{--}300 \text{ kg}$ . Bir kg ozuqaga bug‘ sarfi  $0,28 \text{ kg}$  ni tashkil etadi. Massasi  $6100 \text{ kg}$ . O‘lchamlari  $4215 \times 2880 \times 2400 \text{ mm}$ .

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ozuqalarga issiqlik ishlovini berishning maqsadi, texnologiyasi va usullari.
2. C-2 bug‘lagich-arashtirgich vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni.
3. C-12 bug‘lagich-arashtirgich tuzilishi, texnologik ish jarayoni va texnik tavsifi.

### **3.7. OZUQALARNI ME'YORLASH VA ARALASHTIRISH MASHINA JIHOZLARI**

Hayvonlarni to'laqonli ozuqa aralashmalari bilan ta'minlashda ozuqa komponentlarini aniq o'lchovda qo'shish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ozuqa aralashmasini tayyorlashdagi muhim jarayonlardan biri ozuqalarni me'yorlash hisoblanadi.

**Me'yorlash** – belgilangan ozuqani zootexnik, texnologik va iqtisodiy talablar darajasida aniq o'lchab ajratishdir.

Qimmatbaho ozuqalar, mineral qo'shimchalar, darmondorilar yuqori aniqlikda me'yorlashni talab etadi. Ayrim hollarda belgilangan me'yordan kichik chetlanish ham hayvonlarni ozuqa hazm qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi, kasal bo'lishi va hattoki nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin.


*24-jadval*

#### **Ozuqa aralashmalarini me'yorlashni ruxsat etilgan chegaralar (komponent massasiga nisbatan foiz hisobida)**

Ozuqa komponenti	Hayvon turlari			
	qoramol	cho'chqa	qo'y	parranda
Dag'al ozuqalar, silos	10,0	10,0	10,0	–
Ildizmevalar, poliz ekinlari va boshq.	15	15	15	–
Omixta sm va konsentratlar	5,0	5,0	5,0	5,0
Ozuqa achitqilar	2,5	2,5	2,5	2,5
Go'sht ozuqalar: suyaklar	–	–	–	10,0
Go'shtlar	–	–	–	5,0
Baliq ozuqalar	–	–	–	5,0
Hayvon moylari	–	–	–	1,0
Sut mahsulotlari (sut, obrat, tvorog va boshq.)	–	–	–	2,5
To'yimli aralashmalar	5,0	5,0	5,0	–
Mineral qo'shimchalar	5,0	5,0	5,0	–
Ozuqa qoldiqlari	–	5,0	–	–

Me'yorlash shakliga qarab me'yorlagichlar hajm va massa usulida ishlovchilarga bo'linadi. Hajm me'yorlagichlari konstruksiyasi oddiy va foydalanish oson bo'ladi. Massa me'yorlagichlari

to‘xtovsiz va porsiyalab ishlovchilarga bo‘linib, avtomatik nazorat qilish va boshqarish vositasi bilan ta’minlangan. Yaxshi sochiluvchi ozuqalar me’yorlagichga o‘zi oqib tushadi, sochilmaydiganlari esa majburiy uzatiladi. Bunda bunkerga ozuqani to‘zib turuvchi moslama yoki ta’minlagich o‘rnataladi. To‘zib turuvchi sifatida titgich (ворошилка), yumshatgich (рихлитель), tebratgich (вибратор) turidagi moslamalardan foydalilanildi. Ta’minlagich mexanizmlari ozuqalarni massali me’yorlagichga tekislab yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Konstruksiyasi bo‘yicha ular tarnov, baraban, shnek, tarelka, tebranma va aeratsion tipida bo‘ladi (59-chizma).



**59-chizma. Porsiya bilan ishlovchi ta’minlagich dozatorlar:**


a—shtanga surgichli; b—zanjirli; d—zanjur shaybali; e—shnekli;  
f—shtanga shaybali; g—zanjur surgichli; h—tros shaybali; j—spiral vintli.

Poyali o‘simlik va iddizmevalardan ozuqa aralashmasi tayyorlanganda hajmli ta’minlagichlar (shnek, transportyor) foydalaniлади. Nam sochiluvchi ozuqalarni me’yorlashda tasmali, shnekli ta’minlagichlar ishlatiladi. Suyuq ozuqalar uchun turli konstruksiya dagi belgilangan o‘lchamli sig‘imlar qo’llaniladi.

Ayrim me’yorlagichlarning chizmalari 60-chizmada keltirilgan.

Barabanli me’yorlagich omixta yemning sochiluvchi komponentlarini me’yorlab berish uchun xizmat qiladi. Uning uyali barabani oltita vint shaklida valda joylashgan seksiyalardan iborat. Baraban vali krivoship kulisli mexanizm yordamida harakatga keltiriladi. Me’yorlagich ishga ayrim holda yoki umumiy harakat berish uzatmasi bilan ulanishi mumkin.

Barabanli me’yorlagichning ish unumi ( $t/s$ ) quyidagicha hisoblanadi:



#### 60-chizma. Me'yorlagichlar shakllari:

a—hajm-porsiyali; b—hajm-tasmali; d—hajm-shnekli; e—porsiyali tortish; f—hajm-barabanli; g—hajm-tarelkali; 1—bunker; 2—to'siq; 3—transportyor-me'yorlagich; 4—tortish platformasi; 5—uzatishni ta'minlagich; 6—me'yorlagich seksiyasi; 7—barabon; 8—magnit; 9—ag'dariluvchi klapan; 10—klapan o'qi; 11—me'yorlagichni harakatlantrirish vali; 12—disk; 13—surgich; 14—manjet.

$$Q = 3,6 F_k l z n_b k p,$$

bu yerda:  $F_k$  – barabon uyasining ko'ndalang kesim yuzasi,  $m^2$ ;  $l$  – uyaning uzunligi, m;  $z$  – barabandagi uyalar soni, dona;  $n_b$  – barabanning aylanish soni,  $s^{-1}$ ;  $k$  – uyalarni to'lish koefitsiyenti ( $k = 0,7 \dots 0,8$ );  $p$  – mahsulotning hajm massasi,  $kg/m^3$ .

Tarelkali me'yorlagich – donli sochiluvchi ozuqalarini me'yorlash uchun xizmat qiladi. Me'yorlagichda disk shaklidagi ishchi organi o'rnatilgan. Ozuqa surgich yordamida surib tushiriladi. Me'yorlash manjet bilan tushirish darchasi kesim yuzasini o'zgartirish bilan sozlanadi.

Tarelkali me'yorlagich ish unumi 0 quyidagicha hisoblanadi.

$$Q = 3600 V \cdot n,$$

bu yerda:  $V$  – tarelkaning bir aylanishida tushadigan mahsulot,  $m^3$ ;  $n$  – tarelkani aylanish tezligi,  $s^{-1}$ .

Shnekli me'yorlagichlar sochiluvchi ozuqalarni me'yorlash uchun ishlataladi. Ish unumi shnek vali aylanishlari sonini yoki shnekka mahsulot yuklash darchasi kesim yuzasini o'zgartirish bilan ta'minlanadi. Shnek me'yorlagichini to'ldirish koeffitsiyenti  $k = 0,97 - 0,98$ .

**Poyayan ozuqalarni yig'gich-ta'minlagichlar** – yirik chorvachilik fermalarida, to'la ratsionli omixta yem tayyorlash sexlarida silos, senaj, maydalangan somon, pichan va boshqa ozuqalarni qabul qilish, yig'ish va me'yorli uzatish maqsadida qo'llaniladi.

Poyalni ozuqalar sochilmash va bog'liq xususiyatga ega bo'lganligi sababli yig'gich-ta'minlagichlarda konveyer-biterli mexanizmlar qo'llaniladi (61-chizma).

**ПЗМ-1,5** – yashil ozuqa massasi bilan vitaminli o't uni tayyorlash agregatini hamda dag'al ozuqa, silosni omixta yem qilish va uni yig'ish va me'yorlab uzatish uchun xizmat qiladi (62-chizma).


Asosiy ishchi organlari: qabul tarnovi (1) gidrosilindr (2) bilan ko'tariladi, qiya konveyer (7), tekislovchi (tarovchi) biter (6), zanjir taxtachali konveyer tezligini o'zgartiruvchi kulislari mexanizm (3) va tushirish vintli konveyerdan tashkil topgan.


Konveyer va biterlar elektryuritgichdan harakat oladi. Gidrosilindr nasosi alohida elektryuritgichiga ega. Tarnov undan ozuqani olinishiga maksimum  $70^{\circ}$  gacha yuqoriga qarab ko'tarilib boradi. Ish unumi zanjir taxtacha konveyeridagi ozuqani uzatish qalilnigi va tezligiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, tekislash biterini o'rnatilish holati va konveyerni harakatga keltirish yulduzchalar tishlari soni o'zgartirilib erishiladi.

**БДК-Ф-70-20 bunker-me'yorlagich** poyalni ozuqalarni qabul qilish, to'plash va me'yorli tarqatish uchun xizmat qiladi (63-chizma).

*61-chizma. Yig'gich-ta'minlagichlarning texnologik shakkllari:*

- a—ПЗМ-1,5;
- b—БДК-Ф-70-20;
- d—КПГ-10.46.15;
- e—ПДК-10.





*62-chizma.*  
**ПЗМ-1,5 ozuqa  
ta'minlagich yuklagichi:**


- 1—qabul tarnovi;
- 2—gidrosilindr;
- 3—gidrouzatma;
- 4—kulislis mehanizm;
- 5—tushirish mehanizmi elektruzatmasi;
- 6—tekislash biteri;
- 7—konveyer.

БДК-7-20 bunker (1), uzatuvchi transportyor (2), biterlar bloki (5), harakatga keltirish mehanizmi va boshqarish qutisidan iborat.

Biterlar bloki ikkita uzatuvchi (faol barmoqlari bilan) va bitta tekislovchi biterdan tashkil topgan. Har bir biter markazdagi val va unga biriktirilgan qanotchalaridan tashkil topib, planetar mehanizm yordamida harakatga keltiriladi. Biterlarning aylanish soni  $1,46 \text{ s}^{-1}$  va barabani taroqlariniki  $0,73 \text{ s}^{-1}$  ga teng.

Ozuqa o'zi to'kuvchi transportyor yordamida bunkeriga to-qiladi.

Uzatuvchi transport ozuqani biterlar blokiga uzatadi. Biterning faol barmoqdari ozuqani qamrab olib, tasmali transportyorga beradi. Taroqlash transportyori tasma harakatiga teskari aylanib bir tekisdagi ozuqa qatlarni yuzaga keltiradi. Ozuqa qatlami qalinligi vintli mehanizm yordamida sozlanadi. Makkajo'xori silosi bilan ishslashda bunker-me'yорлагич ish unumi  $4,2\text{--}41,6 \text{ t/s}$ , maydalangan somonda –  $2,3\cdot9 \text{ t/s}$  tashkil etadi. Harakatga keltirish uzatmasi  $8,6 \text{ kVt}$  quvvatni talab etadi.



*63-chizma.*  
**БДК-Ф-70-20 bunker-  
me'yорлагичи:**

- 1—bunker;
- 2—uzatuvchi transporyor;
- 3—tasmali transportyor;
- 4—taroqlash barabani;
- 5—bitterlar bloki.

**Massali me'yorlagichlar** yuqori aniqlikda zarur ozuqani to'xtovsiz va porsiyali qilib yetkazib beradi (64-chizma, *a, b*).


Tasmali avtomatik me'yorlagichda ozuqa bunker (1)dan to'xtovsiz ravishda tasmali transportyor (3)ga tushib turadi. Tasmali transportyor ostida og'irlikni o'lchab borish uchun balansir bilan tortqi orqali bog'langan tarozi datchigi (4) o'rnatilgan. Transportyor tasmasiga tushayotgan yuk massasi me'yoridagidan o'zgarsa, datchik bunkerdan tushish qopqog'ining ochish-yopish mexanizmi ga ta'sir ko'rsatadi va me'yoriy ozuqa tushish zarur tirqish kattaligini ta'minlab beradi.

Porsiya bilan ishlovchi massali me'yorlagich (64-chizma, *b*) bunkerining tubi konussimon etib yasalib, platformada harakatlar tarozi ustiga o'rnatiladi. Me'yorlagich qo'l bilan harakatga keltirilib, aralashtrigichni yuklagich bo'g'izi oldida to'xtatilib ishlatiladi.

**Suyuq komponentlar me'yorlagichlari** – davriy yoki to'xtovsiz harakatli bo'ladi.


Bir po'kakli sozlagichli me'yorlagich (65-chizma, *a*) quyida- gi tartibda ishlaydi. Suyuq ozuqa komponenti bosim idishi (2)dan quvur (1) orqali oqib, me'yorlash bakiga kelib tushadi. Suyuq ozuqa sarfi quvur (1)da o'rnatilgan kran (4) va me'yorlash bakidagi po'kak (поплавок) (5) yordamida amalga oshiriladi.

Sozlagich tizimidagi bir po'kakli sozlagich-me'yorlagich (65-chizma, *b*) rezervuar (1), doimiy suyuqlik darajasini ushlab turuvchi po'kak (2), quvur (3), quvurchalar (4, 7) va teshiklar (5, 6)dan iborat. Me'yorlanayotgan aralashma rezervuarga quvurcha (4) va teshik (5) orqali tushadi. Teshik kesim yuzasi po'kak (2) yordami-



64-chizma. To'xtovsiz yoki porsiya bilan ishlovchi massali me'yorlagich

**shakli:** *a*—to'xtovsiz; *b*—porsiyali; 1—bunker; 2—qopqoqni boshqarish mexanizmi; 3—tasmali transportyor; 4—torozi datchigi; 5—og'irlik muvozanatllovchi (balansir); 6—platforma.



**65-chizma. Suyuq ozuqa komponentlari me'yorlagichlari shakli:**

a, b, d, e, f, g—to'xtovsiz me'yorlagichlar; g—davriy me'yorlagich;

a—bosim baki va bir po'kakli sozlagich bilan; b—bir po'kakli sozlagich tizimidagi me'yorlagich; d—bir po'kakli sozlagich bosimli bak bilan; e—ikki po'kakli sozlagich bilan; f—kovsh tipidagi; g—elektromagnit klapani bilan; h—mikrome'yorlagich.

da o'zgartiriladi. Aralashma teshik (6) orqali (7) quvurcha yordamida chiqariladi.

Bosim baki suyuq aralashmalar quyidagicha me'yorlanadi (65-chizma, d). Aralashma me'yorlagich bakiga quvur (1) va sharli klapan (2) orqali tushadi. Sharli klapan aralashma sathini doimiyligini saqlab turadi. Bakning oldi tomoniga shakldor chiqarish quvuri (3) biriktirilgan. Aralashmani oqish teshigi bosimi, har xil burchak ostida quvur (3)ning holatini o'zgartirish bilan sozalanadi.

Ikki po'kak sozlagichli me'yorlagich (65-chizma, e) me'yorlash baki (2)da suyuq aralashma sathining sozlovchi sektor qopqoq (1) bilan ta'minlangan. Me'yorlagich korpusi ikki seksiyali rezervuar-ga o'xshab, ustkisi bosim va pastkisi chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi. Ta'minlagich quvurchasida (3) bosim baki po'kagi (5) bilan bog'langan to'siqcha (4) o'rnatilgan. Suyuqlikni oqish miqdorini sozlash quvurcha (6)da o'rnatilgan sektorli qopqoqcha (1) bilan amalga oshiriladi. Ustki bakdan tushgan suyuqlikni chiqarish uchun po'kak (9), quvurcha (7) va qopqoq (8) xizmat qiladi.

To'xtovsiz ravishda qayishqoq suyuqliklarni me'yorlash uchun xizmat qiluvchi kovshli me'yorlagich (65-chizma, f) to'g'ri bur-chakli rezervuar (1), rezervuar ichida disk (3)ga o'rnatilgan olti kovsh g'ildirak (2)dan tashkil topgan. Disk doimiy burchak tezlikda aylanuvchi valning konsol qismiga qotirilgan. Me'yorlanuvchi suyuqlik quvur (4) orqali tagida yuqoriga ko'taruvchi quvur (5) o'rnatilgan rezervuarni to'ldiradi. Suyuqlikning kerakli bosimi vintli mexanizm (6) va tortqi (7) yordamida quvurcha (5)ni ko'tarish va tushirish bilan amalga oshiriladi. Kovsh pastki holatida suyuqlik bilan to'ladi va yuqoriga chiqqanda suyuqlikni chiqarish quvur-chasi (8)ga to'kadi.

Elektromagnit klapanli davriy ishlovchi me'yorlagich (65-chizma, g) quyidagicha ishlaydi. Suyuqlik bak (1)ga elektromagnitli klapan (2) va uch yo'lli kran (3) orqali tushadi. Bak to'lishi bilan po'kak (4) o'q (5) bilan ko'tariladi. Belgilangan porsiyadagi suyuqlik to'lgach (6, 7) kontakt birlashib elektromagnit klapan (2) ni ishlatadi hamda suyuqlik kelishi to'xtaydi. Suyuqlikni me'yoriy miqdori kontaktni o'q bo'ylab siljitib sozlanadi.

Mikrome'yorlagich suyuq mikroelementlarni davriy tarzda me'yorlab berish uchun xizmat qiladi (65-chizma, h). Mikroelementlarni aralashtirish va me'yorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Avval komponentlar me'yorlanib, to'ldirgichga quyib aralashtiriladi. Mikroelementlar yaxshilab maydalaniib, issiq suvda eritiladi va sarf baki to'ldiriladi. Sarf bakidan shtutser (1) orqali aralashma mikrome'yorlagich (2) kamerasiga tushadi. Kameradagi suyuqaralashma sathi po'kak (3) ignasi bilan ushlab turiladi. Suyuq aralashma bog'lovchi quvur (4) orqali mikrome'yorlagich korpusiga o'tadi. Suyuqlik sarfi igna (5)ning holatini o'zgartirish bilan sozlanadi.

## Aralashtirgichpar

Aralashtirish deb, ozuqa komponentlari zarrachalarini bir tekisda qo'shib, omixta qilishga aytildi. Ozuqalarni aralashtirish mekanik holda maxsus mashinalar yordamida amalga oshiriladi. Aralashtirish natijasida hosil bo'lgan ozuqalarga baho berish quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

25-jadval

### Ozuqa aralashmalariga baho berish shkalasi


Aralashma bahosi	Guruh tartibi	Aralashmadagi nazorat komponentlarining nazariy ko'rsatkichga nisbati, foiz
Yaxshi	1	8 gacha
Qoniqarli	2	8-10
Yetarli qoniqarli emas	3	10-15
Yomon	4	15 dan yuqori

Ozuqa aralashmasida hisoblangan ko'rsatkichlarga nisbatan o'zgarishi dag'al ozuqa – 20 foiz, ildizmeva va poliz ekinlari – 30, omixta yem va konsentratlar – 10, ozuqa achitqilar – 5, go'sht-suyak va baliq – 10, mineral qo'shimchalar – 10 foizgacha ruxsat etiladi. Zootexnik talablarga ko'ra ozuqa aralashmasi komponentlari aralashishi tekisligi qoramolga – 80 foiz (karbamid qo'shilganda 90 foiz), cho'chqaga – 90 (ozuqa qoldiqlaridan foydalanishda – 80 foiz), qo'yga 75–80, mo'ynabop darrandaga – 80 foizdan kam bo'lmasligi lozim.

Ozuqa aralashtirgichlar aralashtirish texnologik jarayonini tashkil etish, ishchi organlari konstruksiyasi va aylanish tezligi bilan bir-biridan farqlanadi. Texnologik jarayoni bo'yicha porsiyali va to'xtovsiz ishlovchilarga bo'linadi. Aralashtirilayotgan ozuqalarga qarab quruq omixta yem tayyorlovchi va sochiluvchi nam suyuq ozuqa aralashmasi tayyorlovchi aralashtirgichlarga ajratiladi. Ish jarayonini tashkil etish bo'yicha aralashtirgich aylanuvchi va qo'zg'almas kamerali bo'ladi (66-chizma).

Birinchi guruhga har xil konstruktiv shaklda bajarilgan barabanli, gorizontal, vertikal yoki qiya joylashgan aralashtirgichlar kiradi.

Ikkinci guruhga qorgich aralashtirgichlar kiradi. Qorgichlar (67-chizma) ishchi organlari konstruksiyasiga mos ravishda quyi-




**66-chizma. Ozuqa aralashtirgichlar shakli:**

I. a, b—to‘xtovsiz gorizontal harakatli; d—davriy harakatlanuvchi vertikal shnek; e, f—davriy kurakli aralashtirgich; g—barabanli davriy aralashtirgich; h—suyuq ozuqalar uchun propellerli aralashtirgich; II. 1—aralashtirgich tarnovi; 2—kuraklar; 3—val; 4—uzatma.

dagi aralashtirgichlar qo‘llaniladi: shnekli, kurakli va tasmali – sochiluvchi ozuqalar uchun; turbinli, parrakli va kurakli – suyuq ozuqalar uchun; shnekli va kurakli – nam sochiluvchi (poyali) ozuqalar uchun.

Qorgichlarni aylanish tezligiga qarab aralashtirgichlar tez va sekin ishlovchilarga bo‘linadi. Sekin ishlovchi aralashtirgichlarga kinematik rejim ko‘rsatkichi  $K=(w^2R/g)<30$  bu yerda  $Q$  – qor-gich radiusi), tez ishlovchilarda esa  $K>30$  bo‘ladi. Aralashtirgichlar qorgichlar soniga qarab bir yoki ikki valli qilib yasaladi.

**Sut o‘rnini bosuvchi aralashma tayyorlash agregati A3M-0,8A** (68-chizma) vertikal holda joylashgan porsiyali usulda ishlovchi aralashtirgich-bug‘lagich sanaladi. Aralashtirgich-bug‘lagich ikki korpusdan (ichkisi (9) zanglamas va tashqisi (7) konstruksion



67-chizma. Qorgich turlari:


a—kurakli; b, d, e—tasmali; f, g, h, j—turbinli; h, i, k, l, m—parrakli.

po'latdan yasalgan) tashkil topgan. Korpuslar oralig'ida 23 mm qalilikda issiqlikni muhofazalash havo ko'ylagi mavjud bo'lib, aralashmani sovitish jarayonida kran (18) orqali sovuq suv bilan to'ldiriladi.

Ichki korpus suv bilan kran (19) yordamida, omixta yemlarni qabul bunkeri (5)dan yuklash shnigi (6) orqali to'ldiriladi. Qabul bunkerining ichida ozuqalarini to'planib qolmasligini ta'minlash uchun yumshatish – uloqtiruvchi moslama va ustki qopqoq mavjud.

**Obrat** (yog'i olingan sut) korpusga bosh quvur (2)da o'rnatilgan kran 20 ochilganda quvurcha (1) orqali kiradi. Yog', biostimulator, va boshqa qo'shimchalar kran (13) ochilgandan so'ng nasos-emulgator orqali bachok (10)ga quyiladi.

Nasos-emulgator aralashmani emulsiya qilish hamda agre-



68-chizma. A3M-0,8A agregati shakli:

- 1—quvurcha og'zi; 2—bosh quvur; 3—but quvurchasi og'zi; 4—qorgich;
- 5—qabul bunker; 6—shnek; 7—tashqi korpus; 8—elektryuritgich;
- 9—ichki korpus; 10—bachok; 11—quvur; 12—termometr; 13— kran;
- 14—nasos-emulgator; 15—kran; 16—chiqarish shlangi; 17—filtr;
- 18, 19, 20—yopgich kranlar.

gatga obratni kiritish va quvurlarni ozuqa qoldiqlaridan yuvisha da xizmat qiladi. Nasos qo'zg'almas disk bilan nasos va emulsiya kameralariga bo'lingan. Nasos kamerasidagi qanotcha bosim os-tida aralashtirgichdan ozuqa omixtasini emulsiya kamerasiga uza-tadi. Emulsiya kamerasida ikkita, qo'zg'almas va aylanuvchi disk bo'lib, qo'zg'almasida ikki qator va aylanuvchida uch qator shtiftli bo'laklagichlar o'rnatilgan. Shtiftli bo'laklagichlar oraliq'idan o'tgan ozuqa maydalanib, yupqa dispersli emulsiyaga aylanib, bosh quvurcha orqali tashqariga chiqariladi. Nasos-emulgatorni muho-fazalash uchun ozuqa massasi filtr (17) orqali o'tadi.

Agregat ish jarayoni quyidagicha kechadi. Aralashtirgich-bug'lagich dastlab suv quvuridan suv, qabul bunkeri omixta yem bilan to'ldiriladi. Qorgich (4) va shnek (6) ishga tushirilib, omixta yem suv bilan aralashtiriladi. Bir vaqtning o'zida bug' qozonidan truba og'zi (3) orqali 40–70 kPa bosim ostida bug' yuboriladi. Suv isiydi va omixta yem 35° K haroratda 1 soat mobaynida bug'lanadi.

Qorgich vaqt-vaqt bilan ishlatib turiladi. Bug'lash yakunida aralashma harorati 368° K yetkazilib, bug' yopiladi va 5–7 minut mobaynida damlab qo'yiladi. Keyin korpuslar (7,9) oralig'iغا sovuq oqar suv berib harorat 325°–330° K gacha tushiriladi. So'ngra aralashtirgichga nasos emulgator (14) orqali yog' va qo'shimchalar kiritiladi. Kiritilgan komponentlar sirkulyatsiya qilish yo'li bilan aralashtiriladi. Sirqulyatsiya: aralashgirgich-filtr-nasos-emulgator-kran-quvur-aralashtirgich bilan yopiq tizimni tashkil etadi. Aralashma harorati termometr (12) bilan kuzatib boriladi va 320°K ga tushganda filtr orqali aralashtirgichga obrat kiritiladi. Tayyor bo'lgan aralashma 308...310° K gacha tushirilib, nasos-emulgator bilan shlang (16) orqali olib ketish uchun idishlarga quyiladi. Tayyorlangan ozuqa agregat ichida soat mobaynida 800 kg sut o'rnnini bosuvchi aralashma tayyorlash imkoniyatiga ega. Bug' sarfi 1 kg aralashmaga 0,12 kg ni tashkil etadi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ozuqalarni me'yorlash chegaralarini tushuntirib bering.
2. Omixta yem va konsentratlarni qo'ylar uchun me'yorlash chegarasi necha foizga teng?
3. Me'yorlagich turlari va ulardan qanday foydalanish mumkin?
4. Hajm me'yorlagichlar chizmalari va ish jarayonlari.
5. ПЗМ-5 yig'gich-ta'minlagich va БДК-Ф-70-20 bunker me'yorlagich vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
6. Massali me'yorlagichning vazifasi, tuzilishi va texnologik jarayoni.
7. Suyuq ozuqalarni me'yorlagichlarning turlari, tuzilishi, ishlashi va sozlanishini tushuntiring.
8. Aralashtirgich vazifasi, turlari, ish jarayoni va ish sifatining balanishi.
9. A3M-0,8A vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayonini aytинг.

## 4-BO'LIM

### QO'SHIMCHA OZUQA RESURSLARIDAN FOYDALANISH

#### 4.1. QO'SHIMCHA OZUQA TURLARI, ULARNING TASNIFI, TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI

**Paxta ozuqalari.** Ma'lumki, 1 t paxtaga ishlov berilganda 560–580 kg gacha ozuqa, 1 kg chigitdan 400 g kunjara, 300 g shulxa olinadi. Bundan kelib chiqib, 70 foiz chigit massasi ozuqa sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga chang'aloqlardan foydalanish tajribalari ham mavjud. Chang'aloq tarkibida 9–10 foiz protein, 2,1–2,3 – yog', 42–44 – to'qima va 38–41 foiz azotsiz ekstraktiv moddalar bor. Tarkibida to'qimaning ko'p bo'lganligi uni tarkibidagi organik moddalarni hazm bo'lishini pasaytiradi (50 foiz atrofida). Chang'alojni yeyilishi va hazm bo'lishi boshqa ozuqalar bilan birgalikda donador (гранул) ozuqalar tarkibida foydalanilganda erishilgan. Chang'aloq donador ozuqalar tarkibiga 20–30 foiz miqdorida qo'shiladi. 40 foiz arpa somoni, 20 – turli pichanlar, 20 – omixta yem va 20 foiz chang'aloq qo'shilgan 1 kg donador ozuqaning to'yimliligi 0,53 ozuqa birligi va 48 g hazm bo'luvchi proteinidan tashkil topgan. Bunday ozuqanining quruq moddasi 50 foizga-

26-jadval

**Paxta ozuqalarining kimyoviy tarkibi  
(K.Qoriboyev, V.Dalakyan ma'lumotlari)**

Ozuqa	Umumiy namligi, foiz	Quruq moddaga nisbatan tarkibi, %					1 kg ozuqaning to'yimliligi, kg
		protein	yog'	to'qimi	Azotsiz ekstraktiv modda	Kul	
Paxta kunjarasi	8,5	31,72	7,4	14,71	31,31	6,35	1,1
Paxta shulxasi	1,79	7,66	1,89	41,66	41,0	6,00	0,31
Paxta shroti	6,4	38,0	1,40	15,0	32,0	7,2	1,02
G'o'zapoya	14,8	5,2	1,7	47,7	23,9	6,7	0,1
Qaynoq svuda 24 soat ishlov berib, ushlangan g'o'zapoya	–	8,92	2,09	39,52	43,69	5,78	–

cha hazm bo‘lgan, qo‘ylar bu ozuqani kuniga 1600–1640 g gacha iste’mol qilgan.

Chang‘aloq to‘yimliligini oshirishning yana bir usuli uni ishqorli reagentlar bilan ishlov berish hisoblanadi. Chang‘aloqni o‘yuvchi natriy (6 foiz hisobida) bilan ishlov berilganda to‘qimaning hazm bo‘lishi 43,5 dan 69,7 foizgacha oshgan.

Makkajo‘xori so‘tasining o‘zagi kimyoviy tarkibi agroiqlim sharoitdan kelib chiqqan holda ko‘p o‘zgarmaydi. Har xil xom va hazm bo‘luvchi moddalar o‘zakning namligiga bog‘liq. O‘zak namligi esa 5–8 dan to 18–22 foizgacha boradi. O‘rtacha olganda 100 kg makkajo‘xori o‘zagida 35 kg ozuqa birligi va 1500 g hazm bo‘luvchi protein mavjud. Umumiy to‘yimliliği bo‘yicha makkajo‘xori o‘zagi suli, arpa, tariq somonidan qolishmaydi, lekin juda dag‘al bo‘lganligi sababli o‘zakni hayvonlar natural holatda iste’mol qilmaydi. Makkajo‘xori so‘tasi boshqa ozuqlardan donadorlar tayyorlashda ozuqa komponenti (umumiy mas-saga 50 foiz miqdorida) sifatida qo‘llaniladi. Buning uchun so‘ta maydalagichlar yordamida maydalanadi. 12–15 foiz namlikdagি so‘talar avval pichoqli qirqgichlar yordamida, keyin bolg‘ali maydalagichlarda maydalanadi. Maydalangan makkajo‘xori so‘talari sochiluvchi ozuqa aralashmalari tayyorlashda ham keng foydalaniladi. So‘talari dag‘al ozuqa sifatida konsentratlar, vitaminlar va mineral qo‘srimchalar bilan aralashtiriladi. So‘talarni maydalangan somon bilan birga bug‘lab berilsa, aralashma yumshoq holda bo‘lib yaxshi iste’mol qilinadi. So‘tada protein va mineral qo‘srimchalar kam bo‘lganligi uchun uni boshqa to‘yimli qo‘srimchalar bilan boyitish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Azotli qo‘srimchalar sifatida melassa aralashmasidagi mochevinadan foydalanish mumkin (1 qism melassaga 3–4 qism suv qo‘shiladi).

1 kg bunday ozuqa aralashmalarida 0,4 ozuqa birligi va 30 g hazm bo‘luvchi protein mavjud. Makkajo‘xori so‘tasi bir o‘zi dag‘al ozuqa sifatida foydalanilganda 5–8 mm qilib maydalanishi zarur. So‘ta to‘qimasi silos, senaj va pichan bilan birga yaxshi hazm bo‘ladi. Aralashmadan sigirlarga bir kecha kunduzda 6–9 kg, bir yoshdan oshgan mollarga 3–5 va katta qo‘ylarga 1,2–1,5 kg miqdorida beriladi. Agar so‘ta somon bilan birga bug‘lansa, 12–15 mm qilib maydalash kifoya qiladi.

**Qoramol va qo‘ylar uchun so‘ta qo‘shilgan ozuqa aralashmalari  
retsepti, massaga nisbatan foiz hisobida**

Komponent	Variantlar			
	1	2	3	4
Arpa somoni	42	—	—	—
Maydalangan makkajo‘xori so‘tasi	40	80	80	88,5
Kepak, arpa, suli va boshqa donlar siniqlari	5	18	13,5	—
Kunjara va shrotlar	5	—	5	—
Melassa	5	—	—	9
Mochevina	1,5	1,0	—	1,5
Trikalsiyfosfat	1,0	0,5	1,0	0,5
Osh tuzi	0,5	0,5	0,5	0,5

So‘ta o‘ramasi yaxshi uglevodli ozuqa bo‘lib, qoramol va ozgina miqdorda cho‘chqa va parrandalarga berish foydalidir. Zavodlarda makkajo‘xori so‘tasi o‘ramasi quritilib, un qilib maydalaniadi va omixta yem tarkibiga qo‘shiladi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarga so‘ta o‘ramasi uni ratsionga 35 foizgacha, cho‘chqalarga 3–5 foiz va parrandalarga 2–3 foiz miqdorida qo‘shish tavsiya etiladi.

So‘ta o‘ramalari ko‘p bo‘lmagan hollarda ularni natural holda maydalab silos, pichan, konsentrat va boshqa ozuqalar bilan qo‘shib berish mumkin.

Kungaboqar to‘pguli va poya, barglari maydalanganda har 1 hektar yer maydoniga 10–16 t ni tashkil etadi. Quruq vegetativ modda kungaboqar naviga qarab, 25–40 s/ga bo‘ladi. Vegetativ massanining 55–63 foiz to‘pguldan va 37–45 foiz poyadan iboratdir. Kungaboqar urug‘ini yig‘ish davrida uning namligi 20–22 foizni tashkil etadi. Yig‘ish muddati o‘tishi bilan to‘pgul va poya tez quriy boshlaydi. Natijada uning barglari tushib protein kamayadi va to‘qima ortib boradi. Kungaboqar to‘pguli to‘yimli ozuqa sanaladi. Uning tarkibida ko‘p miqdorda yog‘, azotsiz eksaktiv modda bo‘lib to‘qima kam bo‘ladi.

## Kungaboqarning mandalangandan so‘nggi komyoviy tarkibi

Kungaboqar qismi	Namligi	Quruq modda tarkibida, foiz				
		yog‘	protein	to‘qima	azotsiz ekstraktiv modda	kul
To‘pgul	14	3,8	6,9	14,7		12,6
Poya va bargi	10,7	0,9	3,62	41,84	48	6,9
O‘zagi	11,2	1,41	24,4	21,07	36,04 32,59	9,40

Ayrim xo‘jaliklar to‘pgul va poyani yuqori qismidan qirqib olinadi. Bunda massa 45–55 foiz namlikni tashkil etadi. U quritib, maydalangandan so‘ng 1 kg unida 0,7–0,8 kg ozuqa birligi, 60–70 g hazm bo‘lувчи protein bo‘ladi. Uning tarkibidagi 4–6 foiz yog‘ sutdor va bo‘rdoqichilikdagi qoramollar uchun ayniqsa, foydalidir. Bu ozuqani sigirlarga kuniga 3–4 kg, bir yoshdan oshgan buzoqlarga 2–2,5 kg, qo‘ylarga 0,4–0,6 kg berish mumkin. To‘pgul uni suvli-shirali va dag‘al ozuqalar bilan omixta holda berilishi tavsiya etiladi.

## Ozuqa qoldiqlaridan hayvonlarni oziqlantirishda foydalanish

Ozuqa qoldiqlari hayvonlarni oziqlantirishda qo‘srimcha ozuqa zaxiralaridan hisoblanadi. 1 kg ozuqa qoldig‘i tarkibida 22,3 foiz quruq modda, shu jumladan, 10–15 g hazm bo‘lувчи protein, 2,25 g kalsiy va 1,5 g fosfor mavjud bo‘lib, uni tarkibi, yig‘ish joyi va davriga qarab 0,15–0,30 kg ozuqa birligi mavjud.

Umumiy ovqatlanish shoxobchalaridan va individual ovqatlanish sektoridan chiqadigan ozuqa qoldiqlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumotlarga ko‘ra 20–25 foiz go‘sht mahsulotlari, (suyak, teri, pay, chandir), 20–40 foiz kartoshka, 20–25 foiz sabzi, lavlagi, 25 foiz baliq, 9 foiz parranda, 8 foiz meva-cheva, tarvuz, qovun va 20–40 foiz karam mahsulotlari jamoatchilik oziqlanishida birlamchi chiqindilar, deb qabul qilin-gan. Umumiy ovqatlanish shoxobchalar, oshxonalar, restoran, bolalar bog‘chalari, kasalxonalar ozuqa chiqindilarining 1 kg quruq moddasi 1,2 kg ozuqa birligiga, 100 g hazm bo‘lувчи proteinga, 25 g kalsiyga va 10 g fosforga ega.

Pivo sanoati chiqindisi solod (undirib yanchilgan don) 0,67 kg ozuqa birligiga, 132 g – proteinga, 0,067 g – fosforga, 0,025 g – kalsiyga, 2,5 mg karotinga ega. Solod konsentrat ozuqalarni tejashga yordam beradi.

Konserva sanoati chiqindilari ishlov berilayotgan mahsulotning 21 foizni tashkil etadi. Bular poliz, meva-sabzavot ekinlari, uzumlarning standart talablariga javob bermagan nuqsonli, yuvish va tozalash jarayonida ajratilgan chiqindilar, terilari, to‘poni va dag‘al tola qismlari hisoblanadi. Masalan, pomidor sharbati chiqindilari 20 foizni, sabzi – 4, yashil no‘xat – 83, kartoshka – 40, danakli mevalar – 8–16, uzum, karam – 18 foizgacha chiqindi beradi.

Uzum qoldiqlarini barcha turdag'i hayvonlarga berish mumkin. Uzum to‘poni tarkibida 11,5 foiz protein, 12,2 foiz to‘qima, 45,2 foiz azotsiz ekstraktiv moddalar va 5,1 foiz kul bor.

Yog‘i olingan sut (obrat) yosh hayvonlar uchun foydalidir. Uning tarkibida 3,5 foiz oqsil, 4,5–4,7 foiz sut shakari, 0,7 foiz kul, aminokislotalar va B guruh vitaminlar bor.

Aholidan yig‘iladigan ozuqa chiqindilari tarkibi qoldiq yig‘ilgan hududga, joyiga, vaqtiga, shu yildagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosiliga va ko‘p faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. O‘rtacha olin-ganda quyidagi ko‘rsatkichlarga ega (29-jadval).

*29-jadval*

### Ozuqa qoldiqlari strukturasi

Ozuqa qoldiqlari komponentlari	Komponentlarning ozuqa qoldig‘idagi miqdori, foiz
Kartoshka po‘choqlari	40-43
Poliz chiqindilari	32-35
Meva-cheva qoldiqlari	5-11
Go‘sht chiqindilari	0,2-0,6
Baliq chiqindilari	1,0-2,5
Non qoldiqlari	3,5-8,5
Suyaklar	1-2,6
Iste’molga yaroqsiz qoldiqlar	3-3,2

**Ozuqa qoldiqlari to‘yimliligi (1 kg da)**

Ozuqa turlari	Ozuqa birligi	Hazm bo‘luvchi protein, g	Kalsiy, g	Fosfor, g	Karotin, g	1 ozuqa birligi uchun talab qilinadi
Umumiy ovqatlanish shoxobchalari chiqindisi	0,24	24			5	4,1
Individual ovqatlanish chiqindisi	0,33	38			5	3,3
Non qoldiqlari	0,94	73	0,2	0,8		1,1
Kartoshka chiqindilar	0,22	10	0,3	0,4		4,6
Sut zardobi	0,08	9	0,5	0,4		12,5
Yangi yog‘i olingan sut	0,17	98	1,8	1	1	5,9
Obrat	0,13	31	1,2	1	1	7,7
Karam chiqindilar	0,12	17	2,6	0,4	20	8,3
Kartoshka	0,3	9	0,3	0,5		3,3
Pivo achitqilar	0,3	70		0,2		3,3
Baliq qoldiqlari	0,64	184	1,2	0,8		1,6
Kartoshka po‘stlog‘i	0,13	3	0,1	0,3		7,7

Ozuqa qoldiqlaridan ekologik sharoitni yaxshilash uchun tozalanishi kerakligi hamda ozuqa sifatida foydali bo‘lgani bu umumiy ovqatlanish shoxobchalari va aholidan yig‘iladigan oziq-ovqat qoldiqlari sanaladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ozuqa sifatida inson foydalanadigan mahsulotlardan uning qanday tejamli foydalanishidan qat’iy nazar bir odam boshiga bir yilda 50–60 kg miqdorida ozuqa qoldig‘i chiqar ekan. Buni misol tariqasida ko‘rsatsak, 2 mln 400 ming kishidan ko‘p aholi yashovchi Toshkent shahridan bir yilda 120000 t miqdorida natural ozuqa qoldig‘i chiqadi, to‘yimliligi jihatidan esa 34200 t donli ozuqaga teng demakdir.

Ozuqa qoldiqlarini yig‘ish va hayvonlarga ozuqa sifatida foydalanish hududiy bo‘lim bosh veterinarining yozma ruxsatnomasi bilan amalga oshiriladi. Yuqumli kasalliklar kasalxonasidan, xalqaro aeroportlar restorani va oshxonalaridan yig‘iladigan ozuqa qoldiqlari dan foydalanish qat’ian man etiladi.

Mavjud sanitар qoidalariga ko‘ra ozuqa ovqat qoldiqlari

yig‘iladigan qopqoqli idish zanglamaydigan materialdan tayyorlanib, nitra yoki moyli rang bilan qoplanishi shart. Idish belgilangan vaqt mobaynida 1,5–2 foizli xlor ohagi, kalsiy sodasi bilan ishlov berib, suv bilan yuvilib turiladi. Yoz davrida ozuqa qoldiqlari tez chiriydi, unda toksik moddalar paydo bo‘lib, ozuqa to‘yimliligi pasayib ketadi. Shu sababli ham ozuqa qoldig‘i yoz kunlarida 8–10 soat va harorat 6...7 °C bo‘lganda, 30 soat muddat ichida ishlov berib, hayvonlarga berish lozim.

### **Ozuqa qoldiqlariga ishlov berish texnologiyasi**

Ozuqa qoldiqlariga ishlov berish uch yo‘nalishga bo‘linadi.

Механик ишлов: озуқа қолдиqlари тарқибидан ноозуқа аралашмаларни ажратиб олиш—майдалаш—қирғыш—қуритиш—донадорлыш; кимовиғи ишлов: диаммоний фосфат, ош тузи, пироусульфат натрий билан ишлов бериш; биологик ишлов бериш: ачитиш ва хар хил ferment preparatlarni qo‘shish.

Механик ишлов берилгандан со‘нг озуқа қолдиг‘ини иssiq bug‘ билан стерилитсиya qilish muhim texnologik jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunda yirik chorva fermalarida озуқа қолдиqlariga ishlov berilishi maxsus озуқа tayyorlash sexlarida o‘tkaziladi.

Qozon-sterilizatorlardan foydalanib ishlovchi ikki texnologiya mavjud. Birinchi texnologiyaga muvofiq озуқа қолдиг‘и tabiiy ko‘rinishda pishirib qaynatiladi. Bu texnologiyada озуқа қолдиqlariga ishlov berish ularning o‘lchamlari har xil bo‘lganligi sababli узоқ vaqt davom etadi. Natijada озуқа қолдиг‘ини to‘yimliligi pasayadi. Ikkinci texnologiyada озуқа қолдиqlari issiqlik bilan ishlov berishdan oldin bolg‘ali maydalagichlarda maydalanadi. Bu texnologiya bir qancha afzalliliklarga ega. Maydalangan озуқа zarrachalari bir vaqtida, tekis qiziydi va sterilizatsiya bo‘ladi. Maydalangan озуқа қолдиqlari тарқибидан ноозуқа аралашмаларни ажратиб олиш yengil va sifatli kechadi. Озуқа қолдиг‘ини to‘yimliligi saqlanib qoladi. Озуқа sexining ish unumi qozonlarga ko‘proq mahsulot to‘ldirilishi va steriliizatsiyash jarayonini tezlashishi hisobiga 1,5–2 marta oshadi.


Озуқа қолдиqlarini maydalash, omixta yem tayyorlash tizimi quyidagi texnologik jarayonlardan iborat: озуқа қолдиqlarini qabul va transportirovka qilish – ayrim yirik nooзуқа аралашмalaridan tozalash—maydalash—bug‘lash-sterilizatsiya qilish—saqlash bun-

kerlarida sovutish—omixta yemlar bilan me'yorlash—aralashtirish—ozuqa aralashmasini tarqatish.

Ozuqa qoldiqlari ishlov berilgandan so'ng boshqa ozuqalar bilan aralashtirilib beriladi. Cho'chqachilikda ozuqa qoldiqlari to'yimliligi bo'yicha ratsionning 35–50 foizini tashkil etadi. Ratsionning qolgan qismini omixta yemga qo'shiladi. Ozuqani boyitish maqsadida unga ozuqa balig'i, sut zardobi, mel va tuz qo'shiladi.

Ozuqa qoldig'i maxsus mashinalarda keltiriladi. Tashqi nazoratdan so'ng ozuqa qoldiqlari maxsus qabul maydonchasiga tushiriladi. Maydonchadan ozuqa qoldig'i buldozer yordamida yoki to'g'ri avtomobilning o'zidan saqlash xandag'i (1)ga tushiriladi (69-chizma).

Saqlash xandag'i 15–20 t qoldiqni sig'diradi. Xandaqdag'i qoldiqlarni yuklashni yengillashtirish uchun ta'minlagich (3) o'rnatilgan. Xandaq konus shaklida g'ishtdan yasaladi. Saqlash xandag'idan ozuqa qoldiqlari kovshli yuklagich yordamida maydalash uchun maydalagich (5)ga uzatiladi. Ozuqa sexida ikkita ДБУ-Ф-20 maydalagichi o'rnatiladi. Maydalangan ozuqa yana saqlash xandag'i (6)ga tushiriladi. Xandaq (6)dan kovshli transportyor (4) orqali ozuqa qoldig'i pishirish qozoni (7)ga uzatiladi. Qozonlar sig'imi 9 m<sup>3</sup> dan qilib, diametri 1,5 m va uzunligi 6 m quvurdan yasalgan. Bug' qozonga 6,5 t/s ish unumiga ega bo'lgan uchta qozondan yuboriladi.



**69-chizma. Ozuqa qoldiqlariga ishlov berish shakli:**

1—ozuqa qoldiqlarini qabul qilishi xandag'i; 2 va 4—ПКК-20 kovshli ozuqa yuklagichi; 3—ta'minlagich; 5—ДБУ-Ф-20 ozuqa maydalagichi;

6—maydalangan ozuqa qoldiqlari xandag'i; 7—pishirish qozoni; 8—aralashtirgich; 9—omixta yem me'yorlagich; 10—omixta yem bunker; 11—puflash qozoni.

Qozonda aralashtirish kuragi o‘rnatilgan. Pishgan, sterili-zatsiya bo‘lgan qoldiqlar aralashtirgich (8)ga tushib, omixta yem va boshqa ozuqa qo‘srimchalari bilan aralashtiriladi. Omix-ta yem me’yorlangan holda aralashtirishga kiradi. Aralashgan ozuqa qoldig‘i 80–85 foiz namlikda puflash qozoni (11) orqali cho‘chqaxona ozuqa qabuli bunkerlariga kelib tushadi.

Ozuqa qoldiqlaridan unumli foydalanadigan yirik chorva ferma va komplekslari uchun uni qayta ishlovchi КПО-150 jihoz-lar kompleksi mavjud. Bu kompleksga binoan 12–24 ming bosh cho‘chqa fermalarida ozuqa qoldig‘ini qayta ishlash va ozuqa ar-alashmasini tayyorlash mumkin. Jihozlar kompleksi maxsus ozuqa sexi binosida montaj qilinadi. Sexda 3–5 kun mobaynida ozuqa qoldiqlarini, konsentratlarni, obrat va zardoblarni saqlab turish uchun mo‘ljallangan qo‘srimcha uchta saqlagich bunkeri joy-lashtiriladi.

КПО-150 jihozlar kompleksiga quyidagilar kiradi:

ПКК-20 kovshli yuklagich – ozuqa qoldiqlarini xandaqdan maydalagichga, maydalangan ozuqalarni keyingi ishlovga uzatish uchun xizmat qiladi. Yuklagich ish unumi 20 t/s;

ДБУ-Ф-20 panjarasiz universal maydalagich – ozuqa qoldiqla-rini maydalash (20 mm gacha – 70 foiz, qolganlari 40 mm gacha). Maydalagich ish unumi 30 t/s;

СПО-40 – maydalangan ozuqa qoldiqlaridan noozuqa aralash-malarni (latta, yelim xalta va boshqa) ajratib tozalash;

3III-40.000 – to‘rt seksiyali shnekli yuklagich (uchta seksiya 5 m, to‘rtinchisi – 2,8 m uzunlikda), beshta shiber qopqoqli tushirish darchalariga ega;

КП-5.000 – puflash qozoni, tayyor ozuqa aralashmalarini bug‘lagich-aralashtirgichdan qabul qilib olib, havo yordamida 6 kg/s/m<sup>2</sup> bosim bilan bunker-yig‘gichga uzatadi;

3C-6.00.000 bug‘lagich-aralashtirgich – maydalangan, toza-langan ozuqa qoldiqlarini qaynatish, sterilizatsiya qilish va aralashtirib berish uchun xizmat qiladi;sovutgich sterilizatsiya qilin-gan ozuqalarni suv yordamida sirkulyatsiya qilish bilan 70 °C haroratgacha Sovutib beradi. Sovutish suvining sarfi 1:1 bo‘ladi va 8...35 °C haroratgacha isib qolgan suvni texnologik hojatlar uchun foydalanish mumkin;

ПУС-1.03.000 yig‘gich-bunker sexdan tashqarida o‘rnatiladi;

KCЭ-5M kompressor – suyuq ozuqalarni binolarga haydash uchun xizmat qiladi;

КПО-150 kompleksi mashina jihozlari yettita texnologik tizim-ga birikib ishlaydi:


- qabul qilish, maydalash, metalldan tozalash va yig‘ish;
- noozuqa tolali qo‘srimchalar, konserva bankalari, yelim xalta va boshqalardan tozalash, hamda bug‘lagich-arashtirgichga uzatish;
- suyuq qoldiqlarini bug‘lash va sterilizatsiya qilish uchun is-siqlik bilan ishlov berish hamda puflash qozoniga uzatish;
- ozuqa qoldiqlarini qabul qilib yig‘ish va sovutish;
- suyuq ozuqa qo‘srimchalari zardob, obrat va paxtalarni qabul qilish, saqlash va ozuqa aralashmasiga qo‘sish;
- omixta yem, o‘t uni va boshqa quruq qo‘srimchalarni qabul qilish, saqlash va aralashirgichga uzatish;
- suyuq va quruq ozuqa qo‘srimchalarini sterilizatsiya qilin-gan ozuqa qoldiqlari bilan aralashdirib, aralashmani magistral ozuqa quvuri orqali tarqatgichlar bunker-yig‘ichlariga yetkazib berish.

КПО-150 jihozlari negizida ishlovchi namunaviy ozuqa sex-ing texnologik ish jarayoni 70-chizmada tasvirlangan.

Ozuqa qoldiqlari maxsus transport vositasida tashilib, sexning qabul qilish maydonchalariga tushiriladi. U yerdan ozuqa qoldiqlari buldozer yordamida qabul xandaqlariga uzatiladi. Xandaqdan ozuqa qoldiqlari kovshli transportyor ПКК-20 yordamida magnit tozalagich kolonkasi orqali ДБУ-Ф-20 maydalagichlariga uza-tiladi. Maydalangan ozuqa qoldiqlari o‘zi oqib yig‘ich xandaqqa tushadi. Yig‘ich xandaqda ozuqa qoldiqlari tarkibidagi noozuqa og‘ir qo‘srimchalar (metall, shisha, tosh va boshqa) cho‘kib, xan-daq tubida qoladi.

Kovshli ПКК-20 transportyorlari qisman tozalangan ozuqa qoldiqlarini yig‘ich-xandaqdan СПО-40 tolali noozuqa aralashmalarni tozalash separatoriga uzatadi. СПО-40 separatoridan suyuq ozuqalar separator panjaralar orasidan sizib o‘g‘ib, 3III-40 shnegi bilan taqsimlash klapani orqali 3С-6 bug‘lagich-arashtir-gichiga kelib tushadi. Ozuqa aralashmalari 1,5 soat mobaynida germetik yopiq bug‘lagichda 100 °C dan kam bo‘limgan harorat ostida aralashdirilib turilib, sterilizatsiya qilinadi.

Sterilizatsiyalangan ozuqa aralashmalari ПУС-1.04 ning



**70-chizma. Ozuqa qoldiqlariga ishlov berish namuna sexining shakli:**

I ozuqa tayyorlash bo'limi; II xomashyo qabul bo'limi; III koridor; IV operator xonasasi; V kompressorkxona; VI ventkamera; VII issiqlik bo'limi; VIII maishiy xona; IX sut chiqindi mahsulotlari qabuli bo'limi; X inventarizatsiya xonasasi; XI hojatxona; XII tambur; I-T-66Д chig'iri; 2-ПКК-20 kovshli yuklagichi; 3-60 m<sup>3</sup> hajmli ozuqa qabuli xandag'i; 4-ДБУ-Ф-20 maydalagichi, magnit kolonkasi bilan; 5-150 m<sup>3</sup> hajmli maydalangan ozuqa qoldiqlarini yig'ish xandag'i; 6-СПО-40 noozuqa aralashmalar separatori; 7-3Ш-40 shnek-yuklagich; 8-3C-6 pishirish qozoni; 9-КП-5 puflush qozoni; 10-10 m<sup>3</sup> hajmli ПУС-1.03 bunker-yig'gichi; 11-3C-6 aralashtirgichi; 12-nasos; 13-bir oqimli issiqlik almashtirgich; 14-kompressor; 15-qisilgan havoni tozalash va quritish bloki; 16-issiqlik almashtirgich; 17-vakuum qurilmasi; 18-B-10 havo yig'gich; 19-B-0,5 havo yig'gich; 20-tayyor ozuqa quvuri; 27-B2-OMB-5,3-sut qoldiqlari uchun vertikal rezervuar; 22-sut nasosi; 23-ТСЦ-25/15-transportyori; 24-konteyner isitgichlar.

o'zgartirish mexanizmi va quvur orqali bug' bosimi va keyin vakuum ta'sirida КП-5-1 puflush qozoniga, u yerdan siqilgan havo yordamida ozuqa sexidan tashqarida joylashgan ПУС-1.03 bunker-yig'gichiga yuboriladi. Bunkerdan ozuqa aralashmalari ozuqa quvuri orqali ФГ-115/38Б fekal nasosiga kelib tushadi.

Nasos massani TT-76 108-10/10 quvurli issiqlik almashtirgichi orqali bunkerga tushirib, to aralashma harorati 70 °C ga tushishi-ga qadar sirkulyatsiya qildiradi. Bunker-yig'gichdan sovutilgan ozuqa qoldiqlari o'zgartirish mexanizmi orqali 3C-6 aralashtirgichiga tushadi. Aralashtirgichga yana qabul bunkeri B2-OMB-6.3 dan suyuq ozuqa qo'shimchalari va ombordan omixta yemlar

kelib tushadi. Aralashtirgichda sterilizatsiya qilingan, sovutilgan ozuqa qoldiqlari, suyuq qo'shimchalar va omixta yemlar bilan aralashtiriladi. Tayyor suyuq ozuqa aralashmasi o'zi oqib va vakuum ta'sirida o'zgartirish mexanizmi yordamida КП-5-1 puflash qozoniga kelib tushadi. Puflash qozoni ozuqa aralashmasini magistral ozuqa quvuri orqali hayvonlar joylashgan binolardagi yig'gich – bunkerlariga siqilgan havo yordamida yuboradi.

*31-jadval*

### **KПO-150 kompleksining tasnifi**

Ko'rsatkichlar nomi	Hajmi
Ish unumi, t/s	20
O'rnatilgan quvvati, kVt	157
Bug'lagichlarning jami sig'imi, m <sup>3</sup>	30
Bug'lagichdagi ishchi bosim, atm.	0,7
1 t ozuqa qoldig'iga bug' sarfi, kg	200
Aralashtirish notejisligi, foiz	10
1 t ozuqa aralashmasiga mehnat sarfi, odam/soat	0,23
Jihozlarni joylashtirish maydoni, m <sup>2</sup>	460
Massasi, t	63

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Paxtachilik ozuqalari, to'yimliligi va foydalanish usullari.
2. Makkajo'xori so'tasi: to'yimliligi, foydalanish usuli va ratsion tarkibi.
3. Kungaboqarning kimyoviy tarkibi va foydalanish usullari.
4. Ozuqa qoldiqlari tarkibi, to'yimliligi, yig'ish tartibi va ozuqa ratsionidagi miqdori.
5. Ozuqa qoldiqlariga ishlov berish texnologiyasini aytib bering.
6. Ozuqa qoldiqlariga ishlov berish texnologik shakli va qo'llanilgan mashina jihozlarini ta'riflab bering.

### **4.2. OZUQA QOLDIQLARIGA ISHLOV BERISH MASHINA JIHOZLARI**

Ozuqa sexi va oshxonalari qoshida ozuqa qoldiqlarini qabul qilish uchun maxsus yopiq xonalar, maydonlar yoki idishlar

o‘rnataladi. Boshqa joylarga ozuqa qoldiqlarini tushirish veterinariya qonunlariga binoan man qilinadi.


Ozuqa qoldig‘idan bo‘shatilgandan so‘ng konteyner har safar yuvish moslamalaridan foydalanilgan holda yuvilib, veterinar mutaxassisni kuzatuvi ostida dizenfeksiya qilinadi. Konteynerlarni yuvish va dezinfeksiya qilish ishlari maxsus ajratilgan va jihozlangan maydonda o‘tkaziladi. Ozuqa qoldiqlarini maydondan pishirish qozonlariga yoki yig‘ish maydonlariga yetkazish uchun ПЭ-0,8B yuklagich-ekskavator yoki ПФ-0,75 rusumli frontal yuklagichlardan foydalaniladi.

Yig‘gich-xandaqlaridan ozuqa qoldiqlarini chiqarib maydalagichga yetkazib berish uchun ПКК-20 rusumli kovshli transportyordan foydalaniladi. Yashil ozuqa ta’minlagichi ПЗМ-1,5 dan ham ozuqa qoldiqlarini me’yorlab uzatish uchun foydalanish mumkin. Ozuqa qoldiqlarini quritish agregatlariga yetkazish uchun НЖН-200A nasosini qo’llash mumkin. Sut qoldiqlarini bug‘lagich-arał-ashtirgichga yetkazishda 36 МЦ-10-20 sut nasosi yordam beradi. Sut qoldiqlarini saqlashda B2-OMB-2,5 , B2-OMB-6.3 rezervuarlari qo’lllaniladi.

ПКК-20 kovshli ozuqa yuklagich ozuqani chuqur xandaqdan maydalagichga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Transportyor maydalanmagan ozuqa qoldiqlarini ham uzatib berishi mumkin.

Yuklagich (71-chizma) qismlarga ajraladigan rama (1), vtulka-rolikli zanjir (2), tortish o‘qi (10), ilgak (14), tayanch boshmog‘i (8), ustun (9), halqa (13), rolik (12), barmoq (11), elektryuritgich (5), mufta (4), reduktor (3), zanjirli uzatma (6) va kovsh (15)dan iborat.

Yuklagich ramasi shvellerlardan payvandlab tayyorlangan. Ramaning ustki qismiga yetakchi val podshipniklari, elektryuritgich bilan qotirilgan. Ramaning pastki qismida tortqi o‘qi uchun yoriqcha qoldirilib, tayanch-ustun payvandlab qo‘yilgan. Kovshlar boltlar yordamida zanjirga qotirilgan. Yuklagich elastik muf-ta va reduktor orqali elektryuritgichdan ishga tushadi. Yuklagich xandaqqa qiya holatda o‘rnatalib, 15...60° burchak ostida ishlaydi. Yuklagich chig‘ir yordamida ko‘tarib tushiriladi. Chig‘irning po‘lat arqonining bir uchi yuklagich roligiga ikkinchi uchi bining tayanch balkasiga qotiriladi. Yuklagich elektr apparati yordamida boshqariladi. To‘plagich-xandaq uzunligi yuklagichning erkin holda ko‘tarilib tushishini ta’minalash lozim.



**71-chizma. IIKK-20 kovshli-yuklagich:**  
 1—rama; 2—vtulka-rolikli zanjir; 3—reduktor;  
 4—elastik mufta; 5—elektryuritgich; 6—zanjirli  
 uzatma; 7—yetakchi val; 8—tayanch boshmog'i;  
 9—ustun; 10—tortqi o'q; 11—barmoq; 12—rolik;  
 13—halqa; 14—ilgak; 15—kovsh.

Sozlashda zanjirning o‘z og‘irligidan 300–400 mm egilib tur-  
 sa, me’yorida hisoblanadi. Rolikning ishqalanishi natijasidagi mi-  
 nimum diametri 53 mm dan kam bo‘lmasligi lozim. Chig‘irning  
 tortish og‘irligi 1000 kg, ko‘tarish tezligi 0,15 m/s, elektryuritgich  
 quvvati 3 kWt, massasi 500 kg.


Yuklagich yuqori xavfli jihozlar turkumiga kiradi, shu sababli  
 uni montaj qilishda, foydalanishda va texnik xizmat ko‘rsatishda  
 xavfsizlik qoidalalariga to‘la rioya qilish zarur.

**IIKK-20 kovshli-yuklagichning asosiy texnik tavsiflari**

Ko'rsatkichlar	Hajmi
Ish unumi, 45° qiyalikda, t/s	30 gacha
Gorizontga nisbatan qiyaligi, grad.	15-60
Elektryuritgichning o'rnatilgan quvvati, kVt	3
Kovshlarning harakat tezligi, m/s	0,77
Kovsh sig'imi, dm <sup>3</sup>	12
Kovsh qadami, mm	812,8
Gabarit o'lchamlari, mm	9260x1040x1835
Massa, kg	1420

**3III-40 yuklash shnogi** – maydalangan ozuqa qoldiqlarini bug'-lagich-alarashtirgichga yetkazib berish uchun xizmat qiladi (72-chizma). Yuklagich – gorizontal vintli transportyori to'rtta seksiya yuklash 1 va tushirish 7,8 va 10), yuklash bo'g'izi (9) va olinadigan qopqoqlari (4), shnek (3) va harakatga keltirish stansiyasi (6)dan tuzilgan. Seksiyalar flaneslari oraliq'iga qistirma (11) qo'yilib, boltlar yordamida o'zaro qotirilgan. Har bir seksiya flanesi tayanch podshipnigi (2)ga mustahkamlangan. Oxirgi podshipnik (12) tayanch ustuni (13)ga biriktirilgan.

Seksiyalar vali oraliq tayanch-larga biriktirilgan. Yuklagich beshta 412x420 o'lchamli yuklash bo'g'izlari bilan ta'minlangan. Bo'g'izlar qopqoqlar bilan yopil-gan. Yuklagich bo'g'izlari og'zi bug'lagichlar yuklash darchalari bilan birga joylashadi. Yuklagich ishlash davomida ozuqa qoldiqlari tarkibida uchraydigan noozuqa-viy tolali materiallar yuklagichning valiga tushishi yoki shnekni qisib qolishi mumkin. Shuning uchun kundalik texnik qarov o'tkazishda, albatta, shnek, chet-



72-chizma. **3III-40 shnekli yuklagich:**

1-yuklash seksiyasi; 2-oraliq podshipnik; 3-shnek; 4-qopqoq; 5-qulf; 6- harakat stansiyasi; 7 va 10-tushirish seksiyalari; 9-tushirish bo'g'izi; 11-qistirma; 12-chetki podshipnik; 13-ustun.

ki vtulkalarni ko‘zdan kechirib, zarur bo‘lsa, tortib qo‘yish maqsad-ga muvofiq sanaladi.

*33-jadval*

### 3III-40 shnekli yuklagichning asosiy texnik tavsifi

Ko‘rsatkichlar	Hajmi
Ish unumi, t/s	50 gacha
Elektryuritgich quvvati, kVt	5,5
Shnek diametri, mm	400
Shnek o‘rami qadami, mm	320
Shnek aylanishlari soni, min <sup>-1</sup>	22
Gabarit o‘lchamlari, mm	18800x580x620
Massa, kg	1650

**36МЦ-10-20 (36-1Ц2,8-20) markazdan qochma sut nasosi** – sut zardobi, obrat (yog‘i olingan sut) va boshqa suyuq ozuqalarini transport vositasidan saqlash idishlariga, bug‘lagich-arashtirgichga yoki issiqlik bilan ishlov berishga uzatish uchun xizmat qiladi. Nasos elektryuritgich flanesiga mahkamlangan korpus, elektryuritgichga uchi bilan biriktirilgan ishchi g‘ildiragidan tuzilgan. Nasosning so‘ruvchi va haydovchi quvurlari bilan biriktiruvchi nippeli bor.

*34-jadval*

### 36МЦ-1-20 (36-1Ц2,8-20) sut nasoslarining asosiy texnik tavsiflari

Ko‘rsatkichlar	Hajmi
Uzatish, m <sup>3</sup> /s	10
Bosim, MPa	0,2
Elektryuritgich quvvati, kVt	1,5
Quvur og‘zi diametri, mm:	
so‘ruvchi	36
haydovchi	36
Gabarit o‘lchamlari, mm	480x370x430
Massa, kg	26

**B2-OMB-6,3 sut saqlagich rezervuari** – ozuqa sexida sut goldiqlari, chiqindilarini saqlash uchun xizmat qiladi. Sut chiqin-

dilari nasosning so‘rish quvuriga o‘zi oqib tushadi, so‘ng nasos uni rezervuarga haydaydi. Rezervuardan ozuqa aralashtirgichiga yoki butlagichga termik ishlov berish uchun uzatiladi.

B2-OMB-6.3 rezervuari ikkita sferik tubli vertikal idishdan iborat. Rezervuar quyidagi asosiy elementlar: korpus, yuvish qurilmasi, havo chiqargich, nazorat oynasi, aralashtirish moslamasi, sath ko‘rsatkichi va elektr jihozlardan tashkil topgan.


Lyuk rezervuarda yuvish qurilmasi va ejektorni o‘rnatish, ta’mirlash hamda ichki yuzasini nazorat qilib borish uchun xizmat qiladi. Rezervuar to‘g‘ri vertikal holda o‘rnatiladi. Uni to‘ldirish uchun uch yo‘lli kran va pastki qismida joylashgan quvur o‘rnatilgan.

35-jadval

#### Sut saqlash rezervuarlarining asosiy texnik tavsifi

Tip	B2-OMB-2,5	B2-OMB-6,3
Sig‘imi, dm <sup>3</sup>	2500	6300
Elektryuritgich quvvati, kVt	0,6	0,6
To‘ldirish quvuri og‘zi diametri, mm	50	50
Gabarit o‘lchamlari, mm	1426x1426x1320	2324x2122x3540
Massa, kg	620	1200

Ozuqa qoldiqlari tarkibida 3–8 foizgacha noozuqa aralashmalar mavjud. Hozirgi kunda noozuqa aralashmalarni ajratishning ikki texnologiyasi qo‘llanilmoqda. Birinchi texnologiya bo‘yicha ozuqa aralashmalar pasta shakligacha maydalanib, so‘ng separatsiya qilinadi. Ikkinci texnologiyada ozuqa qoldig‘i 0,07 MPa bosim ostida bug‘lab suyuq oquvchi materialga aylantiriladi va separatsiya qilinadi. Og‘ir noaralashma qoldiqlar (metall, shisha, tosh va hokazo) yig‘gichlar tubida cho‘ktirilib qolinadi. Birinchi texnologiya bo‘yicha ozuqa qoldiqlari yig‘ish xandag‘ida suvgaga aralashtirilib, magnit qo‘silmalari magnit yordamida ajratiladi. Ikkinci texnologiyada yig‘ish maydonchasida yirik noozuqa aralashmalar avval qo‘lda tozalanib olinadi. Bug‘lab olingandan so‘ng og‘ir noozuqa aralashmalar yig‘gich-bunkeri tubida qolib ketadi. Keyin suyuq ozuqa qoldiqlari perfo baraban yoki panjaradan separatsiya qilib olinadi. Bu usulda ishlovchi ozuqa sexlari tuzilishi sodda, lekin ayrim kamchiliklardan xoli emas. Issiqlik ko‘p



**73-chizma. ДПО-20 ozuqa qoldig'i maydalagichi:**

1—to'xtatadigan bolt; 2-paz; 3-orqa panjara; 4-rotor disk; 5-val; 6-ekssentrik shayba; 7-balg'a; 8-oldingi panjara; 9-eszik; 10-o'q; 11-yuklash darchasi; 12-qaytargich; 13-bunker-ushlagich; 14-korpus.

Rasmiy, rotor val (5) da aylanuvchi disk (4) sharnirli osilgan bolg'alar (7)dan tashkil topgan. Rotor vali korpusining yon ikki chekkasida mustahkamlangan podshipniklariga o'rnatilgan. Korpus ustki qismida yuklash darchasi (11), qaytargich (12) va noozuqa aralashmalarni ushlash bunkerini (13) va rotoring ostki qismida ikkita panjaradan tashkil topgan. Panjara oldingi (8) va orqa (3) qismiga bo'lingan. Panjara tayanch teşiklar (2)ga qotirilib, orasida 45 mm tirqish qoldirilgan. Panjara korpusiga bolt (1) va ekssentrik shayba (6) qotirilib, rotor va panjara orasidagi tirqish kattaligini sozlashga imkon beradi. Korpusdagi eszik (9) panjaralarni almashtirish uchun xizmat qiladi. Maydalagich elektryuritgichdan ponasimon tasma orqa-li harakat oladi.

Maydalagich xavfli mashinalar turkumiga kirib, montaj qilish, foydalanish va texnik qarov ishlarini o'tkazishda ko'rsatmada belgilangan barcha qonun qoidalarga qat'yan rioya qilish zarur. Maydalagich DPO-20 ozuqa qoldiqlarini maydalashda 10:1 nisbatda suv yoki sut qoldiqlari aralashtiriladi. Bu maydalagich panjarasini tiflib qolmasligini ta'minlaydi.

Surf bo'lishi, bug'lash qozoni dan ozuqani chiqarishda katta diametrli quvurlar, yuqori bug' bosimni talab etilishi shular jumlasidandir.

DPO-20 ozuqa qoldig'i maydalagichi – yirik noozuqa aralashmalari bo'limgan ozuqa qoldiqlarini maydalash uchun xizmat qiladi (73-chizma).

Ozuqa qoldiqlari ПКК-20 yuklagichi yordamida maydalagichni yuklash darchasiga uza tiladi. Maydalagichda material bolg'ali barabanda maydalananib markazdan qochma kuch ta'sirida panjaradan sizib o'tadi.

Maydalagich korpus (14), korpus ichida maydalash kame rasi, rotor val (5) da aylanuvchi disk (4), diskdagi o'qlar (10)ga

yuklash darchasi (11), qaytargich (12) va noozuqa aralashmalarni ushlash bunkerini (13) va

rotoring ostki qismida ikkita panjaradan tashkil topgan. Panjara

oldingi (8) va orqa (3) qismiga bo'lingan. Panjara tayanch te

şiklar (2)ga qotirilib, orasida 45 mm tirqish qoldirilgan. Pan

jara korpusiga bolt (1) va ekssentrik shayba (6) qotirilib, rotor

va panjara orasidagi tirqish kattaligini sozlashga imkon beradi.

Korpusdagi eszik (9) panjaralarni almashtirish uchun xizmat

qiladi. Maydalagich elektryuritgichdan ponasimon tasma orqa-

li harakat oladi.

Maydalagich xavfli mashinalar turkumiga kirib, montaj qilish,

foydalanish va texnik qarov ishlarini o'tkazishda ko'rsatmada bel

gilangan barcha qonun qoidalarga qat'yan rioya qilish zarur. May

dalagich DPO-20 ozuqa qoldiqlarini maydalashda 10:1 nisbatda

suv yoki sut qoldiqlari aralashtiriladi. Bu maydalagich panjarasini

tiflib qolmasligini ta'minlaydi.

Maydalangan ozuqa qoldiqlari zarrachalari o'lchamining 5 mm gacha bo'lgani – 45 foiz, 30 mm gacha – 94–95 foiz va qolgan 5 foiz 30–60 mm bo'ladi.

Maydalagich kamchiligi: texnologik jarayonni ta'minlash uchun suv qo'shilishi ozuqa massasi namligini oshirib, uning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maydalashda bir xil o'lchamga ega bo'linmaydi. Bolg'alar tez muddatda ishqalanib ishdan chiqadi.

*36-jadval*

### ДПО-20 maydalagichining asosiy texnik tasnifi

Ko'rsatkichlar	Hajmi
Ish unumi, t/s	20
Elektryuritgichda o'rnatilgan quvvat, kVt	30
Rotor uzunligi, mm	750
Rotor diametri, mm	600
Gabarit o'lchamlari, mm	2200x1910x1180
Massa, kg	1930

Universal panjarasiz ДБУ-Ф-20 ozuqa qoldiqlari maydalagichi ko'rsatkichlari va tasnifi 3–4-bo'limda keltirilgan.


**ДТК-20М3 maydalagichi** – go'sht-suyak ozuqalarini va muzlagan baliqni qirib (фугование) maydalash uchun xizmat qiladi. Tozalangan ozuqa qoldiqlarini maydalaydi.

*37-jadval*

### ДТК-20М3 maydalagichining asosiy texnik tavsiflari

Ko'rsatkichlar	Hajmi
Ish unumi, t/s	20
Elektryuritgichda o'rnatilgan quvvat, kVt	75
Pichoqli baraban diametri, mm	760
Barabanning aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	970
Gabarit o'lchamlari, mm	5600x3260x2840
Massa, kg	7750

Maydalagich korpus ramasi, baraban, tormoz moslamasi, amortizatorlar, uzatma va qabul bunkeridan iborat. Rama va kor-



#### 74-chizma. DTK-78 qattiq konfiskatlarni maydalagachi:

1—elektryuritgich; 2—rama;  
3—amortizatorlar; 4—himoya to'sig'i;  
5—korpus; 6—baraban; 7—qabul  
bunkeri; 8—chiqarish shnekli  
transporteri.

**ДТК-78 qattiq konfiskatlarni maydalagichi** – oldindan noozuqa aralashmalardan tozalangan ozuqa qoldig'i, qushxona chiqindilari va muzlagan baliqlarni maydalash uchun xizmat qiladi. Maydalash, qirish usulida bajariladi. Qirindi qalinligi 3–9 mm. Maydalagich rama (74-chizma) (2), korpus (5), baraban (6), qabul bunkeri (7), shnekli transportyor (8), amortizatorlar (3), elektryuritgich (1) va himoya to'sig'i (4)dan iborat.

38-jadval

#### ДТК-78 qattiq konfiskatlarni maydalagichining asosiy texnik tavsiflari

Ko'rsatkichlar	Hajmi
Ish unumi, t/s	15
Elektryuritgichda o'rnatilgan quvvat, kVt	55
Pichoqli baraban diametri, mm	500
Barabanning aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	16,2
Gabarit o'lchamlari, mm	2600x1255x1550
Massa, kg	3215

Maydalagich korpusi payvandlab tayyorlanib, barabanning to'sig'i sanaladi. Baraban sirtida shaxmat tartibida faol pichoqlar o'rnatilgan. Maydalagichda shovqin va vibratsiyani so'ndirish maqsadida maydalagich fundamentga amortizator orqali montaj qilinadi. Maydalagich transportyor yordamida yuklanadi, chiq-

pus bir butun qilib payvandlangan. Korpus ichining orqa devori tirkishiga qo'zg'almas ikkita qarshi kontr pichoq qotirilib, pastki tomoniga yuvish kollektori o'rnatilgan.

Pichoqli baraban shaxmat tartibida valga zichlab o'rnatilgan to'rtta disk sirtiga mahkamlangan. Maydalash darajasi pichoqning chiqish uzunligi bilan sozlanadi.

Elektryuritgich РЛ-9 moyli reostati bilan ishga tushiriladi.

38-jadval

ДТК-78 qattiq konfiskatlarni maydalagichining

asosiy texnik tavsiflari

rishda maydalagich elektryuritgichidan ishlovchi shnek bilan chiqariladi.

**K7-ФИ2-С kuchli maydalagichi** – suyak va qushxonada qayta ishlashning 30 foizli qattiq konfiskatlar aralashmasini maydalash uchun xizmat qiladi. Ozuqa sexlarida ferma qushxonalarini qoldiqlarini, konfiskatlari va boshqa materiallarni maydalaydi. Kuchli maydalagich sexlarning maxsus ajratilgan binosiga o'rnatiladi. Maydalash darajasi 50x50 mm tashkil etadi.

Maydalagich qirqish mexanizmi va uzatmadan tashkil topgan. Qirqish mexanizmi vint shaklida valga qotirilgan pichoqlar va qo'zg'almas qarshi qirqish pichoqlaridan tashkil topgan. Uzatma elektryuritgich va elastik mufta orqali biriktirilgan reduktor dan tashkil topgan. Korpusning ustki qismida qirqish mexanizmi tepasida yuklash tarnovi o'rnatilgan. Tarnovdan material yulknadi va qirqish mexanizmining faol hamda qarshi qirqish pichoqlari yordamida qirqilib, vintsimon harakat bilan chiqarish darchasiga qarab siljiydi. Ish yakunida maydalagich barcha ozuqa materiallari chiqib ketgunga qadar salt ishlab turishi lozim. So'ngra maydalagich ishchi organlari issiq suv bilan yuvib tozalanadi.


39-jadval

### **K7-ФИ2-С maydalagichi texnik tavsifi**

Ko'rsatkichlar	Hajmi
Ish unumi, t/s	4,5-5,5
Elektryuritgichda o'rnatilgan quvvat, kVt	22
Pichoqli baraban diametri, mm	46
Gabarit o'lchamlari, mm	2935x1480x1435
Massa, kg	3240

**СПО-40 ozuqa qoldiqlari separatori** – ozuqa sexlarida maydalangan ozuqa qoldiqlari tarkibidan noozuqa aralashmalarni ajratish uchun xizmat qiladi (75-chizma).

Separator maydalagichdan o'tgan 50 mm dan katta bo'lmagan qattiq, sim, tola shaklidagi uzun tolali aralashmalarni, shlak, qum va metall predmetlarni ajratadi. Suyaklar va maydalanib ulgurman gan ozuqa qoldiqlari ham separatordan tozalanib tushadi. Separator rama (1), baraban (2), tayanch roliklari (4), to'siqlar (5), elektryuritgich (8), reduktor (7) va yulduzcha (9)dan tashkil topgan.



**75-chizma. CIO-40 ozuqa qoldiqlari separatori:**

1–rama; 2–baraban; 3–himoya to’sig‘i; 4–tayanch roligi; 5–bandaj; 6–teshik; 7–reduktor; 8–elektryuritgich; 9–yulduzcha; 10–kurak.

ning ichiga kelib tushadi. Ozuqaning suyuq qismi teshiklar orqali o’tadi, noozuqa aralashmalari barabanning kuraklari yordamida yuqoriga ko’tarilib, teshiklarni ochadi va suyuq massani chiqib ketishiga sharoit tug’diradi. So’ngra noozuqa aralashmalar barabanning yon tomonidagi darchadan chiqarib yuboriladi.

*40-jadval*

### CIO-40 separatorining asosiy texnik tavsifi

Ko’rsatkichlar	Hajmi
Ish unumi, t/s	40
Elektryuritgichda o’rnatilgan quvvat, kVt	1,5
Barabanning aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	9
Gabarit o’lchamlari, mm	2320x1900x1235
Massa, kg	720

**CIO-40 takomillashgan ozuqa separatori** – mavjud separator dan quyidagilar bilan farq qiladi. Baraban ichiga payvandlangan kurakchalar o’rniga vint shaklida joylashgan tishlar (6) va plastinolar (5) qotirilgan (76-chizma).

Tishlar aylanish o’qi tomoniga egilgan bo’lib, noozuqa aralashmalar siljiydigan tomonga yo’nalgan. Tishlar joylashgan qism

Separator ramasi payvandlangan, undagi to’rtta tayanch roligiga ikki tomonidan to’silgan, elektryuritgich va reduktor bilan biriktirilgan baraban o’rnatilgan. Baraban diametri 1020 mm, uzunligi 2000 mm bo’lgan suv-gaz quvuridan yasalib, sirti bo’ylab teshikchalar (6) yasalgan. Quvurning tashqi tomonidan qirrasiga yaqin joyda ikkita bandaj-gardish (5) va yulduzcha qotirilgan. Ichki tomonida joylashgan qanotlar (10) noozuqa aralashmalarini yuklash zonasidan chiqaradi.


Separator quyidagicha ishlaydi. Maydalangan massa barabanning ichiga kelib tushadi. Ozuqaning suyuq qismi teshiklar orqali o’tadi, noozuqa aralashmalari barabanning kuraklari yordamida yuqoriga ko’tarilib, teshiklarni ochadi va suyuq massani chiqib ketishiga sharoit tug’diradi. So’ngra noozuqa aralashmalar barabanning yon tomonidagi darchadan chiqarib yuboriladi.

barabanning 0,2–0,5 uzunligini tashkil etadi. Maydalagich roliklar (2)ga o'rnatilgan baraban (7), ta'minlagich quvur og'zi (8), ozuqa qabul qilgich (3), uzatma (1) va noozuqa aralashmalarini yig'gich (4)dan tashkil topgan.

Baraban ichidagi tishlar uzun tolali noozuqa aralashmalarini ushlab qolishga, kelayotgan ozuqa massasini saralashga, baraban teshigini to'lib qolganda tozalashga imkon beradi. Vintsimon bo'ylama plastinalar suyuq ozuqlarini chiqarish darchasida-gi harakatidan to'xtatib, ajratishda shiklarni tozalashga yordam beradi. Teshiklarni tozalanishi separator ish unumini 30 foizga va tozalash sifatini 15 foizga oshiradi.

Maydalansdan qaynatib, so'ng noozuqa aralashmalarini (uzun tolalilar: latta, yelim xalta, qog'oz, va qattiq chiqindilar: metall, shisha, suyak) ajratishda maxsus moslamadan foydalanish mumkin. Moslama ikki seksiyadan tashkil topgan, bir-biriga burchak ostida joylashgan vanna (8)dan iborat (76-chizma).


Vannaning bir tomonida yig'-gich bunker (1) bilan quvur (2) va shiberli to'siq (3) orqali birlashgan so'ndiruvchi qabul kamerasi (4) joylashgan. So'ndiruvchi qabul kamerasi yuklash darchasi (6) va bug'larni so'rib chiqaruvchi quvuri (5) bilan ta'minlangan. Vannaning ikkinchi tomoni tu-



**76-chizma. CIO-40 takomillashgan ozuqa separatori:**

1—uzatma; 2—tayanch roligi;  
3—ozuqa qabul qilgich; 4—yig'gich;  
5—plastina; 6—tishlar; 7—baraban;  
8—ta'minlash quvuri og'zi.

maydoni yuzasini oshirishga, teshiklarni tozalanishi separator ish unumini 30 foizga va tozalash sifatini 15 foizga oshiradi.



**77-chizma. Ozuqa goldiqlarini oqim holda tozalash moslamasining shakli:**

1—yig'gich-bunker; 2—yig'gichni bo'shatish quvuri; 3—shiberli tusiqcha; 4—qabul so'ndrnish kamerasi; 5—so'rish quvuri;  
6—yuklash darchasi; 7—qiya pol;  
8—vanna; 9—konteyner; 10—ostona;  
11—tusiq; 12—sim panjara;  
13—to'kish quvuri.

bida sharnirli holda qattiq noozuqa cho'kma aralashmalarni joylash uchun konteyner o'rnatilgan. Birinchi seksiya poli (7) qiya holda joylashgan. Ikkinchi seksiya tolali aralashmalarni tozalashga mo'ljallanib, birinchi seksiya bilan 200 mm balandlikda, chiqish qismiga sim panjara (12) o'rnatilgan ostona orqali tutashgan. To'kish quvuri (13) ikkinchi seksiyaning yoniga ulangan. Birinchi seksiyadan massani chiqarish uchun to'siq (11) xizmat qiladi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. ПКК-20 ozuqa yuklagichining vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va texnik tavsifi.
2. ЗШ-40 shnegining vazifasi, tuzilishi, texnik tavsifi.
3. 36 МЦ-10-20 (36-1Ц2,8-20) nasoslari vazifasi, tuzilishi, texnik tavsifi.
4. ДПО-20, ДТК-20М3, ДТК-78 va К7-ФИ2-С maydalagichlari vazifalari, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va konstruktiv farqlarini tushuntirib bering.
5. СПО-40 separatorlarining vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni to'g'risida nimalarni bilasiz?

## **5-BO'LIM**

### **FERMA ICHKI TRANSPORTI. GO'NGDAN TOZALASH MASHINA JIHOZLARI**

#### **5.1. FERMADAGI YUKLAR TURI, HAJMI VA YUK TASHISH, MASHINA MEXANIZMLAR ISH UNUMINI HISOBLASH. TRANSPORT VOSITALARI TASNIFI**

**Fermadagi yuklar tasnifi.** Chorvachilik va parrandachilik fermalarda katta hajmda yuklash-tushirish va tashish ishlari bajariladi. Bu fermadagi hayvonlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishlar hajmining 40 foizini tashkil etadi.

Yuklar quruq yoki suyuq bo'ladi. Quruq yuklar sochiluvchi, donador va hajm ko'rinishida bo'ladi. Sochiluvchi yuklarga donlar, sochiluvchi va donador omixta yemlar, ildizmevalilar, mineral qo'shimchalar (mel, tuz), donador yuklarga esa konteynerlar (ozuqa qoldig'ini, hayvonlarni, parrandalarni tashuvchi), bidonlar, gazli ballonlar, qoplar, yashiklar va boshqalar kiradi. Hajmli yuklarni yashil massa, pichan, somon, silos, senaj va boshqa hajm zichligi 0,3–0,4 t /m<sup>3</sup> dan oshmaydigan mahsulotlar tashkil qiladi.

**Yuklar xususyuggi.** Yuklash-tushirish va tashish mashina jihozlari ish unumi va parametrlarini hisoblashda yuklarning fizik-mekanik xususiyatlarini bilish zarur. Yuklarning fizik-mekanik xususiyatlariga donadorlik o'lchamlari, namligi, hajm zichligi, tabiiy qiyalik burchagi va yuklarning sirtga ishqalanish koeffitsiyenti kiradi.

Donadorlik (granulometrik) tarkibi, olingan yuk namunasi turli diametrдagi g'alvirdan o'tkazilib aniqlanadi.

To'kiluvchi yukning namligi quyidagicha aniqlanadi:

$$W = (G_1 - G_2) / G_2,$$

bu yerda:  $G_1$  – namunaning quritilganga qadar massasi;  $G_2$  – namunaning quritilgandan so'nggi massasi. To'kiluvchi yuklar 105 °C haroratda doimiy massagacha quritiladi.

*To'kilish massasi* deb, yukning hajm birligidagi og'irligiga aytiladi.

*Tabiiy qiyalik burchagi* deb, yukni yerga to'kishda gorizontal tekislik bilan hosil bo'lgan eng katta burchakka aytildi.

Yuza bilan yuk ishqalanish koefitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$f = S / Q,$$

bu yerda:  $S$  – yukni siljitim uchun zarur bo‘lgan gorizontal kuch,  $H$ ;  $Q$  – yuk og‘irligi,  $H$ .

*41-jadval*

### **Yuklarning texnik-mexanik xususiyatlari**

Yuklar	To‘kilish massasi, t/m <sup>3</sup>	Tabiiy qiyalik burchagi, °	Po‘lat bilan ishqalanish koefitsiyenti
Dukkakli don o‘simliklar	0,60-0,80	31-37	0,37-0,47
Xashaki no‘xat	0,75-0,85	35	0,33-0,36
No‘xat	0,78-0,88	25-28	0,26-0,32
O‘tin (betartib holda)	0,40-0,50	—	—
Kungaboqar kunjarasi	0,59-0,67	—	—
Go‘ng shaltog‘i	0,97-1,0	—	—
Lavlagini quruq turpi	0,22-0,25	50-60	—
Quruq kul	0,40-0,72	40-50	0,60-0,85
So‘ndirilmagan kukunli ohak	0,70-0,80	50	—
Kartoshka	0,60-0,77	30-35	0,51-0,55
Omixta yem: sochilgan holda donador	0,50-0,65 0,65-0,79	— —	— —
Makkajo‘xori doni	0,70-0,75	35	0,30-0,57
Mel (o‘rtta va kichik bo‘lakli)	1,4-2,5	39	—
Sabzi	0,5-0,6	—	0,55
O‘t uni	0,18-0,20	65-75	—
To‘pon, chorri	0,20-0,40	—	—
Go‘ng: yangi somon to‘shamasi bilan chirigan	0,40-0,50 0,85-1,0	— 72	1,5 1,5-1,7
Suli	0,40-0,55	28-35	0,40-0,53
Yog‘och quruq qipig‘i	0,16-0,30	39	0,39-0,83
Kepak	0,18-0,44	—	—
Tariq	0,66-0,85	22-29	0,31-0,33

## 41-jadvalning davomi

1	2	3	4
Bug‘doy	0,65-0,83	25-35	0,35-0,65
Javdari bug‘doy	0,65-0,79	25-35	0,32-0,58
Ozuqa lavlagisi	0,57-0,70	—	0,5
Senaj	0,20-0,25	—	—
Pichan:			
sochilgan holda	0,08-0,12	—	0,3
presslangan	0,17-0,32	—	0,3-0,4
Makkajo‘xori silosi	0,25-0,30	50	0,9-1,0
Somon:			
maydalanganmagan sochilgan holda	0,03-0,04	—	0,3
maydalangan sochilgan holda	0,06-0,08	—	0,3
presslangan	0,12-0,22	—	0,3
Mayda zarrachali tuz	1,25-1,50	30-50	0,5-1,2
Yangi o‘rilgan o‘t	0,27-0,30	50	0,8-1,0
Arpa	0,55-0,76		0,35-0,70

Ozuqalarni tashishda ularni isrof bo‘lmasligini, sifatini yo‘qotmasligini ta’minlash zarur. Pichanni kamroq tashish zarur, chunki uni tashishda to‘yimli qismlari: bargi, guli to‘kilib ketadi.

Bir kunda fermada tashiladigan ozuqalar miqdori hayvonlar bosh soni va har bir hayvonga beriladigan ozuqa miqdoriga bog‘liq. Ozuqalarni yuklash, tushirish, tashish va tarqatish mashina mexanizmlari turli konstruksiyalarga ega.

Ozuqa tarqatgichlar quyidagi: tekis va aniq tarqatish; ish unumi yuqori; ozuqani ifloslantirmaslik; hayvonlarni jarohatlamaslik; shovqinsiz ishlashi; turli ozuqa turlarini tarqata olishi (universallik); qoldiq ozuqalardan yengil tozalanishi; belgilangan ozuqa tarqatish me’yorlariga sozlanishi; texnik xizmat ko‘rsatish va foydalnishda qulaylik singari talablarga javob berishlari lozim. Bino ichida ozuqa tarqatish uchun 20–30 minut vaqt ajratiladi. Bir hayvonga moyali dag‘al ozuqalarni tarqatishning me’yordan cheklanishi 15 foiz, konsentrat ozuqalar – 5 foiz, yo‘qotilib tiklanishi lozim, ozuqalar miqdori 1,5 foiz atrofida ruxsat etiladi.

Fermada vaqt birligi ichida tashiladigan yuk hajmi *yuk aylanish* deb ataladi. Fermada kuniga katta hajmda yuk aylanadi.

## Fermadagi bir bosh hayvonga o‘rtacha yuk aylanish ko‘rsatkichlari

Yuk	Yuk hajmi (kg) har bir			
	sigirga	qo‘yga	parrandaga	cho‘chqaga
Ozuqlar:				
dag‘al	8-12	2-3	—	—
suvli-shirali	10-20	2-3	—	6-10
konsentrat	3-5	0,5	0,17	2,5-3
To‘sama	3-4	0,5-1,0	—	1,5-2,0
Go‘ng	35-4	2-3	—	8-10
Sut	10-12	—	—	—

Yuklash-tushirish, tashish va tarqatish mashina jihozlarining turi, soni, o‘lchami, konstruksiyasi yuk shakli va aylanish hajmiga mos ravishda tanlanadi.

Fermadagi kundalik yuk oqimi ( $t$ ) ayrim hayvon guruhi uchun quyidagicha aniqlanadi.

$$Q = m \cdot (q_1 + q_2 + \dots + q_n),$$

bu yerda:  $q_1, q_2, \dots, q_n$  – bir hayvonga kundalik beriladigan ozuqlar massasi,  $t$ ;  $m$  – guruhdagi hayvonlar bosh soni.

Yuk aylanishi hajmini  $G_{\text{sut}}$  ( $t/\text{km}$ ) aniqlash uchun kundalik tashiladigan har bir yuk miqdori tashiladigan yuk yo‘li  $l_n$  ga ko‘paytirib topiladi.

$$S_{\text{sut}} = m \cdot (q_1 \cdot l_1 + q_2 \cdot l_2 + \dots + q_n \cdot l_n).$$

Fermadagi yuk aylanishini hisoblashda hayvon turlari bo‘yicha bosh soni, kunlik ratsion, kunlik sut sog‘ib olish miqdori, go‘ng va siyidik chiqishi me’yori, to‘sama sarfi, yonilg‘i va boshqa yuklarni hisobga olish kerak. Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish binolarining joylashishi, kun tartibi, yo‘llar rejasi, uzunligi yuk aylanishini hisoblashda kiritiladi.

Kunlik yuk aylanish hajmini bilgan holda soatlik yuk hajmini hisoblab topish mumkin.

$$G_s = M \cdot \left( \frac{q_1 \cdot l_1}{t_1} + \frac{q_2 \cdot l_2}{t_2} + \dots + \frac{q_n \cdot l_n}{t_n} \right),$$

$t_1, t_2, t_3, \dots, t_n$  – shu turdagи ozuqani tashish vaqtি.

Hisoblangan vaqt asosida fermadagi yuk aylanish jadvali tuziladi. Jadvalga asosan zarur transport vositalari soni hisoblanadi:

$$n > \frac{G_s}{V_p \cdot z \cdot L_1 \cdot k_n},$$

bu yerda:  $G_s$  – transport vositasining to‘ldirish koeffitsiyentini hisobga olgandagi hajmi,  $m^3$ ;  $V$  – yukning hajm massasi,  $t /m^3$ ;  $z$  – 1 soat vaqt ichidagi ish sikllari soni;  $L_1$  – yo‘l uzunligi, km;  $k_n$  – turib qolish koeffitsiyenti.

1 soat mobaynidagi ish sikllari soni teng:

$$z = \frac{60}{t_n + t_p + t_r + t_x},$$

bu yerda:  $t_n$  va  $t_p$  – yuklash va tushirish vaqt, min;  $t_r$  va  $t_x$  – yuk bilan yurish va salt yurish vaqt, min.

Yuklashda turish vaqt:

$$t_n = \frac{V_2 p}{Q_n},$$

$Q_n$  – yuklagich ish unumi,  $t/s$ ;  $V_2$  – transport vositasi hajmi,  $m^3$ .

Transport vositalari soni

$$n > \frac{Q_{sut}}{60 Q_n T_{sm} g_{sm}},$$

bu yerda:  $T_{sm}$  – smena ish vaqtining davomiyligi, soat;  $g_{sm}$  – smena vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti, 0,6–0,8 ga teng.

Transport vositalariga ehtiyoj bo‘lganda go‘ng uchun ayrim hisob yuritish zarur. Chorvachilik fermalarida foydalaniyat-gan ozuqalarni tashish, yuklash-tushirish mashina jihozlarini ikki xilga: qo‘zg‘almas holda ishlovchi va harakatlanib ishlovchilariga bo‘lish mumkin. Qo‘zg‘almas holda ishlovchi transport vositalari tasmali, surgichli, inersion, vint, kanat-disk, rolikli bo‘ladi. Harakatdagilar relsda harakatlanuvchi (o‘ziyurar elektrlashtirilgan tarqatgichlar, kranlar) va relssiz harakatlanuvchi (traktor pritseplari, avtomobil ozuqa tarqatgichlari, aravalar, dag‘al, suvli-shirali ozuqa yuklagichlari, panshaxali va greyfer yuklagichlari) jihozlariga bo‘linadi. Fermalarda gidro va pnevmomexanik ozuqa tarqatish vositalari keng rivojlanib bormoqda.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Fermadagi yuklar qanday tasniflanadi? Ularning fizik-mexanik xususiyatlari.
2. Fermadagi kundalik yuk oqimi, yuk aylanishi hajmi deb nima-ga aytildi?
3. Yuk tashish uchun zarur transport vositalari soni.

### 5.2. QO‘ZG‘ALMAS OZUQA TARQATGICHALAR

Chorvachilik fermalarida to‘xtovsiz ravishda ozuqa tarqatgichlardan unumli foydalanilmoqda. Ular texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga keng imkoniyatlar tug‘diradi. Ishchi organi konstruksiyasi bo‘yicha qo‘zg‘almas ozuqa tarqatgichlar o‘zi oqar, tasmali, vintli, zanjir plankali, kovshli, surgichli, kanat-diskli, spe-ral va vibratsionli bo‘ladi.

**Ozuqa uzatishning o‘zi oqar turlari** (qiya tekislik, tushirish tar-novi, vintli tushirgich, rolikli transportyor va quvur) donador va sochiluvchi ozuqalarni yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Ozuqa uzatishning oqar turidan yuk tushirishda foydalanilgan-da tushish burchagining gorizontal qiymati, materialning sirpana-yotgan yuza bilan ishqalanish burchagi qiymatidan katta bo‘lishi lozim, faqat shu sharoitdagina material oqib tushadi. Don uchun oqar burchak  $21\text{--}27^\circ$ , kunjara, kepak va un uchun –  $39\text{--}48^\circ$ , kartoshka va ozuqa lavlagisi uchun –  $30\text{--}43^\circ$  ga teng qabul qi-lish tavsiya etiladi.

Uzi oqar qurilmasining ish unumi (t/s):

$$Q = 3600\psi F \cdot v \cdot p,$$

$\psi$  – quvur yoki tarnov ko‘ndalang kesim yuzasini to‘ldirish ko-effitsiyenti (sochiluvchi materiallar uchun  $0,20\text{--}0,25$ );  $F$  – quvur yoki tarnov kesim yuzasi,  $m^2$ ;  $v$  – materialni harakat tezligi,  $m/s$ ;  $p$  – material zichligi,  $t/m^3$ .

**Vintli tushirgichlar** donador (qop, yashik, bo‘xcha) yuklarni transportirovka qilish uchun xizmat qiladi. Bu moslamalar kam joy egallab, foydalanishi yengil, vint yuzasi po‘lat, taxta yoki plastmassadan yasalishi mumkin. Vint diametri yukni sig‘ishiga mos, ko‘tarilish burchagi esa o‘zi oqar tarnov burchagiga teng qilib tanlanadi.

**Rolikli transportyorlar yashik**, bo‘xcha, bidon kabi donador yuklarni siljitim uchun xizmat qiladi. Rolikli transportyorlar 2–6° burchak ostida o‘rnataladi. Roliklar 70–120 mm po‘lat quvurlaridan ichiga o‘q qilib yasaladi. Rolikli quvurlar qo‘zg‘aluvchi yoki qo‘zg‘almas harakatli bo‘ladi.

**Tasmali transportyorlar** turli xil materiallarni gorizontal va qiya holda siljitim uchun xizmat qiladi. Ular qo‘zg‘aluvchi yoki qo‘zg‘almas holda ishlaydi. Tasmali transportyorlar yuklash va tushirish darchasi, rama, roliklar, tortish va harakatga keltirish stansiyalaridan iborat. Transportyor tasmasi rezina aralash yoki ip-gazlama materialidan 300–800 mm kenglikda yasaladi. Tasma roliklarga tortilib, yetakchi va yetaklanuvchi shkivlarni qamrab turadi.


Tasma harakatlanish tezligi uzatilayotgan materialga bog‘liq. Poliz ekinlari va lavlagilar uchun 0,3–0,4 m/s, un va kepaklar uchun – 1,5–2,0 m/s, donga 1,5–3,0 m/s qabul qilinadi.

Transportyorlar ish unumi (t/s)

$$Q = 3600 \cdot F \cdot p \cdot v,$$

F – tasmadagi materialning ko‘ndalang kesim yuzasi,  $m^2$ ; p – materialning zichligi, t/  $m^3$ ; v – tasma tezligi, m/s.

Tasmali transportyor КЛП-500 yem doni, qum, ozuqalar va boshqa materiallarni uzatib berish uchun xizmat qiladi. Transportyor rama, harakatga keltirish va tortish stansiyasi, tasma va yurish qismidan tuzilgan (78-chizma).



78-chizma. Harakatlanuvchi tasmali transportyor:

1–rama; 2–elektryuritgich; 3–harakatga keltirish barabani;  
4–tortqi baraban; 5–ko‘tarish ramasi.

Rama burchak shakldagi po'latdan payvandlab tayyorlangan. Unga to'rtta baraban, ikkitasi oxirida va ikkitasi (harakatga keltirish va tortish) o'rnatilgan. Rama ikkita yuruvchi va ikkita tayanch g'ildiraklariga tayangan. Gorizontga nisbatan transportyorni burchak o'zgarishi ko'tarish mexanizmi yordamida amalga oshiriladi. Tasmaning ishchi qismi novli uch rolikli va salt yurish qismi to'g'ri rolikli tayanchlar bilan ushlab turiladi.


Transport tasmasi tasmali uzatma yordamida elektryuritgichdan harakat oladi.

*43-jadval*

### Asosiy texnik ko'rsatkichlari

Don uzatishdagi ish unumi, t/s	120
Tasmaning kengligi, mm	50
Tasmaning tezligi, m/s	3,15
Transportyor uzunligi, mm	10000
Transportyoring gorizontal holatidagi balandligi, mm	2000
O'rnatilgan quvvati, kVt	4,5
Transportyor massasi, kg	720

**PBK-Φ-74 tarqatgich transportyori** – qoramol saqlanadigan molxonalar ichida turli ozuqalarni oxurning ichida tarqatish uchun xizmat qiladi (79-chizma). Transportyor oldinga va orqaga harakat qiluvchi zanjir tasmali konveyerdan iborat. Transportyor molxananing ichida qo'zg'almas qilib o'rnatiladi va elektr tarmog'idan ishlaydi.



79-chizma. PBK-Φ-74 tarqatgich transportyor:

1—uzatma; 2—nov-oxur; 3—ishchi organ;

4—yuvish bunker, tortqi stansiyasi bilan;

5—boshqarish pulti

Transportyor ishchi organi ikkita tasma va aylanma halqali qismidan iborat bo‘lib, ular bir xil uzunlikka ega. Ozuqa bunkerdan harakatdagi novli tasma orqali uzatiladi. Zanjirning oxirgi ozuqa joyi to‘lgach tasma avtomatik ravishda to‘xtaydi.

Oziqlantirish yakunlangach tasmaning orkdga harakati davrida nov tozalanadi. Tozalangan ozuqalar bunker yoniga tushiriladi. Tarqatgich avtomatik rejimda ishlaydi.


*44-jadval*

### **Asosiy texnik ko‘rsatkichlari**

Ish unumi, t/s:	
mexanizatsiyalashgan holda yuklaganda	25
qo‘lda yuklaganda	10
o‘rnatalgan quvvati, kVt	5,5
Mexanizatsiyalashgan holda ortilganda	
ishchi organi tezligi, m/s	0,516
qo‘lda ortilganda	0,134
Ozuqa novining uzunligi, m	74
Xizmat ko‘rsatiladigan hayvonlar bosh soni	62
Gabarit o‘lchamlari, mm	76450x970x860
Massa, kg	1037

Chorvachilik fermalari uchun qo‘zg‘almas ozuqa tarqatish tizimi (80-chizma) tasmali ozuqa tarqatgichlar negizida tashkil etilgan. Uning tarkibiga ТЛК-20, ТКР-20 transportyori va harakatlanuvchi ТРЛ-100A tarqatuvchi transportyori kiradi.

Tasmali transportyor ТЛК-20 poyali va boshqa maydalangan ozuqalarni qabul qilib, ТКР-20 taqsimlash transportyoriga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. ТКР-20 transportyori tarqatgich aravasi bilan ТРЛ-100A tarqatgichini ta’minlaydi. ТРЛ-100A tarqatgich qoramol fermalarida suyuq bo‘limgan barcha turdagи ozuqalarni yetkazib tarqatish ishlarini amalga oshiradi. Transportyorning harakatga keltirish stansiyasi transportyor tasmasini, tarqatish platformasini ozuqa fronti bo‘ylab siljitishga xizmat qiladi.



**80-chizma. Qo'zg'almas ozuqa tarqatgich:**  
 1—ТЛК-20 ozuqa qabul qilish-uzatish tasmali transportyori;  
 2—ТКР-20 taqsimlash transportyori; 3—tarqatgich arava;  
 4—yetkazish-tarqatish transportyori; 5—oxur; 6—ta'minlagich.

*45-jadval*

### Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

O'rnatilgan quvvati, kVt	3,0
Tasma kengligi, mm	500
Tasmaning harakat tezligi, m/s	1,3
Platformaning harakat tezligi, m/s	0,75-0,22
Ish unumi, t/s	20
Platformaga o'rnatilgan quvvat, kVt	0,7
Xizmat ko'rsatiladigan hayvonlar bosh soni	250
Gabarit o'lchamlari, mm	71940x1520x1610
Massa, kg	3550

Tarqatgich quyidagicha ishlaydi. ТЛК-20 va ТКР-20А ТРЛ-100A transportyori tasmasiga ozuqani yetkazib beradi. Shu bilan birga transportyor uzatmasi va platformani harakatlantirish uzatmasi ham ishga tushadi. Ozuqa tasma bilan birga harakatlanib borib, tarqatgich arava ta'sirida oxurlarga tarqatiladi. Oxur che'tiga 2-3 m qolganda tarqatgichga ozuqa uzatish to'xtatiladi va tasma ustida qolgan ozuqlar oxurlarga tashlanadi.

Barcha tizim bo'yicha ish unumi 20 t/s, o'rnatilgan quvvati 25-50 kVt.


**Elevatorlar – (noriya, qiya transportyorlar)** – yuklarni vertikal va qiya tekislikda uzatib berish uchun xizmat qiladi.

**Noriyalar** sochiluvchi materiallar (don, omixta yem)ni to‘xtovsiz ravishda yuqoriga ko‘tarib berish uchun xizmat qiladi. Noriya boshmoq, quvur, kallak, kovshlarni harakatga keltirish qurilmasi tasmasidan tuzilgan (81-chizma).

Boshmoq kojux, baraban vali, tortqi qurilmasi va qabul paypog‘idan tuzilgan. Boshmoqning pastki qismida noriya tiqilib qolganda materialni chiqarib yuborish qopqog‘i, yuqori qismi qopqog‘ida aspiratsiya teishihi qoldirilgan. Boshmoq barabani vali ikki qatorli radial sferik sharik podshipniklarida aylanadi.

Podshipniklar korpusi polzunlarga mahkamlangan, ular o‘z o‘rnida boshmoq yo‘naltirgichidagi tortqilarga biriktirilgan. To‘rt burchak kesimli quvurlar, o‘zaro va kallak bilan bog‘langan.

Ayrim quvurlar kuzatish va kovshlarni almashtirish darchasiga ega. Har bir quvur oxiridagi flanes ularni o‘zaro yoki boshmoq va kallak bilan bog‘lanishiga imkon beradi. Rezina asosida tayyorlangan tasma ustki (yetakchi) va ostki (yetaklanuvchi) barabnlarni qamrab olgan. Ishchi organ kovsh tasmaga boltlar yordamida qotiriladi.



81-chizma.

**Noriya:**

1—kallak;

2—quvur;

3—boshmoq.

46-jadval

### НЦГ tipidagi noriyalarning texnik tavsifi

Ko‘rsatkichlar	НЦГ-10	НЦГ-2x10
Ish unumi t/s:		
don	10	20
un	7	14
Tasma tezligi, m/s	1,2-1,4	1,2-1,4
Kallak barabani diametri, mm	400	400
Boshmoq barabani diametri, mm	400	400
Baraban kengligi, mm	165	165
Tasma kengligi, mm	150 260	150 260

## 46-jadvalning davomi

Gabarit o‘lchamlari, mm: kallagi boshmog‘i	1080x524x1100 1056x312x920	1080x722x1100 1056x510x920
Barabanning tasmani tortish yo‘li, mm	100	100
Noriya kallagi va boshmog‘i massasi (uzatmasiz), kg	214	310
Noriya balandligi, m	45	45
Elektryuritgich quvvati, kVt (30 m ga ko‘targanda)	1,1	3,0

Kovshli elevatorlar ish unumi (t/s):

$$Q = 3,6 \cdot p \cdot i \cdot v \cdot w / a,$$

bu yerda:  $p$  – sochma massa, kg/dm<sup>3</sup>;  $i$  – kovshning ishchi hajmi, dm<sup>3</sup>;  $v$  – tasma yoki zanjirning harakat tezligi, m/s;  $w$  – kovshni to‘ldirish koeffitsiyenti, don uchun – 0,75–0,85, lavlagi – 0,3–0,4;  $a$  – kovshlar qadami, m.


Kovshli elevatorni harakatga keltirish uchun zarur bo‘lgan quvvat (kVt).

$$P = Q \cdot L / 367 \cdot n,$$

bu yerda;  $L$  – transportyorning vertikal proyeksiyasi uzunligi, m;  $n$  – elevatoring F.I.K., 0,50–0,65 ga teng.

**TK-5 transportyori** – ildizmevali ozuqalarni qabul qilish va ozuqaga ishlov beradigan mashinalarga yetkazib berish uchun xizmat qiladi (82-chizma). TK-5 transportyori ta’minlagich va qiya transportyordan iborat.

Ta’minlagich payvandlab tayyorlangan tarnovning ikki tomonida podshipniklarda o‘rnatalgan shnekdan iborat. Shnek



82-chizma. TK-5,0 lavlagi transportyori:

1—reduktor; 2, 7—elektryuritgich;  
3—shnek; 4—tayanch; 5—qabul tarnovi;  
6—qirg‘ichli transportyori;  
8—zanjirlı uzatma

elektryuritgichdan ponasimon tasmali uzatma va chervyak reduktori (1:37 uzatmali) orqali harakatga keladi. Ta'minlagichning metall tarnovi ustiga lavlagilarni o'zi ag'daruvchi transport vositalaridan qabul qilish bunkeri o'rnatiladi.

Qiya transportyor uzatma stansiyasi, o'rta, oraliq va pastki seksiyalardan iborat. Uzatma stansiyasi payvandlangan korpusdan, unga o'rnatilgan transportyor zanjiri tortqisi, elektryuritgich, kontruzatma vali, ponasimon tasma va zanjirli uzatmalardan iborat. O'rta seksiya to'g'ri burchakli tarnov shaklida bo'lib, ustki tomonida tuproqni ajratish panjarasi ko'zda tutilgan. Yetaklanuvchi val kronshteyni pastki seksiyani tashkil etadi.

Transportyor ishchi organlari bo'lib, zanjirga o'rnatilgan qirg'ichlar sanaladi. Zanjirlarning salqiligi yetakchi val podshipniklarini tortqi bolqlari yordamida siljitim bilan sozlanadi. Transportyorni boshqarish avtomatik qo'shgich va ortiqcha kuchlanish resesi o'rnatilganligi sababli yengil hisoblanadi.


Shnekli ta'minlagich 400 kg ga, transportyorning o'zi – 475 kg massaga ega. Ta'minlagich shnegi aylanish tezligi  $0,06 \text{ s}^{-1}$ , surgichli qiya transportyor tezligi  $0,3 \text{ m/s}$  teng.

Qiya transportyor  $45^\circ$  dan ko'p bo'lmasligi lozim. TK-5 ish unumi 5 t/s. Surgich va ta'minlagich transportyoring har biri  $1,5 \text{ kWt}$  quvvatli elektryuritgichdan harakatga keladi.

**Vintli transportyorlar** (shneklar) sochiluvchi materiallarni horizontal va qiya holda siljitim uchun xizmat qiladi. Shneklar qora molchilik fermalarida silos va dag'al ozuqalarni tarqatish uchun ham xizmat qiladi. Shnekning diametri va vint qadami ozuqaning fizik-mexanik holati va ish unumiga qarab tanlanadi. Shnekning vint yuzasi to'la, spiral va kurakli bo'lishi mumkin (83-chizma). Shnek vali ko'p holatlarda po'lat quvurlardan tayyorlanadi. Vintli transportyor ish unumi quyidagicha aniqlanadi (t/s)

$$Q = 47,1 \cdot D^2 S \cdot n \cdot w \cdot p \cdot k,$$

bu yerda:  $L$  – shnek diametri, m;  $S$  – shnek vinti qadami, m;  $n$  – aylanish soni, min $^{-1}$ ;  $w$  – tarnovni to'lish koeffitsiyenti,  $0,20\text{--}0,22$  ga teng;  $k$  – shnekning gorizontga nisbatan qiyalik burchagini hisobga oluvchi koeffitsiyent.



*83-chizma. Vintli transportyor:*  
*a*—umumiy ko‘rinish; *b*—yaxlit  
*ving*, *d*—spiral vint, *e*—kurakli vint,  
*1*—shkiv; *2*—podshipnik; *3*—vint,  
*4*—korpus; *5*—tayanch; *6*—bo‘shatash  
*darchasi.*


foydalananadi. Transportyor (84-chizma) harakatga keltirish stansiyasi (10), tortqi qurilmasi (9), kanat (3), plastmassali disklar, burilish

Shnekni harakatga keltirish  
uzatmasining quvvati, kVt.

$$P = \frac{Q}{367} \cdot (LW + H) \cdot k_1,$$

bu yerda:  $L$  – shnek gorizontal proyeksiyasi uzunligi, м;  $W$  – materialning shnek ichki sirtida harakatlanishga qarshilik koefitsiyenti, don uchun – 1,2; loyli lavlagi – 2,0; nam turp uchun – 2,0;  $H$  – ko‘tarish balandligi, м;  $k$  – shnekning gorizontga nisbatan qiyalik burchagining quvvatga ta’siri koefitsiyenti.

**Markaziy shaybali (diskli) transportyor qoramolchilik fermalarida yosh mollarni boqishda**



*84-chizma. Markaziy shaybali (diskli) transportyor:*

1—uzoqdan boshqariluvchi bo‘g‘iz; 2—ozuqa quruv; 3—diskli kanat; 4—bo‘g‘iz; 5—burilish qurilmasi; 6—tayanch; 7—rama; 8—yuklash moslamasi; 9—tortqi moslamasi. 10—harakatga keltirish stansiyasi; 11—mufta; 12—siljuvchi mufta.

qurilmasi (5), bo‘g‘iz (4), ozuqa quvuri (2), yuklash qurilmasi (8) dan tashkil topgan. Ozuqa quvurlari ruxlangan po‘lat materialdan tayyorlanib, bir-biri bilan muftalar (11, 12) yordamida biriktiriladi. Siljuvchi mufta (12) kanat-disk ishchi organini montaj va demontaj ishlarini o‘tkazishda yengillik tug‘diradi.

Disk transportyorini siljitish harakatga keltirish stansiyasi (10) orqali amalga oshiriladi. Stansiya o‘z ichiga elektryuritgich, ponatasmali uzatma, reduktor, yurgazish yulduzchasi va kanat kiradi.

Harakatga keltirish stansiyasi transportyorning kanat-disklari tortilishini avariya holatidan saqlab qolish uchun trosoblok qurilmasi bilan ta‘minlangan. Transportyor kanatni taranglash moslamasi (9) (qo‘lda bajariladigan) bilan ta‘minlangan.

Transportyor yuklash moslamasi (8) yordamida ozuqa bilan to‘ldiriladi. Yuklash moslamasi tagi qiya qilib yasalgan metall qutidan iborat bo‘lib, uning tagida kanat-disklari joylashgan. Moslamada ozuqa tiqilib qolmasligi uchun uning ichida elektryuritgichida eksentrik mexanizm orqali borib-qaytuvchi aralashtirgich o‘rnataladi. Transportyorni to‘ldirish qopqoq bilan sozlanadi.

Ozuqa quvurlarining burilish joylari ishqalanish qarshiligi ni pasaytiruvchi aylantirib o‘tuvchi bloklar bilan ta‘minlangan. Transportyor uzoqdan boshqariluvchi bo‘g‘iz (1) orqali to‘ldiriladi. Barcha bo‘g‘izlar (1) ozuqaga to‘lgandan so‘ng, qolgan ozuqalar bo‘g‘iz (4) orqali yuklash moslamasiga (8) qaytadi. Markaziy transportyorning boshqarish pulti yuklash, yig‘ish va tushirish bunkerlari pultlari yonida joylashgan.

Markaziy transportyorning ish unumi 2 t/s; o‘rnatilgan quvvati – 3,6 kVt; disklar diametri – 50 mm; disklar qadami – 100 mm; disklarni kanat bilan harakatlanish tezligi – 0,81 m/s; massasi – 1765 kg. Taqsimlash diskli transportyorlar omixta yemni qabul qilish, uzatish va oxurlarga taqsimlash uchun xizmat qiladi.


КЛО-75 bir va КЛК-75 ikki tomonlama ozuqa tarqatgichlar. Bu ozuqa tarqatgichlar yashil ozuqa, silos, senaj, pichan, somon va ularning aralashmalarini tarqatish va oxurlarni qoldiqlardan tozalash uchun xizmat qiladi. Bu tarqatgichlarda 1 mm qalinlikdagi tasma beton oxurlar ichiga o‘rnatilgan. КЛО-75 va КЛК-75 ozuqa tarqatgichlari bir-biriga 80 foiz o‘xshaydi, faqat tasmalar kengligi, harakat tezligi, ozuqlarni tarqatish uchun ketgan vaqt va massasi bilan farq qiladi.

## Tarqatgichlarning texnik tavsifi

Ko'rsatkichlar	КЛО-75	КЛК-75
Ish unumi, t/s	60	60
Elektryuritgich quvvati, kVt	5,5	5,5
Oxur novining uzunligi, m	75	75
Tasma tezligi, m/s	0,57	0,28
Ozuqani tarqatish vaqt, min	3	4,5
Massa, kg	1500	2200

КЛО-75 ning harakatga keltirish stansiyasi (85-chizma) motor-reduktor (2), ustki tasma barabani (11), pastki tortqi kanat barabani (1), taqsimlash valining aylanishini o'zgartirish mexanizmi (14), tormoz qurilmasi (5), rama va vint mexanizmli oxirigi o'chirgich (17)dan tashkil topgan.

Taqsimlagich valining ikki chekkasi podshipniklardan tashqariga chiqib turadi, shuning uchun motor-reduktorni harakatga keltirish stansiyasining o'ng yoki chap tomonidan ham o'rnatish mumkin. Tasma va tortqi kanat o'zaro maxsus qirg'ich bilan bog'langan. Qirg'ich tasmani markazda ushlab turadi va ozuqa



**85-chizma. КЛО-75 ozuqa tarqatgichining harakatlantirish kinematik shakli:**

1—pastki baraban; 2—motor-reduktor; 3, 12—kulachokli yarim muftalar; 5—tormoz moslamasi; 6—tasma; 7—karetka blok bilan; 8—tortqi kanat, 9, 10—yo'naltirgichlar; 11—ustki baraban; 14—qayta qo'shish mexanizmi; 15—gayka; 16—vint; 17—oxirgi o'chirgich.

qoldiqlarini tozalaydi. Tasma va kanat ikkinchi tomoni bilan o‘z barabanlariga qotirilgan.

KЛО-75 sut va bo‘rdoqichilik fermalarida hayvonlarni bog‘-lab, КЛК-75 bog‘lamay boqishda qo‘llaniladi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Qo‘zg‘almas ozuqa tarqatgichlarining konstruktiv turlari.
2. O‘zi oqar va vintli yuk tushirgichlar, rolikli transportyorlar vazifasi, tuzilishi va ish unumini aniqlang.
3. КЛП-500 va PBK-Ф-74 transportyorlari vazifasi, tuzilishi va texnik tavsifi.
4. Elevatorlar vazifasi, tuzilishi, ish unumi va texnik tavsifi.
5. TK-5 transportyori vazifasi, tuzilishi va texnik tavsifi.
6. Vintli, shaybali transportyorlar vazifasi, tuzilishi va sozlanishi.
7. KJIO-75 va KJIK-75 ozuqa tarqatgichlari vazifasi, tuzilishi va konstruktiv farqi nima?


### 5.3. HARAKATLANUVCHI OZUQA TARQATGICHALAR

Harakatlanuvchi ozuqa tarqatgichlar ozuqa massasini oxurlarga yoki qo‘zg‘almas ozuqa tarqatgichlarning qabul bunkerlariga yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Harakatlanuvchi ozuqa tarqatgichlar daladagi ozuqalarni fermalardagi saqlagichlarga tashib kelishda ham foydalilaniladi. Tarqatgichlardan molxona yoki yayratish maydonlarida, oxurlarni poldan balandligi 0,7 m, oralig‘i 2 m bo‘lgan, yo‘lagi qattiq qoplamaga ega hollarda keng foydalilaniladi. Ozuqa tarqatgichlarning me‘yorlash moslamalari konstruksiyasi 1 m uzunlikka ozuqa tarqatishni quyidagi chegaralarda sozlashga imkon beradi: yashil massa – 15–35 kg; silos – 10–25 kg; dag‘al ozuqalar – 2–10 kg.

Ozuqani tarqatish vaqtি 50 bosh sigirga bir yoki ikki tomonida tarqatishidan qat‘iy nazar 5 minutdan oshmaydi.

**KТУ-10 va KТУ-10A ozuqa tarqatgichlari** maydalangan pichan, somon, silos, senaj va ularning omixta yem bilan aralashmalarini tashish va oxurlarga tushirib ketish uchun xizmat qiladi (86-chizma). Ozuqa tarqatgich traktor quvvat olish validan harakat oladi. Ozuqa tarqatgichning yurish qismi bunker tubi, osmasi, g‘ildiraklar o‘qi va tortqi – birlashtirish qurilmasidan tashkil topgan. Bunker



86-chizma. KTY-10A ozuqa tarqatgichi:

1—kuzov tagi; 2—orqa bort; 3—yon bort; 4—ustki qo'shimcha bort; 5—himoya to'siqlari; 6—yon tomon; 7—biterlar; 8—qaytargich; 9—oldingi bort; 10—instrument qutisi; 11—uzatma; 12—ko'ndalang transportyor; 13—tormoz qurilmasi; 14—val; 15—yurish qismi; 16—qo'shimcha transportyor; 17—zanjirlar; 18—burilishni ko'rsatuvchi orqa chiroq.

da va yon tomonda joylashgan. Ikki yon bortda ozuqani tushirish darchalari mayjud. Biterlar bloki kuzovning yon tomoniga qotirilgan uchta spiral biterdan iborat. Pastki biter ikki seksiyadan iborat bo'lib, ozuqa tarqatgichidan yuk pritsepi (o'zi tushiruvchi) sifatida foydalanganda yechib qo'yilishi mumkin. Ozuqa tarqatgichning ko'ndalang transportyori ozuqalarni bir yoki ikki yoniga oxurlarga tarqatishda foydalaniadi. Ikki yonga oxurga tarqatishda ikkita kichik tasmali polotno o'rnatiladi. Bir yonga tarqatishda ikki polotno biriktirilib, bitta umumiy polotno qilinadi. Bunda chap polotnoni harakat berish zanjiri yechib qo'yiladi (87-chizma).

Keng ozuqa yo'llari bor molxonalarda ikki tomondagi oxurga bir vaqtda tarqatish imkoniyati bo'limgan hollarda ko'ndalang transportyor uzaytiriladi. Buning uchun uning yetakchi vali ilgagiga qo'shimcha transportyor o'rnatiladi. Qo'shimcha transportyor gidravlik ko'tarish moslamasi yordamida o'rnatilib, zanjir bilan mustahkamlab qo'yiladi.

Ozuqa tarqatgichni ishga tushirmsandan avval uning detallari,


tubi payvandlab tayyorlangan kronshteyndan iborat. Bo'ylama qismidagi kronshteynga ressor, konussimon reduktor, podshipniklar korpusi va biter bloki ni harakatga keltirish uzatmasi montaj qilingan. Ustki bo'ylama balkaga oraliq val va yon bortlar kronshteynlari mustahkamlangan. Yurish qismidagi yetakchi valga uchta sirpanish podshipnikiga o'rnatilgan, o'ng va chap o'qlari ikkita tayanchga qotirilgan. Tortqi-birlashtirish qurilmasi ozuqa tarqatgich bilan traktorni qo'shish uchun xizmat qiladi.

Transportyor polotnosti 38 mm qadamli vtulka-rolikli zanjirdan iborat. Ozuqa tarqatgich metall kuzov, oldinda, orqa

bortlarga ega. Orqa bort ochiladi. Biterlar bloki kuzovning yon tomoniga qotirilgan uchta spiral biterdan iborat. Pastki biter ikki sekxiyadan iborat bo'lib, ozuqa tarqatgichidan yuk pritsepi (o'zi tushiruvchi) sifatida foydalanganda yechib qo'yilishi mumkin. Ozuqa tarqatgichning ko'ndalang transportyori ozuqalarni bir yoki ikki yoniga oxurlarga tarqatishda foydalaniadi. Ikki yonga oxurga tarqatishda ikkita kichik tasmali polotno o'rnatiladi. Bir yonga tarqatishda ikki polotno biriktirilib, bitta umumiy polotno qilinadi. Bunda chap polotnoni harakat berish zanjiri yechib qo'yiladi (87-chizma).

Keng ozuqa yo'llari bor molxonalarda ikki tomondagi oxurga bir vaqtda tarqatish imkoniyati bo'limgan hollarda ko'ndalang transportyor uzaytiriladi. Buning uchun uning yetakchi vali ilgagiga qo'shimcha transportyor o'rnatiladi. Qo'shimcha transportyor gidravlik ko'tarish moslamasi yordamida o'rnatilib, zanjir bilan mustahkamlab qo'yiladi.

Ozuqa tarqatgichni ishga tushirmsandan avval uning detallari,




**87-chizma. Traktordagi tirkama ozuqa tarqatgichining texnologik ish shakli:**  
**a—bo‘ylama va ko‘ndalang translortyorlarni bir vaqtda ishlashi; b—ozuqani bir tomonga tarqatish; d—ozuqani ikki tomonga tarqatish; e—ozuqani orqaga tushirib olish.**

qismlarining mustahkamligi tekshiriladi, zarur holatlarda tortib qo‘yiladi. Podshipnik va ishqalanadigan yuzalar, moylash kartasiga, ko‘rsatmaga mos ravishda moylanadi. Mexanizm va transporteryorlar sozlanadi. Traktorning quvvat olish valiga tarqatgichning teleskopik vali kiritilib, bolt bilan qotiriladi. Xrapli (to‘sqichli) mexanizm va uning tishi zarur holatiga o‘rnataladi. Ozuqa tarqatgich traktorga ulangandan so‘ng traktorga tormoz silindri mustahkamlanib, elektr jihozlari o‘rnataladi. Barcha aylanadigan, harakatlanadigan detal va qismlar to‘sqliar bilan jihozlanadi. Traktor ozuqa tarqatgich bilan agregatlanib harakatlanganda  $15^{\circ}$  dan katta bo‘lgan burilishlarda kardanli uzatma o‘chirilib qo‘yiladi.

Ozuqa tarqatgich quyidagicha ishlaydi. Ozuqa tarqatgich silos, senaj yoki maydalangan dag‘al ozuqalarni yuklagichlar, dalada o‘rim paytida o‘roq mashina-maydalagichlar, silos yig‘gich kombaynlar yordamida kuzovi bir tekis qilib yuklanadi. Ko‘ndalang transporter usti to‘ldirilmasligi lozim, chunki u tiqilib qolishi mumkin. Ozuqa tarqatgich fermaga tuproq yo‘llarda 6 km/s va qattiq qoplamlari yo‘llarda 28 km/s tezlikda harakatlanishi mumkin.

Ozuqani tarqatish haydovchi traktorning quvvat olish vali (QOV)ni qo‘sghanidan so‘ng 1,2 tezliklarda amalga oshiriladi. Ozuqani tarqatish me’yori bo‘ylama transporter va traktorning harakat tezligini o‘zgartirish bilan sozlanadi. Bo‘ylama transporter tezligi (QOV)dan harakat uzilgandan so‘ng sektor tishlarini

himoya to'sig'i bilan berkitib, fiksator bilan belgilangan holatga qo'yish bilan sozlanadi (88-chizma).



88-chizma. Bo'ylama  
transportyor  
uzatmasi tishini  
harakatlanishda  
o'rnatish shakli:  
a—oldinga;  
b—orqaga.

#### 48-jadval


**Tarqatgichning bir tomonlama tarqatishdagi hisobli ish unumi**  
(Hisob uchun silos zichligi  $300 \text{ kg/m}^3$ , yashil massa –  
 $250 \text{ kg/m}^3$  va jom  $900 \text{ kg/m}^3$  qabul qilingan)

Sektordagi sozlash bo'linmalari tartibi	Agregatning harakat tezligi, m/s	Ozuqa tarqatish ish unumi, kg/m <sup>3</sup>		
		Yashil massa	Silos	Jom (turp)
1	0,46	7,0	9,0	12,0
1	0,79	4,0	5,2	7,0
2	0,46	14,0	18,0	24,0
2	0,79	8,0	10,4	14,0
3	0,46	21,0	27,0	36,0
3	0,79	12,0	15,6	21,0
4	0,46	28,0	36,0	48,0
4	0,79	16,0	20,8	28,0
5	0,46	35,0	45,0	60,0
5	0,79	20,0	26,0	35,0
6	0,46	42,0	54,0	72,0
6	0,79	24,0	31,2	42,0
7	0,46	49,0	63,0	84,0
7	0,79	28,0	36,4	49,0
8	0,46	56,0	72,0	96,0
8	0,79	32,0	41,6	56,0

Bo'ylama transportyor zanjiri, ko'ndalang va qo'shimcha transportyorlar tasmalari tarangligi tortqi vintlar bilan sozlanadi. Tarqatgichning harakatga keltirish zanjiri tarangligi tortqi yulduzlar bilan sozlanadi. Saqlash muftasi tarangligi yetarli bo'lmasa, gay-ka yordamida me'yoriga keltiriladi.

**PMM-5,0 ozuqa tarqatgichi** – kichik gabaritli bir o'qli, oxur-larga maydalangan makkajo'xori, yashil massa, pichan, senaj, silos va ozuqa lavlagilarini tarqatish uchun xizmat qiladi (89-chizma). Ozuqalar molxona ichida, yayratish maydonlarida bir yoki ikki tomonlama tarqatiladi. Tarqatgichdan ozuqa va to'shamalarni tashishda foydalanish mumkin. Ishchi organlari traktorning QOV-dan harakat oladi. Tarqatgichning asosiy bo'linma va mexanizmlari yurish qismi, bo'ylama va ko'ndalang transportyorlar, me'yorlash-tushirish qurilmasi, uzatma va elektr jihozlari tizimi sanaladi.

Tarqatgichning ishlash jarayoni, tuzilishi, bo'ylama va ko'ndalang transportyorlari konstruksiyasi KTV-10A tarqatgichiga mo-nand hisoblanadi.



#### 89-chizma. PMM-5,0 va PMM-Φ-6 ozuqa tarqatgichlari:

- a) PMM-5,0 ozuqa tarqatgichi 1–rama; 2–kuzov; 3–biter; 4–kardanli uzatma; 5–g'ildirak yarim o'qi; 6–g'ildirak; 7–ko'ndalang transportyor; 8–domkrat, 9–bo'ylama transportyor;

- b) PMM-Φ-6 ozuqa tarqatg'ichi: 1–rama; 2–kuzov; 3–biter; 4, 7–transportyorlar; 5–teleskopik val; 6–tayanch.

**PMM-Φ-6 ozuqa tarqatgichi** – PMM-5,0 tarqatgichining takomillashgan varianti hisoblanadi (89-chizma). Unda aylana zvenoli zanjir qo'llanilgan bo'lib, tarqatgich ko'ndalang transportyoring mustahkamligi ortgan. Zanjir surgichlarini montaj qilinishi yengil, bu esa unga ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishiga mehnat sarfini kamaytiradi. Yarim yopiq sakkiz qirrali biterlar (mavjud ochiqlariga nisbatan) yirik maydalangan ozuqa aralashmalarini ham tarqatishga imkon beradi. Ko'ndalang transportyorda yengil TK-100-600 tasmasidan foydalanganligi tufayli mustahkamligi ortgan. Pnevmo o'tkazgichli va turg'un hol uchun mexanik tormoz moslamasi qo'llanilgan. Tarqatgichning teleskopik qurilmasi uni 0,6 yoki 0,9 klassdagi traktorlar bilan agregatlanishni ta'minlaydi. Tasodifiy zo'riqishlardan tarqatgichni sharikli saqlash muftasi as-raydi. PMM-Φ-6 konstruktiv takomillashishi natijasida PMM-5,0 ga nisbatan kuzov sig'imi 36 foizga, ish unumi 15 foizga, yuk ko'tarishi 12 foiz ortib, mehnat sarfi 10 foizga kamaygan.


**PCII-10A tarqatgich-aratashirgichi** – silos, senaj, dag'al ozuqa va boshqa maydalangan ozuqa komponentlarini aralashtirish va tarqatish uchun xizmat qiladi. PCП-10A kuzov (3), pastki (6) va ustki (5) shneklar, tushirish planka-zanjirli transportyori (9), to'siq (4), ishchi organlar uzatmasi (2), yurish qismi (1), tormoz tizimi, elektrotenzometrik tortish qurilmasi va ramadan iborat (90-chizma).

Kuzov taxtalangan po'latdan tayyorlanib, o'rtal qismida lyuk, yon devorlarida shnek va uzatmalar podshipniklarini o'rnatish uchun teshikcha qoldirilgan. Yurish qismi tebranuvchi balansirlarga o'rnatilgan ikki g'ildirakdan tashkil topgan. Gidravlik tormoz tizimiga ega.

Tarqatgich ishchi organlari uzatmasi harakatni traktorning quvvat olish validan zanjirli uzatma orqali oladi.

Me'yorlangan ozuqa komponentlari kuzovga yuklanadi. Traktor quvvat olish vali orqali ozuqa komponentlarini aralashtiradi. Ozuqa tarqatish yo'lagida gidrotizim tortqisi esa tushirish transportyoring yo'naltiruvchi tarnovini oxur ustiga pasaytiradi. So'ng tushirish darchasi ochilib, avtomatik tarzda tushirish transportyori ishlab, ozuqa oxurlarga to'kila boshlaydi.

Tushirish transportyori tarangligi tortish o'qini siljitim, uzatmasining zanjirli sirti esa yetakchi transportyor podshipniklari



**90-chizma. PCII-10A (a) va APC-10A (b) ozuqa tarqatgich-  
araslashtirgichlari:**

1—yurish qismi; 2—harakatlantirish mehanizmi; 3—kuzov; 4—to'siq;  
5—ustki shneklar; 6—pastki shnek; 7—rama; 8—og'irlilikni tortish moslamasi;  
9—tushirish transportyori.


korpusini burash bilan amalga oshiriladi. Zanjir tortilish me'yori, yetaklanuvchi o'rta zvenoga buragich bilan ta'sir ko'rsatganda zanjir yo'nalishiga nisbatan  $20-30^\circ$  ga burala olishi zarur.

APC-10A tarqatgichi konstruksiyasi bo'yicha PCП-10A ga monand. APC-10A ЗИЛ-131 avtomobiliga o'rnatilgan.

**PMK-1,7 ozuqa tarqatgichi** – suyultirilgan karbamid, melassa va boshqa suyuq ozuqa aralashmalarini qoramolchilik fermasida tashish, bir yoki ikki tomonga tarqatib berishi uchun xizmat qiladi (91-chizma).

Tarqatgich sisterna aralashtirgichi (4), transmissiya nasosi (2), yurish qismi (1) va elektr jihozlaridan tashkil topib (1), klassdagi traktorlar bilan aggregatlanadi. Ishchi organlari traktor quvvat olish validan harakat oladi.

Har bir metr joyga zootexnik talablarga muvofiq ravishda ozuqa tushish me'yori tarqatgichning sochuvchi moslamasi qopqog'ini burash bilan amalga oshiriladi. Buning uchun tarqatgich ostiga idish qo'yilib, traktor quvvat olish



**91-chizma.  
PMK-1,7 ozuqa  
tarqatgichi:**

1—rama yurish qismi bilan;  
2—shesterniyali nasos; 3—tarqatish moslama; 4—sisterna aralashtirgichi bilan.


vali ishga tushiriladi va suyuqlikning oqib tushish vaqtiga belgilanadi. Sochuvchi moslama qopqog'i buralib, me'yorga sozlanadi. Qopqoqning holati quvurdagi chiziqchalar bo'yicha zarur ko'rsatkichga to'g'rilab qo'yiladi.

*49-jadval*

### Tirkama tirqatgichlarining texnik tasnifi

Ko'rsatkichlar	KTY-10A	PMM-5,0	PCП-10A	APC-10A	PMK-1,7
Kuzov (sisterna) hajmi, m <sup>3</sup>	10	5	10	10	1,8
Tezligi, km/s: transport ishchi	30 gacha 0,76-2,84	20 gacha —	18 gacha 4,2-5,7	60 3-8	25 gacha 1,65-2,80
Yuk ko'tarishi, t	4,0	1,4	4,0	6	1,8
Tarqatish me'yori, kg/s	4,8-64	5-50	120 t/s gacha	13 t/s gacha	0,25-1,3
Koleya kengligi, mm	1600	1150-1440	1600	1600	1600
Gabarit o'lchamlari, mm	6670x2300x 2500	5100x1900x 1900	5400x2590x 2300	7330x2810x 2995	3150x2220x 1850
Massa, kg	2250	1450	3940	7320	835

**KYT-3A tirkama ozuqa tarqatgichi** – bunker (6), rama (10), yurish qismi (8), planka-zanjirli transportyor (9), shnek (1), tarnov va uzatmadan tuzilgan (92-chizma). Oxurlar oldida tarqatgich



*92-chizma. KYT-3A tirkama ozuqa tarqatgichi:*

- 1-tushirish shnegi; 2-qopqoqni burish dastagi; 3-tushirish qurilmasi;
- 4-harakatga keltirish yulduzchalar; 5-yuklash darchasi; 6-bunker; 7-rolik;
- 8-yurish qismi; 9-planka-zanjir transtortyori; 10-rama; 11-kardanli val.


traktor quvvat olish validan harakat olib, transportyor plankasi ozuqani shneklar qabul darchasi orqali oxurga yo'naltiradi. Tarqatgich aralashtirgich sifatida foydalanilganda shnekni qabul darchasi yopib qo'yilib, bunker ichiga yuklangan ozuqa komponentlari aralashtiriladi. Tarqatgich ish unumi  $0,87-1,37$  km/s ishchi harakatida  $47$  t/s ni tashkil etadi.

**PC-5A aralashtirgich-tarqatgich** –  $60-80\%$  namlikda ozuqa aralashmasini tayyorlash va ikki tomonlama joylashgan guruh oxur-tog'oralariga tarqatish uchun xizmat qiladi (93-chizma).

Aralashtirgich-tarqatgich bunker (1), aralashtirgich (2), me'yorashtushirish organlari, boshqarish dastalari (5, 6, 7, 8) va elektryuritgich (14)dan iborat. Aralashtirgich-tarqatgichni harakatga keltirish uzatmasi elektryuritgich (14), chervyak reduktori, saqlash muftasi va konussimon reduktordan iborat. Bunker aralashtirgichi bilan gorizontal holda joylashgan.

Aralashtirgich parragi bunker ichida ikki tayanchga mustahkamlangan. Aralashtirgich parraklari bunker ichida vintsimon shaklda, bir tomoni o'ng va ikkinchi tomoni chap yo'nalishda joylashtirilgan. Parraklar aylanib ozuqalarni aralashtirib me'yorlagichlar ustida joylashgan ikki darchaga tomon suradi. Bunker darchasi bo'g'iz orqali tushirish me'yorlash shnogi bilan bog'langan. Bo'g'izni shnek bilan bog'lanish joyida shiber o'rnatilgan.

Tarqatgich ozuqa yo'lida o'rnatilgan relsda harakatlanadi. Rels bo'ylab taxtadan yasalgan nov o'rnatilgan. Novning sirti silliq bo'lib chiqiqlari bo'lmasligi lozim.




93-chizma. PC-5A aralashtirgich-tarqatgich shakli:

- 1—bunker; 2—aralashtirgich; 3—elektropult; 4—chervyak reduktori;
- 5, 6, 7, 8—boshqarish dastalari; 9—yetakchi para; 10—saltpara;
- 11—kronshteyn; 12—konussimon reduktor; 13—tushirish-tarqatish shnogi;
- 14—elektryuritgich.

Ish jarayoni quyidagicha bo'ladi. Bunkerni to'ldirishdan avval aralashtirgich parraklari ishga tushiriladi. Ozuqa aralashmasi komponentlari va suv birga aralashtirishga uzatiladi. Bunker bir tekis va asta-sekin to'ldirilib, aralashtirish davomida parraklar aylanish yo'nalishi 1-2 marta o'zgartiriladi. Bunker to'lib ozuqa aralashmasi tayyor bo'lgandan so'ng tarqatgich ozuqa tarqatish yo'lagiga yuradi. Oxurlarga kelganda tarqatgich shnekлari ishga tushirilib, shiber to'siqlar ochiladi va tushish me'yori ta'minlanadi. Aralashtirish moslamasi tarqatgichni yuklanishi, yurishi, tarqatishi mobaynida to'xtovsiz ishlab turadi.

Ish boshlanishidan avval barcha qism va mexanizmlarning mustahkamligi, podshipniklar va reduktorlarda moylash materiallari ni borligi, muftaning qo'shilishi va ajralishini og'ir, yengilligi nazorat qilinadi.

**Elektrlashgan KC-1,5 ozuqa tarqatgichi** – kichik bo'rdoqichilik cho'chqa fermalarida nam ozuqa aralashmalarini tayyorlash va tarqatish uchun xizmat qiladi (94-chizma). Ozuqa sexlari bo'limgan fermada quruq, yarim nam va nam ozuqa aralashmalarini tayyorlashi mumkin. Tarqatgich rama, bunker (1), vertikal shnek-aralash-tirgich (2), kurakli aralashtirgich (3), to'siq (4), tarqatish shnegi (5), yurish qismi, boshqarish qutisi va elektryuritgichlardan tuzilgan.



94-chizma. KC-1,5 harakatlari ozuqa tarqatgichining texnologik ish jarayoni shakli:  
1–bunker; 2– shnek– aralashtirgich; 3–kurakli aralashtirgich; 4–to'siq (shiber); 5–tushirish shnegi

Tarqatgichga ozuqa sexdan yoki ombordan keltirilib yuklanadi. Yuklash bir tekisda aralashtirgich ishlab turgan holatda bajariladi.

Yuklash va aralashtirish vaqtida to'siq yopiq holatda bo'ladi. Aralash-tirish davri 4 minut davom etadi. Tarqatish oldidan tarqatgichning zarur tarqatish harakat tezligi o'rnatiladi (to'rtta tezlik mayjud). So'ngra bosh-qarish qutisi eshigida ko'rsatilgan tarqatish me'yori jadvaliga mos ravishda to'siq ochilib, bir yoki ikki tomonla-ma ozuqa tarqatiladi.

Ozuqa namligi 85 foizdan yuqori holatlarda tarqatgich to'rtinchi tezlik-


da ( $0,67 \text{ m/s}$ ) harakatlanishi lozim. Bunker ozuqadan bo'shaganidan so'ng ishchi organlari uzatmasi to'xtatiladi va tarqatgich orqaga harakatlanib, jarayon takrorlanadi. Tarqatgich ish jarayoni pult-dan boshqariladi.

**KЭC-1,7 ozuqa tarqatgichi** – (95-chizma) guruh holatida boqiluvchi cho'chqachilik fermalarida quruq, donador va nam aralashmalarni oxurlarga tarqatish uchun xizmat qiladi. Tarqatgich temir g'ildirakli (3) o'ziyurar arava ustiga o'rnatilgan bunker (1), ichiga o'rnatilgan ikkita shnek (5) ozuqalarini tarqatish darchasiga uzatib beradi. Darchalarning har biri to'siqchaga ega. Arava ramasida uch mustaqil elektruzatmaga ega: bittasi tarqatgichni harakatga keltiruvchi va ikkitasi tushirish shneklariniki hisoblanadi.

Ozuqa tarqatish me'yori tushirish shneklarini aylanish tezligini yulduzlar bloki zanjiri joyi va ishchi organlarini harakatga keltiruvchi ikki pog'onali shneklar tasmasini o'zgartirish bilan amalga oshiriladi. Ozuqa tarqatgichlarni boshqarish belgilangan dastur asosida avtomatik tarzda yoki markaziy boshqarish pultidan qo'lda bajariladi.


Tarqatish mexanizmini harakatga keltirish zanjirlari tortqi yulduzchani kronshteynni yo'naltiruvchi tirqishlari orqali surib sozlanadi. Zanjir o'rtasiga berilgan  $100-150 \text{ N}$  zo'riqishga uning egilganligi  $15-20 \text{ mm}$  bo'lishi lozim. Ozuqa tarqatgichni harakatlanish mexanizmi vtulka-rolikli zanjiri reduktorni yo'naltiruvchi tirqishlar bo'ylab surish bilan sozlanadi. Zanjir o'rtasiga berilgan  $100-150 \text{ N}$  zo'riqishga uning egilganligi  $10-15 \text{ mm}$  bo'lishi lozim. Harakatga keltiruvchi tasmalar tortilishi sozlash boltlari orqali bajariladi. Tasmaning o'rtaligiga  $30 \text{ N}$  kuch berilganda, egilish  $20 \text{ mm}$  dan ortmasligi lozim.

**KCII-0,8 ozuqa tarqatgichi** –  $65-75$  foiz namlikdagi ozuqa aralashmalarini ona cho'chqalarga, quruq omixta yem va obratni yosh cho'chqalarga me'yorli tarqatish uchun xizmat qiladi (96-chizma). Tarqatgich bunker (12), rama, ikkita qo'shimcha



95-chizma. KЭC-1,7 ozuqa tarqatgichi shakli:

1–bunker; 2–trolley kabeli; 3–transport g'ildiragi; 4–tushirish shnegi; 5–shneklar; 6–oxur.



### 96-chizma. KCII-0,8 ozuqa tarqatgichi shakli:

1—ona cho'chqa oxuri; 2—oxur; 3—tushirish shnegi; 4—to'siq (shiber) qurilmasi; 5—tushirish bo'g'izi; 6, 14—harakatga keltirish yulduzchalari, 7—kulakli mufta; 8—ta'minlagich shnek; 9—quruq omixta yem bunker; 10—kurakli aralashtirgich; 11—nam ozuqa bunker; 12—asosiy bunker; 13—yosh chuchqalarning guruh oxuri.

ozuqa tarqatishda foydalaniladi.

Tarqatgich automat holda yoki qo'lda boshqarilishi mumkin.

### 50-jadval

#### Harakatlanuvchi bunkerli ozuqa tarqatgichlarning texnik tavsiflari

Ko'rsatkichlar	KTY-3A	KC-1,5	PC-5,0A	KЭC-1,7	KСII-0,8
Bunker sig'imi, m <sup>3</sup>	3,0	2,0	0,77	1,7	0,87
Ish unumi, t/s: aralashtirishda tarqatishda: quruq ozuqa nam ozuqa	18	4,8	1,8	—	—
	22	48,8	—	38,7	—
	54	30,14	25,5	14,6	4,0
Tarqatish harakat tezligi, m/s	0,87-1,3	0,33-0,52	0,47	0,52	0,25
Koleya kengligi, mm	—	750	618	700	618-750
Talab etiladigan ozuqa yo'li kengligi, mm	2200	1400	1400	—	1400

## 50-jadvalning davomi

Elektryuritgichlar soni, dona	—	4	1	2	3
Iste'mol quvvati, kVt	40,4	7,75	3,0	5,2	4,5
Gabarit o'lchamlari, mm	4330x 2650x 2080	2500x 1730x 1850	3315x 1675x 1120	3000x 996x 1405	2600x 1800x 1700
Massa, kg	1680	1000	650	760	790

**3CK-Φ-10A (3CK-Φ-15) yuk ortgichlari** – quruq ozuqa (don, omixta yem, donador ozuqa)larni tashish va tashqi bunkerlarga yuklab berish uchun xizmat qiladi. Yuk ortgichlar seksiyali bunker, yig'ma shnekli konveyer (tushiruvchi, vertikal va gorizontal shneklar), tushirish tarnovi, ko'tarish qurilmasi, burish qurilmasi reduktori, shiberlar, qo'l gidronasosi va avtomobil shassisidan tuzilgan. Bunkerning ko'ndalang devorlari teng bo'lmalardan iborat (3CK-Φ-10A uchta va 3CK-Φ-15 to'rtta).


Bo'lmalarning tubida shiberlar o'rnatilib, ularni boshqarish tortqlari kuzovning oldingi va orqa devorlariga chiqarilgan. Yuk ortgichga xizmat ko'rsatishni yengillashtirish maqsadida kuzov orqa devorining o'ng qismiga shoti o'rnatilgan.

Shnekli yig'ma konveyer gorizontal, vertikal shnekdan, o'tkazgichdan va tushirish shnegidan tashkil topgan. Tushirish shnegining oxirgi kojuxi yechiladi. Kojux shnekning sharikli podshipnikli tayanchi va tushirish tomog'ining yo'naltiruvchi yengidan iborat. Vertikal va gorizontal shnekлari kojuxi po'lat taxtadan quvur shaklida yasaladi. Tashqi shneklar kojuxi flanesi reduktorlarga tez yechiladigan xomutlar yordamida biriktirilgan. Vertikal shnek kojuxi unga biriktirilgan tushirish shnegi bilan birga qo'lda burish qurilmasi yordamida buraladi. Bo'shatish shnegini ko'tarish va tushirish gidronasos va ko'tarish qurilmasi yordamida amalga oshiriladi.

Yuk ortgichning ishechi organi QOV qutisidan kardan va zanjirli uzatma yordamida harakat oladi. Shnekni harakatga kelтирувчи yetakchi valda avariya holatidan saqlab qolish qurilmasi montaj qilingan.

**ACII-25 avtoozuqatashigichi** – sochiluvchi va donador omixta yem, oqsil-vitaminli qo'shimchalarni tashish, silos xandaqlari, om-

borlari va boshqa qabul bunkerlariga tushirish uchun xizmat qiladi (97-chizma). Undan xo‘jalik ichida quruq omixta yem va donlarni tashish uchun ham foydalanish mumkin. Avtoozuqatashigich KamA3-5410 shatagi va yarim tirkama ОДАЗ-9370 dan iborat.



#### **97-chizma. ACII-25 avtoozuqatashigichi:**

1—yarim tirkama; 2—narvon; 3—tutqich; 4—yuklash lyuki; 5—sisterna; 6—pnevmatik magistral; 7— kompressor qurilmasi; 8—shatak.

*51-jadval*

#### **ACII-25 avtoozuqatashigichning asosiy texnik ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar	Hajmi
Ish unumi, t/s	20
Tushirish uzunligi, m:	
gorizontal holda	40
vertikal holda	10
Sisterna sig‘imi, m <sup>3</sup>	25
Kompressorning iste’mol quvvati, kVt	19,5
Sisternadagi ishchi bosim, MPa	0,10-0,12
Bo‘shatish engi diametri, mm	100
Pnevmo tushirishda havoning maksimal bosimi, Mpa	0,14
Siqilgan havoni uzatish unumi, m <sup>3</sup> /min	6
Tushirish vaqtি, soat	0,65
Avtoozuqatashigich massasi (yuksiz), kg	13300
Avtoozuqatashigich massasi (yuk bilan)	25600
Harakatlanish tezligi, km/s	80
Sisternani to‘ldirish maksimal balandligi, m	3,8

Shatakning ramasida kompressor qurilmasi ramasi o‘rnatilgan. Kompressor qurilmasi quvvat olish vali qutisidan harakat oladi.

Kompressor qurilmasi pnevmomagistrali yarim tirkama pnevmomagistrali bilan birlashtirish yengi orqali tutashtirilgan.

Yarim tirkamaga sisterna, aerator, drossel kranlari, injektor, tushirish yenglari, oldinga va orqa konsol, narvonlar, platforma, lyuk qopqog‘i, pnevmomagistrallar, telejka va tayanch qurilmalari kiradi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. KTY-10 va KTY-10A ozuqa tarqatgichlar vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
2. PMM-5,0 ozuqa tarqatgichi vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
3. PCП-10A ozuqa tarqatgichi vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
4. PMK-1,7 ozuqa tarqatgichi vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
5. KYT-3A ozuqa tarqatgichi tuzilishi va texnologik ish jarayoni.
6. PC-5A aralashtirgich-tarqatgich vazifasi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
7. KC-1,5 ozuqa tarqatgichi vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
8. КЭC-1,7 ozuqa tarqatgichi vazifasi, tuzilishi texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
9. KCП-0,8 ozuqa tarqatgichi vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni.
10. ACП-25 avtoozuqa tashigich vazifasi, tuzilishi va texnik tafsifi.

## 5.4. GO‘NG TAVSIFI. GO‘NGDAN TOZALASH USULLARI

Go‘ng, go‘ng shaltog‘i, parranda tezagi foydali organik o‘g‘it hisoblanadi. Uning tarkibida o‘simliklar uchur zarur bo‘lgan baracha moddalar mavjud. Biroq chorvachilik fermalari chiqitlari go‘ng, oqava suvlari va havoga chiqariladigan gazlar atrof-muhitni ifloslantiradi. Shu sababli go‘ngan tozalash, yig‘ish, ishlov berish, zararsizlantirish uchun murakkab injenerlik tizimlari mavjud va

ular ham chorvachilik fermalari ishlab chiqarishi tarkibiga kira-di. Bu tizimlardan to‘g‘ri va unumli foydalanish atrof-muhitni tozaligini saqlashga imkon beradi.

*52-jadval*

### **Hayvonlar ekskrementining o‘g‘itlik qimmati**

Hayvon	Kulligi, %	Quruq moddasiga nisbatan, oziq moddalar, %		
		N	P <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	K <sub>2</sub> O
Qoramollar	16	3,2	2,0	3,1
Cho‘chqalar	15	5,0	2,1	2,5

Go‘ng tarkibida qattiq, suyuq va gazsimon moddalar mayjud. Shu bilan birga go‘ngning tarkibiga to‘shamalar (somon, yog‘och qirindisi) tushib qoladi. Go‘ng kasallik tug‘diruvchi mikroorganizmlar uchun yaxshi muhit sanaladi. Shu sababli go‘ngdan foy-dalanishdan avval uni zararsizlantirish kerak. Go‘ngning qattiq fraksiyasi biotermik ishlov berib, zararsizlantirilib, burtlarda saqlanadi yoki kompost (aralashtirib chiritish) qilinadi.

Kunlik go‘ng chiqishi hayvonlarni boqish va saqlash tizimi (to‘shamali yoki to‘samasiz), turi va yoshi, ozuqa ratsioni tarkibi, oziqlantirish usuli va boshqa ko‘plab omillarga bog‘liq.

Bir hayvonning kunlik go‘ng chiqishini taxminiy hisoblash mumkin.

$$Q = 4 \cdot (0,5 \cdot E \cdot K_{QM} + P_{QM}),$$

bu yerda:  $K_{QM}$  – ratsiondagي quruq moddalar, kg;  $P_{QM}$  – to‘sama-dagi quruq moddalar, kg.

Bir yillik go‘ng chiqishi miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$Q = (q_e + q_m + q_B + P) D \cdot m,$$

bu yerda:  $q_e$  – bir hayvondan ajraladigan kunlik ekskrement miqdori, kg;  $q_m$  – bir hayvondan ajraladigan kunlik siyidik miqdori, kg;  $q_M$  – bir hayvon go‘ngini tozalash uchun kunlik suv sarfi, kg;  $P$  – bir hayvonga kunlik to‘sama sarfi, kg;  $D$  – go‘ng yig‘ilib turadi-gan kunlar soni;  $m$  – binodagi hayvonlar bosh soni.

Molxonani go‘ngdan tozalash va to‘shamalarni to‘sash ishlari ertalab va kechqurun (sog‘ishdan oldin) amalga oshiriladi. Go‘ngni 30 foizdan ko‘prog‘i oziqlantirish vaqtida ajraladi. Hayvonlarni og‘illarda boqish davrida ekskrementlar kuniga 10–15 marta ajraladi.

*53-jadval*

### **Har xil hayvonlardan kunlik go‘ng ajralish miqdori, kg**

Hayvon turlari	Go‘ng ajralish miqdori, kg
Nasldor buqalar	40
Sigirlar	55
4–6 oylik buzoqlar	7,5
16–18 oylik bo‘rdoqi buzoq va g‘unajinlar	27
6–12 oylik bo‘rdoqi buzoqlar	26
12 oydan katta bo‘rdoqi buzoqlar	35
Erkak cho‘chqalar	11,1
Ona cho‘chqalar:	
qisir	8,8
bo‘g‘oz	10,0
bolalari bilan	15,3
Onasidan ajratilgan cho‘chqa bolalari (30 kg og‘irlikda)	2,4
Bo‘rdoqichilik cho‘chqalari:	
40 kg gacha	3,5
40–80 gacha	5,1
80 kg dan ortiq	6,6
Katta qo‘ylar	3,5
Yosh qo‘ylar	2,0
Sun‘iy o‘stirilayotgan qo‘zilar	1,3

Go‘ngning xususiyatiga uning namligi katta ta’sir ko‘rsatadi. Qoramol go‘ngi to‘sama bilan saqlanib, mexanik usulda tozalan-ganda namligi – 75–90 foiz, to‘samasiz – 88–95 foizni tashkil etadi.


*54-jadval*

### **Hayvon go‘ngining dastlabki namligi, foiz**

Hayvon	Siydik	Tezak	Siydik va tezak aralashmasi
Qoramol	83-84	94,8-95	86-87
Qo‘ylar	67-69	94-95	74-75
Otlar	71-72	95-96	77-79
Cho‘chkalar	76-78	94-95	87-88

Qoramolning somon aralashgan go‘ngi namligi 75–85 foizga, zichligi 530–890 kg/m<sup>3</sup> ga teng. Qoramol va qo‘yning suyuq go‘ngi zichligi 1010–1020 kg/m<sup>3</sup> ga, tovuqniki 700–1005 kg/m<sup>3</sup> ga teng.

Chorvachilik fermasida yuklash-tushirish va transport ishlari hajmi chorvachilikdagi mehnat hajmining 40 foizini tashkil etib, uning deyarli yarmi go'ngni tozalash va chiqarishga sarf bo'ladi. Go'ngni tozalash, yig'ish va qayta ishslashning hayvonlarni saqlash usuliga qarab ikki xil texnologiyasi mavjud. Ular orasidagi farqlar va amalga oshiriladigan texnologik operatsiyalar natijasida turli xususiyatga ega bo'lgan organik o'g'itlar olinishi 98-chizmada ko'rsatilgan.



**98-chizma. Chorvachilik fermalarida go‘ngni tozalash, yig‘ish, saqlash va foydalanish texnologik jarayonlari.**

Go'ngni chovachilik bino va inshootlaridan tozalash, saqlash va ishlov berib, organik o'g'it sifatida dalaga yetkazib berish jayroni quyidagicha kechadi. To'shamani yetkazib taqsimlash – binoni go'ngdan tozalash-tushirish yoki vaqtincha saqlash joyiga yetkazib berish – yuqori samarali organik o'g'it tayyorlash uchun ishlov berish (biologik, biokimiyoviy, termik, elektr) – yuklash va dalaga yetkazib sochish.

Qoramollar bog'lab boqilganda og'illar kuniga 2–3 marotaba tozalanib, go'ng molxona tashqarisidagi saqlash xandag'iga yoki maxsus maydonlarga kompost tayyorlash uchun chiqariladi.

Qoramollar bog'lamasdan qalin to'shamada boqilganda go'ng yiliga 2–3 marotaba, yayratish maydonlaridan kunora yoki bir necha kunda bir marta tozalanadi (mavsumga qarab).

Qoramollar bog'lamasdan bokslarda saqlanganda hayvonlarni dam olish, oziqlantirish-yayratish, sog'ish oldi binolaridan va hayvon haydalib, yuriladigan yo'llardan go'ng 2–3 kunda bir marotaba tozalanadi.

Hayvonlar tirqish polli og'illarda saqlanganda go'ng ariqlarga to'planadi, u yerdan gidrotransport tizimi yoki yopiq ariq kollektorlarga o'rnatilgan transportyorlar yordamida tozalanadi.


## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Go'ngning kimyoviy tarkibi va go'ng chiqishini hisoblashni tu-shuntiring.
2. Go'ngni yigish, saqlash va foydalanish texnologik jarayoni.

### 5.5. GO'NG YIG'GICH MOSLAMALAR TASNIFI

Go'ng yig'ish mexanik va gidravlik tizimdagи moslamalarni o'z ichiga oladi. Mexanik tizimda go'ngni yig'ish, chiqarish va ishlov berishda qo'zg'almas hamda qo'zg'aluvchi moslamalardan foydalaniladi.

Vazifasi bo'yicha go'ng yig'ish moslamalari: binoni tozalash; go'ngni yig'ish va chiqarish; yetkazib berish (transportirovka) va keyinchalik foydalanishga taqsimlanadi (99-chizma).



99-chizma. Go'ng yig'ichlar tasnifi.

## 5.6. QO'ZG'ALMAS GO'NG TOZALASH QURILMALARI


Qo'zg'almas go'ng tozalash qurilmalari hayvonlarni bog'lab hamda bog'lamay boqish tizimlarida qo'llaniladi. Bunday go'ng tozalash qurilmalariga aylanma va ilgarilama orqaga harakat qiluvchi surgichli transportyorlar kiradi.

**TCH-160A surgichli go'ng tozalash transportyori** – chorvachilik binolarini go'ngdan tozalash va bir vaqtning o'zida tash-qaridagi transport vositasiga yuklab berish uchun xizmat qiladi. Transportyor ikki xil variantda, surgichlar zanjir ustida joylashganda (zanjur uchun tarnov bilan) va surgichlar zanjir ostida joylashganda ishslash qobiliyatiga ega.

Transportyor gorizontal (1) va qiya transportyor (2), boshqarish stansiyasi (4), tortqi moslamasi (5), surgichlar zanjiri (6) bilan va burilish yulduzcha (7)dan tuzilgan (100-chizma).

Qiya transportyor uzatma, surgichli yopiq zanjirli kontur, tortish va burish qurilmalaridan iborat. Uzatma elektryuritgich, reduktor, ponasimon tasmali uzatma va harakatga keltirish yulduzchasidan tashkil topgan.

Transportyor zanjiri zvenolar oralig'i 80 mm bo'lgan diametri 14 mm bo'lgan dumaloq po'latdan tayyorlangan. Zanjir gorizontal va vertikal zvenolardan, surgichni mustahkamlash kronshteynidan iborat bo'lib, kalibrangan, bo'linmas va termik ishlov berilgan holda tayyorlangan. Surgich vertikal zvenoga payvandlangan kronshteynga boltlar yordamida qotirilib qo'yiladi.




100-chizma. TCH-160A go'ng yig'ish transportyori:

1, 2—gorizontal va qiya transportyorlar; 3—boshqarish qutisi; 4—harakatga keltirish stansiyasi; 5—taranglash moslamasi; 6—zanjur surgichlari bilan; 7—burish yulduzchasi.

Taranglash moslamasi zanjir tarangligini ta'minlab turadi. Taranglash moslamasi – universal, go'ng arig'iga zanjir uchun q'shimcha nov bilan yoki novsiz montaj qilinadi.

Zanjir tarangligi avtomatik yo'l dastani burash bilan harakatli rolikni  $60^\circ$  burchakka burib sozlanadi. Natijada zanjir 0,5 m ga uzayadi (101-chizma).

Burish moslamasi zanjirni go'ng arig'inining burilish joylarida yo'nalishini o'zgartirib berish uchun xizmat qiladi.



**101-chizma. Gorizontal transportyorni taranglash qurilmasi:**  
1–tortqi (burilish) yulduzchasi; 2–yulduzchani tozalash ilmog'i;  
3–richag, 4–yuk; 5–tirkak; 6–tros; 7–plataforma; 8–tortish roligi;  
9–transportyor zanjiri.

Burish moslamasi halqa shaklida bo'lib, unga plastina va ular oralig'ida o'qqa ikki podshipnikda burish yulduzchasi o'rnatilgan. O'q shayba orqali bir tomoni plastinaga ikkinchi tomoni halqa-ga qotirilgan.

Qiya transportyor go'ngni transport vositasiga yuklash uchun xizmat qiladi. Transportyor tarmov, burish qurilmasi, surgichlar, zanjir, harakatga keltirish moslamasi va tayanchdan tuzilgan. Uzatma elektryuritgich, reduktor va uning valida o'rnatilgan yulduzchadan iborat. Qiya transportyor zanjiri gorizontal transportyor zanjiri bilan bir xilda tayyorlangan, faqat ular surgichlarni o'rnatish qadami bilan farqlanadi.


Boshqarish qutisi transportyorni masofadan boshqarish va foydalanishdagi avariya holatlari avtomatik tarzda to'xtatish uchun xizmat qiladi. Qiya transportyor zanjiri tarangligi vint

yordamida sozlanadi. Ponasimon tasmalar ham vint yordamida tortilib sozlanadi. Unga 10–15 N kuchlanish bilan bosilganda tasma egilishi 5 mm dan oshmasligi lozim.

**TC-1 surgichli transportyori** – go'ngni chorvachilik binolari dan go'ng yig'gichlarga yetkazib berish uchun xizmat qiladi (102-chizma).

TC-1 ikki xil variantda ishlab chiqarilgan: gorizontal yopiq kontur (bo'ylama) holatida – cho'chqaxonalar go'ngini tozalash va vertikal yopiq kontur (ko'ndalang) holatida – go'ngni cho'chqaxonadan go'ng yig'gichga ortish uchun.

Surgichli transportyor (bo'ylama va ko'ndalang) harakatga keltirish uzatmasi, o'zaro tortqilar bilan bog'langan surgichlar, bloklar va zanjirlardan iborat.



**102-chizma. Go'ng chiqarish qurilmasi TC-1 transportyorlari bilan:** a—jihozlarni go'ng toplash xandag'ida joylashishi; b—go'ng tozalash texnologik shakli; 1—chig'ir; 2—nasos qurilmasi aralashtirgichi bilan; 3—НПК-30 kovshli go'ng yuklagich; 4—go'ng yig'gich xandaq; 5, 6—bo'ylama va ko'ndalang transportyorlar; 7—harakatga keltirish stansiyasi; 8, 11—oxirgi o'chirgichlar; 9—tortqi zanjir; 10—tirkak; 12—ko'ndalang transportyor; 13—go'ng qabul qilish kanali; 14—blok; 15—go'ng yig'ish kanali; 16, 17—chig'irlar; 18—suzuvchi fekal nasosi; 19—go'ng qabul qilgich xandaq, 20—go'ng yuklagich; 21, 22—quvurlar; 23—shaltoq tarqatgich.

Harakatga keltirish uzatmasi rama, kareta, tortqi moslamasi va surgichli transportyorni oldinga-orqaga harakatlantiruvchi avtomatik to'xtatish moslamasidan tuzilgan. Uzatma ramasida kare-talar harakatini ta'minlovchi to'g'ri burchakli shvellerlar mavjud. Ramada tortqi moslamasi, avtomatik o'chirish mexanizmi va klemmalar qutisi montaj qilingan. Karetada elektryuritgich, reduktor, revers, g'ildirak va revers valiga zanjir orqali aylanishi uzatuvchi yulduz o'rnatilgan.

Revers silindrik kojuxga o'rnatilgan sharikli podshipniklarda aylanuvchi trapetsiya rezbali valga ega. Valda oldi-orqaga harakatlanuvchi gayka o'rnatilgan bo'lib, gayka kronshteynlarda qo'zg'almas joylashgan oxirgi elektr qo'shib-ajratgichlariga ta'sir ko'rsatadi. Qo'shib-ajratgichlar elektryuritgichining revers aylanishini ta'minlaydi.

Surgich moslamasi quvurdan yasalgan bo'lib, go'ng arig'i bo'ylab to'rt g'ildirakda harakatlanuvchi aravacha va po'lat taxtadan tayyorlanib, aravachaga halqa orqali qotirligan surgichning o'zidan tashkil topgan. Aravachaga ko'ndalang ravishda ilmoq payvandlangan va ilmoqqa surgichlarni o'zaro bog'lovchi zanjir yoki tortqi osib qo'yiladi.

*55-jadval*

### **Go'ng yig'ish transportyorlarining texnik tavsiflari**

Ko'rsatkichlar	TCH-2,0B	TCH-160A	TC-1
Ish unumi, t/s	5,7	4,5	10,0
Transportyor surgichlarining harakat tezligi, m/s:			
gorizontal	0,25	0,18	0,25
qiya	1,0	0,72	—
Transportyor elektryuritgichi quvvati, kVt:			
gorizontal	4,0	4,0	3,0 (bo'ylama)
qiya	1,5	1,5	3,0 (qiya)
Surgichlar qadami, mm	920	920	20000 gacha
Zanjir sirti bo'yicha maksimal uzunligi, m	160	160	182
Massa, kg	2610	1825	1500

Bloklar zanjir yo'nalishini o'zgartirish, transportyor zanjiri va tortqilarni ushlab turish uchun xizmat qiladi. Bloklar rolik,

kronshteyn, tozalagich, rama va o‘qdan iborat. Tortqilar zanjir va surgichni o‘zaro biriktirish uchun xizmat qiladi. Boshqarish qutilari transportyorlar ishini boshqarish, ishga tushirish va to‘xtatish uchun xizmat qiladi.

Panjarali pol ostiga hayvonlar bosib tushirgan ekskrementlar bo‘ylama transportyor go‘ng arig‘iga kelib tushadi. Transportyor surgichlari oldi-orqaga harakat qilib, go‘ngni ko‘ndalang ariqqa tashlaydi. Ko‘ndalang ariqdan ikkinchi transportyor TC-1 go‘ngni go‘ng yig‘gichga uzatadi. Go‘ng xandaqda aralashtirgich bilan aralashtirilib, ajratish sexiga yuboriladi.

**IHK-30 kovshli go‘ng yuklagichi** – go‘ngni xandaqdan transport vositalariga yuklash uchun xizmat qiladi. Kovshli yuklagich rama, yetakchi va tortqi vallar, kovshlar, zanjir, harakatga keltirish uzatmasi elektryuritgichi va ilmoqdan iborat.

Rama uch bo‘lakdan iborat bo‘lib, o‘zaro boltlar yordamida biriktirilgan. Ramaning asosiy elementlari ko‘ndalang burchaklar bilan bog‘langan bo‘ylama shvellerlar hisoblanadi. Kovshlar shvellerlarga payvandlab qo‘yilgan burchak shaklidagi po‘lat yo‘naltirigichlar bo‘ylab harakatlanadi. Kovsh massani yaxshi to‘ldirib olishi uchun qamrab olish qismi taroq shaklida yasalgan.

56-jadval

### Go‘ng yuklagichining qisqacha texnik tavsifi


Ko‘rsatkichlar	HПК-30
Ish unumi, m <sup>3</sup> /s	30
Kovsh zanjiri tezligi, m/s	0,75
Elektryuritgich valining aylanish tezligi, s <sup>-1</sup>	25
Transportyor uzunligi, mm	10400
Zanjir qadami, mm	44,5
Kovshlar qadami, mm	889
Bitta kovshning sig‘imi, dm <sup>3</sup>	12
Transportyorning xandaq ichigi tushirilish chuqurligi, m	3 gacha
Gabarit o‘lchamlari, mm	12700x110x8215
Massa, kg	1300

Ramaning oldingi qismida yetakchi val podshipniklari, tortqi yulduz, elektryuritgich va reduktorni montaj qilish uchun kronshteynlar o‘rnatalgan. Ramaning orqa qismida tortish valini

o‘rnatish uchun tirkish va tirkish mavjud. Go‘ng yuklagich zanjiri tarangligi tortqi valini unga erkin o‘rnatilgan roliklari bilan siljitisht natijasida amalga oshiriladi. Go‘ng yuklagichning yetakchi vali elektryuritgichdan reduktor va elastik mufta orqali harakat oladi. Go‘ng yuklagichni ko‘tarib-tushirilishi maxsus ilmoq orqali amalga oshiriladi.

Transportyor zanjirining tarangligi me’yori, zanjirni ko‘pi bilan 300–400 mm osilib turishi hisoblanadi.

**YC-Φ-170 va YC-250 qurilmalari** molxonalardan go‘ngni ochiq va tirkish polli ariq (kanal)lardan tozalash uchun xizmat qiladi (103-chizma).



#### 103-chizma. YC-250 surgichli go‘ng tozalash qurilmasi:

1—uzatma (elektryuritgich; reduktor; va revers mexanizmi); 2, 6—zanjur kontur; 3, 7—oraliq bog‘lash shtangalari; 4, 8—ishchi organlari (surgich); 5—burilish moslamasi.

57-jadval

#### YC tipidagi qurilmalar texnik tavfsifi

Ko‘rsatkichlar	YC-Φ-170	YC-250
Ish unumi, t/s	1,93	1,86
Zanjirning sirti bo‘yicha uzunligi, m	170	250
Surgichning harakat tezligi, m/min	3,8	3,8
Ishchi organining qamrash kengligi, m	1,8-3,0	1,8-3,0
Xizmat ko‘rsatiladigan qoramol bosh soni	90-110	160-180
Massa, kg	1450	3150


Qurilmalar tuzilishi bo'yicha bir-biriga mos. Ular harakatta keltirish (4) va tortqi stansiyalari, dumaloq zvenoli kalibrlangan zanjir, yo'naltiruvchi rolik va oldi-ketiga harakat qiluvchi surgich (3) va (5)lardan iborat.

Qurilmani ish yo'nalishida surgich ochiladi va go'ngni surib boradi, orqa harakatida surgich yig'ilib, go'ngni tarnovda qoldiradi.

**Go'ngni xandaqdan chiqarish va yuklash YBH-800 qurilmasi** qoramolchilik fermalarida go'ng saqlash xandaqlardan go'ngni chiqarish va transport vositalariga yuklab berish uchun xizmat qiladi (104-chizma). Qurilma ikki xil variantda ishlab chiqilgan: birinchisi YBH-800 (asosiy variant) uzunligi 100 m gacha bo'lgan ochiq go'ng xandaqlarida va ikkinchisi YBH-800-1 (qo'shimcha variant) (105-chizma) uzunligi 110 m bo'lgan panjara polli molxonalarda ishlataladi.


Qurilma suyuq go'ng nasosi, skreper qurilmasidan tashkil topgan. Skreper qurilmasi uzatma, skreper, chig'ir va tortish kanatidan iborat. YBH-800-1 qurilmasiga qo'shimcha tarzda oxirgi blok (2) va o'chiruvchi barabanlar (4, 5) kiradi.

Skreperni oldinga-orqaga harakatini ta'minlovchi uzatma (106-chizma) relsga o'rnatilgan. Uzatma rama (4), to'rt gildirak, elektryuritgich va boshqarish qutisidan iborat.




*104-chizma. YBH-800 qurilmasi (asosiy):*

1—suyuq go'ng nasosi; 2—uzatma; 3—skreper; 4—blok; 5—chig'ir; 6—taglik; 7—tortish kanati; 8—yuklash estakadasi (qurilma tarkibiga kirmaydi).



**105-chizma. YBH-800-1 qurilmasi (qo'shimcha):**

1—suyuq go'ng nasosi; 2—oxirgi blok; 3—skreper; 4, 5—oldingi va orqa o'chiruvchi barabanlar; 6—yuklash estakadasi; 7—taglik (joyida tayyorlanadi); 8—chig'ir; 9—blok; 10—tortqi kanat; 11—uzatma.



**106-chizma. YBH-800 va YBH-800-1 qurilmalari uzatmasi:**

1—yurish g'ildiragi; 2—qamrov; 3—elektryuritgich; 4—rama; 5—gayka; 6, 19—o'chrigichlar; 7—chana yo'naltirgich bilan; 8—boshqarish qutisi; 9—sozlash vinti; 10, 11, 14—podshipniklar; 12—baraban; 13—kojux; 15—yulduzcha va zanjirli uzatma; 16—birlashtirish muftasi; 17—reduktor; 18—ponasimon tasmali uzatma.

YBH-800 skreperi (107-chizma) go'ngni xandaqdan transport vositalariga yetkazib berish, ustini yumshatish va xandaq ichida siljitish uchun xizmat qiladi. Skreper ikkita bir-biriga biriktirilgan pontonlardan, ular oralig'ida o'qda podshipnik (8)da o'rnatilgan aylanuvchi to'siq (9)dan tashkil topgan.


Skreper to'siqqa halqa (6) orqali biriktirilgan kanat tortqi (7) yordamida harakatga keladi. Bu halqalarga tortqi kanatining uchi qotirilib, ko'ndalang balka (4)ga rolikli yo'naltirgichlarga biriktirilgan. Har bir ponton uchta germetik seksiyadan tashkil topgan.

Har bir germetik seksiya qopqoqli to'ldiruvchi bo'g'iz va tiqinli chiqarish teshigidan iborat.

YBH-800-1 skreperli qurilmani ikki pantomini har birining yonida ikkita rolik (2) bo'lib, skreperni molxona go'ng xandaqlari yon vertikal devorlaridan turtib turadi. Skreper orqa ko'ndalang balkasiga tortqi kanatiga sharnirli o'rnatilgan yumshatgich (3), tishlar (4)dan iborat. Skreper orqa yo'nalishda harakatlanganda yumshatgich va tishlari avtomatik ravishda yuqoriga ko'tariladi. Oldinga harakatlanganda yumshatgich va tishlari avtomatik ravishda pastga tushib, go'ngni yumshatib ketadi.


Tortqi kanati chig'ir bilan bloklar tizimi orqali bog'langan. Bloklar podshipniklarda aylanadi, bиринчи blok orqali tortqi kanati, ikkinchisi orqali chig'ir kanati o'tadi.

Chig'ir tortqi kanati tarangligini ta'minlaydi. YBH-800 qurilmasi chig'iri ramasi g'ildiraklarda go'ng xandag'i yoqalab relslarda harakatlanadi.



*107-chizma. YBH-800 qurilmasi skreperi:*

1—tiqin; 2—qopqoq; 3—bort; 4—ko'ndalang balka; 5—rolikli yo'naltirgich; 6—halqa; 7—kanat tortqi; 8—podshipnik; 9—to'siq; 10—ponton.



*108-chizma. YBH-800-1 qurilmasi skreperi:  
1—ponton; 2—turtgich roliklar; 3—yumshatgich; 4—yumshatgich tishlari.*

*58-jadval  
Go‘ng chiqarish va yuklash qurilmalarining texnik tavsifi*

Ko‘rsatkichlar	YBH-800	YBH-800-1
Ish unumi, t/s	100 gacha	100 gacha
Xandaqdan go‘ng chiqarish uzunligi, m: tashqarida pol ostidan	100 —	— 110
Maksimal go‘ng chiqarish chuqurligi, m	3,5	3,5
Elektryuritgichlar quvvati, kVt	13	13
Massa, kg	2155	2620
Skreper hajmi, m <sup>3</sup>	3,0	3,0
Skreper harakat tezligi, m/s	0,78	0,78
Xizmatchi soni	1	1
Skreper gabarit o‘lchamlari, mm	4010x1790x865	7060x1790x865
Uzatmaning gabarit o‘lchamlari, mm	2160x1460x1040	2420x1460x980
Massa, kg	2155	2520

### NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. TCH-160A transportyori vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
2. TC-1 transportyori vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va tavsifi.


3. НПК-30 yuklagichi vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va tavsifi.

4. YC-Φ-170 va YC-250 qurilmalari vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va tavsifi.

5. YBH-800 va YBH-800-1 qurilmalari vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va tavsifi.

## 5.7. GO'NG TOZALASH GIDRAVLIK TIZIMI

Gidravlik go'ng tozalash tizimining tindirgich-tarnovli, yuvuvchi uchlik, yuvish baki va o'zioqar turlari mavjud. Gidrotizim (109-chizma) go'ng qabul qiluvchi va magistral kanallar, go'ng to'plagich, nasos stansiyasi, tashqi kanalizatsiya tizimi va yo'llardan tuzilgan. Go'ng qabul qiluvchi kanal go'ngni og'il, stanok va yo'llardan qabul qilib olish uchun xizmat qiladi. Go'ng qabul qilgich go'ngni eng ko'p to'planadigan joyiga joylashtirilib, ustı panjaralı pol qilinadi.



*109-chizma. Go'ng tozalash va chiqarish tizimi:*

1—go'ng qabul qiluvchi kanal; 2—magistral kanal; 3—go'ng to'plagich;

4—nasos stansiyasi; 5—tashqi kanalizatsiya tizimi.

Har xil gidravlik tizim uchun kanalning shakli va ko'rsatkichlari har xil bo'ladi. Yuvaladigan gidravlik tizimlar uchun kanalning tagi oval va o'zi trapetseidal shaklda bo'lgani maqsadga muvofiq sanaladi. Kanallar go'ngni yo'naltirish tomoniga (go'ng to'plagich yoki magistral kanal) qarab 0,01 qiyalikka ega bo'ladi. Kanal devorlari gidravlik qarshilik kamroq bo'lishi uchun tekis va silliq qilib yasaladi.

Tindirgich-tarnovli va o'zioqar tizimlar uchun kanal to'g'ri burchakli qilib yasaladi, bu uning devorlariga go'ngni osilib qolishidan saqlaydi. Kanal tubi boshidan oxirigacha bir xil qiyalik-

da 0,005 qilib tayyorlanadi. Kanallar ustiga cho'yan, po'lat, asbestosement va temir betondan yasalgan 500x1000 mm o'lchamli quyma panjaralardan foydalaniladi. Cho'yandan yasalgan panjaraning og'irligi 35 kg ni tashkil etadi.

Magistral kanal qabul kanallaridan kelgan go'ngni to'plagich (3)ga o'zioqar tarzda yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Magistral kanal tubi oval va devori vertikal shaklda bo'ladi. Magistral kanal chuqurligi go'ng qabul qiluvchi kanallarga nisbatan kamida 300 mm bo'ladi. Kanallar kesishgan joylarga nazorat quduqlari o'rnatiladi.

Go'ng to'plagich chorvachilik fermasi binolaridan magistral kanal orqali kelgan go'ng massasini qabul qilib oladi. Uning sig'imi nasoslarni go'ngni saqlash xandaqlari va yig'gich-tindirgichlarga haydash ish unumini ta'minlashi lozim. Ko'p holatlarda go'ng to'plagich nasos stansiyasi bilan birga joylashadi. Go'ngni haydash uchun fekal nasoslardan foydalaniladi.

Bosim kollektori go'ng massasini yig'gichlarga haydash uchun xizmat qiladi. Kollektor po'lat va cho'yan quvurlardan tayyorlandi.

**Tindirgich-tarnovli tizim** – hayvonlarni guruh tarzida to'shamasiz boqilganda molxonani go'ngdan tozalash uchun qo'llaniladi.

Tizim go'ng qabul qiluvchi kanalda bitta yoki bir nechta to'siq (shiber)larni o'rnatilishini, go'ngni yig'ib vaqt vaqt bilan chorvachilik binosi tashqarisiga chiqarishni ta'minlaydi.

Har bir go'ng qabul qilgich kanalining ko'ndalang kanal bilan birlashgan joyida shiber to'sig'i qo'yiladi. Tizimni ishga tushirishdan avval shiber to'siq yopib qo'yilib, go'ng qabul qiluvchi kanalga 5–10 sm chuqurlikda suv quyiladi. Go'ng kanalida 6–7 kun mobaynida go'ng yig'iladi, kanal to'lgandan so'ng shiber to'sig'i ko'tarilib go'ng massasi ko'ndalang kanalga qo'yib yuboriladi. Keyin shiber yopilib, jarayon takrorlanadi.

Shiber bilan to'siladigan go'ng qabul qiluvchi kanalning uzunligi 30–40 m, chuqurligi 800 mm ni tashkil etadi. Kanallar sifatli gidroizolyatsiya qilingan bo'lishligi lozim.

**O'zioqar tizim** – hayvonlar to'shamasiz, ozuqa qoldiqlari va omixta yem bilan (silos va yashil massasiz) boqilganda samara beradi.

O'zioqar tizimda qabul qilish kanali tushgan go'ngni doimiy

tarzda chorvachilik binosidan tashqariga chiqarib yuboradi. Kanallar shakli tindirgich-tarnovli shiber to'siqli tizimdag'i kanal singari bo'ladi, lekin kanal oxurida qo'shimcha 120–150 mm balandlikda olish ostonasi yasalib, tubida doimiy suyuqlik sathi bo'lishligini ta'minlaydi. Ostona devor va kanal tubiga zikh qilib tayyorlanadi.

Tizimni ishga tushirishdan avval go'ng qabul qiluvchi kanallar ostona sathi bilan birday qilib suvg'a to'ldiriladi va shiber bilan yopib qo'yiladi. Hayvon ekskrementlari panjara teshigidan kanalga tushib yig'iladi. Kanal to'lgandan so'ng (14 kunlar mobaynida) shiber to'sig'i ochilib go'ng chiqariladi. Qolgan qatlam massaning harakat yo'nalishiga qarab har 1 m masofada 1–2 sm qiyalik hosil qiladi. Shu hisobdan kanal chuqurligi tanlanadi. 30–40 m uzunlikdagi kanalning chuqurligi 0,8–1,0 m tashkil etishi lozim.

Kanalga ekskrementlarning to'la borishi bilan ular ostona ushtidan oqib tushadi. Tizim hayvonlarni o'stirish, bo'rdoqiga boqish davrida tinimsiz ishlaydi. Hayvonlar guruhini almashtirish davrida kanallar suv bilan yuvilib dezinfeksiya aralashmasida ishlov beriladi.


## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Go'ng tozalash gidravlik tizimining texnologik ish jarayonini tu-shuntiring.
2. Tindirgich-tarnovli gidravlik tizimi qanday tuzilishga ega?
3. O'zioqar gidravlik tizimi.

## **5.8. GO'NGGA ISHLOV BERISH TIZIMI VA MASHINA JIHOZLARI**

Yirik chorvachilik ferma va komplekslarida go'ngga ishlov berishning quyidagi tizimi qo'llaniladi (110-chizma). Go'ng saqlash xandag'idan uni fraksiyalarga ajratuvchi qurilma (виброгрохот, yoy elak)ga kelib tushadi. Go'ngning keyingi quritilishi shnek press (ПЖН-68А), filtrlash va cho'ktirish, markazdan qochma qurilmalarida amalga oshiriladi.

Quyuq fraksiya biotermik zararsizlantirilganidan so'ng dalaga chiqariladi. Suyuq fraksiyani tozalash uchun aerotenk (havo aerasiyali vertikal yoki gorizontal rotorli aerotorlar) va biologik hovuzlar qo'llaniladi. Qurilmalar soni va ularning texnologik jarayon-



**110-chizma. Suyuq go'ngni chiqarish va ishllov berish texnologik tizimi shakli:**

1—ekskrementlar; 2—panjarali pol; 3—go'ng kanali; 4—go'ng yig'gich; 5—nassos; 6—fraksiyalarga ajratgich; 7—transportyor; 8—quyuq fraksiya burti; 9—aerotenk; 10—nassos; 11—zararsizlantirgich; I suyuq go'ng; II suyuq fraksiya ortiqcha balchiq; IV tozalangan suyuq fraksiya; V quyuq fraksiya.


vandlab tayyorlanadi. Qutining ichki yon devoriga to'siqlarni qisib o'rnatish uchun metall tasmalar payvandlangan. Qutining tashqi yon sirtiga prujinalar tayanchi o'rnatilgan to'rtta sapfa

dagi o'rni tozalanadigan mahsulot hajmi va tozalanish darajasiga mos ravishda olinadi.

**ГИЛ-32, ГИЛ-42, ГИЛ-52** inersion qiya tebratgichlari chorvachilikda go'ngni suyuq va quyuq bo'laklarga ajratib berish uchun xizmat qiladi (111-chizma).

ГИЛ turidagi tebratgichlar konstruksiyasi bo'yicha bir xil ostki va ustki saralash to'siqlardan iborat quti, inersion tebratgich, tayanch va uzatmadan iborat. Tashqi to'siq teshiklari o'lchamlari  $20 \times 20$  mm va pastkisiniki  $1,1 \times 2,0$  mm.

Tebratgich qutisi bo'lakli qilib, sifatli taxta prokatdan pay-



**111-chizma. ГИЛ turidagi inersion tebratgichlar:**

1—quti; 2—taqsimlash tarnovi; 3—debalans himoya to'sig'i; 4, 5—pastki va ustki filtrlash to'siqlari; 6, 9—oraliq va prujina tayanchi; 7—ustun; 8—poddon; 10—tebratgich; 11—ponasimon tasmali uzatma; 12—elektryuritgich; 13—uzatma ramasi; 14—tebratgich ramasi.

qotirilgan. Tebratgich harakat uzatmasi elektryuritgich, ponasi mon tasmali uzatma va himoya to'sig'idan iborat. Elektryuritgich ramaga mustahkamlangan. Ramadagi bo'ylama teshiklar bo'yab elektryuritgich siljitalib, tasma tarangligi sozlanadi.

Tebratgich poddoni taxta metalldan tayyorlanib, go'ngning suyuq bo'linmasini filtrlash zonasidan chiqarish uchun xizmat qiladi.

Tebratgich ishga tushirilmasdan oldin sozlanadi, ponasimon tasma tarangligi motor osti ramasidagi tortqi vintlar yordamida amalga oshiriladi. Tebratgich amplitudasini pasaytirish uchun debalansdagi yuklardan olib tashlanadi. Tebratgich valining aylanishlar soni elektryuritgich validagi shkivlarni almashtirish orqali o'zgartiriladi. Quti holati va pruijinining siqish darajasi plita ostiga qistirmalar qo'yish bilan amalga oshiriladi.


*59-jadval*

### Tebratgichlarning texnik tavsiflari

Ko'rsatkichlar	ГИЛ-32	ГИЛ-42	ГИЛ-52
Ish unumi, m <sup>3</sup> /s	30-60	60-100	100-120
O'rnatilgan quvvati, kVt	4,0	10,0	10,0
Gabarit o'lchamlari, mm:			
uzunligi	2840	4295	4785
kengligi	2258	2800	3110
balandligi	1965	2710	2910
Qutining tebranish amplitudasi, mm	2,5	3,2-3,3	3,5
Qutining tebranish soni, s <sup>-1</sup>	19,3	15	15
Go'ng namligi:			
dastlabki	94-98	94-98	98-98,5
qattiq bo'linmasi	82-84	82-84	85-86
Qutining gorizontga qiyaligi, grad	15	15	15
Tebratgichning rama va poddoni bilan massasi, kg	2040	4400	5180

**СД-Ф-50 qurilmasi** – go'ngni quruq (dag'al dispers) va suyuq bo'linmalariga ajratib berish uchun xizmat qiladi. Qurilma (112-chizma) to'shamalardan foydalanilmaydigan fermalarda go'ngni gidravlik usulda tozalashda qo'llaniladi.

Qurilma payvandlangan korpusi, taxta prokatdan yasalgan panjaralari filtrlash elementi, qabul bunkerini, poddon va presslash quril-



### **112-chizma. СД-Ф-50 go'ngai ajratish qurilmasi:**

1-korpus; 2-filtrlovchi elmsnt; 3-valeslar;  
4-surgich; 5-uzatma.

1740x1720x1930 mm, go'ngning dastlabki namligi 96–99 foiz, qat-tiq fraksiya namligi 88 foizdan ko‘p, suyuq fraksiya 98 foizdan kam emas. Dastlabki go‘ng massasini uzatish notekisligi 15 foiz, massasi 400 kg.

**ГБН-100А barabanli tebratgich** – chorvachilikda suyuq go‘ng oqimini qattiq va suyuq bo‘linmalarga ajratish uchun xizmat qila-di. Ishlov beriladigan go‘ngning namligi 93 foiz va yuqori bo‘lib, tarkibida 30 mm o‘lchamdan katta qattiq qo‘silmalar bo‘lmasligi lozim.

Asosiy texnik ko‘rsatkichlari: ish unumi (go‘ng namligi 93–99,5 foiz) 50–100 t/s; o‘rnatilgan quvvati–26 kWt; tebratgich vali aylanishlar soni – 15,6–17,6 s<sup>-1</sup>; barabanning aylanishlar soni – 0,26 s<sup>-1</sup>; tebranish amplitudasi 16 mm; filtrlash elementi teshigi di-ametri 2,0 va 1,0 mm; gabarit o‘lchamlari 3120x2370x2910 mm; qattiq fraksiya namligi – 85–90 foiz; suyuq fraksiya namligi 98–99 foiz; massasi 1140 kg.

Qurilma baraban, oldingi va orqa tayanch, tebratgich, rama, himoya to‘sig‘i va xizmat ko‘rsatish maydonchasidan iborat.

Baraban motor-reduktor orqali aylanma va tebratgichdan tebranma harakat oladi. Oqimni filtrlash uchun baraban tubida ikki panjaralari massa yo‘nalishidagi teshikli polotna o‘rnatilgan.

Suyuq go‘ng perfobaraban ichiga kirib, barabanning tebranma harakati va aylanishi tufayli filtrlanadi. Bunda qattiq fraksiya baraban bo‘ylab borib tarnovga, suyuq fraksiya panjara teshiklari

masidan tashkil topgan. Presslash qurilmasi rolik, kronshteynlar va surgichdan iborat. Rolik prujinalangan shtok bilan bog‘langan bo‘lib, kronshteynida 10–15 mm ga siljiydi.

Rezina to‘qima surgich (4) ishchi or-gandan siqilgan go‘ngni ajratib tashlash uchun xizmat qiladi. Harakat uzatmasi (5) elektryuritgich, reduktor, tasmali uzatma va zanjirli muftani o‘z ichiga ola-di. Uzatma harakatni harakatga keltirish valiga beradi.

Qurilmaning ish unumi 50 m<sup>3</sup>/s, o‘rnati-lgan quvvati 0,37 kWt, gabarit o‘lchamlari

orqali tushib poddonga yig‘iladi. Poddondan go‘ng quvur orqali xandaqqqa yuboriladi.

Vintli go‘ng pressi ПЖН-68А go‘ng qattiq bo‘linmasini yana-da suvsizlantirish uchun xizmat qiladi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Go‘ngga ishlov berishning qanday tizimlari bor?
2. ГИЛ-32, ГИЛ-42, ГИЛ-52 tebratgichlar vazifasi, tuzilishi sozlanishi va texnologik ish jarayoni nimalardan iborat?
3. СД-Ф-50 qurilmasi vazifasi, tuzilishi va texnik tavsifi.
4. ГБН-100А tebratgich vazifasi, ishslash va texnik tavsifini ayting?

## 5.9. HARAKATLI GO‘NG TOZALAGICHHLAR

**АМН-Ф-20 harakatlari go‘ng tozalagich agregati** – qoramol fermalari binolarining ochiq go‘ng yo‘llari hamda yayratish maydonlaridagi go‘ngni tozalash uchun xizmat qiladi. Agregat qanotlari sozlanadigan buldozer osmasidan tashkil topgan va T-40AM, va MT3-80, MT3-82 traktorlariga osib ishlatiladi.

Qisqacha texnik tavsifi: ish unumi – 20 t/s; qamrash kengligi – 1,8–3,3 m; ishchi tezligi – 1,82–5,48 km/s; gabarit o‘lchamlari ishchi holatida (traktorsiz) – 3310x3000x625 mm; massasi (traktorsiz) – 735 kg.


**СҮ-Ф-0,4 universal o‘zi yuklagich** – ferma hududi va yayratish maydonlarini go‘ngdan tozalash uchun xizmat qiladi.

Universal o‘zi yuklagich СҮ-Ф-0,4 T-16 MGtraktori shassisiga o‘rnatalgan bo‘lib quyidagilardan tuzilgan: go‘ng va boshqa materiallarni shassi kuzoviga yuklash uchun xizmat qiluvchi kovsh, kovshni ko‘tarib tushiruvchi II shaklidagi metall konstruksiya (portal) va o‘zi yuklagich ishchi organlari harakatini ta‘minlovchi gidrotizim.

Qisqacha texnik tavsifi: 200 m masofaga yuklash-tashish ish unumi – 12,7 t/s; kovshning qamrash kengligi – 1,7 m; transport tezligi – 20 km/s gacha; ishchi tezligi – 1,5–7,0 km/s; gabarit o‘lchamlari 4830x1740x2500 mm; osma moslamasi massasi – 490 kg.

**МЖТ-10 mashinasi** – go‘ngni yig‘ichlardan saqlash xandaqlariga, suyuq organik o‘g‘itlarni yuklash, dalaga tashish va yerni sochib, o‘g‘itlash uchun xizmat qiladi.

Mashina sisterna, muvozanat osma moslamasi, tirkama, vakuum qurilmasi, yuklash shtangasi, markazdan qochma nasosi, yo‘nalish o‘zgartirish qurilmasi, teleskopik kardan vali va gidrotizimdan iborat (113-chizma). T-150K traktori bilan agregatlanaadi. Mashina sovutgich, sath o‘lchagich, vakuum va suyuqlik klapanlari, pnevmatik tormoz tizimi, yoritish va signal berish priborlari bilan ta’minlangan. Sisterna payvandlanib tayyorlangan silindrik shaklga ega, ichki qismida gidravlik zarbalarni pasaytiruvchi to‘sifalar yasalgan. Vakuum qurilmasi sisternada vakuum hosil qilish uchun xizmat qiladi va o‘zaro zanjirli muftalar bilan bog‘langan ikkita vakuum nasosi hamda gidromotordan iborat.



#### **113-chizma. Go‘ngni tashish va tarqatish МЖТ-10 mashinasi:**

1—muvozanatlash osma moslamasi; 2—nasos; 3—tirkama; 4—kardan val; 5—vakuum qurilmasi; 6—sisterna; 7—yuklash shtangasi; 8—bosim quvuri.

Markazdan qochma nasos go‘ng shaltog‘ini (88 foizdan kam bo‘lmagan) siljitish va uzatish uchun xizmat qiladi. Yukni tushirish vaqtida vakuummetr va sath ko‘rsatkichlari nazorat qilib boriladi. Sisternadagi me’yoriy ko‘rsatkich 0,061 MPa tashkil etishi lozim.

*60-jadval*

#### **Suyuq go‘ngni tashish va tarqatish mashinalarini texnik tavsifi**

Ko‘rsatkichlar	МЖТ-10	МЖТ-16	МЖТ-19
Yuk ko‘tarishi, t	10	16	19
Ish unumi (3 km masofaga tashiganda), t/s	38,6	50	45
Ishchi tezligi, km/s	10	10	10

Transport tezligi, km/s	20	30	20
Gabarit o'lchamlari, mm	7500x2500x3400	8000x2700x3500	1200x2850x7500
Massa, kg	4000	5970	7500

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. AMH-Φ-20 va CY-Φ-0,4 agregatlari vazifasi nimadan iborat?
2. MKT-10 mashinasi vazifasi, tuzilishi va texnik tavsifi.

### **5.10. GO'NG SAQLASH XANDAQLARI**

Chorvachilik fermasining mexanizatsiyalashtirilgan go'ng saqlash xandagi maydoni yuzasi ( $m^2$ ) quyidagicha hisoblanadi:

$$F = m \cdot a \cdot n / (h \cdot p),$$

bu yerda:  $m$  – og'illarda saqlanadigan hayvonlar bosh soni;  $a$  – bir hayvondan kunlik ajraladigan go'ng miqdori, kg;  $n$  – go'ng saqlash vaqt, kun;  $h$  – go'ngni saqlash balandligi, m;  $p$  – go'ngni sochib taxlash zichligi, kg/ $m^3$ .

Fermaga yaqin joylashgan ochiq va yopiq turdag'i saqlagichlarning qishki go'ng chiqishini 25–40 foiz hajmiga mo'ljallab qurish ma'qul. Ularni har biri hajmini 3–5 ming  $m^3$  dan qilib tayyorlanadi.

Daladagi saqlagichlar ochiq shaklda qurilib, qishki go'ng chiqishining 60–70 foiz hajmiga mo'ljallanadi. Dala saqlagichlari dala maydon o'lchami va o'g'itlash me'yoriga moslanadi.

## 6-BO'LIM


### MEXANIZATSIYA YORDAMIDA SUT SOG'IB OLİSH VA UNGA DASTLABKI ISHLOV BERISH

#### 6.1. MASHINA BILAN SUT SOG'ISHNING FİZİOLOGİK ASOSLARI VA UNGA QO'YILADIGAN ZOOTEXNIK TALABALAR. SIGIRNI SOG'ISHGA TAYYORLASH

Mashina bilan sut sog'ish qo'lida sog'ishga nisbatan mehnat sarfini 2–5 marta kamaytirish imkonini beradi. Mashina bilan sog'ish jarayonida sigir buzog'ini emizishda yoki qo'l bilan sog'ishdagi o'zini tutishi ko'nikmasini ta'minlash zarur. Bu esa sigirdan to'laqonli sut sog'ib olishni va yelini jarohatlanmasligini ta'minlaydi.

To'xtovsiz davom etadigan fiziologik jarayon ta'sirida hayvon yelinida sut hosil bo'ladi (114-chizma). Sog'ish arafasida asosiy sut massasining 80–90 foizi alveolalarda jamlanadi. Alveolalar yelin ichidagi kichik pufakchalar bo'lib, ularning ichki yuzasi sekretor to'qimalari qatlidan iborat.

Sut olish sut bezlari harakatidagi murakkab jarayon bo'lib, sut yelining alveolalar bo'limidan yelin sut sisternasiga siqib chiqariladi. Bu jarayonni bo'lishiga neyrogumoral refleks, ya'ni yelin asab tizimining retseptoriga shartli va shartsiz reflektorlari ta'sir ko'rsatadi.



114-chizma. Sut berish refleksi:

a—sigir yelinini tuzilishi: 1—arteriya; 2—vena; 3—alveolalar; 4—birlashtiruvchi to'qima; 5—sut sisternasi; 6—sfinkter; 7—nervlar; 8—sut irmog'i; 9—so'rg'ich;

b—sut sog'ish jarayonida sut ajralishi jadvali: I—sut berish; II—yog'lig'i;

OA—yashirin (latent) davr; AB—jadral sut ajralish davri; BC—sut berishni to'xtashi; CD—mashina bilan sog'ishda ikkinchi sut berish davri.

Shartsiz reflektor hayvonga tashqi ta'sir: tovush (eshitish), ko'rish va hid olish, shartli reflektor esa yelinga issiqlik, bosim kabi omillar ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Sigirlarni doimiy ravishda bir joyda va bir xil sharoitda sog'ilishi hamda ayrim ichki va tashqi omillarni (vaqt, joy, yelinga ishlov berishning shakli, davomiyligi, nasos va boshqa jihozlarning ishlay boshlashi, sog'uvchiga ko'nikmasi) ta'siri sigirlarda doimiy shartli refleks paydo bo'lishi va mashina bilan sog'ilishiga o'rganib qolishiga xizmat qiladi. Sutning oz-ko'pligiga qaramasdan shartli va shartsiz reflektorlar yelinning barcha bo'laklariga bir xil vaqtida bir xil ta'sir ko'rsatadi.

Mashina sutni sog'ib olishda ikki xil talabga javob berishi lozim. Birinchidan, sigirda mavjud barcha sutini berishga ixtiyor hosil qilish va ikkinchidan, sutni yelinda qoldirmasdan to'laligicha sog'ib olish.

Sut bezlari to'rt bo'limdan iborat. Har bir bo'lim ko'plab kichik bezlar – alveolalardan tashkil topgan. Alveolalar qon bilan birga kelgan moddalarni sutga aylantirish uchun xizmat qiladi.

Sut irmoqlari (8) alveola (2)larni sut sisternasi (5) va so'rg'ich (9) bilan bog'laydi. So'rg'ich uchini sfinkter-mushak (6) yopib turadi. Sut alveolada to'plangan sari uning ichki bosimi 4 kPa or-tib boradi. Sut alveoladan irmoqlar orqali yulduzsimon shakldagi mushaklar yordamida sisternaga siqib chiqariladi.

Sut berilishini ichki mexanizmi quyidagicha bo'ladi. Buzoq emishi yoki sog'uvchining yelinni issiq suv (+45°...+50 °C) bilan yuvib, uqalash ta'sirida so'rg'ich oxiridagi asab tolalari (retseptorlar) markaziy asab tizimi orqali hayvon bosh miyasiga signal beradi. Bunga (tashqi signalga) javoban bosh miyada joylashgan ichki sekretsiya bezlari gipofizga buyruq berib, undan qonga alo-hida gormon – oksitotsin ajratib chiqaradi. Oksitotsin qon bilan birga yelinga yetib borib, yulduzli mushaklarni tezda qisqarishini ta'minlaydi. Natijada alveolalar sutni yelin sisternasiga haydaydi. Bu jarayon «iydirish» deyiladi.

Iydirish hayvonning tashqi ta'sir omillariga javobi hisoblana-di. Iydirish jarayonida yelindagi bosim 5 kPa ga yetadi. Siginning tashqaridan signalni qabul qilishi va iydirish jarayonini boshnashiga qadar 45 soniya vaqt o'tadi. Shu davr ichida yelinni tay-yorlash bilan bog'liq ishlar (yuvish, artish, uqalash va dastlabki sut tomchilarini qo'lda sog'ib olish) yakunlanishi va sog'ish ap-

parati ishga tushirilishi lozim. Agar o‘z vaqtida sog‘ish stakanlari yelin so‘rg‘ichlariga kiydirilmasa hamda apparat ishga tushmasa, bir qism sut alveolalarni tark eta olmaydi va natijada sut sog‘ib olish to‘la bo‘lmaydi. Bunday hodisaning ko‘p marta takrorlaniishi sut bezlari mahsuldorligini pasayishiga va yelinni kasal (mastiit va boshqa) bo‘lib qolishiga olib kelishi mumkin.

Gormon (oksitotsin)ning ajralishi va qon orqali kelib, alveolalarga ta’sir ko‘rsatish muddati 3–6 min davom etadi. Bundan keyin mushak tolalari qisqarishi pasayadi va keyin sut ajralishi tamoman to‘xtaydi.

Sog‘ish davrida sigir bilan qo‘pol muomala qilish, ortiqcha shovqin, begona odamlarning paydo bo‘lishi hayvonni hurkitib, andrealin gormonini ajratishi mumkin, natijada sut irmoqlari kesimi qisqarib sut sisternaga yetib kelmaydi. Sigir iydirilib sog‘ish boshlanmay qolsa, hayvon yelinda paydo bo‘lgan sut bosimidan og‘riq his qiladi. Buning bot-bot takrorlanishi sigirni suttan qolishiga olib kelishi mumkin.

### **Mashina bilan sog‘ishdagi zootexnik talablar**

1. Sog‘ish uchun yelini kosasimon yoki vannasimon shaklga ega bo‘lgan sigirlar ma’qul bo‘ladi. Mahsuldor sigirlarning yelini aylanasi 110–115 sm, chuqurligi 30 sm ni tashkil etadi.

2. Sigir yelinining to‘rt bo‘lagi, so‘rg‘ichlari bir xil yaxshi rivojlangan, jarohatlanmagan bo‘lishi lozim. Mashina bilan sog‘ishga yelinning oldingi ikki bo‘lagidan sog‘iladigan sut miqdori 45–55 foiz to‘g‘ri kelishi maqsadga muvofiq sanaladi. Agar bir sog‘ib olishda oldingi va orqa juft yelin bo‘laklari mahsuldorligi farqi 10,1–15 foiz bo‘lsa yoki yelini yaxshi rivojlanmagan sigirlar mashina bilan sog‘ishga yaroqsiz deb topiladi.

3. Yelinni har bir bo‘lagining sog‘ib olish tezligi (2–3 l/min) bir xil bo‘lishi yoki sog‘ish vaqtining bir-biridan ko‘pi bilan 1 minurga farq qilishi mumkin.

4. Qiyin sog‘iladigan va sog‘ishga 7 minutdan ko‘p vaqt talab qilinadigan sigirlar yaroqsiz deb topiladi.

5. Sigir yelini so‘rg‘ichi uzunligi 5–9 sm, diametri 2,5–3 sm va silindrsimon shaklda bo‘lishi lozim.

6. Yelin so‘rg‘ichi uchidan polgacha bo‘lgan masofa 45 sm dan kam bo‘imasligi lozim.

7. Sog‘ish apparati sigirlarni qisqa muddatda sog‘ib olinishi, og‘ritmasligi, kasallik tug‘dirmasligi va sutning asosiy qismini dastlabki 2–3 min mobaynida sog‘ilishini ta’minlashi zarur.

8. Sog‘ish rezinasini so‘rg‘ich va uning asab retseptoriga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

9. Sigir iymasdan turib sog‘ish stakanlarini so‘rg‘ichga kiydirish mumkin emas.

10. Yuqori mahsuldor sigirlarni sog‘ish 4–7 min mobaynida 30–35 g/s ( 2 dm<sup>3</sup>/min) tezlikda amalga oshirilishi lozim.

11. Eng ko‘p sut sog‘ilishi davrida stakanning so‘rish osti kamerasidagi sutni barchasini to‘xtamasdan chiqib ketishini ta’minlash zarur.


12. Barcha sigirlarni qo‘lda qayta sog‘ib olishni qo‘llamasdan to‘la sog‘ilishiga erishish kerak.

**Sog‘ish jarayoni.** Sigirni sog‘ishdan avval, sigir yelini tana haroratiga teng bo‘lgan iliq suvda yuvib tashlanadi. Yelin toza quruq lattada artiladi. Yoki +45...+50 °C haroratlari suvda chayilgan sochiq chap qo‘lga olinib, mayinlik bilan ohista yelin oldidan boshlab barcha so‘rg‘ichlarni qamrab olgan holda 6–8 marotaba oldinga-orqaga uqalagan holda artib yuviladi. Keyin sochiqning toza tomonini o‘n qo‘lga olib, oldingi so‘rg‘ichlardan boshlab yuviladi. Barcha jarayonlar quruq sochiq bilan artib quritish ishlari keyinchalik teskarisiga bajariladi.

So‘ngra yelining har bir so‘rg‘ichidan dastlabki sut toza doka bilan yopilgan idishga sog‘ib olinadi (115-chizma).

Bu jarayonlar natijasida birinchidan, sigir yelinining salomatligi nazorat qilinadi, ikkinchidan, so‘rg‘ich ichida bo‘lgan eng ko‘p mikroorganizmlar bilan zararlangan, qisman ifloslangan sut tomchilari sog‘ib olinadi. Sigir yelinini artib quritish va unga sog‘in stakanlarini kiydirish orasida 20–25 soniya vaqt o‘tadi.

Yelini tez to‘ladigan sigirlar bir kecha kunduzda 3 marta sog‘iladi. Sog‘indan so‘ng 12 soat mobaynida yelini to‘lishadigan sigirlar bir kecha kunduzda 2 marta sog‘iladi. Sog‘ish oralig‘i



115-chizma. Sigirni sog‘ishga tayyorlash:  
a—yelinni nam, keyin quruq sochiq bilan artish; b—birinchi tomchi sutni alohida idishga sog‘ib olish.

12 soat bo‘lishi kerak. Birinchi marta tuqqan sigirlar bir kecha-kunduzda 3 marta sog‘ilishi lozim.


## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Sigir yelinining tuzilishi, sut hosil bo‘lishi va sigirni iydirishga ta’sir etuvchi omillarini tushuntiring.
2. Sigirni mashina bilan sog‘ishga qanday zootexnik talablar qo‘yiladi?
3. Sigirni mashina bilan sog‘ish texnologik jarayoni.

## 6.2. MASHINA BILAN SUT SOG‘ISH USULLARI. SOG‘ISH APPARATLARI TURLARI, TUZILISHI VA ISHLASHI

Sigirlarni sog‘ishning uch xil usuli bor: 1) tabiiy ravishda bu-zoqning yelinni so‘rishi; 2) qo‘l bilan siqib, sutni yelindan sog‘ib olish; 3) mashina bilan sutni so‘rib yoki siqib sog‘ib olish.

Qo‘lda sog‘ish paytida katta barmoq bilan kaftning yuqori qismi so‘rg‘ichni siqib ushlaydi (116-chizma). Sutning yelin sister-nasidagi bir qismi oqib so‘rg‘ich kanaliga tushadi. So‘ng so‘rg‘ichni barcha barmoqlar bilan qo‘shib siqilsa sut so‘rg‘ich kanalidan oqib chelakka tushadi.



116-chizma. Qo‘l bilan sog‘ish usullari:

1—barcha barmoqlar bo‘shashgan sut so‘rish sisternasiga to‘planadi;  
2—katta va ko‘rsatkich barmoq qisilib, so‘rish sisternasidan sut kelishi to‘xtatiladi; 3—qolgan barmoqlar bilan tepadan pastga qarab siqib, sut so‘rg‘ichdan siqib chiqariladi.

Sog‘ish mashinasining uzilib-uzilib, so‘rib olishga asoslangan ishchi organi sog‘ish stakan sanaladi. Sog‘ish stakan bir yoki ikki kamerali bo‘ladi. Stakan kameralarida ish uchun zarur bo‘lgan havo bosimi ta’minlanadi.

**Sikl** – deb sog‘ish mashinasini hayvonga bir fiziologik ta’sirini (sog‘ishini) ta’minlash uchun ketgan vaqt va jarayon majmuasiga aytildi.

**Takt** – deb siklni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan harakat turi va davomiyligiga aytildi.

Bir sikl davomida sog‘ish stakan kameralaridagi absolyut bosim atmosferadan 48–53 kPa gacha o‘zgaradi.

Mashina bilan sog‘ish parametrlari o‘rganilganda, uning rejimlari bosimi absolyut ko‘rsatkichlarida emas, balki siyraklanish (vakum) yoki atmosfera va absolyut bosimlarning farqi vakuummetrik bosim shaklida ko‘rish lozim. Bu bosim maxsus asbob vakuummetr yordamida o‘lchanadi.

Xalqaro birlıklar sistemasiga binoan gaz va suyuqliklar bosimi paskal (Pa)da o‘lchanadi, lekin mavjud o‘lchash asboblarining ko‘pi (manometr, vakuummetr) bosimni  $\text{kgs}/\text{sm}^2$  yoki mm simob ustunida o‘lchaydi. Ularni bir birlikka keltirishda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

*61-jadval*


#### **Turli xil sistemada keltirilgan bosim birlıklarini taqqoslash**

Xalqaro birlıklar sistemasi, kPa	Texnik atmosferada, $\text{kgs}/\text{sm}^2$	Millimetrik simob ustunida
40	0,41	300
46,6	0,48	350
48	0,49	360
50,7	0,52	380
53,3	0,54	400
60	0,61	450
66,7	0,68	500
73,3	0,75	550

Sog‘ish stakanlari haqida tushuncha berishdan avval, buzoqni sigirni emish davridagi harakatini quyidagicha izohlash mumkin. Buzoq dastlab tumshug‘i bilan yelinni uradi, ya’ni yelinni

tumshug‘i bilan siqadi (siqish takti), so‘ngra so‘rg‘ichni so‘radi (so‘rishi takti).

Tumshug‘i bilan yelinni siqishi va so‘rg‘ichni so‘rishi orasida qandaydir bir kichik lahzada dam oladi (dam olish takti). Yuqorida qayd qilingan tabiiy jarayonni (siklni) ta’minlash uchun stakanlar ikki yoki uch kamerali qilib tayyorlanadi (117-chizma).




**117-chizma. Ikki (a) va uch (b) taktli sog‘ish stakanlarini tuzilishi va ishslash prinsipi:** 1—so‘rishi; 2—qisish; 3—dam olish.

Qo‘sish kamerali sog‘ish stakanini ikkita silindrik tashqi gilza va ichki so‘rishi rezinasidan tayyorlangan quvurdan iborat. Ular ikki kamerani, devor oralig‘i va so‘rishi rezinasi osti kamerasini tashkil etadi. Har ikki kamerada ham havo siyraklanishi yuz berganda so‘rishi rezinasi deformatsiyaga uchramaydi. Siyraklanish o‘z yo‘lini davom ettirib, so‘rg‘ich orqali yelinning sut sisternasiga yetib boradi. Sut sisternasida sutning ajralishi natijasida hosil bo‘lgan bosim ta’sirida sut so‘rg‘ich orqali siyraklanish yuz bergan stakanning so‘rg‘ich osti kamerasiga va u orqali sut quvuriga kelib tushadi. So‘rishi takti yuz beradi. Bir oz vaqtidan so‘ng devorlar oralig‘i kamerasida siyraklanish to‘xtab, bosim ortib atmosfera bosimigacha ko‘tariladi. Ikki kamera orasidagi bosim farqi natijasida so‘rishi rezinasi qisiladi, yelin so‘rg‘ichi – sfinkter yopilib, sut kelishi to‘xtaydi. Natijada qisish takti yuz beradi. Shu bilan ishchi sikl tugab, qaytadan yana so‘rishi takti boshlanadi. Bunday prinsip asosida ishlovchi mashinalar ikki taktli deb nomlanadi.

Chizmada ko'rsatilganiday qisish taktining oxirida so'rish osti kamerasiga ham havo uzatiladi, natijada so'rish rezinasi to'g'rilanib, so'rg'ich uchun dam olish yuz beradi. Sutning oqishi bo'lmaydi. Dam olish takti yuz beradi.

Uch taktli sog'ish apparati hayvon fiziologiyasi talablariga javob beradi va sut sog'ishni ko'paytirishga sabab bo'ladi. U hatto biror bir sabab bilan sog'ish stakanini sog'ish yakunida olib qo'yilmasa ham hayvon salomatligi uchun zararli emas.

Sog'ish mashinasi vakuum manbayi hisoblanadigan vakuum nasosi (3), nasosni harakatlantiruvchi elektryuritgich (1), vakuum magistral (4), vakuum ballon (17), vakuum sozlagich (16) va quvurlar tizimidan iborat (118-chizma).



#### **118-chizma. Sog'ish mashinasining shakli:**


- 1-elektryuritgich; 2-himoya to'sig'i; 3-vakuum nasos; 4-vakuum magistral;
- 5-chiqarish quvuri moy yig'gichi; 6-dielektrik uloq; 7-havo krami;
- 8-vakuummetr; 9-sog'ish stakanlari; 10-kollektor; 11-sut shlangi;
- 12-o'zgaruvchi vakuum shlangi; 13-sut chelagi; 14-pulsator; 15-doimiy vakuum shlangasi; 16-vakuum-sozlagich; 17-vakuum ballon.

Vakuum quvurlari kranlar (7), ularga ulangan sog'ish stakanini shlangalari (15) bilan ta'minlangan. Sog'ish apparati tarkibiga sog'ish stakanlari (9), kollektor (10) va pulsator (14) kiradi.

Pulsator sog'ish stakanlari ishi uchun zarur bo'lib doimiy vakuumni o'zgaruvchi vakuumga o'zgartirib beradi. Sog'ish apparatlari doimiy ravishda hayvon organizmi bilan birgalikda ishlaydi va unga ta'sir ko'rsatib, sutni yelindan ajratib, sut idishiga yig'ish uchun xizmat qiladi.

Mashina bilan sut sog'ishning ikki xil usuli mayjud: vakuum yordamida sutni so'rib olish va mexanik tarzda sutni so'rg'ichdan siqib chiqarish. Agar birinchi usulni buzoqni emishi bilan taqqoslasak, ikkinchi usul bu qo'l bilan sog'ishga monand. Ikkinchi usul konstruktiv jihatidan mukammal emas, shu sababli ham amaliyotda foydalanilmaydi. Vakuum sog'ish mashinalarini ikki yoki uch taktli ish jarayoniga qarab ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin.

Ikki kamerali sut sog'ish stakanini — sut sog'ish mashinasining ishchi organi korpusi silindr yoki konussimon shaklda bo'lib, uning ichida rezina so'rg'ich qurv joylashgan, qurvurning ustki uchi tomoni so'radigan qilib tayyorlanib, pastki tomon diametri kichrayib boradi. Stakan aylana korpusi va so'rish rezina quvuri oralig'i (devorlar oralig'i kamerasi) rezina kiydirgichlar va quvurchalar orqali kollektor va pulsator bilan bog'langan. So'rish rezinasi osti (so'rish kamerasi) kollektor sut kamerasi, rezina kiydirgich va quvurchalar orqali sut idishi bilan bog'langan. Sog'ish stakanini ish jaryoni 119-chizmada ko'rsatilgan.



**119-chizma. Ikki kamerali sog'ish stakanini ish jarayoni:**

a—ikki taktli rejim; b—uch taktli rejim; 1—rezina manjet; 2—stakan korpusi; 3—so'rish rezinasi; 4—birlashtirish halqasi; 5—nazorat konusi; 6—sut quvurchasi og'zi; 7—zichlash halqasi.

Stakanning devorlar oralig‘i va so‘rish kameralarida vakuum hosil bo‘lganda, so‘rish rezinasi holati o‘zgarmay; vakuum yelinga uzatilib, yelindagi sut bosimi ta’sirida pastga oqib stakan orqali sut idishiga tushadi. So‘rish takti yuzaga keldi. Havo devorlar oralig‘iga kirganda unda atmosfera bosimi, so‘rish kamerasida esa vakuum bo‘ladi. Natijada so‘rish rezinasi yelin so‘rg‘ichini qisib uqalaydi, shu bilan birga sut chiqishiga to‘sinqinlik qiladi. Qisish takti yuzaga keladi. Taktlarni bir so‘rish, bir qisish bo‘lishligini pulsator ta’minlab beradi. Bu ikki taktli sog‘ish apparatining ish jarayoni sanaladi.

Ikki taktli sog‘ish apparatlari ish unumi uch taktliga nisbatan yuqori sanaladi. Ma’lumki, sigirning iyishi natijasida yelin ichidagi alveolalardan sut ajralishi tezlashadi va yelin sut sisternasida bosim ortadi. Stakan so‘rg‘ichi ostidagi vakuum uni tashqariga chiqishiga majbur etadi. Ikki taktli sog‘ish apparatida qisish takti sutni chiqishini to‘la to‘xtatmaydi, faqat sekinlashtiradi. Natijada ikki taktli apparati ish unumi uch taktlinikiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi.

Iyish davrining oxiriga kelib sigir yelinidan sutni ajralishi pasayadi, natijada sog‘ish apparatlariga ham sut kam keladi. Yelinni apparat tomonidan quruq sog‘ish hodisasi yuz berishi uni mastit kasalligiga chalintirish ehtimoli paydo bo‘ladi. Sut kelmayotganligi kuzatilishi bilan darhol sog‘ish stakanlarini yechib olib, apparatni ishdan to‘xtatish zarur. Ana shu kamchiliklarni yuzaga kelmasligini ta’minalash uchun sog‘ish apparatiga uchinchi takt – dam olish takti qo‘shilgan. Bu taktda siqish taktidan so‘ng ikki kameraga (devorlar oralig‘i va so‘rish kameralari) ham atmosfera havosi kiritilib yelinni qisqa muddatga dam olish imkoniyati beriladi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Sigir sog‘ishning qanday usullari bor?
2. Sigirni sog‘ishga tayyorlash qanday amalga oshiriladi?
3. Sikl va takt nima?
4. Ikki kamerali sog‘ish stakanining texnologik ish jarayoni.
5. Ikki va uch taktli sog‘ish apparatining farqlari nimadan iborat?

### **6.3. SOG‘ISH APPARATLARI TUZILISHI VA ISH JARAYONI**

Olib yuriladigan sog‘ish apparati qopqoqli sog‘ish chelagi, uning ustiga o‘rnatilgan pulsator, osma moslamasi, to‘rtta sog‘ish stakan, kollektor, rezina shlangalari va shlanga og‘izlaridan iborat.

Unifikatsiyalangan АДУ-1 sog‘ish apparati ikki va uch taktli variantida chiqariladi. Apparat pulsatori sozlanmaydi. Sog‘ish stakanlari korpusi zanglamas po‘latdan tayyorlangan. So‘rish rezinalari ajralmas, so‘rish quvurchasini taranglovchi uch pozitsiyali moslama bilan ta’minlangan. Apparat kollektori plast-massadan, sut kamerasi shaffof qilib tayyorlangan. Vakuumni to‘xtatish uchun klapanli qurilma o‘rnatilgan.


Ikki taktli apparat kollektori kengaytirilgan sut kamerasiga ega. Kollektor klapani shaybasi kollektor asosining halqasimon o‘yiq joyiga o‘rnatilib, bu apparatga sog‘ish va yuvishda xizmat ko‘rsatishni yengillashtiradi.

Pulsator – sog‘ish apparati ishchi organlari – sog‘ish stakanlari ish jarayonini ta’minlash uchun doimiy vakuumni o‘zgaruvchi vakuumga aylantirib beradi (120-chizma). Pulsator to‘rtta kameraga ega. Kamera (Ip) (doimiy vakuum kamerasi) shlang orqali vakuum magistral bilan bog‘langan. Kamera (Ip) (o‘zgaruvchi vakuum kamerasi) birinchi kameradan pulsator klapan-membra-na qurilmasi klapani (4) orqali ajratilgan. Kamera (IIp) (atmosfera bosimi kamerasi) atmosfera bilan korpus (12)da joylashgan havo filtri (13) orqali tutashadi. Kameralar (Ip) va (IIp)ni klapan (4)ning ustki maydoni ajratib turadi. Kamera (IVp) (boshqaruvchi kamera) drossel kanali orqali o‘zgaruvchi vakuum kamerasi (Ip) bilan birlashgan.

**Kollektor** (121-chizma) ikki taktli apparatda ikki kameraga ega: Ik – sut yig‘ish kamerasi; Iik – taqsimlash kamerasi.


Sut yig‘ish kamerasi sog‘ish stakanlari (9) va sut yig‘gich bilan (8) tutashish bo‘g‘iziga ega. Taqsimlash kamerasi pulsator (IIp) va sog‘ish stakanining devorlar oralig‘i kameralari bilan bog‘langan rezina bo‘g‘izlarga (10) ega.

Apparat kollektori (121-chizma, b) to‘rt kameraga ega: Ik – doimiy vakuum; Ik – sut yig‘ish; IIIk – atmosfera bosimi va IVk – o‘zgaruvchi vakuum kameralari. O‘zgaruvchi vakuum kamerasi



*120-chizma. АДУ-1 sog'ish apparati pulsatori:*

1, 10—gaykalar; 2—rezina qistirma; 3—qopqoq; 4—klapan; 5—klapan kafti;  
6—membrana; 7—o'zgaruvchi vakuum shlangini tutashish bo'g'izi;  
8—drosselli kamera korpusi; 9—silindriq halqa; 11—magistral shlangini  
tutashish bo'g'izi; 12—pulsator korpusi.



*121-chizma. АДУ-1 sog'ish apparati kollektori:*


*a*—ikki taktli va *b*—uch taktli modellari:

1—taqsimlagich; 2—korpus; 3—klapan; 4—sut yig'ish kamerasi korpusi;  
5—shayba; 6—shplint; 7—fiksator bo'rtig'i; 8—sut shlangi bo'g'izi;  
9—sut qabul qilish bo'g'izi; 10—o'zgaruvchi vakuum rezina bo'g'izi;  
11—shtutser; 12—o'q; 13—membrana; 14—kanal.

(GUk) stakanning devorlar oralig'i kamerasini pulsatorning (IIp) o'zgaruvchi vakuum kamerasi bilan bog'lab turadi.

**Ikki taktli sog'ish apparatining ish prinsipi** quyidagicha (122-chizma). Vakuum – vakuum-magistrali (1) dan shlanga (2) orqali pulsatorning (t) kamerasiga uzatiladi. Membrana (3) pulsatorning (IVp) kamerasidagi havo bosimi ta'sirida klapan (4) ning tagiga ta'sir ko'rsatib uni ko'taradi. Pulsator (1p) va (IIp) kameralar oralig'i ochilib, vakuum (IIp) kameraga va shlang (7) orqali kollektorning (Pk) kamerasiga o'tadi. Kollektorning (Ik) kamerasi vakuumni stakanning devorlar oralig'i kameralariga tarqatadi.

Sut idishi (II)dan vakuum sut shlangasi (6) orqali kollektor klapani (5) ko'tarilib turgan holatda stakanlarning so'rish kamerasiga uzatiladi. Devorlar oralig'i va so'rish kameralarida vakuum bo'lib, so'rish takti yuzaga keladi. Sut yelin so'rg'ichlaridan kollektorning (Ik) kamerasiga va sut shlangi (6) orqali sut yig'-gichga yo'naladi.



122-chizma. Ikki taktli sog'ish apparati ish shakli:

a—so'rish takti; b—qisish takti; *Ik* va *Ip*—kollektor va pulsatorning doimiy vakuum kameralari; *IIk* va *IIp*—kollektor va pulsatorning o'zgaruvchi vakuum kameralari; *IIIp*—pulsatorning doimiy atmosfera bosimi kamerasi; *IVn*—pulsatorning o'zgaruvchi vakuumni boshqarish kamerasi; 1—vakuum magistral; 2—vakuum shlang; 3—membrana; 4—klapan; 5—kollektor klapani; 6—sut shlangi; 7—o'zgaruvchi vakuum shlangi; 8—drossel kanali; 9—drossel; 10—sutni zootexnik hisoblagich; 11—sut quvuri.

Sut chiqib ketishini ta'minlash maqsadida kollektorning (Ik) kamerasida atmosfera bilan tutashuvchi teshik qilingan. So'rish takti dayumida pulsatorning (IIp) kamerasidan vakuum kanal (8) va drossel (9) orqali (IVp) kamerasiga o'tadi. Pulsatorning (Ip) va (IVp) kameralaridagi vakuum darajasi bir-biriga yaqinlashgach (IIIp) kameralagi atmosfera bosimi klapan (4) ga ta'sir ko'rsatib, membrana-klapan mexanizmini pastki holatga o'tkazadi (122-chizma, b). Pulsatorning (Ip) va (IIp) kameralari oralig'i yopilib, (IIIp) va (IIp) oralig'i ochiladi.

Natijada, havo (IIIp) kamerasidan vakuum shlang (7), kollektorning (IIk) kameralari orqali stakanlarning devorlar oralig'i kameralariga tarqaladi. Devorlar oralig'i kamerasida atmosfera bosimi, so'rish kamerasida vakuum bo'lib, qisish takti yuzaga keladi. Qisish takti davomida havo drossel kanali (8) orqali asta-sekin (IVp) kamerasiga o'tib, undagi bosimni va membranani ko'taradi. Klapan (4 IIIp) va (IIp) kameralar oralig'ini yopib, (Ip) va (IIp) kameralari oralig'ini ochiladi. Vakuum yana stakanning devorlar oralig'i kameralariga kiradi. So'rish takti yuzaga keladi. Jarayon doimiy ravishda shunday takrorlanib boradi.


**Uch taktli sog'ish apparatining ish prinsipi** quyidagicha. Vakuum (123-chizma, a) vakuum magistral (1) dan pulsatorning doimiy vakuum (Ip) kamerasiga keladi. (IVp) kamerasida atmosfera bosimi ta'sirida membrana (12) klapan osti bilan birga ko'tariladi. (Ip) va (Ip) kamerasi oralig'i ochilib, (Ip) va (IIIp) kameralari oralig'i yopiladi. Vakuum (Ip) kamerasidan (IIp) kamerasiga va shlang (10) orqali kollektor (IVk) kamerasiga o'tadi. (IVk) kamerasi o'z navbatida vakuumni stakanlarning devorlar oralig'i kamerasiga o'tkazadi. (IVk) kamerasida vakuum bo'lganligi sababli (IIIk) atmosfera kamerasi klapan (15)ni yuqoriga ko'taradi. (Ik) va (IIk) kameralari oralig'i ochiladi. Natijada sut quvuri kanali (8) orqali vakuum (Ik) va (IIk) kameralaridan o'tib, stakanning so'rish kamerasiga kirib boradi. Stakanning devorlar oralig'i m va so'rish kamera  $\Pi$  larida vakuum yuzaga kelib, so'rish takti bo'ladi. Sut so'rg'ich sfinkteri qarshiligi yengib, kollektorning sut kamerasiga va sut shlangi (6) orqali sut yig'gichga yo'naladi.

So'rish takti davomida vakuum pulsatorning (IIp) kamerasidan drossel kanali (II) orqali pulsatorning (IVk) kamerasiga

*o'tadi* (123-chizma, *b*). Pulsatorning (*IIp*) kamerasidan klapan (4) gata'sir etuvchi atmosfera bosimi klapanni pastga tushiradi. (*IIp*) va (*Ip*) kameralari oralig'i yopilib, (*Ip*) va (*Shp*) kameralari oralig'i ochiladi. Atmosfera bosimi (*IIIp*), (*IIp*) kameralari, shlanga (10) va (*IVk*) kameralari orqali stakanning devorlar orasi kamerasi m'ga kirib, so'rish takti yuzaga keladi.

So'rish takti davomida havo (*IIp*) kamerasidan drossel kanali (*II*) orqali (*IVp*) kamerasiga oqib *o'tadi*. Kollektorning (*IIIk*) va (*IVk*) kameralaridagi bosim tenglashadi. (*IIIk*) va (*IIk*) kameralaridagi bosim orasida farq paydo bo'lib klapan (13) ni pastga tushishga majbur qiladi. Kollektorning (*IIIk*) kamerasidan havo kollektorning sut kamerasiga va stakan so'rg'ichlari orasiga kirib boradi. Stakanning devorlar orasi va so'rish orasida ham havo bo'lib, dam olish taktini yuzaga keltiradi (123-chizma, *d*).

Pulsatorning (*IVp*) kamerasida bosim ortib boradi va membranani yuqoriga ko'taradi. (*Ip*) va (*IIp*) pulsator kameralari oralig'i



#### 123-chizma. Uch taktli sog'ish apparati shakli:

*a*—so'rish takti; *b*—qisish takti; *c*—dam olish takti; *In* va *Ik*—pulsator va kollektorning doimiy vakuum kameralari; *IIp* va *IIk*—pulsator va kollektorning o'zgaruvchi vakuum kameralari; *IIIp* va *IIIk*—pulsator va kollektorning doimiy atmosfera bosimi kameralari; *IVk*—kollektorning o'zgaruvchi vakuumni taqsimlash kamerasi; *II* va *M*—stakanning so'rg'ich osti va devorlar oralig'i kameralari; *I*—vakuum magistral; *2*—vakuum shlang; *3*—klapan osti; *4*—pulsator klapani; *5*—kollektor; *6*—sut shlangi; *7*—sog'ish stakan; *8*—sut quvuri; *9*—so'rish rezinasi; *10*—o'zgaruvchi vakuum shlangi; *11*—drossel kanali; *12*—membrana; *13*—klapan; *14*—havo filtri; *15*—kollektor membranasasi.

ochilib, vakuum stakan devorlari oralig‘i kamerasiga yetib bora-di. (Ik) kamerada vakuum va (IIk) kamerasida atmosfera bosimi membrana (15)ni ko‘taradi. Bunda kamera (Ik) oralig‘i sut kamerasi (IIk) bilan tutashib, vakuumni so‘rish osti kamerasiga kirtadi. Natijada so‘rish takti yuzaga keladi. Shu tariqa taktlar doimo takrorlanib turadi.

Taktlarni vaqt birligi ichida takrorlanish tezligi drossel kanalining kesim yuzasi va uning uzunligiga bog‘liq bo‘ladi. Sog‘ish apparati ish rejimini havoning iflosligi ta’sirida o‘zgarmasligi uchun pulsator drosseliga kiruvchi havo qog‘oz yoki paxtali filtr (14) yordamida tozalanib turiladi. Taktlar davomiyligi va o‘zaro nisbati klapan va membrananing bosim yuzasi katta-ki-chikligi bilan belgilanadi.

**Uch taktli “Волга” sut sog‘ish apparati** 20 dm<sup>3</sup> hajmli chelak, qopqoq, pulsator, kollektor, to‘rtta ikki kamerali sog‘ish stakanlari, shlanga va shlanga bo‘g‘izlaridan tuzilgan. Chelak qopqog‘i sut shlangasi bo‘g‘izlari va qaytmash havo klapaniga ega. Qaytmash klapan vakuum shlangasini to‘satdan ajralib qolish holatrida chelakka tashqi havoni, iflos narsalarni kirishidan saqlaydi. Pulsator chelakning qopqog‘iga o‘rnataladi.

*62-jadval*

### Sog‘ish apparatlarining texnik tavsiflari

Ko‘rsatkichlar	“Волга”	ДА-2Б	АДУ-1		“Impuls”
			2 taktli	3 taktli	
Tavsiya etilgan vakuum, kPa	50+1	50	48	53	46-50
Taktlar soni	3	2	2	3	2
Pulsatsiya soni, minutiga	60-80	80	60-90	60	45-50
Taktlar nisbati, foiz: so‘rish, qisish, dam olish	60 10 30	70 30 —	65-70 30-35 —	60 10 30	50 50 —
Sog‘ish apparati massasi, kg	7,76	2,9	2,6	2,05	6,3

Kollektor konstruksiyasida sut va doimiy vakuum kameralarini tutashtirib turuvchi teshik qoldirilgan. Bu sog‘ish stakanlari so‘rish kamerasida qisish taktida 13,3 kPa vakuum bo‘lishini ta’minlaydi va stakanlarni sog‘ish davrida sigirga bog‘lab qo‘yishga ehtiyoj qoldirmaydi.

Yelining har bir bo‘lagidan sutning sog‘ilishini sog‘ish stakanidagi shaffof nazorat quvurchasi orqali kuzatib turish mumkin. Sog‘ish stakanining yelin bilan tutashadigan silindrik joyi diametri 23 mm. Bu barcha me’yoriy darajada rivojlangan sigirlar so‘rg‘ichlari o‘lchamiga to‘g‘ri keladi.

### Sog‘ish apparatlaridan foydalanish tartibi

Sozlanadigan pulsatorli sog‘ish apparatlarida pulsatsiya soni sozlanadi. Sigirlarni bezovta qilmaslik hamda sog‘ish stakanlarning yelinda turishini ta’minalash uchun imkonli boricha taktlar pulsatsiyasi pasaytiriladi. Sog‘ish boshlanmasdan avval yuqorida qayd etilgan tartibda, sigirlar yeliniga sanitarni ishlovi beriladi. Dastlabki sut tomchilari qo‘lda maxsus idishga sog‘ib olinadi. Chunki sutning so‘rg‘ich kanalidagi bakterial ifloslangan qismi yo‘qotilishi zarur.

Mashina bilan sog‘ishda oldin sog‘ish qurilmasining vakuum agregati ishga tushirilib vakuum tizimidagi vakuum darajasi belgilangan ish rejimiga javob berishi tekshiriladi. Sog‘ish apparati vakuum shlangalari vakuum magistraliga (quvuriga) ulanadi.

Sog‘ish quyidagi tartibda boshlanadi:

- sog‘ish apparati kollektori halqasi pastga qaratib, bir qo‘llab ushlanadi, stakanlar pastga osilib turadi (124-chizma, a);
- agar sigir yelini past joylashgan bo‘lsa, kollektor qiyalatib ushlanib, ikki stakan ushlab turiladi (124-chizma, b);



124-chizma. Sog‘ish apparati stakanlarini so‘rg‘ichlarga kiydirishga tayyorlash:  
a—yelin yuqori holatda joylashganda; b—yelin pastroq joylashganda.

– sog‘ish stakanli ishga tushirilib, tezda birinchi stakan so‘rg‘ichga kiydiriladi (125-chizma, a);

– shu usulda qolgan stakanlar ham so‘rg‘ichlarga kiydiriladi (125-chizma, b);

– kollektorni ozgina ko‘tarib stakanli yelinga qisib, apparatni yaxshi so‘rg‘ichga so‘rilib qolganligi tekshiriladi (125-chizma, d);

– sut shlangasining shaffof qisiga qarab sutni kelishi tekshiriladi;

– sut yomon kelayotgan sigirlar yelini vaqtı-vaqtı bilan uqalab turiladi, yaxshi sog‘iladigan sigirlar yelini sog‘ish davrida uqalanmaydi;


– sut kam kela boshlashi bilan mashinada «qayta» sog‘ish jarayonini boshlash kerak. Buning uchun kollektorni bir qo‘l bilan pastga tortib, ikkinchi qo‘l bilan bir vaqtning o‘zida yelin bo‘linmalarini uqalash kerak (126-chizma);

– sigir sog‘ib bo‘linganidan so‘ng apparatni ishlagan holda, ushlab turish man etiladi;

– sut to‘xtashi bilan darrov sog‘ish apparatini yechib olish zarur. Buning uchun kollektorni bir qo‘l bilan ushlagan holda, vakuum kelish krani yopiladi va sog‘ish stakanlari yechib olinadi.

Sog‘ish apparatini yelindan tortib, yechib olish mumkin emas. Sigir yelinidagi sutni doimiy ravishda to‘la sog‘ib olish sut bezlarni yaxshi rivojlantiradi, tarkibidagi yog‘ miqdorini, sutforligini oshishiga sabab bo‘ladi. Chunki yelin sutining oxirgi qismlarida yog‘ ko‘p bo‘lib, yelinni shamollashiga to‘sinqilik qiladi.

Sog‘ish apparatlarini bo‘laklarga bo‘lish va yig‘ishda barcha ishlar puxtalik bilan belgilangan tartibda bajarilishi shart. Bu mashina bilan sog‘ish sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.



**125-chizma. Sog‘ish stakanlarini sigir yeliniga kiydirish:**


a—birinchi stakanli kiydirish;

b—to‘rtinchali stakanli kiydirish;

d—stakanlarni so‘rg‘ichga yaxshi kiydirilganini tekshirish;

e—sog‘uvchi sig‘irning o‘ng tomonida turganda stakanlarni so‘rg‘ichlarga kiydirish tartibi;

f—sog‘uvchi sigirning chap tomonida turganda stakanlarni so‘rg‘ichlarga kiydirish tartibi.



126-chizma. Sigin sog'ish jarayoni yakunida «qayta» sog'ishni o'tkazish.

- stakanlardan so'rish rezinasi yechilib qo'yiladi;
- apparat detallari yuvilgandan so'ng stellajlarda osilgan holda quritiladi;
- haftada bir marotaba apparat to'laligicha yechilib, yuviladi va so'rish rezinasi almashtiriladi.

Apparat yechilganidan so'ng membrananing rezina detallari yog'sizlantirish uchun issiq ( $70^{\circ}$ – $80^{\circ}$  C) 1 foizli soda eritmasida 30 min mobaynida ushlab turiladi, cho'tka bilan tozalanib so'ng issiq suv bilan yuviladi. Almashtirilayotgan so'rish rezinasi yog'ini ketkazish uchun 1 foizli soda eritmasida yarim soat mobaynida qaynatiladi va tarangligini saqlashi uchun 2–3 hafta shkafda 5 foizli kaustik soda eritmasida ushlab turiladi. Bir komplekt so'rish rezinasidan uzoq muddat davomida foydalanib turish maqsadga muvofiq emas, chunki rezina taranglik (elastiklik) xususiyatini yo'qtib va sut yog'ini singdirib qolishi mumkin.

Pulsator membranasi zarur holatlarda, bir oyda bir marta almashtiriladi. Sigirlarni sog'ish vaqtida sut miqdorini hisobga olish uchun Y3M-1A zootexnik hisobga olish qurilmasi foydalaniladi.

Apparatlarga texnik xizmat ko'rsatishning quyidagi tartibi mavjud:

- sog'ish oldidan sog'ish apparati issiq ( $80^{\circ}$ – $90^{\circ}$  C) suv bilan yuviladi. Bu apparatni tasodifiy iflosliklardan saqlaydi va isitadi ( $36^{\circ}$ – $38^{\circ}$  C) hamda sut berilishini samaraliroq bo'lishiga olib keladi;
- sog'ish oldidan apparatlar kerakli pulsatsiya chastotasiga sozlanadi;
- sog'ish yakunida apparatlar avval suv quvuri tarmog'idagi sovuq suv, issiq suv ( $80^{\circ}$ – $90^{\circ}$  C), dezinfeksiyalash aralashmasi ( $50^{\circ}$ – $60^{\circ}$  C) bilan yuvilib, so'ngra yana issiq suv bilan chayiladi. Yuvishtga sintetik yuvish moslamalari (suvda eriydigan A va B kukunlari) hamda 0,5 foizli kalsinatsiyalangan soda eritmasidan foydalaniladi;


— har kuni sog'ish apparati qisman yechilib, kollektor yuviladi;

— har kuni sog'ish apparati qisman yechilib, kollektor yuviladi;

— apparat detallari yuvilgandan so'ng stellajlarda osilgan holda quritiladi;

— haftada bir marotaba apparat to'laligicha yechilib, yuviladi va so'rish rezinasi almashtiriladi.

Qurilma sog'ish tizimida sog'ish apparati bilan sut yig'gich oralig'iga o'rnatiladi. Sut sog'ish stakanlaridan apparat kollektoriga tushadi. Kollektordan sut Y3M-1A ning (127-chizma, a) (2)



**127-chizma. Y3M-1A zootexnik hisobga olish qurilmasining shakli:**  
 a—me'yoriy kamerani to'lishi; b—kamerani bo'shashi; 1—sut chiqish bo'g'izi;  
 2—sutni kirish bo'g'izi; 3—havo so'rish quvurchasi; 4—sut qabul qilgich;  
 5—o'Ichov kamerasinga sut kirish darchasi; 6—atmosfera havosini kirish  
 teshigi; 7-po'kak; 8—o'Ichov kamerasi; 9—sudtan ekspress namuna olish  
 quvurchasi; 10—kalibrlangan konus naycha; 11—kalibrlangan kanal;  
 12—sut chiqish quvurchasi; 13—menzuraga sut kirish quvuri;  
 14—menzura; Kl—klapan.

bo‘g‘iziga va undan (4) qabul kamerasiga kelib tushadi. (5) darcha orqali sut (8) kamerani to‘ldiradi. Po‘kak (7) suzib chiqib, (5) darcha bilan havo chiqib ketish (2) quvurchasi og‘zini yopadi (127-chizma, b).

Havo (6) teshigi orqali quvurcha (12) dagi sut siqib chiqariladi. Quvurcha (12) ustida kalibrlangan konus naycha o‘rnatilgan.

Sut oqimi kalibrlangan konus naychadan o‘tganda uning tezligi, bosimi ortadi va bir qism sut oqimi (2 foiz) (11) kanaliga tushadi hamda undan o‘tib (14) menzurkaga yig‘iladi. Sutning asosiy oqimi (1) bo‘g‘izi orqali sut yig‘gich yoki sut quvuriga o‘tadi. Sut (3) kameradan siqib chiqarilgandan so‘ng vakuum (12) quvuri orqali (8) kamerasiga o‘tadi va po‘kak o‘z og‘irligi ta’sirida tushadi. Sababi (4) va (8) kameralarida bosim tenglashgan bo‘ladi. Kameraga sutning yangi porsiyasiga to‘ladi. Jaryon takrorlanadi. Menzurkadagi sut hajmi ko‘rsatkichi bo‘yicha sut sog‘ib olinishi baholanadi. Ko‘rsatkichning bir bo‘lagi 100 g sog‘ilgan sutga teng.

Laboratoriyyada sut sifatini tahlil qilish uchun menzurkadan namuna olinadi. Menzurkadan namuna olish vaqtida havo (13) quvurcha bo‘ylab (K1) klapanini ko‘taradi va (11) kanalini to‘zalaydi. Sog‘ish vaqtida (K1) klapani tushgan holda bo‘ladi va menzurkadan sut siqib chiqargan havo (K1) klapani orqali chiqib ketadi. Sog‘ish apparati yuvilganda УЗМ zootexnik hisob yurtuvchi jihozini plastmassadan yasalganligini va 55 °C haroratda shaklini o‘zgartirishi mumkinligini unutmaslik lozim.

Shu sababli УЗМ ayrim ravishda yuqorida qayd etilgan eritmalarda pastroq haroratda yuviladi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR


1. АДУ-1 sog‘ish apparatining tuzilishi va texnologik ish jarayoni.
2. Uch takthi sog‘ish apparatining tuzilishi va ish prinsipi.
3. Sog‘ish apparatlaridan foydalanish tartibi qanday?
4. Sog‘ish apparatlariga texnik xizmat ko‘rsatish nimalardan iborat va qanday amalga oshiriladi?

## **6.4. SOG'ISH QURILMALARI TASNIFI, TUZILISHI, ULARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA FOYDALANISH**


Chorvachilik rivojlangan mamlakatlarda qoramolchilik bilan bir qatorda qo'ychilik, echkichilik, otchilik va zebuchilik uchun ham sog'ish qurilmalaridan foydalaniladi. Bu qurilmalar funksional ijrosi bo'yicha qoramolchilik sog'ish qurilmalaridan kam farqlanadi.

Hayvonlarning anatomik va fiziologik hamda sut tarkibining farqlari faqat sog'ish qurilmalari stanoklari, sog'ish apparatlari stakanlari konstruktiv parametrlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham qoramolchilik sog'ish qurilmalarini konstruksiyasini o'zlashtirish bilan boshqa hayvonlar sog'ish qurilmalari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish mumkin. Qoramolchilikda foydalanilayotgan sog'ish qurilmalarining tasnifi 128-chizmada keltirilgan.

Individual sog'ish agregatlari kichik fermer xo'jaliklarida, tomorqa xo'jaliklari qo'rg'onlarida, oilaviy ferma xo'jaliklarida sigirlar 25 boshgacha bo'lganda foydalaniladi. Ma'lumki, chorvachilik fermer xo'jaligida eng kam hayvon bosh soni 30 shartli bosh bo'ladi.



*128-chizma. Qoramolchilikda qo'llaniladigan sog'ish qurilmalari tasnifi.*




**129-chizma. Sigirlarni individual sog'ish harakatli agregati:**

1—vakuum ballon; 2—sog'ish apparati; 3—kollektor; 4—pulsator;  
5—sut chelagi; 6—vakuummetr;  
7—vakuum sozlagich; 8—qo'l aravachasi; 9—elektrokabel o'rami;  
10—vakuum nasos; 11—g'ildirak.

Og'illarda sigirlar sutini chelaklarga sog'ish qurilmalari fermalarda sigirlarni bog'lab boqishda qo'llaniladi (130-chizma). Sog'ishda harakatli sog'ish apparatlari yordamida sut chelak yoki flyagaga sog'iladi va keyin sut blokiga yetkazib beriladi. Blokda sutga dastlabki ishlov berilib sut sanoati korxonalariga jo'natilgunga qadar saqlanadi.

Og'illarda sigirlarni sut quvurlariga sog'ib olish qurilmalari ham sigirlarni bog'lab boqishda foydalaniлади (131-chizma). Sog'ish jarayonida sog'uvchi apparatlarni bir sigirdan ikkinchi sigirga olib o'tib, vakuum quvuri va sut quvuriga kran orqali ulab sog'ib oladi.


Sug apparatdan sut quvuriga uzatadi, quvur o'z navbatida sutni dastlabki ishlov berish va saqlash blokiga yetkazib beradi.



**130-chizma. Sigirlarni og'illarda sut chelagiga sog'ib olib, dastlabki ishlov berish shakli.**

Agar qoramolchilik fermasi sutchilik yo'nalishida bo'lsa, unda sigirlar bosh soni podaning 50–65 foizni, sut-go'sht yo'nalishida bo'lsa – 35–37 foizni tashkil etishi lozim. Hisob-kitoblar bu fermalarda 10–20 bosh sog'in sigir bo'lishligini ko'rsatadi.


Harakatli sog'ish agregatlari hozirgi kunda keng tarqalmoqda. Bu agregat bitta yoki ikkita sog'ish apparati bilan jihozlanadi (129-chizma). Harakatli aggregatning barcha yig'ma bo'laklari qo'lda boshqariladigan aravachaga montaj qilingan. Agregat 220 V kuchlanishli elektr tarmog'idan ko'chma kabel orqali ishlaydi.



*131-chizma. Sigirlarni og‘illarda sut quvuriga sog‘ib olish va dastlabki ishlov berish.*

**Stanoklari parallel o‘tiladigan qilib o‘rnatilgan sog‘ish qurilmalari** – sigirlarni ferma sog‘ish zallari va yaylovlarda qo‘llaniladi (132-chizma). Sog‘ish qurilmasi yaylovlarga maxsus shassiga o‘rnatilib olib boriladi. Stanoklarni joylashtirishda richagli domkratdan foydalанилди.

Bu sog‘ish qurilmasida stanoklar bir-biriga parallel ravishda joylashadi. Stanokning orqa tomonida sigirlarni orqaga qaytmasligi uchun yoysimon to‘siq moslama, oldi tomonida sigirlarni chiqarib yuborish eshigi bor. Stanok eshiklariga oxurlar o‘rnatilgan bo‘lib, sog‘ish davrida oxurlarga konsentrat ozuqalar solinadi. Stanoklar



*132-chizma. Stanoklari sigirlarni parallel o‘gishiga moslashtirilgan sog‘ish agregatlari:*

1–vakuum nasos agregati; 2–muzli quti (frigorifer);  
3–konsentrat ozuqali bunker; 4–sog‘ish stanoklari;  
5–suv ta’minoti agregati; 6–sut yig‘ish rezervuari.

sut, vakuum va suv quvurlari bilan ta'minlangan. Suv sigirlar yelini va sog'ish apparatlarini yuvish uchun xizmat qiladi.


Sog'ish qurilmasida ish jarayoni quyidagicha. Sog'uvchi vakuum nasosni ishlatib, oxurga ozuqani soladi. Birinchi stanokka birinchi sigirni kiritib, orqasidan yoysimon moslamani yopadi. Keyin sigir yeliniga sanitар ishlov berib sog'ish stakanlarini yelin so'rg'ichlariga kiydirib, sog'ishni nazorat qiladi. So'ngra ikkinchi sigir stanokka kiritilib, sog'ish bilan bog'liq barcha operatsiyalarni takrorlaydi va hokazo. Oxirida yana birinchi stanokka qaytib kelib, sigirni «qayta» sog'ib, sog'ishni yakunlaydi va sigirni stanokdan oldingi eshikdan chiqarib yuboradi. O'rniغا boshqa sigirni kiritadi.

Qurilmaning kamchiligi shundaki, unda sog'uvchi sigirlarga cho'kkalagan holda xizmat ko'rsatadi.

**«Tandem» tipidagi sog'ish qurilmalari** sigirlarni sog'ish zalida individual stanoklarda sog'ib olish uchun xizmat qiladi. Sigirlar stanoklarga yon tomondan kirib chiqadi (133-chizma).

Stanoklar kengligi 1,2–1,5 m, chuqurligi 0,6–0,75 m bo'lgan transheyaning ikki tomonida bir-biriga ketma-ket (tandem) shaklda joylashgan. Transheya sog'uvchining ishchi joyi sanaladi. «Tandem» qurilmasi yuqori mahsuldor va nasldor qoramollari bor fermalarda samarali qo'llaniladi. Sababi qurilma har bir sigirni ayrim holda, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda sog'ib olish, xizmat ko'rsatishga imkon beradi.

«Tandem» qurilmasida ish quyidagicha amalga oshiriladi. Sog'uvchi oxurlarga yem solib bo'lib, tortqi yordamida birinchi stanokning eshigini ochib, sigirni yo'lakdan faqat o'zining stano-




133-chizma. «Tandem» tipidagi sog'ish qurilmasining shakli:  
1—sog'ish stanogi; 2—sog'uvchining ish joyi; 3—sigirlarni o'gish joyi.

giga kirishini ta'minlaydi. Sigir stanokka kirkach, sog'uvchi tortqi yordamida stanok eshigini yopadi. Keyin sigirga sanitar ishlov berib, sog'ishga tayyorlab, sog'ish stakanlarini kiydirib, nazorat qilib bo'lgandan so'ng ikkinchi stanokka o'tadi. Jarayon birinchi stanokda bo'lgani kabi davom etadi. Sigir kiritiladi, sog'ishga tayy-orlanib, stakanlar kiydiriladi, nazorat qiladi va hokazo.

Sog'uvchi nazoratida bo'lgan biron ta stanokda sog'ish yakun-lanishi bilan sog'ish apparati yechib olinib, taxta ilmog'iga osib qo'yiladi. Keyin eshikni ochib, sog'ilgan sigir chiqarilib keyingisi kiritiladi. Qurilmada ishlash sharoiti ancha qulay, chunki sog'uvchi tikka turgan holda ishlaydi.

**«Archa» shaklidagi sog'ish qurilmasi** sutchilik fermalarida sigirlarni bog'lamasdan, bog'lamay boksda boqqanda qo'llaniladi (134-chizma). Sigirlar sut berish xususiyatiga qarab ikki guruhga bo'linib sog'iladi. Birinchi guruhda bir xil mahsul dorlikka, sog'ish tezligiga ega sigirlar to'planadi. Ikkinci guruhda sekin sut beruv-chi, mashina bilan sog'ganda yelinida ko'p sut qolib ketadigan sigirlar yig'iladi. Bu sigirlarni «Archa» shaklidagi sog'ish qurilmasida sog'ish tavsiya etilmaydi, chunki bu sigirlarda sog'ish pasayib ketishi va laktatsiya davri qisqarishi mumkin.

«Archa» shaklidagi sog'ish qurilmasi transheyyaning (kengligi 1,2–1,5 m va chuqurligi 0,6–0,75 m) ikki yon tomonida o'rnatil-




134-chizma. «Archa» shaklidagi sog'ish qurilmasi:  
1—sog'uvchining ish joyi; 2—guruh sog'ish stanogi; 3—oxur;  
4—sut o'lchagich; 5—sut-havo ajratgich.

gan zigzagsimon to'siqlar bilan to'silgan va archa shaklida joylashgan stanoklarning ikki seksiyasidan iborat. Guruh stanoklari da oralig'ida to'siqlar yo'q, sigirlar bo'ylama transheyaga 30–45° burchak ostida bir-biriga tegib turadi.

Guruh stanoklari oldingi va orqa qismlarida sigarlarni kiritish va chiqarish uchun eshiklarga ega. Sigirlar sog'ishga stanoklarga guruhda 8 tadan bo'lib (guruhda guruh stanogining konstruksiyasi ga qarab 4–12 sigir bo'lishi mumkin) kiradi.

«Archa» shaklidagi sog'ish qurilmasining 8 joyli guruh stanogida ikki nafar sog'uvchi ishlaydi. Sog'ish boshlanishida sog'uvchilar tortqilar bilan kirish eshigini ochib, birinchi guruh sigirlarni kiritadi. Birinchi sigirning yelinini sog'ishga tayyorlab, apparat stanoklari kiydiriladi. Jarayon boshqa sigirlar bilan takrorlanadi. Shu davrda boshqa sog'uvchi ham ikkinchi seksiyaga sigirlarni kiritib, ularni sog'ishga tayyorlay boshlaydi. Birinchi sog'uvchi birinchi guruhda sigirlarni «qayta» sog'ib, apparatlarni o'chiradi. Ikkinchi sog'uvchi sigirlarni sog'ishni boshlaydi. «Archa» shaklidagi sog'ish qurilmasi yuqori ish unumiga ega qurilmalardan sanaladi.

**«Charxpak» halqa-konveyer sog'ish qurilmasi** (135-chizma, a) aylanuvchi doira shaklidagi platformada joylashgan bo'lib, har xil sonli stanoklarga (6–60 va ko'p) ega. Qurilma sigirlarni konveyerda sog'ib, jarayonni avtomatlashtirishga imkon beradi. «Charxpak» qurilmasi roliklar ustida joylashgan aylana platformadan



135-chizma. «Charxpak» halqa-konveyer sog'ish qurilmasi:  
a—qurilmada sigirlarni stanoklarda archa shaklida joylashgan holdagi ish jarayonining umumiyo ko'rinishi; b—sigirlarni qurilma sog'ish stanoklarda archa shaklida joylashishining chizma ko'rinishi; d—sigirlarni qurilma sog'ish stanoklarida ketma-ket (tandem) joylashishi.

iborat bo‘lib, stanoklar platformaga ketma-ket (tandem) yoki qiyalatib (archa usulida) montaj qilingan (135-chizma, *b, d*).

Platforma 5–10 minutda bir marta to‘xtovsiz aylanib turadi. Sigirlar o‘z guruhlari bilan maxsus sog‘ish oldi yo‘lagidan (kengligi – 1,2 m) sog‘ish zaliga kirib boradi. Sigir yo‘lak oxirida aylanayotgan «Charxpalak» qurilmasi platformasidagi individual stano-giga kirib, platforma bilan birga aylanadi. Platformada aylanish davrida sigir to‘la sog‘iladi. Platformani sigir bilan to‘la bir aylanishi oxirida maxsus to‘sinq sigirni chiqish yo‘lagiga chiqaradi va ikkinchi marta aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Sog‘uvchi aylanayotgan platformadan 0,6–0,75 m pastlikida, qo‘zg‘almas holda maxsus jihozlangan joyda turib xizmat ko‘rsatadi. «Charxpalak» sog‘ish qurilmasi 1–2 ming bosh sog‘in sigiri bo‘lgan yirik sutchilik fermalarida qo‘llaniladi. Bu qurilma sigirlarni sog‘ish vaqt, mahsuldarligi, sog‘ish soni, sut berish qobiliyati bo‘yicha «Archa» qurilmasiga nisbatan talabchanroq ravishda o‘tkaziladi.

**Texnik xizmat ko‘rsatish.** Sut sog‘ish agregatining uzoq vaqt va buzilmasdan ishlashi unga o‘z vaqtida va to‘g‘ri texnik xizmat ko‘rsatishga bog‘liq.

Agregatga quyidagicha texnik xizmat ko‘rsatiladi. Kundalik sog‘ishdan oldin so‘rg‘ich rezinasi hamda sut shlangalarining teshilmaganligi nazorat qilinadi, rezinaning pulsatsiyalanish chas-totasi aniqlanadi. Sog‘ishdan keyin vakuum quvurdan kondensatni to‘kish klapani ochiladi. Sutda ko‘p miqdorda kondensat bo‘lishi rezinaning teshilganligidan dalolat beradi. Sog‘ish apparatlari, sut quvuri vasovutgich chayiladi, yuviladi va dezinfeksiya qilinib, lavsan filtr hamda sut yig‘gich qismlarga ajratilib cho‘tkalar yordamida yuviladi. Elektryuritgichlar ularning yerga ulash simlarining holati ko‘zdan kechiriladi. Ish vaqtida elektryuritgichni qizib ketmasligi nazorat qilinadi.

Qurilma 75–90 soat ishlaganidan so‘ng quyidagi texnik xizmat ko‘rsatiladi. Dastlab, har kuni bajariladigan xizmat ko‘rsatish ishlari bajariladi. Keyin vakuum qurilmasi chang va kirdan tozalanadi, rezbali birikmalarining puxtaligi, ponasimon tasmalarning tarangligi tekshiriladi. Me’yoriy taranglangan tasma o‘rtasiga 40 N kuch bilan bosilganda, tasma 10 mm egilishi kerak. Vakuum qurilmasidagi fitil tolalari benzinda yuvib yaxshilab quritiladi.

Sog'ish apparatlari (pulsatordan tashqari) qismlarga ajratilib tozalab yuviladi. So'rg'ich rezinasining holati va uzunligi tekshiriladi, lozim bo'lsa, qisqartiriladi. Pulsator membranasi «dam berish» uchun olib qo'yiladi va o'rniغا yangisi qo'yiladi. Havo bo'lgich, sutni guruhlab hisoblash moslamasi, sut nasosi va sovutgichlar qismlarga ajratilib, yuvilib yana yig'iladi. Sovutgichni qismlarga ajratishda plastinalar shtangalardan olinmasdan bir oz suriladi va yassi cho'tka bilan ikkala tomoni yuviladi.

Elektryuritgichlar va apparatlar chang hamda kirdan tozalanadi, elektr uskunalar va yerga ulash tizimi ko'zdan kechiriladi. Magnitli yurgazgichlar hamda yuvish avtomati komanda appارتaining kontaktlari tozalanadi va zarur bo'lsa, sozlanadi. Vakuum qurilmasining so'ndirgichi qismlarga ajratilmay kerosinda yuviladi. Agar zarurat bo'lsa, vakuum rejimi rostlanib, vakuum sozlagichga qo'shimcha moy quyiladi.

Sut filtrining elementi almashtiriladi. Ishqorli yuvish bilan sut quvuridagi hosil bo'lgan oq qatlam yo'qotiladi. Buning uchun sut quvuri 0,2 foizli sirka kislotasi yoki 0,1 foizli xlorid kislotasi eritmasida yuviladi va iflosligi darajasigi qarab 0,5–1,0 saat davomida toza suvda chayiladi. Bunday yuvishda avtomat ishlatilmaydi.

Keyingi texnik xizmat ko'rsatish bir yilda ikki marta o'tka-ziladi. Bunda kundalik va yuqorida qayd qilingan texnik xizmat ko'rsatish o'tkaziladi. Shuningdek, vakuum quvur ham yuviladi. Vakuum quvurni yuvish uchun differensial sozlagichning yulki klapani olib qo'yiladi. Dasta vakuum nasoslardan eng uzoqda joylashgan sut-vakuum jo'mragiga o'rnatiladi. Dasta bo'g'iziga vakuum shlanganing bir uchi kiydiriladi, ikkinchi uchi esa kaustik sodaning 3 foizli issiq eritmasi solingan chelakka tushiriladi. Yaxshiroq yuvilishi uchun shlang vaqtiga vaqtiga bilan chelakdan chiqarilib, ichiga havo kiritib turiladi. Vakuum-ballon to'lib toshmasligi uchun vaqtiga vaqtiga bilan suvi to'kib turiladi. Vakuum quvur yuvish eritmasi bilan yuvib bo'lingach, qaynoq suv (85...90 °C) bilan chayiladi. Keyin uning har bir qismida nasosdan eng uzoqda joylashgan sut-vakuum jo'mraklari ochiladi va vakuum quvurni quritish uchun 15 min davomida havo so'riladi. So'ngra sut quvuri qismlarga ajratiladi, biriktirish detallari va jo'mraklari yuviladi va quritilib qayta yig'iladi.

Elektryuritgich va avtomatik ajratgich tozalanadi. Ponasimon tasmalar garangligi tekshiriladi, zarur bo'lsa, yangisiga almashtiriladi. Nasosning moy sarfi, fitillarning holati tekshiriladi va zarur bo'lsa, almashtiriladi.

*63-jadval*

### **Sut sog'ish qurrlmalarida uchraydigan nuqsonlar va ularni bartaraf ztish usullari**

Nuqsonlar	Sababi	Yo'qotish usullari
Pulsator pulsar sonini oshirgan holda turg'un ishlaymaydi	Vakuum quvurda vakuum darajasi me'yordan past, rostlash vinti bo'shab qolgan	Vakuum darajasi va pulsatsiya soni me'yoriga kelgunga qadar sozlanadi
Pulsatorda pulsatsiya soni kam yoki ishlaymaydi	Vakuum quvurida vakuum darajasi yuqori, pulsatorning korpusidagi o'tkazish teshigi ifloslangan, rostlash vinti ko'p kiritilgan	Vakuum rostlanadi, pulsator o'tkazish teshigi tozalanadi, vint bilan pulsatsiyalar soni sozlanadi
Pulsator to'xtab-to'xtab ishlaydi yoki ishlaymaydi	Pulsator gaykasi zich buralmagan; diffuzor va pulsator korpusi orasidan havo so'riliadi; so'rg'ich rezinasi teshilgan	Gayka tortib sozlanadi; qistirma borligi tekshiriladi, tozalanadi yoki almashtiriladi; so'rg'ich rezinasi almashtiriladi
Uzatish konusi stakandan chiqib ketadi	Sog'ish stakani noto'g'ri yig'ilgan; so'rg'ich rezinasi cho'zilgan	Stakan to'g'ri yig'iladi; rezina qisqartiriladi
Sut va vakuum quvurida vakuum darajasi yetarli emas	Sut-vakuum quvurlari jo'mraklari shikastlangan; birikmalaridan havo so'riliadi	Jo'mrak sozlanadi: havo so'rishi bartaraf qilinadi
Sog'ish apparati ishlaymaydi, sekin ishlaydi, pulsatorning ishi me'yorda	Sut shlangi siqilib yoki bukilib qolgan	Shlang bo'shatiladi va to'g'rulanadi
Sut quvuri bo'shatilganda unda vakuum bo'lmaydi	Havo bo'lgich shtutseri ochilib qolgan; qayta qo'shgichda po'kak tiqilib qolgan	Shtutser qalpoqcha bilan berkitiladi; po'kak olinadi

Sovutilgan sut bilan sovutuvchi suv orasidagi harorat farqi kattalashgan	Sovutish uchun ajratilgan suv me'yori kam; sovutgich noto'g'ri yig'ilgan	Sovutuvchi sunving sutga nisbati 3:1 bo'lishi ta'minlanadi; sovutgichni yig'ilishi tekshiriladi
Sovutgich plastinalari oralig'idan suv yoki sut oqadi	Plastinalar yaxshi yig'ilmagan; plastina orasiga mexanik, zarracha tushgan; zichlash qistirmalari shikastlangan; plastinalarning ba'zilari deformatsiyalangan	Plastinalar yaxshi yig'iladi (plastina qaliligi 79–109 mm); mexanik zarrachalar olib tashlanadi; qis-tirmasi shikastlangan plastina almashtiriladi; plastina tekislanadi
Sut sust sog'iladi	Vakuum yetarli emas; pulsator noto'g'ri sozlangan; sut vakuum jo'mragidagi teshik tozalanadi	Vakuum me'yoriga keltiriladi: pulsator sozlanadi; sut-vakuum jo'mragidagi teshik tozalanadi
Sog'ish vaqtida apparat yelindan tushib ketadi	Vakuum quvuridagi vakuum noto'g'ri rostlangan	Vakuum me'yoriga rostlanadi
Vakuum pasayib ketgan	Quvurlar nozich birlashtirilgan	Birikmalar burab mahkamlanadi
Nasos korpusi atrof-muhitga nisbatan 60 °C dan ortiq qiziydi	Moy idishida moy yo'q; Moy tavsiya etilganidan kam uzatilgan; nasos ichi vakuum-quvuriga kir tushgan	Moy idishiga moy quyiladi; fitillar yuviladi; kerakli miqdorda tolalar tozalanadi; nasos yuviladi; vakuum quvuri tozalanadi
Vakuum nasosning uzatishi kamaydi	Tekstolit kurakchalar uzunligi bo'yicha 05 mm dan ortiq yeyilgan; kurakchalar tirqishlarda tiquilib qoladi	Kurakchalar almashtiriladi; tirqishlar tozalanadi
Vakuum nasosda tiqillash eshitiladi	Podshipniklar yeyilgan	Podshipniklar almashtiriladi
Sut nasosi suyuqlikni haydamaydi yoki juda sust haydaydi	Nasos noto'g'ri yig'ilgan; elektryuritgichning aylanish yo'nalishi teskarli	Sut nasosi to'g'ri yig'iladi; elektr-yuritgich aylanishi to'g'ri yo'nalishga o'zgartiriladi

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Sog‘ish qurilmalari qanday tasniflanadi?
2. Parallel o‘tish stakanlari o‘rnatilgan sog‘ish qurilmalari tuziliishi va ishlashi.
3. «Tandem» tipidagi sog‘ish qurilmasi vazifasi, tuzilishi va ishlashi.
4. «Archa» shaklidagi sog‘ish qurilmasi vazifasi, tuzilishi va ishlashi.
5. «Charxpalak» – halqa konveyer sog‘ish qurilmasi vazifasi, tuzilishi va ishlashi.
6. Sut sog‘ish qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatishning tartibi qanday?
7. Sut sog‘ish qurilmalarida uchraydigan nuqsonlar va ular qanday bartaraf etiladi?

### 6.5. SUTGA DASTLABKI ISHLOV BERISH TIZIMI VA MASHINA JIHOZLARI

Sut inson organizmi uchun zarur bo‘lgan ozuqa hisoblanadi. Uning to‘yimliliqi yog‘lar, oqsillar, sut shakari tarkibidagi yog‘sifat moddalar fosfolipidlar, organik kislotalar, vitaminlar, fermentlar va boshqa ikki yuzdan ortiq biokimyoiy komponentlar bilan belgilanadi. Inson iste’mol qiladigan turli hayvonlarning suti tarkibi ham bir-biridan farq qiladi (64-jadval).

64-jadval

#### Qishloq xo‘jaligi hayvonlari sutining o‘rtacha biokimyoiy organik tarkibi

Hayvon turi	Sutning tarkibi, foiz				
	Suv	Yog‘	Umumiyoqsil	Sut shakari	Mineral moddalar
Sigir	87,5	3,8	3,3	4,7	0,7
Echki	87,0	4,1	3,5	4,6	0,8
Qo‘y	82,1	6,7	5,8	4,6	0,8
Qo‘tos	81,3	8,7	4,3	4,9	0,8
Ot	90,0	1,0	2,0	6,7	0,3
Tuya	86,5	4,5	3,5	4,9	0,7

#### Taqqoslash uchun ona suti tarkibi

87,0	3,5	1,1	7,5	0,9
------	-----	-----	-----	-----

Sutning va sut mahsulotlari sifati ko‘p holatlarda sutga o‘z vaqtida ishlov yoki qayta ishlov berilishiga bog‘liqdir. Chunki sut ishlov berilmagan holda tez buziladigan mahsulotlardan sanaladi. Uni iste’molchilarga yoki sutga ishlov beruvchi korxonalarga sifatli tarzda yetkazib berishning muhim tadbirlaridan biri sutga dastlabki ishlov berish sanaladi.

Sutning tez buzilishiga sigir yelini, teri qatlami va sut kommunikatsiyalaridan o‘tishi mumkin bo‘lgan mikroorganizmlar sabab bo‘ladi. Sigir sog‘ilib bo‘lishi bilan sutda mikroorganizmlar rivojlnana olmaydi. Chunki, sigir suti bilan birga shunday bakteritsid moddalar ajralib chiqadiki, ular mikrooblar rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi. Sutning tabiiy saqlanish davri *bakteritsid fazi-si* ataladi. Bakteritsid fazasi yakunlanishi bilan sutning harorati +10 °C dan ko‘tarilgach, sut achitqich mikroorganizmlari rivojlanib, sutni buzilishiga olib keladi. Shu sababli ham sutga dastlabki ishlov berishda uni mexanik va ayrim bakterial aralashmalardan tozalab, +4...+10 °C ga sovutib, sutni buzuvchi mikroorganizmlar faoliyati pasaytiriladi.

Fermada yuqumli kasalliklar paydo bo‘lsa, sut, albatta, pasterizatsiya qilinishi (issiqlik bilan ishlov berilishi) lozim. Shu sababli fermalarda sutni pasterizatsiya qilish jihozlari bo‘lishi kerak.

Pasterizatsiya samarasini sutni qizdirish harorati va uning davomiyligiga bog‘liqdir. Pasterizatsiyaning quyidagi rejimlari mavjud:

— **uzoq muddatli pasterizatsiya** — ikki devorli vanna va aralashtirgich bilan ta’minlangan jihozda sutni +63 °C haroratgacha uzoq muddat davomida qizdirib yetkazish va shu haroratda rezervuarda 30 min mobaynida saqlab turish;

— **qisqa muddatli yupqa qatlamlı pasterizatsiya** — avtomatlashirilgan plastinkali sovutish-pasterizatsiyalash qurilmalarida sutni +72...76 °C haroratgacha qisqa muddat ichida qizdirib yetkazish va shu haroratda 15–20 soniya vaqtida ushlab turish;

— **bir onli pasterizatsiya** — qisib chiqaruvchi barabanli qurilmalarda sutni +86...90 °C haroratda bir onda qizdirib, 3–5 soniya ushlab turmaslik;

— **chuqur yoki infeksiyaga qarshi pasterizatsiya** — sutni +86°–90 °C haroratgacha qizdirib yetkazib, shu haroratda 300 soniya mobaynida ushlab turish;


— **oqsim** (яшур)ga qarshi pasterizatsiya — sutni +85 °C harorat-gacha qizdirib 30 min mobaynida saqlash lozim.

Sutning sifatiga laboratoriya tahlili o'tkazilib so'ng sortlariga ajratiladi. Davlat standartlariga ko'ra sut birinchi, ikkinchi va sortsiz turlarga bo'linadi. Birinchi va ikkinchi sortdagи sut kislo-ta tarkibi Terner ko'rsatkichi bo'yicha  $16-18^{\circ}T$  va  $19-20^{\circ}T$  bo'lishligi lozim.

Terner gradusi deb, son jihatidan 100 ml sutni neytrallash uchun zarur bo'lgan detsinormal KON ishqori eritmasi miqdoriga (ml) aytildi. Sutga dastlabki ishlov berish va qayta ishlash usullaridan biri 136-chizmada keltirilgan.

Sut qabul vannasi (1)dan separator-tozalagich (2)ga tushadi, separatordan sut pasterizator (3)ga uzatiladi. Sovuq sut pasterizatorga tushmasdan avval issiqlik almashtirgichda issiq pasterizatordan chiqqan sut bilan isitiladi. Bunda ikki masala hal bo‘ladi: birinchidan, pasterizatordan chiqqan sut sovutilishdan avval bir qism issiqligini oldindan beradi; ikkinchidan, pasterizatsiyaga uza-tiladigan sut ham pasterizatsiyaga isitib kiritiladi. Bu iqtisodiy ji-hatdan qulay jarayon sanaladi. Issiqlik almashtirgichdan chiqqan sut sovutgich (5)ga kirib sovutiladi va termos rezervuar (6)ga uza-tiladi. Bu usuldan sutni tashish qiyin bo‘lgan yoki xo‘jalikning o‘zida sotiladigan fermalarda foydalanish mumkin.

Yirik chorvachilik fermalari yoki sutni shaharga sotish uchun yuboradigan xo‘jaliklarga quyidagi sutga dastlabki ishlov berish tizimi chizmasini tavsiya etish mumkin: tozalash—pasterizatsiya qilish—sovutish—kichik idishlarga qadoqlash.



### **136-chizma. Sutni tozalash, pasterizatsiya qilish va sovutish:**

1-qabul qilish vannasi; 2-separator-sut tozalagich; 3-pasterizator; 4-rekuperativ issiqlik almashgich; 5-sut sovutgich; 6-rezervuar-terms.

Ayrim chorvachilik xo‘jaliklari sut yog‘ini moy tayyorlash korxonalariga sutni separatordan o‘tkazib topshiradi va yog‘i, suti olingan sутдан tvorog olish va buzoqlarga ichirish uchun foydalanadi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Qishloq xo‘jaligi hayvonlari sutining biokimiyoviy tarkibini tu-shuntiring.
2. Sutga dastlabki ishlov berishdan maqsad nima?
3. Pasterizatsiya va uning rejimlari.
4. Sutga dastlabki ishlov berish va qayta ishslashning qanday usul-lari bor?

### 6.6. SUT TOZALAGICHALAR, SOVUTGICHALAR VA SAQLAGICHALAR


Sigirlarni sog‘ish jarayonida sutga chang zarrachalari va ko‘p miqdorda mikroorganizmlar tushadi. Bu qo‘silmalar qancha ko‘p vaqt turib qolsa, ular sutda mikroorganizmlarni shuncha ko‘p bo‘lishiga sabab bo‘ladilar. Fermalarda sutni tozalash uchun filtrlar (yassi, silindrik, konussimon, diskli) va markazdan qochma tozalash moslamalari (sentrafuga) qo‘llaniladi.

Sutni tozalashda kichik fermer hamda xususiy oilaviy chorvachilik xo‘jaliklarida filtr sut suzg‘ichlar, yirikroq fermer va shirkat xo‘jaliklarida magistral silindrik filtrlar hamda separator sut tozalagichlar qo‘llaniladi.

Filtr sut suzg‘ichlar sigirlar chelakka sog‘ilganda foydalaniladi va filtrlar flyaga yoki sut saqlagich idishining og‘ziga qo‘yiladi (137-chizma).

**Magistral silindrik filtrlar** sog‘ish qurilmalarida sut quvurlari tizimida sutni tozalashda qo‘llaniladi (138-chizma).

Filtrning zanglamas po‘latdan tayyorlangan silindrik korpusi (1) ichidagi karkas (5)ga filtrlash elementi (8) rezina halqa (9) bilan qotirilgan. Karkasga kiydirilgan filtrlash elementining zichligi rezina qistirma (6)lar yordamida erishiladi. Filtrlash elementi shakli bo‘yicha lavsan materialidan tayyorlangan uzun paypoqni eslatadi.



*137-chizma. Sutni tozalovchi filtr sut suzg'ichi:*

1—suzg'ich korpusi; 2—mayda teshikli pastki to'r; 3—yirik teshikli ustki to'r; 4—sim prujinali halqa; 5—filtrlash aylana gazlamalar.


Filtr quyidagicha ishlaydi. Sut quvuridagi sut filtr korpusiga kirib, filtrlovchi elementlar oralig'idan o'gish jarayonida mexanik aralashmalardan tozalanadi. Filtrdan tozalanib o'tgan sut sovutishga va qisqa muddatga saqlanishga jo'natiladi.

Sog'ish qurilmasini sirkulyatsion yuvish oldidan filtrning filtrlash elementi korpusdan chiqarib olinadi. Filtrlash elementi issiq suvda qo'lida yuvilib, o'tirib qolgan mexanik aralashmalardan tozalanadi. Yuvilgandan so'ng filtrlash elementi quritiladi.

**Separator-sut tozalagich** qabul qilish chiqarish qurilmasi, baraban, harakatga keltirish mexanizmi va stанинадан tuzilgan.


Separator sut tozalagichni ishlashi uchun almashtiriladigan filtrlar va sutni tozalashga uzatish uchun nasoslar zarur emas.

Separator sut tozalagichning texnologik ish jarayoni quyida 139-chizmada keltirilgan. Sut separatorning markaziy quvuri orqali tarelkali barabanga tushadi. Barabanning tozalash tarelkali orasidan sut o'tib, bosim dis-



*138-chizma. Magastral silindrik filtr:*

1—korpus; 2—gayka; 3—xomut; 4—utkazgich shlang; 5—karkas; 6—zichlash qistirmalari; 7—oraliq o'tkazgichlar; 8—filtrlash elementlari; 9—halqa.




*139-chizma. Separator sut tozalagichning texnologik jarayoni:*

1—bosim diskii; 2—tarelkalar;  
3—yig‘ish kamerasi

xona ichida yoki quyosh nuri tegmaydigan salqin joylarda qilin-gani ma‘qul. Hovuzcha devori va tagi beton, metall yoki pishiq g‘ishtdan tayyorlanib, sement aralashmasi bilan suvab qo‘yiladi (140-chizma).

Flyagalarda sutni sovutish jarayoni uzoqroq va ko‘p mehnat tab lab qiladi. Hamma joyda ham bunga imkoniyat yo‘q. Shu sababli ham katta sutchilik fermalarida sutni sovutish uchun oqimli sovutgichlar yoki sovutgich-rezervuarlar foydalaniadi. Sutni oqimli sovutish uchun issiqlik almashtiruvchi plastinkali va sug‘oruvchi (ochiq yoki yopiq) apparatlar qo‘llaniladi.

**Ochiq sug‘orib sovutgichlar** (141-chizma). Sut sovutgich tar-




*140-chizma. Sutni flyagada sovutish uchun sutxona ichida quriladigan hovuzchalar (ko‘ndalang kesimi): a—betondan; b—metalldan; d—g‘ishtdan.*

kiga yo‘naladi. Sutdagi aralashmalar markazdan qochma kuch ta’sirida kir yig‘uvchi kamera devoriga otib yuboriladi. Kamera ichki devorida iflos aralashmalardan tarkib topgan qatlam hosil bo‘ladi. Qatlam separatorni to‘la ravishda to‘xtatib, qismrlarga ajratgandan so‘ng qo‘lda tozalab olinadi.

### Sut sovutish jihozlari

Kichik fermer va xususiy oilaviy chorvachilik xo‘jaliklarida sutni bidon yoki flyagalarda oqar suvlardan foydalanigan holda sovutish mumkin. Buning uchun oqar suvlarga katta bo‘lmagan hovuzchalar yasab qo‘yilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Hovuzchalar sut-




**141-chizma. Ochiq sug'orib sovutgichlar:**

a—bir seksiyali; b—ikki seksiyali; d—bir seksiyali sovutgichning shakli:  
1—kollektor; 2—ustki tarov; 3—sovutish yuzasi; 4—sovutgich suyuqlikni  
kiritish bo‘g‘izi; 5—pastki tarov; 6—tayanch; 7—muzlatilgan suv bilan  
sovutish seksiyasi ishchi yuzasi.

novi tubiga o‘rnatilgan to‘r teshikdan o‘tib gorizontal quvurlardan tayyorlangan sovutgichning tashqi sirtidan yupqa qatlama bo‘lib oqib tushadi (141-chizma, a). Ilon shaklida tayyorlangan ikkita quvur kollektordan sutga qarama-qarshi sovutgich suyuq harakat qiladi. Sovutilgan sut pastki tarovga tushib, chiqarish bo‘g‘izi orqali sut g‘isht idishiga yuboriladi.

Ikki seksiyali sovutgichlarda (141-chizma, b) ustki seksiya sutni oqar sovuq suv bilan sovutsa, pastkisi muz quti frigatori yoki suv sovutgich mashinalari yordamida muzlatib, sovutilgan suv bilan sovutadi. Bunday tizim sutni 0 °C ga yaqin haroratgacha sovutishga imkon beradi.

**Yopiq sug'orib sovutgich (142-chizma)** korpus (1), issiqlik almashuvchi qat-qat



**142-chizma. Yopiq sug'orib (vakuum) sovutgich:**

1—korpus; 2, 5—qistirmalar; 3—sovutgichni vakuum magistraliga ulash bo‘g‘izi; 4—sut qabul qilish idishi;  
6, 7—sut keltirish bo‘g‘izlari; 8—qopqoq; 9—filtr;  
10—sutni qayta quyish bug‘izi; 11—qat-qat burama shakldagi yuza;  
12—ilgak o‘qi; 13—sovutilgan sutni chiqarish bo‘g‘izi

burama (гофр) shaklida tayyorlangan yuza (11), sut qabul qilgich idish (4), bo‘g‘izi (10) bilan, vakuum magistraliga ulash bo‘g‘izi (3), filtr (9), qopqoq (8) va sut keltirish bo‘g‘izlari (6) va (7) dan tashkil topgan. Sovutgich korpusida uni osib qo‘yish o‘qlari qotirilib, sovutilgan sutni olib ketish, sovutuvchi suvni kiritish, chiqarish bo‘g‘izlari biriktirilgan. Zichlash uchun rezina qistirmalar (2, 5) qo‘yilgan.

Yopiq sug‘orib sovutgich quyidagicha ishlaydi. Sovutgich bo‘g‘izi (3) orqali sut qabul qilish idishi (4) ichida sut quvuriga nisbatan chuquroq vakuum hosil qilinadi. Bosim farqi natijasida sovutgichning (6 va 7) bo‘g‘izlari orqali ikki tarmoqdan sut oqib kiradi. Sut filtr (9) orqali o‘tib, idish (4) da to‘planadi. Keyin idish tubidagi teshikdan o‘tib, qat-qat burama-burama yuza orqali sovutgich poddoniga tushadi. Undan vakuum idishiga va nasos orqali rezervuar sovutgichga o‘tadi.

Korpus (1) bilan qat-qat shakldagi yuza oralig‘i vint shaklida bo‘lib, sovutuvchi suv yo‘li sanaladi. Sovutuvchi suv sutga qaramaqarshi yo‘nalishda harakatlanib, sutning issig‘ini olib ketadi. Suvni sutga nisbatan uch marta ko‘p sarflaganda sutni suvga nisbatan 3°–4 °C baland haroratgacha sovutish mumkin.

**Plastinkali sovutgichlar** – sutni yopiq oqimda sovutib beradi. Bu sovutgichlar sut tizimini sirkulyatsion tarzda yuvib tozalashda keng qo‘llaniladi. Chunki bunda sovutgichni kunda qismlarga ajratish va tozalash shart emas.

Plastinkali sovutgich yuqorida qayd qilingan sovutgichlarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- sovutishning yuqori samaradorligi;
- apparat ishchi hajmining kichikligi, avtomatik jihozlarni jarayon shartlarini o‘zgarishiga tez reaksiya qilishi;
- kichik issiqlik bosimida ham yuqori samara bilan ishlashi;
- o‘rnatish maydonining kichikligi, 1 m<sup>3</sup> ishchi hajmida 200 m<sup>2</sup> issiqlik almashtirish maydonini joylashtirishi mumkin;
- montaj qilish, ajratish va xizmat ko‘rsatishning yengilligi va hokazo.

Sovutgichning issiqlik almashtiruvchi plastinalari suyuqlikning harakatiga mos ravishda tasma oqim yoki to‘r oqim shaklida bo‘ladi (143-chizma). To‘r oqim shaklidagi sovutgichlar yuqori-roq issiqlik texnik ko‘rsatkichlariga ega.


Plastinali sovutgich (144-chizma) is-siqlik almashtiruvchi plastinalar komplekti (1), tayanch (2) va siqish (3) plitalari dan tuzilgan. Tayanch plitasiga shtanga (4) va bo‘g‘izlar (9) va (10), siqish platasida bo‘g‘izlar (7) va (8) qotirilgan.

145-chizmada sovutgichning oltita plastinasi yoyilgan holda ko‘rsatilgan.

Sut sovutgichga apparatning bo‘g‘izi (1) va chetki plastinaning burchak teshigi orqali kirib bo‘ylama kanal (2)ga tushadi. Shu kanal bo‘ylab chetki teshigi yo‘q plastinagacha harakatlanadi. Bo‘ylama kanal dan sut toq plastinalar tirkishlariga tarqaladi. Sut plastinalar orasida uning qat-qat burama shakldagi yuzasidan o‘gadi. Plastinaning ikkinchi tomoni sovuq suv bilan sovutiladi.


Sovutgich ustki tomonida sut ikkinchi bo‘ylama kanal (3) orqali plastinalarning ikkinchi paketi orqali tarqalib, pastki bo‘ylama kanal va bo‘g‘izi (4) orqali sovutgichdan chiqariladi.

Sovutgichga suv bo‘g‘izi (5) orqali kirib, pastki bo‘ylama kanal (6) orqali oxirgi plastinaga yetib keladi. Keyin suv ustki bo‘ylama kanalga va ikkinchi juft plastinalar paketining oralig‘idan o‘tib, pastki bo‘ylama kanal (7) va bo‘g‘izi (8) orqali sovutgichdan chiqariladi. Shu tariqa sut bilan suvning is-siqlik almashishi yupqa tayyorlangan qat-qat shakldagi plastinalar orqali yuz beradi. Plastinalar tarkibida nikel bo‘lgan po‘lat va titandan tayyorlanadi.




*143-chizma. Suyuqlikni plastinalar kanali oralig‘idagi harakati shakllari:*

*a—tasma oqim;*  
*b—to‘r oqim.*



#### *144-chizma. Plastinali sovutgich:*

- 1—isqlik almashtiruvchi plastinalar komplekti;
- 2, 3—plitalar;
- 4—shtangalar;
- 5—gayka;
- 6—shpilka;
- 7, 10—sutni qabul qilish va uzatish bo‘g‘izlari;
- 8, 9—sovutish suyuqligini qabul qilish va chiqarish bo‘g‘izlari



**145-chizma. Sovutgich plastinalari  
oralig'ida issiqlik almashinish:**

1, 4—sutni kiritish va chiqarish bo'g'izlari; 2, 3—sutni ostki va ustki harakatlanish bo'ylama kanallari; 5, 8—sovutgichni kiritish va chiqarish kanallari; 6, 7—sovutgichni pastki harakatlanish bo'ylama kanallari.

### 65-jadval


#### Plastinkali sovutgichlarning texnik tavsiflari

Ko'rsatkich	Ish unumi, dm <sup>5</sup> /s				
	1000	1000	1500	3000	5000
Sovutgich turi	3 paketli 1 seksiyali	2 paketli 1 seksiyali	3 paketli 1 seksiyali	3 paketli 2 seksiyali	3 paketli 2 seksiyali
Sovutish yuzasi, m <sup>2</sup>	1,05	2,0	1,85	6,5	11,2
Sovutish sek- siyalaridagi issiqlik alma- shuvchi plas- tinalar soni: suvli tuzli suvli	14	42	20	24 25	41 41
Issiqlik almashuvchi plastinalar turi	kombina- tsiyalangan	tasma oqimchi	kombina- tsiyalangan	tasma- oqimli	tasma- oqimli
Plastinalar ora- liq tirqishi, mm	3,5	1,4	3,5	2,5	2,5

Seksiyalarda sovutish rejimi, °C: birinchi ikkinchi	35-5 —	35-5 —	35-5 —	35-22 22-4	35-22 22-4
Sovutgichning dastlabki harorati, °C suvning sho'r suvning	2,5 —	2,5 —	2,5 —	20 —5	20 —5
Apparatning gabarit o'l-chamlari, mm: uzunligi kengligi balandligi	490 250 760	460 270 640	490 250 760	1400 700 1330	1510 700 1330
Massa, kg	17,5	35	20,4	412	503

**Sut rezervuar-sovutgichlari** sutni yig'ish, sovutish va saqlash uchun xizmat qiladi. Ular ochiq va yopiq shaklda bo'ladi.


Sut rezervuar-sovutgichlarda ikki xil turda sovutiladi: oraliq sovutgich (muzlatilgan yoki suv quvuri suvida) (146-chizma) yoki



146-chizma. Oraliq sovutgichli sut rezervuar sovutgichlar:

- a—birga o'rnatilgan sovutish agregat bilan: 1—kompressor; 2—kondensator; 3—suv filtri; 4—korpus; 5—sut vannasi; 6—panel bug'latgich; 7—reduktor; 8—alarashtirgich; 9—sug'orish tizimi; 10—sut filtri; 11—havo chiqarish bo'g'izi; 12—suv nasosi; 13—rama-resiver; 14—boshqarish pulti; b—avtonom sovutgich agregat bilan: 1—rezervuar; 2—sovutish ko'ylagidan havoni chiqarish bo'g'izi; 3—suv nasosi; 4—suv sovutgich muzlatish agregat.

sovutgich mashinadan rezervuar ko'ylagi ostiga yuboriladigan sovuqagent (хладагент) yordamida (147-chizma).




*147-chizma. Sut sovutgich rezervuari, yoniga qurilgan muzlatish agregat bilan:*

1—muzlatish agregati; 2—ichki rezervuar; 3—tashqi rezervuar; 4—sut keltirish bo'g'izi; 5—elektr yuritgich; 6—reduktor; 7—tutqich; 8—lyuk; 9—avtomat yuvgich; 10—nasos; 11—kran; 12—tayanch; 13—bug'latgich; 14—forsunka; 15—aralashtirgich; 16—termoizolyatsiya.

### Sut saqlagich jihozlar

Sigirlarni sog'ish va sutga dastlabki ishlov berish texnologiyasi muvofiq, sutni ishlab chiqarish sanoatiga jo'natishdan avval ma'lum bir vaqt fermada saqlanadi. Sutni saqlash uchun flyaga, rezervuar-termos va rezervuar-sovutgichlardan foydalaniadi. Rezervuar-sovutgichlar tuzilishi haqida yuqorida batafsил то'xtalingan.



*148-chizma. Sut saqlagich gorizontall rezervuar-termosi:*

1—to'kish krani; 2—aralashtirgich elektryurtigichi; 3—nazorat darchasi, yoritgichi bilan; 4—to'ldirish bo'g'izi; 5—yo'naltiruvchi silindr; 6—aralashtirgich; 7—tayanch.


Sutni saqlash jihozlari muayyan tarzda oksidlanishi va sut kislotasi hamda tuzlar ta'sirida yemirilishi tufayli chidamli materiallardan tayyorlanadi. Eng keng tarqalgan materiallar zanglamas po'lat, maxsus rezina va plastmassalar sanaladi. Flyagalar oziq-ovqat uchun ishlatiladigan maxsus alyuminiyidan, rezervuar-

termos va rezervuar-sovutgichlar esa zanglamas po'latdan ishlanadi.

Rezervuar-termoslar konstruktiv jihatdan gorizontal (148-chizma) va vertikal (149-chizma) holda tayyorlanadi.

Gorizontal rezervuar-termoslarning og'irligi tayanch maydoniga bir xilda tushadi. Vertikal rezervuar-termoslarni o'rnatilganda kichik maydon egallaydi, qolaversa bu jihozning bo'shatilishi yengil va oson.

Chet ellarda chiqariladigan rezervuar-termoslarga sut yog'ini tinch holatda ham sutda tekis tarqalishini ta'minlash uchun elektr-yuritgichli aralashtirgichlar o'rnatilgan.



**149-chizma. Sut saqlagich vertikal rezervuar-termosi:**

1—nasos; 2—lyuk; 3—ejektor; 4—isolyatsiya; 5—rezervuar; 6—po'kak;  
7—ventilyatsiya qurilmasi; 8—yuvish qurilmasi; 9—yoritish qurilmasi;  
10—narvon; 11—termometr; 12—boshqarish shkafi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Sutni tozalash nima uchun amalga oshiriladi?
2. Magistral, silindrik filtrlar vazifasi, tuzilishi va ish jarayoni.
3. Separator-sut tozalagich vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni.
4. Sut sovutish jihozlarining qanday turlarini bilasiz?
5. Yopiq sug'orib sovutgich vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni qanday afzallikkлага ega?
6. Plastinkali sut sovutgichlar tuzilishi, afzallikkları va texnologik ish jarayoni va afzallikkları nimalardan iborat?

7. Sut rezervuar-sovutgichlari vazifasi va tuzilishi qanday?
8. Sut saqlagich jihozlar vazifasi va tuzilishini aytib bering.


## 6.7. SUT PASTERIZATORLARI VA SEPARATORLARI

Oilaviy va kichik fermer xo‘jaliklari sutni o‘z ehtiyojlari uchun qaynatib so‘ng foydalanadi. Bu xo‘jaliklar ko‘p hollarda tashqariga sutni pasterizatsiya qilinmagan holda topshiradilar.

Yirik fermer yoki shirkatlar uyushmasi xo‘jaliklarida sutni pasterizatsiya qiladigan jihozlarning bo‘lishi, sutni dastlabki ishlov berilgan holda realizatsiya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Yuqorida qayd qilingan fermalarda sutni pasterizatsiya qilishda uzoq pasterizatsiya vannasi (УПВ) va avtomatlashtirilgan plastinkali pasterizatsiya-sovutish qurilmalari qo‘llaniladi.

Uzoq pasterizatsiya vannasida sut qizdirilib 30 min mobaynida  $+63^{\circ}\dots+65^{\circ}\text{C}$  harorat ostida ushlab turiladi (150-chizma).

УПВ ichki va tashqi silindrik rezervuardan tashkil topgan. Vanna bir qismi yuqoriga ochiluvchi qopqoq bilan yopilgan. Qopqoqning qo‘zg‘almas qismiga vannani sut bilan to‘ldirish uchun xizmat qiluvchi bo‘g‘iz payvandlangan. Vannaning ichki va tashqi rezervuari oralig‘ida issiqlik beruvchi qaynoq suv aylanadi. Suv bug‘ yordamida isitiladi. Sutni qizdirish,sovutish va saqlash jarayonida uni vanna ichida propeller aralashtirgich aralashtirib turadi.



**150-chizma. Uzoq pasterizatsiya vannasi:**  
 1—ichki rezervuar;  
 2—tashqi rezervuar sirti;  
 3—propellerli aralashtirgich;  
 4—termometr;  
 5—sut quyish krani.

Pasterizatsiya jarayoni quyidagicha kechadi. Ikki rezervuar oralig‘iga bug‘ kiritilib, suv  $+90^{\circ}\dots+96^{\circ}\text{C}$  haroratga cha qizdiriladi. Ichki rezervuardagi suv sutni isitadi. Sut belgilangan haroratga cha ( $+63^{\circ}\dots+65^{\circ}\text{C}$ ) isitilgach, bug‘ berilishi ventil yordamida qisman yopiladi va sut 30 min mobaynida ushlab turiladi. So‘ngra issiq suv ventili yopilib, sovuq suv ventili ochiladi, rezervuar oralig‘idan issiq suvni sovuq suv siqib chiqaradi. Shu tariqa sut sovutiladi.

Sut pasterizatsiya qilinib, sovutilgandan so‘ng iste’molchilarga tarqatilishi mumkin. Bo‘shatilgan vanna yuvish

moslamalari yordamida yuvilib, so‘ng issiq suvda chayib tashlanadi.

*66-jadval*

### **Har xil sig‘imdagি YΠBalarнnng texnik tavsifi**

Ko‘rsatkich	Uzoq pasterizatsiya vannalarining sig‘imi, dm <sup>3</sup>		
	300	600	1000
Issiqlik almashinish yuzasi, m <sup>2</sup>	2,0	3,5	5,1
Suv ko‘ylagi sig‘imi, dm <sup>3</sup>	100	120	107
Aralashtirgich elektryuritgichi quvvati, kVt	0,6	0,75	0,75
Gabarit o‘lchamlari, mm;	1290 925 1370	1880 1410 1660	1880 1410 2015
Massa, kg	165	535	625

1000 l sutni YΠBda pasterizatsiya qilish uchun 100–140 kg bug‘ sarflanadi, bu zamonaviy plastinkali pasterizatorga nisbatan 4,5–5 baravar ko‘p. Chunki YΠBda issiqliknинг bir qismi ko‘ylakdagi suvni, rezervuarni isitish va sovitishga sarflanadi.


Uzoq pasterizatsiya vannasidan foydalilanlganda quyidagi texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur:

- aralashtirgich elektryuritgich u yer bilan tutashtiruvchi simi bo‘lgan holdagina yurg‘azilishi mumkin;
- bug‘ ventili faqat rezervuarlar oraliq‘ida suv bo‘lganda ochilishi mumkin.
- qayta quyish quvuri doimo ochiq holda bo‘lishi lozim;
- vannani qo‘l bilan yuvish aralashtirgich to‘xtatilgandan so‘ng gina amalga oshirilishi mumkin.

Uzoq pasterizatsiya vannasi ishidagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo‘llari 67-jadvalda keltirilgan.

Avtomatlashtirilgan plastinkali pasterizatsiya-sovitish qurilmalari (151-chizma) universalligi va afzalligi bilan sut pasterizatorlari ichida ajralib turadi.

Nuqsonlari	Sabablari	Yo‘qotish usullari
Aralashtirgich bir tekisda aylanmaydi	Aralashtirgichning vali ezilgan	Val to‘g‘rilanadi
Vanna devorlari oralig‘iga bug‘ kirmaydi	Bug‘ taqsimlagich boshi teshigi kirlangan	Vannani qismga bo‘lib, ichki rezervuarni ko‘tarib, bug‘ taqsimlagich boshi teshigi tozalanadi
Bug‘ tashqi korpus ustidan tashqariga chiqmoqda	Tashqi korpus gardishini qotiruvchi vintlari bo‘sagan	Vintlar tortib qo‘yiladi
Ichki rezervuar shtutseri va sut krani oralig‘idan mahsulot oqmoqda	Zichlash halqasi yaxshi tortilmagan. Halqa yeilgan	Sut krani bo‘g‘izi gaykasi qattiq tortiladi. Halqa almashtiriladi



151-chizma. Avtomatlashtirilgan plastinali pasterizatsiya-sovutish qurilmasining texnologik shakli:

1—plastinali issiqlik almashtirish apparati; 2—qaynoq suv uzatish nasosi; 3—elektr suv isitgich; 4—boshqarish pulti; 5—saqlab turgich; 6—o‘tkazib yuborish klapani; 7—tenglashtiradigan sut baki; 9—sut uzatish nasosi; 9—separator sut tozalagich; 10—muz suv bilan sovutish seksiyasi; 11—quvur suvi bilan sovutish seksiyasi; 12—rekupiratsiya birinchi seksiyasi; 13—rekupiratsiya ikkinchi seksiyasi; 14—pasterizatsiya seksiyasi.

Qurilma sutga ishlov berish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ope-ratsiyalarni (tozalash, pasterizatsiya qilish, issiqliq ushslash va so-vutish) yupqa qatlamlili yopiq oqimda bajaruvchi agregat sanaladi.

Qurilmada barcha texnologik jarayonlar avtomatik tarzda yaxshi sanitar-gigiyenik sharoitda bajariladi. Qurilma sutni pasterizatsiyalanmasligi yoki juda qizdirib yuborilishiga avtomatik tarzda yo'l qo'ymaydi. Qurilma sutning tabiiy ta'mi, ozuqa moddalari va vitaminlarini saqlab qoladi.

## **Separatorlar**

Sut qaymog'ini tabiiy ravishda olishda sut ma'lum bir vaqt idishga solib qo'yiladi. Bunda sutfagi moy zarrachalari sutning yuza qismiga sizib chiqib, qaymoq qatlamini hosil qiladi. Ushbu jarayon sut separatorlarida sekundning bir bo'laklarda bo'lib o'tadi.

Separatorning ish prinsipi sutfagi turlichcha zichlikdagi zarrachalarni (moy va obrat) mexanik markazdan qochma kuch ta'siri ostida bir-biridan ajralishiga asoslangan. Ajralish separator barabanning katta tezlikda aylanishi natijasida sutning zich zarrachalarini baraban sirtiga va zichligi kamroq zarrachalarini (moy) baraban o'qiga siljishi tufayli yuz beradi.

Hisoblarga ko'ra mexanik tarzda separatsiya jarayoni, tabiiy tindirishga nisbatan ming marta tez kechadi. Sut separatsiya jarayonida +36...+45 °C haroratda bo'lishi tavsiya etiladi. Past haroratda suvning yopishqoqligi ortib moyning ajralishi qiyinlashadi. Sutning moyi olingandan keyin (obrat)gi qolgan moyi 0,03 foizdan ko'p bo'lmasligi lozim.

Separatorlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- qaymoq-ajratgichlar (konsentratorlar) sutfdan qaymoq va obrat olish hamda hosil bo'lgan komponentlarni tozalash;
- separator-me'yorlagichlar sutni belgilangan moylilik daramasida tayyorlash;
- separator sut tozalagich sutni har xil aralashmalardan tozalab ajratish;
- universal separatorlar yuqorida qayd qilingan barcha operatsiyalarni bajara oladi.

Konstruktiv tayyorlanishi bo'yicha separatorlar:

- ochiq sutni qabul qilishi va tayyor mahsulotlarni chiqarishi ochiq oqimda bo'ladi;
- yarim ochiq sutni qabul qilishi ochiq holda va tayyor mahsulot yopiq holda bosim ostida uzatiladi;

— germetik (yopiq) separatsiya jarayoni tashqi muhit ishtirokisiz o'tadi.

Separatorlar qo'lda, elektryuritgich yordamida harakatga keltiriladi. Ochiq turdag'i sut tozalagich va qaymoq ajratgich separatori barabani 152, 153-chizmalarda keltirilgan.


Barabanda sut oqimini tarelkalar bir xilda, tekis va yupqa holda taralishini ta'minlab beradi. Tarelkalar oraliq tirqishi sut tozalash barabanida qaymoq ajratgichnikiga nisbatan kengroq bo'ladi.

Sut tozalash barabani qalaylab oqartirilgan markaziy quvur korpusi, tarelka ushlagich, tarelkasimon qo'yilma, qopqoqlar, tortish gaykasi va zichlash rezina halqasidan tuzilgan. Markaziy quvur tagidan yopiq bo'lib, unda tarelka o'rnatish uchun qobirg'a va baraban valining kesigi (веретена) mavjud. Konstruksiyasiga qarab tarelkalar oraliq tirqishi 0,8–2,0 mm ni tashkil etadi.

Separator sut tozalagichning ish jarayoni quyidagicha bo'ladi. Sut qabul qilgichdan ochiq kran orqali po'kakli qabul kamerasiga kelib tushadi. Kamera sutni po'kak bosimi yordamida kalibrangan quvurcha orqali barabanning markaziy quvuriga yo'naltiradi. Sut tarelka ushlagichning teshigi va kanallari orqali barabanning

kir yig'uvchi kamerasiga tushadi. Bu yerda sutning tarkibida uchraydigan og'ir aralashmalar o'tirib qoldi. Keyin sut tarelkalar paketi oralig'idan o'tib borib qo'shimcha tozalanadi va barabanning markaziy qismiga yig'iladi. Markaziy qismidan sut baraban qopqog'inining yon teshigidan chiqib, sut yig'gichga yo'naladi.

Qaymoq ajratgich baraban korpusi, ajratish tarelkalari paketi, tarelka ushlagich, qopqoq, zichlash rezina halqasi va qotirish gaykasidan tuzilgan. Ustki ajratish tarelkasi markaziy qismida silindrik tortqisi bo'lib, uning ichi yoniga sozlash vinti payvandlangan. Ajratish tarelkalarida teshikchalar qilin-



#### **152-chizma. Separator sut tozalagichning shakli:**

1—tub; 2—rezina halqa; 3—tarelka ushlagich; 4—ajratish tarelkalari paketi; 5—sirt; 6—sut chiqish teshigi; 7—gayka; 8—markaziy quvurcha

gan bo‘lib, ular tarelkalar paketida sutni o‘tishi uchun uchta kanalni tashkil etadi. Tarelkalar paketi va baraban korpusi oralig‘i kir yig‘ish kamerasini tashkil etadi. Ikki juft tarelka orasidagi tirqish baraban konstruksiyasiga qarab 0,35–0,5 mm ni tashkil etadi.


**Ish jarayoni.** Sut po‘kakli kameradan markaziy quvurcha va tarelka ushlagich kanali orqali baraban markazidan, tarelkalar oralig‘idan periferiyaga intiladi. Sutning yengil qismi (qaymoq) ajralib, tarelkalar oralig‘idan sizib chiqib, baraban markaziga intiladi. Sutning zich qismi (obrat) barabanning sirtiga, periferiyasiga qarab yo‘naladi. Kir yig‘ish kamerasida obratdan kirlar ajralib chiqib, korpus devoriga qatlam bo‘lib yopishib qoladi. Tozalangan sut ajratish tarelkasidan chiqarish teshiklari orqali sut idishiga chiqib ketadi. Qaymoq markaziy quvur va ajratish tarelkasi ostidan borib sozlash vinti teshigi orqali o‘tib qaymoq idishiga tushadi.

Sozlash vintini burash bilan qaymoqning yog‘lilik darajasi rostlanadi.

Qaymoq ajralish miqdorini ( $I$ ) quyidagi formula bilan hisoblash mumkin

$$G_i = M(J_m - J_o) / (J_s - J_o),$$

bu yerda:  $m$  – sut miqdori,  $I$ ;  $J_m$ ,  $J_s$ ,  $J_o$  – yog‘lilik miqdori, sut, qaymoq va obrat tarkibida, foiz.



153-chizma. Separator qaymoq ajratgich shakli:  
1—tub; 2—tarelkalar paketi;  
3—tarelka ushlagich;  
4—po‘kakli kameraning kalibrlangan quvurchasi;  
5—gayka; 6—qaymoqni yog‘lilik darajasini sozlash vinti; 7—ustki taqsimlash tarelkasi; 8—rezina halqa.

### Uy sharoitida sutga ishvlov berish

Uy sharoitida sutga ishvlov berib har xil sut mahsulotlarini olish mumkin. Bu texnologik jarayonlarni uyda bajarish uchun kislotlanmaydigan idishlar, katta shisha banka, butilka, emallangan kostryul-

ka, chelak va tog‘ora hamda chilcho‘p, cho‘mich zarur. Sut va sut mahsulotlarini saqlash uchun maishiy Sovutgich va sariyog‘ hamda maska yog‘ni tayyorlash uchun kichik separator-qaymoq ajratgich va kuv (moyjuvoz) kerak. Uy sharoitida deyarli barcha sut mahsulotlarini tayyorlashga erishish mumkin.

**Qatiq** – moyli yoki qaymog‘i olingan suttan tayyorlash mumkin. Pasterizatsiya qilingan yoki qaymog‘i olingan sut +30 °C haroratgacha sovutiladi. So‘ng sutga achitqi (tomizg‘i, oqliq) solib ivitib qo‘yiladi. Idish usti issiq bo‘lishi uchun materialga o‘rab qo‘yiladi. Sutning qatiq bo‘lib ivish davri 6–10 soat davom etadi. Ivigan qatiq muzlatgichda saqlanadi. Sovutish davri ichida (4–6 soat) qatiq zichlashadi. Yaxshi qatiq yoqimli hid va ta’mga ega bo‘lib, zardobi chiqmaydi.

**Ryajenka** (qizdirib ivitilgan qatiq) – ukrainlarning qatig‘i sana-ladi. Ryajenka qaymog‘i olinmagan sutga qaymoq aralashtirib (ayrim hollarda uch qism sutga bir qism qaymoq) tayyorlanadi. Aralashma 2–3 soat mobaynida +95...+99 °C issiqlikda dimlab pishiriladi. Aralashmani uzoq vaqt issiqlikda ushslash natijasida undagi bir qism suv bug‘lanib chiqib ketadi, natijada ryajenkaning boshqa qatiqlarga nisbatan to‘yimliligi yuqori bo‘ladi. Keyin sut va qaymoq aralashmasini +40...+43 °C haroratgacha sovutilib, unga oddiy qatiq tayyorlashda ishlatiladigan tomizg‘i (11 ga 30–40 g) aralashtiriladi va issiq material bilan o‘rab dimlab qo‘yiladi. Ryajenkani shirin qilib tayyorlash mumkin. Buning uchun ta’bga qarab shakar zardobi qo‘shiladi. Ryajenka 4–8 foiz yog‘liqga ega bo‘lib, issiq sut ta’mini beradi.

**Tvorog** – moyli yoki qaymog‘i olingan suttan tayyorlanishi mumkin. Yaxshi tvorog olish uchun sut pasterizatsiya qilinadi. Sut suvli idish ichida +75...+85 °C haroratgacha qizdiriladi va keyin +35...+37 °C haroratgacha sovutilib, unga tomizg‘i aralashtiriladi. Tomizg‘i sifatida tayyorlanayotgan mahsulotning 5 foiz miqdorida qatiqdan foydalanish mumkin. Mahsulot qoshiq bilan yaxshilab aralashtirilib, o‘ralib, issiq joyda tinch holda quyulib qolguncha saqlanadi. Ajraladigan zardobi tiniq yashil rangda bo‘ladi. Tvorog tayyorlashda mahsulotni tobiga yetkazmasdan yoki vaqtidan o‘tkazib yuborish mumkin emas.

Quyuq tayyor mahsulotning yuzasidan qisman zardobi olib tashlanadi. Mahsulotning qolgan qismi dokali suzg‘ichdan zardobi

chiqib ketguncha suzib olinadi. Tayyor tvorog +4...+6 °C haroratda 10 kun mobaynida saqlanishi mumkin.

**Uy pishlog'i** – yangi tvorogdan tayyorlanadi. 1 kg tvorogga 1 osh qoshiq maydalangan osh tuzi solinib, 2 marta go'sht maydalagichdan o'tkaziladi va quruq xonada ustiga doka yopilgan holda besh kun davomida saqlanadi. Belgilangan vaqt o'tgandan keyin sarg'aya boshlagan tvorog yana aralashtiriladi va sariyog' bilan moylab qo'yilgan kostryulkaga solib past olovda bir xil suyuq massa hosil bo'lunga qadar aralashtirib ushlab turiladi. Hosil bo'lgan massa shaklli qoliplarga quyiladi. Massa sovub qotganidan so'ng pishloq iste'molga tayyor sanaladi.

**Qaymoq** – sutni tindirish yoki separatorordan o'tkazish yordamida olinadi.

Tindirish usulida qaymoq olinganda sut idishga quyilib 18–20 soat mobaynida salqin joyda saqlanadi. Hosil bo'lgan qaymoq mahsulot sirtidan sizib olinib boshqa idishga solinadi.

Qaymoq olishning samarali usuli, bu qaymoq olish separatoridan sutni o'tkazish sanaladi (154-chizma). Bu separatorlar qo'lda yoki elektryuritgich yordamida harakatga keltiriladi.

Qaymoq yangi holatida iste'-

#### 154-chizma. Qaymoq olish separatori:

1—sut qabul qilgich qaytargichi; 2—sut qabul qilgich; 3—tinqinli kran; 4—qalqi;

5—qabul qilish uzatish qurilmasi;

6—gayka; 7—baraban qopqog'i;

8—baraban; 9—shtift; 10—korpus;

11—elektr uzatma korpusi;

12—elektryuritgich; 13—ikki tomonlama qo'shib-ajratgich;


14—rezina vtulka; 15—rezina amortizator; 16—sozlash vinti;

17—korpus asosi; 18—elektryuritgichning pastki rezina tayanchi;

19—elektryuritgichning yuqori rezina tayanchi; 20—rezinali zichlash halqasi;

21—oraliq qaymoq ajratgich tarelkalar paketi; 22—tarelka ushlagich;

23—tarelka qopqog'i; 24—qaymoq qabul qilgich; 25—sozlash vinti.




mol qilinadi. Shu bilan birga qaymoqdan smetana, sariyog‘, muzqaymoq, krem va boshqa mahsulotlar ham tayyorlanadi.

**Smetana** – pasterizatsiya qilingan qaymoqni sut kislotsasi bakteriyasi yoki tomizg‘i bilan achitib, oxirigacha yetkazilmagan sut kislotali mahsulotdir.


Smetana tayyorlash uchun yangi qaymoq +75...85 °C haroratda suvli idishda pasterizatsiya qilinadi. Pasterizatsiya qilingan qaymoq +18...+22 °C haroratgacha sovutilib, 1 litriga 2–3 osh qoshiq tomizg‘i (tomizg‘i sifatida sanoat usulida tayyorlangan smetana dan foydalanish mumkin) aralashtiriladi. Aralashma +18 °C dan past bo‘limgan haroratda 6–8 soat mobaynida saqlanadi. Tayyor bo‘lgan mahsulot – smetanani – 0+4 °C haroratda sovutgichda saqlanadi.

**Sariyog‘** – yangi olingan qaymog‘dan tayyorlanadi. Qaymoq suvli idishda +75...+85 °C haroratda pasterizatsiya qilinib, +6...+8 °C haroratgacha sovutiladi va 8–10 soat mobaynida tindirib qo‘yiladi. Tindirilgan qaymoq yana +10...+14 °C gacha isi-

tiladi va quvlab sariyog‘ olinadi. Qaymoqni kuylab, sariyog‘ tayyorlashda turli xil konstruksiylar mavjud. Uy sharoitida qaymoqni kuylash uchun qo‘lda (155-chizma) yoki elektryuritgichda (156-chizma) harakatga keltiriladigan moyjuvozlardan foydalanish mumkin.



155-chizma. Qo‘lda sariyog‘ tayyorlaydigan kuylash moslamasi va jihozlari:  
1—dasta; 2—kurakcha;  
3—pichoq; 4—yog‘ga shakl berish qolipi.



156-chizma. Elektryuritgich bilan ishlaydigan sariyog‘ tayyorlash kuvi:  
1—rezervuar; 2—qopqoq kurakchalar bilan;  
3—elektr uzatma; 4—elektr vilkasi.

Ish jarayonida moyjuvozga qaymoq 2/3 yoki ko‘pi bilan 3/4 qismigacha to‘ldiriladi. Qaymoq yoki smetananing moyliligi, kislotaligi va haroratiga qarab moyjuvozda sariyog‘ olish 30–75 min davom etadi. Jarayonni yakunlanishi elektryuritgichni moyjuvozda chiqadigan zarbali tovushlarni kamayishi bilan ifodalanadi. Mahsulotdan qolgan zardob (moyliligi 2,5 %) qoldiq yog‘larini sizib olish uchun boshqa idishga quyiladi. Tayyor mahsulot +10...+14 °C toza suvda yuvilib, qolipga solinib shakllan-tiriladi va pergament qog‘ozga o‘rab qo‘yiladi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Uzoq pasterizatsiya vannasi qanday xo‘jaliklarda qo‘llaniladi?
2. Separatorlar vazifasi, turlari, tuzilishini aytib bering.
3. Uy sharoitida sutga qanday ishlov beriladi?
4. Qatiq tayyorlashni tushuntiring.
5. Tvorog qanday tayyorlanadi?
6. Uy pishlog‘i tayyorlash uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
7. Qaymoq olish texnologiyasini bayon eting.
8. Smetana qanday tayyorlanadi?

## **7-BO‘LIM**

### **MEXANIZATSIYALASHTIRILGAN HOLDA QO‘Y JUNINI QIRQISH**

#### **7.1. MASHINA BILAN QO‘Y JUNINI QIRQISHNING AHAMIYATI**

Qo‘ychilikdagi eng sermehnat faoliyatlardan biri bu qo‘y junnini qirqish sanaladi. Uy hayvonlaridan tuya, echki va boshqalarning juni ham qirqiladi.

Mayin va yarim mayin junli katta qo‘ylarning juni yiliga bir marta – bahorda, dag‘al junlilar ikki marta – bahorda va kuzda hamda Romanov naslidagi qo‘ylar uch marta – bahorda, yozda va kuzda qirqiladi. Qo‘ylarning jun mahsuldorligi qo‘ydan olingan jundan chiqadigan toza tola miqdori bilan belgilanadi. O‘rtacha bu ko‘rsatkich olingan, tozalanmagan natural junning 35–45 foizni tashkil etadi.

Yuqori sifatli yupqa gazlamalarni tayyorlash uchun yarim mayin va mayin junlardan foydalaniladi. Bu jun tolalari diametri mayin tolalida –23,1–25 mkm va yarim mayin tolalida 25,1–50 mkm bo‘lib, tola uzunligi 65–80 mm ni tashkil etadi. 20–30 mm uzunlikdagi junlar kigiz mahsulotlari va fetr tayyorlashda ishlataladi. Junning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sanalgan tola mustahkamligi qo‘ylarning to‘laqonli oziqlanishiga bog‘liqidir.

Ko‘p qo‘y boqiladigan xo‘jaliklarda otarlar jinsi va yoshiga qarab shakllantiriladi. Bu xo‘jaliklarda qo‘ylar juni quyidagi tartibda olinadi: dastlab qishda qo‘zilagan sovliqlar, keyin o‘tgan yil tug‘ilgan yosh qo‘ylar, axta qo‘chqorlar, bahorda qo‘zilagan sovliqlar va oxirida nasldor qo‘chqorlar. Mavjud otarlardagi kasallangan (brusell-yoz, qo‘tir) qo‘ylar juni alohida binoda oxirida qirqiladi. Jun olish uchun xo‘jalikda jadval ishlab chiqiladi. Unda jun olish tartibi va muddati ko‘rsatilib barcha cho‘ponlarga yetkaziladi.

Juni qirqiladigan qo‘ylar juni qirqilguncha 10–12 soat mobaynida suv va ozuqa berilmay saqlanadi. Juni olinadigan kecha arafasida qo‘y juniga nam, yomg‘ir suvlari tegmasligi uchun yopiq joyda saqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki nam jun qizib ketib, sifati buziladi. Juni olingan barcha qo‘ylar qo‘tirga qarshi

kreolin va geksoxloran qorishmasi solingan maxsus vannalarda cho'miltiriladi.


Tajribali jun qirquvchi ishchi bir kunda qo'lda 15–20 qo'y, mashinkada 80 tagacha qo'yni junini qirqishi mumkin. Mashinka-da jun past va tekis qirqib olinadi hamda jun chiqishi 5–7 foizga ko'payadi. Qirqim uzunligi ortishi bilan mos ravishda uning sifat ko'rsatkichlari ham ortadi.

Yuqori sifatda jun qirqish uchun jun qirquvchi ishchi quyida-gi zootexnik talablarga javob berishi shart: junni mashinkaning bir yurishida qo'y terisiga yaqin qilib olishi; qirqilgan junni mashin-ka yordamida chetlatishi va hayvonga jarohat yetkazib kesib qo'y-masligi (157-chizma) lozim.

Olingen jun tolasi sifatiga qarab navlarga ajratiladi. Keyin toyrlarga aylantirib, matoga o'ralib, sim bilan bog'lanadi. Barcha



157-chizma. Qo'y junini tez usulda qirqish.



158-chizma. Jun qirqish shoxobchasiдagi qо'y junini qirqish shakli.

ko'rsatilgan jarayonlar qo'zg'almas yoki qo'zg'aluvchi (yaylovlarida) jun qirqish shoxobchalarida bajariladi. Shoxobchalar elektr jun qirqish agregatlari, qo'y junini qirqish stoli, o'tkirlash apparati, junni navlarga ajratish stoli, zichlagich (press), tola uzatish, toy siljitim transportyorlari, toza tola chiqishini aniqlovchi asbobi va tarozilar bilan ta'minlangan bo'ladi.

Mayjud qo'ychilik tizimi va qo'ylar bosh soniga qarab jun qirqish shoxobchalarining quyidagi turlari mavjud:

- maxsus binolarda joylashgan, qo'zg'almas, 24 jun qirqish mashinkasiga mo'ljallangan;
- namunaviy qo'tonlarda joylashgan, qo'zg'almas, 12–24 jun qirqish mashinkasiga mo'ljallangan;
- harakatdagi yoki olib chiqiladigan, 12–24 jun qirqish mashinkasiga mo'ljallangan.

Birinchi turdag'i qirqish shoxobchalari hayvonlarni yaylova haydash yo'llarida quriladi. Shoxobcha bir smenada 1200–1500 bosh qo'lni, umuman belgilangan vaqt davrida 30–35 ming qo'y junini qirqishi mumkin. Qo'ylar junini namunaviy jun qirqish shoxobchalarida qirqish tartibi yuqoridagi chizmada keltirilgan (158-chizma).

Chizmaga muvofiq ravishda jun olish shoxobchasidagi quyidagi texnologik tizimlarni qayd qilish mumkin: qo'ylarni jun qirqishga tayyorlash; qo'ylar junini olish; juni olingan qo'ylarga ishlov berish; junlarni navlashtirish; xom junni qadoqlash.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Qo'y junlari tasnifi va qo'yni jun qirqishga tayyorlash.
2. Qo'y junini qirqish shoxobchasi jihozlari va texnologik tizimlari.

## 7.2. JUN QIRQISH SHOXOBCHALARI VA ULARNING JIHOZLANISHI

Qo'ylar va boshqa chorva hayvonlari junini qirqish uchun 1,6, 12 mashinkalardan iborat elektr jun qirqish agregatlari va 24 mashinkaga mo'ljallangan jun qirqish shoxobchalari texnologik jihozlari mavjud. Bitta qirqish mashinkasi bilan ishlovchi jun qirqish


shoxobchasi 500 dan ko‘p bo‘lмаган qо‘ylarga xizmat ko‘rsata ola-di. Agregat bir soat mobaynida 8 ta qо‘yning junini olishi mum-kin.

Oltita qirqish mashinkasi bo‘lgan elektr jun qirqish agregati 5–10 ming qо‘yli ferma jun qirqish shoxobchasida ishlatiladi.

10–20 ming bosh qо‘yli fermalarda 12 mashinkali jun qirqish agregatidan foydalanimiadi (159-chizma).

20 mingdan ko‘p qо‘yi bor fermalarga 24 mashinkali jun qir-qish shoxobchalari (chiqariladigan) xizmat ko‘rsatadi. Hayvon-larning fiziologik xususiyatiga ko‘ra xo‘jalikda qо‘ylar junini qir-qish jadvalini 10–15 kunga rejalashtirish ma‘qul bo‘ladi. Hayvonlar bosh soni jun qirqish uchun ajratilgan muddatga qarab jun qirqish agregatlari soni aniqlanadi. Jun qirqish shoxobchasi uchun ajratil-gan maydon tekislanadi. Shoxobcha yon-atrofiga hayvonlarga jun qirqliganidan so‘ng veterinar ishlovi berish, sovliqlardan qо‘zilarini ajratish uchun qо‘ralar quriladi.

Jun qirqish shoxobchasingin quyidagi bo‘limlari bo‘ladi: qо‘ylarni yig‘ib turish; qо‘ylarni junini qirqish; junga ishlov berish; junni sinflarga ajratish; yordamchi binolar. Jun qirqish bo‘limida qо‘y junini qirqish stoli, qirqish agregatlari, o‘tkirlash apparatlari va jun transportyorlari o‘rnataladi. Junga ishlov berish bo‘limida torozilar, junni sinflash stoli va zichlagich (press) o‘rnataladi. Jun tashishni yengillashtirish, yong‘in xavfsizligi, saqlashni qulaylash-tirish, ifloslanmasligi va buzilmasligi uchun jun yaxshi zichlanib toylandi. Junni zichlash o‘raladigan material va transport xara-jatlarini ikki marta, qо‘l mehnatini besh marta kamaytirishga im-kon beradi.



**159-chizma. Elektr jun qirqish agregatiga qirqish mashinkalarini ularash shakli:**  
 1—jun qirqish mashinkasi yuqori chastotali elektryuritgichi bilan;  
 2—qо‘shib-ajratgich; 3—tok chastotasini o‘zgartirgich;  
 4—o‘tkirlash agregati.

Jun qirqish shoxobchalari uchun muhim ahamiyatga ega jihozlardan biri charxlash va me'yoriga yetkazish apparatlari sanaladi. Bu apparatlar qirqish elementlarini charxlash va me'yoriga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Bir diskli charxlash apparati cho'yan tayanchga o'rnatilgan elektryuritgichdan iborat. Elektryuritgich valiga qayroq-disk to'sig'i bilan o'rnatilgan. To'siq ustidagi ilmoqli tirkakda o'tkirlanadigan pichoq va taroqni ushlab turuvchi tortqi osilgan.

Me'yoriga yetkazish apparati ham qirqish apparati elementlari – pichoq va taroqni charxlash bilan birga ularda hosil bo'lган qirra joylarni tekislash va me'yoriga yetkazish uchun xizmat qiladi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**


1. Shoxobchada qo'y junini qirqish jarayonlari qanday kechadi?
2. Qo'ylarning junini qirqishga tayyorlashda nimalarga e'tibor bershish kerak?
3. Jun qirqish mashina jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish nimalardan iborat?

### **7.3. JUN QIRQISH AGREGATLARI VA ISHLOV BERISH JIHOZLARI**

Jun qirqish uchun sanoat tarzida turli xil modeldag'i yuqori chastotali elektryuritgich bilan egiluvchan val orqali yoki biriktirilgan holda ishlovchi qirqish apparatlari ishlab chiqarilgan. Egiluvchan val orqali elektryuritgichdan harakat oluvchi qirqish mashin-kasi (160-chizma) korpus, qirqish apparati, elektr uzatgich, siquivchi, ekssentrik va sharnir mexanizmlaridan iborat. Mashina massasi 1,1 kg; qirqish apparatining qamrab olish kengligi 76,8 mm, pichoqning bir minutdagi ikkilangan harakatlari soni 2300.

Qirqish apparati junni qirqish uchun xizmat qiladigan taroq (1) va legirlangan po'latdan tayyorlangan pichoq (2)dan iborat. Taroqning tishi 13 ta, qadami 6,4 mm bo'lib, 3,2 mm qalinlikdag'i plastinadan tayyorlangan. Qo'y terisiga yaxshi kirishi va terini jarohatlamasligi uchun taroq tishlari yupqa, pastki qismi dumaloq shaklda tayyorlangan. Taroqdagi ikki teshik taroqni o'tkirlashda charxlash apparatiga qotirish uchun va ikki tirqishi qirqish mashin-kasi oldingi korpusi (15)ga o'rnatish uchun xizmat qiladi.

**Qirqish apparati pichog‘i** 19,2 mm qadam oralig‘ida to‘rtta tish bilan ta’milangan. Tishlar qaliligi 1,1–2 mm. Pichoq qirqish apparatida taroq ustiga o‘rnatalib oltita teshigi mavjud. Ikkita teshigi (konussimon) siqish panjalarini, ikkitasi pichoqni charxlash apparatiga zarur holda qotirish uchun xizmat qiladi.



160-chizma. MCO-77B jun qirqish apparatining umumiy (*a*), qirqish apparati detallari (*b*), siqish (*d*), ekssentrik (*e*), sharnir (*f*) mexanizmlari va korpusi (*g*) ko‘rinishi:

- 1—taroq; 2—pichoq; 3—siqish panjası; 4—siqish panjası pruijinasi; 5—gayka;
- 6—sterjen tagligi; 7, 27— pruijinalar; 8—tayanch sterjeni; 9—ushlash pruijinasi;
- 10—shtutser; 11—siqish patroni; 12—patron tayanchi; 13—siqish gaykasi;
- 14—saqlash vinti; 15—korpus; 16—tiqin; 17—rolik; 18—ekssentrik; 19—vtulka;
- 20—valik; 21—katta shesternya; 22—tashqi qobiq; 23—sharnir qulfi;
- 24—sharnirning tashqi qobig‘i; 25—kichik shesternya; 26—uzatish valigi;
- 28—sharnirning ichki qobig‘i; 29—richag; 30—taglik; 31—kontrgayka;
- 32—aylanish markazi; 33—vint.

**Siqish mexanizmi** pichoq va taroq oralaridagi minimal tirqishni ta'minlab beradi. Siqish mexanizmi bir tomoni mashinka korpusi (15)ga o'rnatilgan shtutser (19) dan iborat. Shtutserning ikkinchi tomoniga siqish gaykasi (13) o'rnatilgan bo'lib, gayka tayanch (12), siqish patroni (11) va sterjen (8) orqali qirqish mashinkasi richagi (29)ni siqib turadi. Richag (29)ning oldingi qismida ikki barmoqli panja (3) o'rnatilgan. Panja o'z navbatida pichoqni taroqqa siqib turish uchun xizmat qiladi. Siqish gaykasi bo'shab qolgan taqdirda sterjen (8) tushib qolmasligi uchun uning boshiga prujina (7) kiydirilib, vint (33) bilan richakga qotirib qo'yiladi.

**Ekssentrik mexanizm** valik (20)ning aylanma harakatini pichoqni harakatlantiruvchi richag (29)ning tebranma harakatiga aylantirib beradi. Valik (20)ga eksentrik (18) barmog'i bilan burab qo'yilgan. Barmoqqa rolik (17) kiydirilgan. Valik aylanganada richag (29) ning o'yig'ida joylashgan rolik (17) o'yig' oralig'ida harakatlanib, richag (29) dumini o'rtta holatidan o'ngga va chapga harakatga keltiradi. Natijada pichoq ham richag (29) dumida joylashgan siqvuchi panja orqali tebranma harakatga keladi.

**Sharnirli mexanizm** qirqish mashinkasini boshqarishni yengil latib, egiluvchan val uzatayotgan aylantirish momentini mashinaga har qanday holatda yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Mexanizm tashqi va ichki sirt, sharnir qulfi (23), uzatish valigi (26) va ikkita shesternya (25), (21)dan iborat. Shesternya tishlari soni mos ravishda 10, 12 ta. Jun kirib qolmasligi uchun mexanizm himoya to'sig'i bilan jihozlangan.

**Korpus** (15) qirqish mashinkasining barcha mexanizmlarini biriktirib turadi. U alyumin qorishmasidan tayyorlanadi. Korpus ish jarayonida jun qirquvchi ushlab turadigan dasta bo'lib xizmat qiladi. Korpusda uchta teshik bor, ustkisi tiqin (16) bilan yopilib, eksentrik roligini moylash, ikkinchisi saqlash vinti va uchinchi, pastkisi richag (29)ni aylanish markazi (32) ni qotirish uchun xizmat qiladi. Korpus oldingi qismida taroqni qotirish maydonchasi ikki vinti bilan, orqasida vtulka (19) sharnirli mexanizm va moylash teshigi tiqini bilan joylashgan.

**БГ-10 egiluvchan val** aylanishni elektryuritgichdan mashinkaga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Egiluvchan val o'zagi 10 mm qilib, to'rtta bir-biriga qarama qarshi qilib o'ralgan po'lat burama simlardan tayyorlangan. O'zaklarning uchlariga gayka o'rnatilgan.

O'zak sirti profil po'lat tasmalardan quvur shaklida tayyorlangan. O'zak sirti ham elektryuritgich va mashinkaga biriktirish uchlari-ga ega. Val massasi ВГ-10 1,6 kg.


**АОЛ-012-3С elektryuritgich** (uch fazali asinxron) mashinkani egiluvchan val yordamida harakatga keltirish uchun xizmat qiladi. Elektryuritgich quvvati 0,12 kWt, kuchlanishi 220/380 V, tok kuchi 0,59-0,35 A ( $46,6 \text{ s}^{-1}$  da), massasi 3,4 kg.

MCY-200 mashinkasi qo'yalar junini qirqish uchun xizmat qila-di. Mashinka qirqish boshchasi, qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron elektryuritgichi va ta'minlash shnuridan tuzilgan. Qirqish boshcha-si qirqish apparati, siqish, ekssentrik va uzatish mexanizmlaridan tashkil topgan (161-chizma).

Qirqish apparati, ekssentrik va siqish mexanizmlari MCO-77B mashinkasi yig'ma detallari bir xilda tayyorlangan.

Uzatish mexanizmi elektryuritgich rotori val-shesternyasi (24) dan harakatga keluvchi ekssentrik vali (28) va unga o'tqazilgan tishli g'ildirak (13) dan tashkil topgan.

Ekssentrik vali, rolik (29) va ikki yelkali richag (33) bilan elektryuritgichning aylanma harakatini pichoqning bordi-keldi tebran-



**161-chizma. MCY-200 jun qirqish mashinkasi:**

1—chap siqish panjas; 2—o'ng siqish panjas; 3—gayka; 4—tayanch sterjeni tagligi; 5—tayanch sterjeni; 6—shtutser; 7—siqish patroni; 8—siqish gaykasi; 9—patron tayanchi; 10—siqish vinti; 11—aylanish markazi tagligi; 12—gilof; 13—tishli g'ildirak; 14—shtift; 15—podshipnik qalqoni; 16, 27— podshipniklar; 17—stator; 18—elektryuritgich korpusi; 19—ta'minlash shnuri; 20—fiksator; 21—ventilyator; 22—orqa qopqoq; 23, 25—vintlar; 24—rotor val shesternyasi; 26—distansion vtulka; 28—ekssentrik vali; 29—rolik; 30—korpus; 31—maxsus gayka; 32—aylanish markazi; 33—richag; 34—tarot vinti; 35—pichoq; 36—tarot.

ma harakatiga aylantirib beradi. Bu jarayon xuddi MCO-77 mashinasida bo‘lgani kabi kechadi. Val shesternya va to‘g‘ri burchakli g‘ildirakni uzatma nisbati 1:5 ni tashkil etadi.

Mashinkaning uch fazali qisqa tutash rotorli asinxron elektryuritgichi silindrik shakldagi qobirg‘alisovutgichlariga ega alyuminiy korpus ichida joylashgan bo‘lib qirqish boshchasi bilan flanes yordamida birlashadi.

Elektryuritgich rotori valining oxirida shtift yordamida ikki qanotli ventilyator (21) o‘rnataligan. Elektryuritgich orqasiga uchta vint bilan qopqoq qotirilgan.

Elektryuritgich korpusi qirqish boshchasiga uchta vint yordamida flanes orqali biriktirilgan. Elektr ta’minlash shnuri uzunligi 2,5 m (tuyalar junimi qirqish agregatida shnur uzunligi 15 m ni tashkil etadi). MCY-200 jun qirqish mashinkasi MCO-77 ga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: egiluvchan val hosil qiluvchi reaktiv moment yo‘q; elektryuritgich ta’minlanishi past kuchlanishli (36 V); mashinaning jun qirqishda manyovrligini oshishi hisobiga ish unumi yuqori (20-40 foiz).

*68-jadval*

### **Jun qirqish mashinkalarining texnik tavsifi**


Ko‘rsatkichlar	MCO-77Б	MCY-200
Qamrash kengligi, mm	76,8	76,8
Qirqish balandligi, mm	5-8	4-8
Pichoqning bir minutdagi ikkilanma yurishlar soni	2300	2200
Pichoq tishlari soni	4	4
Taroq tishlari soni	13	13
Elektr yuritgich quvvati, kVt	0,12	0,115
Kuchlanish ,V	220/380	36
Chastota, Hz	50	200
Gabaritlari, mm	—	306x82x115
Massa, kg	2,1 Egiluvchan valsiz	2,1 Ta’minlash shnuri bilan

## Junni tivitlash

Echki tiviti ingichka, yumshoq, nisbatan mustahkam va kam is-siqlik o'tkazish xususiyatiga ega. Shu sababli echki tiviti issiq, nafis ko'ylak va ro'mollarni to'qish uchun ishlataladi.

Tivit echkilardan tabiiy ravishda tullash davrida olinadi. Tarash uchun tivit junli, tivit junlilarning duragaylari va ostida tivit juni bo'lgan dag'al junli echkilar tanlanadi. Echkilarni tarash qishning ikkinchi yarmi va bahorning boshlanishida o'tkaziladi. Tarash mud-dati echkilarni tullashiga (xo'jalik iqlim sharoiti, semizligi, yoshi va jinsi) qarab belgilanadi. Tarashni echkining juni ustida tullan-gan junlarni paydo bo'lishi bilan boshlash zarur. Qo'l bilan jun us-tidan silanganda tivit yengillik bilan ajralib chiqadi.

O'z vaqtidan oldin tarash boshlansa, hayvon tanasiga og'riq kiradi. Kechikilgan hollarda esa tivit chiqishini pasayishiga va ti-vitni qoramtrir tuklar bilan ifloslanishiga olib keladi. Echkini tul-lashi asta-sekinlik bilan o'tadi. Avval tivitning eng yupqa momiqlari, so'ng kattaroq diametrilari ajraladi. Shu sababli ko'p tivitli ech-kilar oradan 2–3 hafta o'tkazilib, ikki marta taraladi. Birinchi taralishda yuqori sifatli tivit olinadi. Tarash ishlarini quruq, yorug' va toza binoda olib borish lozim.



162-chizma. Echkilar  
tivitini tarab olish  
taroqlari:

- a—siyrak taroq (xas-cho'p va go'ngni tarashga);  
b—qalin taroq (tivitni tarab olishga).

Tivitlarni tarash kichik kurakcha shaklidagi yog'och dastali maxsus taroqlarda o'tkaziladi (162-chizma). Taroqning ishchi tomoni kengligi 80–85 mm. Siyrak tishli taroqda tishlar oralig'i 10 mm tay-yorlanadi. Qalin taroq oralig'i 5 mm, tishlari soni 14–16 qilib tayyorlanadi. Taroq tishlari diametri 2,5–3 mm, uzunligi 120–150 mm qilib, po'lat simdan tayyorlanadi. Tish uchlari yarim doira shaklida qayrilib, ozgina to'mtoq qilib yasaladi.

Dastlab echki juni siyrak tishli taroqda xas-cho'p va go'ngdan tozalanadi. Bunda uncha ko'p bo'limgan tivit ham ajralib chiqadi. Keyin qalin taroq bilan echki terisiga tegizmasdan tivit taralib olinadi. Siyrak taroq bilan echki bo'yni, ko'kragi,

kuragi, yonboshi va orqasi taraladi. Har bir bo‘lak tarashda pastdan o‘rtaga va keyin yuqoriga qarab taraladi. Qalin taroqda ham shu tartibda taraladi, faqat tarash yuqoridan pastga qarab amalga oshiriladi.


Echkini bir tomoni tarab bo‘linganidan so‘ng ikkinchi yon boshiga ag‘dariladi. Echkini ag‘darishni orqasi bilan amalgam shirish mumkin emas. Tiviti olingen echki yechib, qo‘yib yuboriladi. Echki juni ikkinchi marta tivitga taralganidan so‘ng, kunlar isishi bilan, echki juni qirqiladi.

Echkilar junini qo‘lda tarab olish ancha mehnat talab qiladigan jarayon sanaladi. Shu sababli sanoat tarzida vibratsion tipdagiga tivit taragich kabi maxsus agregatlar ishlab chiqarilgan. Aggregatni qo‘llanilishi tarab olish taroqlari: natijasida qo‘l mehnati sarfi 2–3 martaga kamayib, tivit chiqishi ko‘payib, tivit tolalarini uzilishi kamayadi.

Agregat tok chastotasini o‘zgartirgich (220/380 V kuchlanish 50 Hz tebranishni 36 V kuchlanish va 200 Hz ga o‘zgartirib beradi), elektr ishga yurgazib yuborish apparaturasi va vibratsion mashinkadan tuzilgan (163-rasm).

Tivitlash oldidan, echki shoxidan yonboshi bilan stolga (balandligi poldan 500 mm) bog‘lanadi. Bitta orqa oyog‘i fiksatorga tortib bog‘lanib echki terisi tarashga qulay holga keltiriladi. Ikki oldingi va bir orqa oyog‘i birga bog‘lanib qo‘yiladi.

Tivit echkini boshidan dumiga qarab tarab olinadi. Tarash yo‘li imkonli boricha uzunroq qilinadi. Agar jun qatlami chigallashgan bo‘lsa, junni dastlab ustki qatlami so‘ng ostki qatlami taraladi. Taroqda tivit to‘planishi bilan mashinka to‘xtatilmasdandan qo‘l bilan yig‘ib olinib, maxsus tayyorlangan idishga solinadi. Bir yonboshiga ishlov berilgandan so‘ng, ikkinchi yonboshiga ag‘darib, orqa oyog‘i qayta bog‘lanadi. Mashinkadan so‘ng qolgan tivit qo‘lda toza taroq bilan tarab olinadi. Taralgan tivit sinflash stolida sinflarga ajratiladi va nomi, rangi, holati va tozaligi bo‘yicha idishlarga solib qo‘yiladi.



**163-chizma. Tivit tarash vibratsion mashinkasi:**

1, 2-taroqlar; 3-polzun; 4-korpus; 5-val; 6-barmoq, 7-rolik; 8-shaklli vtulka; 9 va 11-silindrik shesternyalar; 10-elektryuritgich; 12 va 13-konussimon shesternyalar; 14-qopqoq; 15-yo'naltirgich; 16-qotirish vinti; 17-sozlash qistirmasi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. MCO-77B jun qirqish apparati vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi to‘gisida nimalarni bilasiz?

2. MCO-77B jun qirqish apparati qismlarining vazifasi, tuzilishi va sozlanishini aytib bering.
3. MCY-200 jun qirqish apparati vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va sozlanishi.
4. MCO-77B va MCY-200 jun qirqish apparatlari konstruktiv farqlari nimalardan iborat?
5. Junni tivitlash jarayoni va tivit taragichning ishlashini tushuntiring.

#### **7.4. MAXSUS QURILMALARDA QO‘Y VA ECHKILARNI CHO‘MILTIRISH**

Qo‘y va echkilar teri kasalliklari hamda parazitlariga qarshi kurashish maqsadida zaharli kimyoviy moddalar eritmasida cho‘miltiriladi. Buning uchun qo‘y, echkilar maxsus eritmaga cho‘ktiriladi, maxsus kameralarda purkaydigan, tizillatib otdigan va changlatadigan qurilmalarda ishlov beriladi. Zaharli kimyoviy moddalardan margimush birikmalari, kreozol, oltingugurt ohagi, fosfororganik insektitsid va boshqa moddalar foydalaniladi. Har bir insektitsidning o‘ziga xos ishlov berish usuli mavjud. Sirtidan sochish usuli bilan ishlov berilganda, kimyoviy modda hayvon terisiga o‘tadi. Bularga xloroorganik insektitsidlarning eritmalari kiradi. Cho‘ktirib cho‘miltirishda margimush birikmalari hayvon junini kimyoviy modda bilan to‘la to‘yingan holida samara beradi.

Qo‘ylarni profilaktika qilishda turli vanna va qurilmalardan foydalaniladi, (OKB, КУП-1, MKY-1 va boshqa). Vannalar qo‘ylarga cho‘miltirib ishlov beruvchi jihozlar ichida zootexnik talablarga to‘la javob beradi (164-chizma).

Vannalar katakli, suzib o‘tuvchi va botirib oladigan bo‘ladi. Katakli vannalar 15–30 ta qo‘y sig‘adigan panjarali katakdan iborat bo‘ladi.


Qo‘rada cho‘milmagan qo‘ylar katak ichiga haydab kiritilib, katak eritmaga tushiriladi, ma’lum bir vaqt suvda ushlangandan so‘ng katak yana ko‘tarilib, qo‘ylar chiqarib yuboriladi. Suzib o‘tuvchi vannalar eng ko‘p tarqalgan. Bu vannaning tor suvli o‘tish yo‘lagidan hayvon suzib o‘tish davrida uning terisi zarur miqdorda insektitsid bilan to‘yinadi.

Hayvonlarni vannaga uzatish va tashlash usullari	Botirish usuli	Qurilma chizmasi
<b>Tashlash qurilmalari</b>		
Transportyor yordamida	qo‘lda	
Elastik materialni qo‘zg‘aluvchi devorga ko‘tarib (yugiruvchi to‘lqin)	qo‘lda	
Pol seksiyasini burash bilan	qo‘lda	
Konveyer halqali platformada	qo‘lda	
Platformani qiyalatish bilan	qo‘lda	
Qo‘zg‘almas devordan polni qochirish bilan	qo‘lda	
Shtirli turtgich ko‘prik bilan	Guruhan cho‘ktirgich bilan	
<b>Cho‘ktirish qurilmalari</b>		
Shtirli suruvchi ko‘prik bilan qafas-kamera	qafas-kamera to‘ri bilan	
Qo‘ylarni basseynga haydab keyin emulsiya bilan to‘ldirish	qo‘lda	

#### 164-chizma. Qo‘ylarni cho‘miltirish vannalari tasnifi.

Botirib olish vannalarida hayvonlar vannada suzmaydi, balki majburan eritmali suvga botirib olinadi. OKV-5 tipidagi cho‘miltirish qurilmasi qo‘ylarni profilaktik va davolash uchun cho‘miltirishga xizmat qiladi. Vanna qurilish konstruksiyasi, suruvchi aravacha, botirib olgich (6), aralashtirgich (5), bug‘ qozoni (4), isitish tizimi (3) va nasos stansiyasi (7) dan tashkil topgan (165-chizma).

Qurilish konstruksiyasi  $20 \text{ m}^3$  hajmdagi ikki tomonidan qiya chiqiladigan (qiyalik  $20^\circ\text{C}$ ) vanna, beton pol va tindirgichlari bilan ta’minlangan ikki tindirish maydoni; metall darvoza va to‘silalar; beton pol, rels yo‘lli ikki tomonga ochiladigan temir darvozali, kengligi 5 m, uzunligi 21 m va ikkita 1,1 m balandlikda beton devor bilan o‘ralgan ishchi qo‘toni; ikki kirish eshigi, ikki tabaqali darvozasi, texnik jihozlar maydonchasi bo‘lgan uzunligi 16 m, kengligi kirish eshiklarida 15 m, chiqishda 5 m, balandligi 1,1 m bo‘lgan yig‘ish maydonidan tashkil topgan. Relсли yo‘lga suruvchi aravacha (1) o‘rnatalib, vannaning texnologik jihozlar tomonida botirib olgich (6) montaj qilingan. Barcha qurilmalar elektr tizimi yoki avtonom elektr stansiyasidan harakatga keladi.



*165-chizma. OKB-5 cho'miltirish qurilmasi:*  
*I*—tindirish maydoni; *II*—ishchi qo'ton; *III*—yig'ish qo'toni;  
*1*—suruvchi aravacha; *2*—vanna; *3*—isitish tizimi; *4*—qozon;  
*5*—aralashshtirgich; *6*—botirib olgich; *7*—nasos stansiyasi.

Qo'ylar ishchi qo'toniga o'tgach, survuchchi aravacha oldingi ramasiga sharnir o'rnatilgan barmoqlari bilan qo'ylarni surib vannaga tushiradi. Barmoqlar aravacha orqaga harakatlanganda qo'ylar ustidan sirpanib, yuqoriga ko'tariladi. Oldinga harakatlanganda pastga tushib, 20–35 bosh qo'yni ajratib olib, ularni vannaga suradi. Aravachaning oldinga va orqaga ikkitadan harakat tezligi bor. Arava g'ildiraklari elektryuryigitgichdan silindrik reduktor, uzatmalar qutisi va zanjirli uzatma orqali harakat oladi. Yuritgichga elektr quvvati sirpanib yuruvchi kabel orqali uzatiladi. Aravachani oldinga, orqaga harakatini knopkali yo'nalish o'zgartiruvchi asbob va reversiv magnit ishga tushirgich yordamida amalga oshiriladi.

Botirib olgich (6) qo'ylarni boshi bilan ishchi emulsiyaga botirib zarur vaqtgacha vanna ichida ushlab turadi. Botirib olgich ikki yon va bir markaziy tortqi bilan ramaga sharnirli biriktirilgan, ostida taxta to'shama yasalgan platformadan iborat. Rama poydevor tayanchlarga anker boltlari bilan qattiq mustahkamlangan. Platforma yon torqlari rama va ikkita gidrosilindr bilan biriktirilgan. Silindrlar va tortqlilar yordamida platforma vannadagi emulsiya yuzasiga parallel holda 1,2 m balandlikda yuqoriga

va pastga ko‘tarilib tushadi. Platformani tushish tezligi 0,1 m/s, ko‘tarilishi 0,2 m/s ni tashkil etadi.

Botirib olgichning elektr gidrouzatmasi 2,2 kVt quvvatga ega bo‘lgan elektryuritgich, gidronasos, zolotnikli taqsimlagich, moy idishi, quvurlar va ikki gidrosilindr dan iborat.

Favquloddagi holatlarda (elektr energiyasi o‘chganda, gidrotizim buzilganda) platformani ko‘tarish uchun ko‘ndalang tortqi va ballast qutisidan iborat posangi yordam beradi. Posangi platformani aylanish o‘qi atrofida baravarlashtirib turadi. Zarur holatlarda gidrotizimning zolotnikli taqsimlagichi tortqisi neytral holatlarga keltirilib platforma qo‘lda ko‘tariladi. Gidrotizim ham ishlamay qolganda avariya ventili orqali bosimi tushiriladi.

Kreolin-geksoxloran konsentratini aralashtirgich (5) da +60°...+70 °C haroratga va vannadagi suvni isitish uchun suyuq yonilg‘ida ishlovchi bug‘ qozoni xizmat qiladi. Bug‘ qozoniga yonilg‘i bakdan 0,6 kVt quvvatli elektryuritgich yonilg‘i nasosi, quvurlar, filtr va ikkita forsunka orqali purkab yetkazib beriladi.

Kreolin-geksoxloran konsentrati 580 dm<sup>3</sup> hajmdagi konussimon bakli aralashtirgich (5)da tayyorlanadi. Bak ichida 0,6 kVt elektryuritgichdan chervyak reduktori, kubsimon juftlik va ponasimon uzatmadan harakatga keluvchi aralashtirgich joylashgan. Bak ichidagi burama quvurdan kreolin-geksoxloran konsentrati tayyorlash vaqtida bug‘ qozonidan bug‘ ventil orqali vannaga quyiladi.

Bug‘ qozoni, vanna, ishchi qo‘toni, tindirish maydonchasini yuvish va suv bilan ta’minalash uchun nasos stansiyasi (markazdan qochma nasos (24 m<sup>3</sup>/soat) va elektryuritgich (5.5 kVt) uzatmasi bilan) xizmat qiladi.

Bug‘ qozondan aralashtirgichning burama quvuri orqali kreolin-geksoxloran tayyorlashga va vannaning barboteriga uzatiladi.

OKV cho‘miltirish vannasi umumiy quvvati 11,9 kVt bo‘lgan beshta elektryuritgichga ega. Markaziy elektr quvvati tarmog‘idan ishlanganda, vannada aravacha operatori va botirib oluvchi qurilma operatori ishlaydi. Agar elektr quvvati avtonom elektr stansiyasidan olinsa, unda stansiyaga alohida xizmat ko‘rsatuvchi yana bir ishchi zarur bo‘ladi.

Texnologik jarayon OKB da quyidagicha bo‘ladi. Operator nasosni qo‘sib suv bilan bug‘ qozonini so‘ngra vannani to‘ldiradi. Bu vaqt ichida suruvchi aravacha operatori isitish tizimi baki-

ni yonilg'i bilan to'ldirib, qozonni yoqadi va isitish tizimini ishga tushiradi.

Xo'jalik vettexnigi rahbarligida aralashtirgichda kreolin-geksokloran konsentrati tayyorlanadi va vanna barbotyoriga bug' yuborilib, eritma +20...+25 °C haroratgacha isitiladi. Aravacha va botirib olgich qurilmasi operatorlari agregatlarga navbatil bilan texnik xizmat ko'rsatadilar. Tayyor konsentrat aralashtirgichdan vannaga quyilib yaxshilab barbotyor yordamida aralashtiriladi. Cho'pon qo'yлarni ishchi qo'tonlariga haydab kiritadi. Siqish aravachasi vanna oldida bo'ladi.

Operator aravachani orqaga surib borib 20–35 qo'yni vanna tomon siqib boradi. Ishchi qo'toni oxirida vannani qo'y larga ko'rsatmay to'sib turuvchi himoya etaklari osilgan bo'ladi. Siqilgan qo'ylar etak orqasidagi vannaga tushadi. Operator yangi qo'y guruhini haydab kelish uchun orqaga qaytadi. Jarayon takrorlanadi.

Bu vaqtda botirgich operatori platformani pastga tushirib, qo'ylarni boshi bilan 1-2 sekund mobaynida emulsiyaga cho'ktiradi. Keyin platformani ko'tarib, belgilangan vaqt mobaynida qo'ylarni eritmada ushlab turadi va eshiklarni ochib chiqarib yuboradi. Qo'ylar pandus orqali tindirish maydoniga chiqadilar. Qo'y junlari bilan chiqqan emulsiya qoldiqlari yana qaytib vannaga oqib tushadi. Operator eshikni yopib yangi partiya qo'y vannaga tushirilgandan so'ng ularni emulsiyaga cho'ktirish davom etadi. Ish vaqt oxirida barcha xizmat ko'rsatuvchilar jihozlarni yuvib tozalaydi. Qurilmaning ish unumi 1400 bosh/soat; elektryuritgichlar quvvati jami 10,6 kVt, massasi (qozonsiz) 4900 kg.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Qo'ylarni cho'miltirishda qo'llaniladigan eritmalar tarkibi.
2. OKB qurilmasi vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni.
3. Cho'miltirish eritmasini tayyorlash tartibi qanday?

## 7.5. JUN QIRQISH SHOXOBCHASIDA ISHNI TASHKIL QILISH

Shoxobcha xizmatchilari shtatiga yordamchi ishchilar, avtomobil haydovchisi, oshpaz, yukchilar, kir jun ajratib oluvchi

*69-jadval*  
**KTO-24 jun qirqish  
shoxobchasida ishlovchi  
xizmatchilar tarkib**

T/r	Xizmatchilar	Soni
1.	Agregat boshlig‘i	1
2.	Sozlovchi	2
3.	Qo‘y uzatuvchi	6
4.	Jun qirquvchi	24
5.	Jun tashuvchi	1
6.	Tarozibon	1
7.	Tarozibon-navlovchi	1
8.	O‘tkirlovchilar	2
9.	Katta sinflovi	1
10.	Sinflovi yordamchisi	
11.	Zichlovchi	1
12.	Qorovul	1
13.	Elektr stansiya motorchisi	1

qo‘ymasliklari lozim. Uzatuvchilar o‘z vaqtida qo‘ylarni qirqishga yetkazib berishlari va ish yakunida shoxobchani tozalab qo‘yishlari zarur. Jun tashuvchi qirqilgan junni tarozibonga yetkazib berishi va jun qirquvchilarning ish joyini tozaligini saqlashi kerak.

Junni to‘g‘ri sinflash, tolalarни begona aralashmalardan tozalash va ularni o‘rab qo‘yish jun sinflagich vazifasi sanaladi. Tarozibon hisobchi junni tortib, jun qirquvchilarning ishlarini, yonilg‘imoylash materiallari sarfini hisobga olib yuradi. Zichlagich junni standart o‘lchovlarda boylab qo‘yish uchun xizmat qiladi.

Jun qirqish shoxobchasingning ish unumi unda xizmat qiluvchilarning o‘z xizmat vazifalarini aniq bilishi va bajarishlariga bog‘liq. Foydalanishdan oldin yangi qirqish apparatining pichoq va taroqlari solidoli kerosinda yuvib tozalanadi, ishchi yuzalarning tekisligi tekshiriladi. Zarur bo‘lsa o‘tkirlanib sozlanadi. Mashinkada richag sozligi tekshiriladi. Egiluvchan val va mashinkani bir-biriga ishqalanadigan qismlari moylanadi.

Mashinka kundalik texnik qarovda kirdan tozalanadi, o‘tmas

bo‘lgan qirqish juftliklari almashtiriladi, detallar, egiluvchan valning yaxshi qotirilganligi, mustahkamligi tekshiriladi. Sharnir mexanizmi, siqish patroni, tayanch sterjenining siquvchi boshi, egiluvchan val asosi uchi solidol, qirqish qismlari, eksentrik roligi, uzatuvchi valik, tayanch sterjenining pastki tagligi va aylanish markazi avtol bilan moylanadi. Juni ifloslangan qo‘ylar bilan ishslashda mashinkaning junga tegib turadigan qismlari tez kirla-

*70-jadval*

### **Elektr jun qirqish mashinkalarida uchraydigan nuqsonlar va ularni yo‘qotish usullari**

Nuqsonlari	Sababi	Yo‘qotish usullari
Mashinka juda qizib ketadi	Qirquvchi taroqni qattiq bosib ishlagan. Ishqalanuvchi detallar moylanmagan, orasiga qum tushgan, richag noto‘g‘ri sozlangan	Me‘yorida bosib ishlanadi. Mashinka qismlarga ajratiladi, yuviladi, yig‘iladi va moylanadi. Richag holati sozlanadi
Mashinka taqillab ishlaydi	Richag noto‘gri sozlangan. Rolik, eksentrik barmog‘i yoki richag quyrug‘i yeyilgan	Richag holati rostlanadi. Yeyilgan detallar yangisiga almashtiriladi
Mashinka junni yomon qirqadi	Taroq bo‘s shosilgan. Pichoq va taroq o‘tmaslashgan. Taroq notug‘ri o‘rnatalgan. Tarmoqda kuchlanish pasaygan. Pichoq taroqqa bir tekis tegib turmaydi, aylanish markazining yoki tirak sterjenning kallaklari yeyilgan	Siqish gaykasi tortiladi. Pichoq va taroq charxlanadi. Taroq to‘gri o‘rnataladi. Me‘yoriy kuchlanish ta‘minlanadi. Tirak sterjen yoki aylanish markazi almashtiriladi
Elektryuritgich me‘yorda, egiluvchan val aylanmaydi	Uchlikning stoporlash vinti bo‘shagan. Val buralib qolgan. Val uchligining gaykalari bo‘shashgan	Vint yangilanadi yoki oxirigacha burab, kiritiladi. Val qobig‘idan chiqarilib, yangisiga almashtiriladi. Gayka burab qotiriladi
Elektryuritgich ulanganda guvillaydi, sekin aylanadi	Faza uzelgan. Ishga tushrigich buzilgan	Elektryuritgichning to‘g‘ri ulanganligi va tarmoqning benuqsonligi tekshiriladi
Podshipniklar juda qizib ketadi	Moylanmagan. Podshipniklar yeyilgan	Podshipniklar yuvib, moylanadi, zarur bo‘lsa, almashtiriladi

nadi. Shuning uchun mashinkani 1–1,5 soat ishlatilgandan so‘ng yuvib, moylab turish tavsiya etiladi. Mashinkaga davriy (40–50 soat ishlagandan so‘ng) xizmat ko‘rsatishda detallarni kerosinda yuvib, tekshirib, moylab yig‘iladi.

Qirqish mavsumi yakunida elektr jun qirqish shoxobchasi barcha jihozlari konservatsiya qilinadi. Buning uchun agregatni qismlarga ajratib tozalab, kerosinda yuvib, ishchi sirtlari moylanib, yig‘ib moy qog‘ozga o‘rab qo‘yiladi. Agregat komplektlari taxta qutiga taxlanib, quruq havo harorati +3 °C bo‘lgan binoga saqlashga qo‘yiladi. Saqlash davrida vaqt-i vaqt bilan tekshirilib turiladi.

**Mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlari.** Jun qirquvchilar va shoxobchadagi xizmat ko‘rsatadigan ishchi-xizmatchilar mavsum boshlanmasdan avval, texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiriladi. Jun qirquvchilar quruq taxta yoki rezina gilamlar ustida turishlari kerak. Elektr stansiyasi, metall rubilnik himoya to‘sqliari va taqsimlash taxtasi yerga po‘lat sim bilan biriktirilgan bo‘lishlari zarur. Elektr stansiyasi qirqish binosidan kamida 15 m masofada joylashgan bo‘lishi kerak. Elektr tarmog‘i simlari 3 m balandlikdagi ustunlarga o‘rnatiladi.

Elektr stansiyasi generatorini bosh rubilnik qo‘shilib turgan holatda yurgazish, qirqish mashinkasi yerda turganda, egiluvchan val buralib qolganda elektryuritgichini qo‘shish, agregatni yurib turgan holatida taqsimlash taxtasida saqlagichlarni almashtirish, yonilg‘i bakini to‘latish, elektr stansiyasini kichik ta’mirlash, tayanchsiz qirqish mashinkasi detallarini o‘tkirlash, gidrotizimda moy bo‘limgan holda elektryuritgichni qo‘shish qat’iyan man etiladi.

Yong‘in xavfsizligi nuqtayi nazaridan elektr tarmog‘i simlari yong‘in xavfsizligi masofasiga joylashtirilishi lozim. Tok kuchi 15 A dan yuqoriga mo‘ljallangan eruvchi saqlagichlardan foydalanish mumkin emas. Generator va elektryuritgichlarni nam tegishidan saqlash lozim. Qirqish shoxobchasida katta hajmdagi junni yig‘ilib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Maxsus jihozlar (yong‘in o‘chirgich, qumli quti, ilmoq va belkurak) bilan ta‘minlangan yong‘in xavfsizligi posti tashkil etilgan bo‘lishi shart. Zarur dori-darmonlar to‘plami bilan aptechkaning shoxobchada bo‘lishi shart. Tamaki chekish uchun maxsus joy ajratiladi.

Shoxobchaning barcha xizmatchilari kombinezon yoki xalatlar va oyoq kiyimi bilan ta‘minlanadilar. Brutsellyoz bilan kasal-

langan qo‘y junlarini qirqishda xizmatchilarga qo‘sishimcha pay-poq, maxsus ko‘zoynik va respirator, xalat o‘rniga kombinezon beriladi. Kasallikni tarqalishini oldini olish maqsadida maxsus kiymilar shoxobchadan tashqariga chiqarilmaydi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**


1. KTO-24 jun qirqish shoxobchasidagi ishlovchilar tarkibi va ularning vazifalarini tushuntiring.
2. Yangi jun qirqish apparati ishga qanday tayyorlanadi?
3. Jun qirqish mashinkasiga kundalik, davriy va mavsumiy texnik xizmat ko‘rsatish qanday o‘tkaziladi?
4. Jun qirqish apparatlarida uchraydigan nuqsonlar va ularni bartaraf qilish yo‘llarini so‘zlab bering.

### **7.6. QORAKO‘L QO‘ZILARINI SO‘YISH VA TERISIGA ISHLOV BERISH ISHLARINI MEXANIZATSİYALASH**

Qorako‘l qo‘ylarini so‘yish va terisiga ishlov berish УЗКЯ-2500 qurilmasi yordamida amalga oshiriladi (166-chizma).

Qo‘zilarni qabul qilish, to‘plash va mexanizatsiyalashgan holda so‘yishga uzatuvchi transportyor (1) tarkibiga uzatuvchi trasportyor, yon to‘silalar va uzatma kiradi. Plankali uzatuvchi transportyor 0,1 m/s tezlikga ega. Bundan katta tezlikda qo‘zilar jarohatlanishi mumkin. Ish jarayonida bir kunda transportyor (1) 80–90 martagacha qo‘shib ajratiladi. Transportyordan so‘yilgan va kallasi bilan pastga osilgan qo‘zilar qonsizlantiruvchi konveyer (2) ga uzatiladi va unda 5 min davomida harakatlanadi. Osib qo‘yilgan qo‘zilar oralig‘i 750 mm ni tashkil etadi. Shu sababli ham sochilgan qon terini ifloslamaydi. Qonsizlantiruvchi konveyer zanjirli transportyor, rama va ilmoqli vtulka-rolikli zanjirdan tuzilgan. Konveyer tirgagiga boltlar bilan qon oqib ketuvchi tarnov qotirilgan. Tarnov kompressor tomon qiyalikda yasalgan.

Qonsizlantirilgan qo‘zilar avtomatik tarzda stol (8) ustiga tashlanadi. Stolda qo‘zi terisi ostiga 20 kPa bosim ostida havo yuboriladi. Havo kompressordan shlanga orqali uzatiladi. Keyin teriga standart qirqimlar qilinib, qo‘zining boshi, oldi va orqa oyoqlari, bo‘yni hamda dum terisi shilib olinadi. So‘ng qo‘zi kichik konveyer (4)ga osilib, qolgan terisi shilinadi va shirdoni olib tashlanadi.



**166-chizma. УЗКЯ-2500  
mexanizatsiyalashgan  
qurilma:**

1—transportyor; 2—qonsizlantiruvchi konveyer; 3—qonni oqizib yuborish tarkovi; 4—terini shilish konveyeri; 5—so‘rg‘ichli transportyor; 6—resiver; 7—kompressor; 8—terini bichish stoli; 9—harakatga keltirish stansiyasi.

Ajratilgan qo‘zi tanasi avtomatik tarzda tasmali transportyor orqali harakatli transport vositalariga yuklanadi. Qo‘zi tanalari yordamchi sexga yuboriladi. Shirdonni ayrim idishga solib, yig‘ilganidan so‘ng shirdon bo‘limiga yuboriladi.


УЗКЯ-1500 qurilmasining ish unumi bir soatda 240 ta qo‘ziga ishlov berishni tashkil etadi. Iste’mol quvvati 5 kVt. Qurilmaga 8 ta ishchi xizmat ko‘rsatadi

Shilingan terilar yog‘sizlantiruvchi bo‘limiga kelib tushadi. Bu yerda teridan yog‘ va go‘sht qoldiqlari tozalab olinadi. Tozalangan terilar tasmali transportyorga taxlanadi, harakati davrida terilar soviydi. Keyin terilar qo‘lda tuzlanadi va 80–100 dan qilib, taxlab qo‘yiladi. Shu tarzda terilar 6–8 kun saqlanadi. Saqlash binosida havoning nisbiy namligi 60–70 foiz, harorati +20...+26 °C bo‘lishi lozim. Qisqa muddat saqlangan terilar diametri 1,5 m bo‘lgan barabanli quritish agregatiga uzatiladi. Agregat ichida simli kassetalar o‘rnatilgan bo‘lib, unga tuzlangan teri qo‘yiladi. Terilar aggregat ichida havo yordamida 2 soat mobaynida quritiladi. Quritgich aggregatining ish unumi bir kunda 700–750 dona terini tashkil etadi.

Terini tozalash ishlarini mexanizatsiyalashtirilgan holda olib borish uchun ШЧС-2 stanogidan foydalaniladi. Stanok korpus (1), himoya to‘sиг‘и (2), barabanlar, qisib turuvchi qurilma, barabanlar uzatmasi va ventilyatoridan tuzilgan (167-chizma). Ustki baraban

### **167-chizma. ІІЧС-2 qorako'l terilarini tozalash stanogi:**

1—korpus; 2—himoya to'sig'i;  
3—uyg'unlashgan baraban;  
4—qo'shimcha tekislik;  
5—suriladigan taglik;  
6—ventilyatorni boshqarish tugmasi; 8—oraliq shkiv;  
9—ponasimon tasma.



uyg'unlashgan, barabanning bir qismi ishchi organi sifatida sharnir osilgan po'lat dastalardan tashkil topgan bo'lsa, ikkinchi qismiga cho'tka qoplangan. Pastki baraban ham cho'tkali qilib yasalgan. Barabanlar bir-biriga qisib turuvchi qurilma yordamida jipslashtirilib turadi. Stanok ishchi organlari elektryuritgichdan tasmali uzatma orqali harakatga keltiriladi. Ustki baraban tasmali variator va pastki oraliq valga o'rnatilgan shkivdan harakat oladi.

Stanokda jarayon quyidagicha kechadi. Qorako'l terilari partiyasini ishchi qo'shimcha tekisliklardan biriga joylashtiradi va stanok elektryuritgichi hamda ventilyatorni ishga tushirgandan so'ng qo'l bilan terilarni stanokka uzatadi. Barabanlar terini tortadi, ishchi uni ushlab turadi va astalik bilan cho'zib,  $180^\circ$  ga burib, yana stanokka kiritadi. Terining qattiq ifloslangan qismi barabanning metall bilan qismiga kiritiladi. Stanok ishi davomida hosil bo'lgan changlar ventilyator orqali so'rib olinadi.

ІІЧС-2 stanogi soatiga 100 dona terini tozalay oladi. Stanok uzatmasi elektryuritgichi quvvati 1 kVt. Ustki barabanning aylanish soni  $15\text{--}23 \text{ s}^{-1}$ , pastki barabanni -  $8,3 \text{ s}^{-1}$ . Stanokning gabarit o'lchamlari  $2300 \times 1445 \times 1975$  mm; massasi 206 kg.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. УЗКЯ-2500 qurilmasi vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni to'g'risida nimalarni bilasiz?

2. ІІЧС-2 stanogining vazifasi, tuzilishi, texnologik ish jarayoni va tavsifini ayтиб bering.

## 8-BO'LIM


### CHORVACHILIKDA QO'LLANILADIGAN MASHINA JIHOZLARI

#### 8.1. ASINXRON ELEKTRYURITGICHLAR

Asinxron elektryuritgichlar uch fazali tok hosil qiluvchi aylanuvchi magnit maydonidan foydalanib ishlashga asoslangan. Aylanuvchi magnit maydonining fizik xususiyatlari Lens qonuni bilan tushuntiriladi.

Rotorning aylanish chastotasi stator magnit maydonining sinxron deb atalgan aylanish chastotasiga teng bo'limgan (nosinxron) va yuklamaga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan tok mashinalari *asinxron elektryuritgichlari* deb ataladi. Asinxron elektryuritgichlar generator va yuritgich rejimlarida ishlatshi mumkin. Asinxron elektryuritgichi ni generator rejimida ishlatish iqtisodiy jihatdan foydali emas. Shu sababli asinxron yuritgichlar faqat ayrim hollardagina dizel yuritgichlarni chiniqtirishda qo'llaniladi. Konstruksiyasining soddaligi, nisbatan arzonligi, puxtaliligi sababli asinxron yuritgichlari chorvachilikni mexanizatsiyalashtirishda keng foydalaniadi.

Asinxron yuritgichlarda rotorni magnit maydoni aylanishidan ortda qolishi sirpanishi (0,01–0,06) bilan tavsiflanadi. Magnit maydoni bilan qisqa tutashtirilgan o'ramning o'zarlo munosabati asinxron elektryuritgichi konstruksiyasining asosi sanaladi. Asinxron elektryuritgichlari qisqa tutashtirilgan rotorli va faza rotorlilarga (kontakt halqali) bo'linadi.




168-chizma. Uch fazali qisqa tutashtirilgan asinxron elektryuritgich:  
1—ventilyatsiya teshigi;  
2—podshilnikning himoya to'siglari; 3—korpus;  
4—o'zak; 5—stator o'rami;  
b—qopqoq; 7—rotor;  
8—ventilyator.

Qishloq xo'jaligida ko'proq kollektorsiz uch fazali qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron elektryuritgichlari keng tarqalgan. Ularni himoyalangan (A tipi) va yopiq (AO tipi) holda tayyorlanadi. Montaj qilinishi bo'yicha asinxron elektryuritgichlar gorizontal panjada, gorizontal flanesda va vertikal holda bo'ladi.

Uch fazali qisqa tutashtirilgan rotorli

asinxron elektryuritgichi (168-chizma) qo‘zg‘almas stator va ay-lanuvchi rotordan tuzilgan.

Stator cho‘yan yoki po‘lat korpus (3) ichida ichi bo‘sh po‘lat-dan tayyorlangan sirti ariqqa o‘yqli silindr – o‘zak joylashgan. O‘zak o‘zaro laklab izolyatsiyalangan ayrim-ayrim elektrotexnik po‘lat listdan tayyorlangan. Statorning ariqqa o‘yqlariga uch fazali o‘ram (5) lar joylashtirilgan. Rotor (7) ayrim elektrotexnik po‘lat listlardan yig‘ilib izolyatsion lak bilan qoplangan po‘lat silindr-dan iborat. O‘rama qisqa tutashtirilgan rotor ariqcha o‘yiklariga olmaxon g‘ildiragiga o‘xshash halqaga qotirilgan mis va alyumin tayoqchalarga o‘xshatib joylashtiriladi. Rotor chetlari himoya to‘sig‘i (2) bilan yopilgan podshipnikli valga qotiriladi. Elektryuritgichdan jihoz va qurilmalarga harakatni uzatish uchun valga shkiv yoki mufta o‘rnataladi. Stator korpusi himoya to‘sig‘iga faza o‘ramlarining uchi va oxiri chiqarib qo‘yilgan (169-chizma): birinchi faza uchi – C1 o‘rami, oxiri – C4; ikkinchi faza uchi – C2, oxiri – C5; uchinchi faza uchi – C3 va oxiri – C6.



#### **169-chizma. Uch fazali elektryuritgich o‘ramlarining uchi va oxiri shakli:**

a—stator o‘amlari o‘zaro ulanmagan; b—stator o‘amlari uchburchak shaklida ulangan; d—stator o‘amlari yulduzcha shaklida ulangan;  
C1, C2, C3 – birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘ramlar uchi;  
C4, C5, C6 – birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘ramlar oxiri.


Amaliyotda ko‘p hollarda elektryuritgichlarni o‘ramlarida rusumi ko‘rsatilmagan holda ularshga to‘g‘ri keladi. Bunda har bir faza o‘ramining uchi va oxiri akkumulyator batareyasi bilan tutashtirilgan megaommetr yoki yoritish lampasi orqali topiladi. Bunda lampa yoki megaommetrning bir tarmog‘i o‘ramning bit-tasini chiqishiga ulab, ikkinchisi bilan qolganlariga navbatil bilan ulab ko‘radi. Megaommetr ko‘rsatkichining nolga tengligi yoki lampa yonishi o‘ram uchining izlanayotgan fazaga tegishli ekan-ligini ko‘rsatadi. Agar ularsh nazorati davrida barcha faza o‘ramlar reaksiya qilmasa, ya’ni megaommetr qarshiligi juda katta bo‘lsa yoki lampa yonmasa, demak, fazada uzilish mavjud.

Faza o'ramlari juftligi topilgandan so'ng, o'ramlarning uchi va oxiri quyidagicha aniqlanadi. Faza o'rami juftliklari uchlari ixtiyoriy ravishda 1–2, 3–4 va 5–6 qilib belgilanadi. Uchliklarning 2–4–6 uchlari yulduzcha qilib bir joyga biriktiriladi. 1–3–5 uchlari rubilnik orqali uch fazali elektr tarmog'i o'ramlariga tutashtiriladi. Agar elektryuritgich ishlab ketsa, demak, faza o'ram uchlari to'g'ri topilgan bo'ladi. Aks holda navbat bilan faza uchlari qayta yulduzcha qilib ulanadi. Masalan, 1–4–6 uchlар yulduzcha va 2–3–5 tarmoqqa ulanadi. Bu holda ham elektryuritgich me'yorda ishlamasa, ikkinchi va uchinchi faza almashtiriladi.

Fazalarning uchi va oxiri aniqlanganidan so'ng yulduzcha bilan ulangan uchlari C4, C5, C6 va elektr tarmog'iga ulangan qismiga C1, C2 va C3 deb rusum beriladi.

Elektryuritgich o'ramlarini yulduzcha yoki uchburchak shaklda ulanishi tarmoqdagi kuchlanish va stator o'ramlaridagi nominal faza kuchlanishiga bog'liq. Agar elektryuritgich pasportida 220/380 V va uchburchak (yulduz belgisi) ko'rsatilgan bo'lsa, stator o'rami 220 V kuchlanishda uchburchak va 380 V kuchlanishda yulduzcha shaklida ulanishi lozim.

Elektryuritgich o'rnatilishida unga qulay xizmat ko'rsatilishi inobatga olinishi lozim. Elektryuritgich va bino devori orasi 1 m, parallel o'rnatilgan elektryuritgichi oralig'ida 0,3 m masofa qoldirilishi zarur. Ochiq havoga o'rnatilgan elektryuritgichlarni yomg'ir va quyosh nurlari tegishidan saqlash lozim.




**170-chizma. Shkivlar kengligi har xil bo'lganda vallar parallelligini tekshirish:**

a—lineyka yordamida;  
b—ip yordamida

Boshqarish apparatlari elektryuritgichiga yaqinroq joylashtiriladi. Elektryuritgich jihoz yoki qurilma bilan tasma yoki zanjir orqali harakatga kelsa, sirpanib sozlanuvchi qilib o'rnatiladi. O'rnatilishda tasma yoki zanjirning bir o'qda yotishini ta'minlash lozim. Aks hollarda agregatni vibratsiya bo'lishi, tasma va zanjirlarning yeyilishiga olib kelishi mumkin. Elektryuritgich va mashinaning bir xil gorizontal tekislikda joylashishi tekshiriladi va qisrtimlar bilan rostlanadi. Vallarning bir o'qda joylashishi lineyka va shnur yordamida tekshiriladi (170, 171-chizmalar).

Elektryuritgich o‘rnida, fundamentda qotirish boltlari uchun belgi qo‘yiladi, so‘ng elektryuritgich yana olinib, boltlar sementlanganidan so‘ng qayta o‘rnatiladi. Elektryuritgich va mashina umumiy fundamentga o‘rnatilib, ularning vallarini bir o‘qda yotganligi qat‘iy ravishda tekshiriladi. Elastik muftalar uchun agregatning bir o‘qli emasligi 0,08–0,12 mm, kulachokli muftalar uchun 0,12–0,15 mm gacha ruxsat etiladi.

Montaj qilishda agregatni yer bilan sim orqali ulanganligi ta’minlanishi lozim. Agregatning tok yuruvchi qismlaridan me’yo-riy izolyatsiya qilingan korpusi, qobig‘i va barcha detallari yerga tutashtirilgan nol simi bilan biriktiriladi. Yerga tutashtirilgan sim elektryuritgichning boltig‘i qotiriladi.



*171-chizma. Vallar uqining uzaro bir chiziqida yotganligini tekshirish:*

1—vallar; 2—lineyka.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Asinxron elektryuritgichlar vazifasi, tiplari va tuzilishini tu-shuntiring.
2. Asinxron elektryuritgichlarini elektr tarmog‘iga ulash chizmali-ri va uni amalda bajarish tartiblari qanday?
3. Elektryuritgich va mashina jihozlarni agregatlash tartibi to‘gri-sida nimalarni bilasiz?

## 8.2. ELEKTR ISITISH QURILMALARI

Chorvachilik fermalarida elektr quvvati sutni pasterizatsiyalash, suvni isitish va ventilyatsiya isitish tarmoqlarida keng foydalani-ladi. Elektr qurilmalari mayjud isitgichlardan har qanday sharoitda tezda ishga tushishi mumkinligi va avtomatik tarzda belgilangan haroratni ta’minlay olishi bilan ajralib turadi. Elektr qurilmalari uchun maxsus yonilg‘i tayyorlanishi zarur emas. Shuning-dek, qo‘srimcha ishchi kuchi ham talab etilmaydi.

Elektr isitgichning eng mas’uliyatli qismi – isitish elementi sanaladi. Element elektr quvvatini Joul-Lents qonuniga binoan ichki energiyaga aylantiradi:

$$Q = I_2 \cdot R \cdot t,$$


bu yerda: Q – issiqlik miqdori, J; I<sup>2</sup> – tok kuchi, A; R – qarshilik, Om; t – vaqt, soniya.

Isitish elementlari uchun tasma, spiral yoki sim shaklida tayyorlangan nixrom, konstanta va boshqa yarim o'tkazgich materiallardan foydalaniлади. Isitish usuliga qarab elektr isitish qurilmalari elektrod (bevosita isitish) va element (bilvostita isitish) shaklida bo'ladi.

Elektrodli isitgichlarda elektrodlar isitilishi lozim bo'lgan muhitga (suv, tuproq) qo'yiladi va tok elektrodlar orasidan shu muhit orqali o'tib unga issiqlik energiyasini beradi.

Chorvachilik fermalarida suv isitish uchun foydalilanidigan element isitgichlarida TЭH tipidagi quvurli isitish elementlari qo'llaniladi.

BЭT-200 eng ko'p tarqalgan suv isitgichlaridan sanaladi. Bu isitgich 200 l sovuq suvni 4 s mobaynida +80°...+85 °C haroratga cha isitib beradi (172-chizma).



172-chizma. BЭT-200 suv isitgichi:

1–rezervuar; 2–qobiq; 3–issiqlik saqlash qatlami; 4–harorat relesi;

5–kichik shtutser; 6–quvurli isitish elementi; 7–katta shtutser;

8–bo'g'iz; 9–to'kish krani;  
10–ventil; 11–qaytarmas klapan;

12–rezina shlangi; 13–bo'g'iz;  
14–termometr; 15–quvur o'tkazgich.

BЭT-200 suv isitgich 200 l rezervuar (1), qobiq (2), issiqlik saqlash qatlami (3) dan tuzilgan. Rezervuarning pastki qismiga payvandlangan shtutserga uch fazali uch quvurli isitish elementi (6) qotirilgan. Element izolyatsiyalangan o'zak arig'iga joylashgirilgan spiral shaklida tayyorlangan nihrom simdan tayyorlangan. O'zak spiral simi bilan birga po'lat quvur ichiga joylashdirilgan. Elektr toki o'tganda spiral qiziydi. Spiral bilan birga po'-lat quvur va suv ham isiydi. Isitish elementi 220 V kuchlanishga mo'ljallangan. Berilgan haroratni saqlab turishda suv isitgich kichik shtutserga (5) o'rnatilgan harorat relesi (4) bilan ta'minlangan.

Belgilangan isitish harorati rele korpusidagi strelka tort-

qisi buralib to‘g‘rilanadi. Tortqini soat strelkasiga qarshi buralsa, isitish harorati tushadi va soat strelkasi bo‘yicha buralsa harorat ko‘tariladi. Suv rezervuarga ta‘minlagich suv quvuri va bo‘g‘iz (8) orqali to‘ddiriladi. Suv quvuri suv isitgichdan rezina shlang (12) orqali izolyatsiya qilinadi. Ventil (10) ochilganda suv bo‘g‘iz (8) orqali rezervuarga kiradi va issiq suvni rezervuardan suv to‘plash bo‘g‘izi (13) orqali haydaydi. Suv isitgich suv quvuridan ko‘pi bilan 200 kH/m<sup>2</sup> bosimda ta‘minlanishi lozim, iste’mol quvvati 5,4 kVt. Suv isitgich komplekti tarkibiga uch polyusli rubilnik, magnit ishga tushirgich va saqlagichlar kiradi. Agar elektr tizimi uch fazali bo‘lsa isitish elementlari yulduzcha, ikki fazali bo‘lsa uchburchak shaklida ulanadi. Isitgich suvni +8 °C dan +90 °C ga isitganda ish unumi 50 l/s ni tashkil etadi.

### **8.3. HAYVONLARNI ULTRABINAFSHA NURLANTIRISH**

Ultrabinafsha nurlari o‘zining kimyoviy va biologik ta’siriga ega. Biologik ta’sirining namunasi sifatida insonning quyosh nurlari ta’sirida qorayishi hisoblanadi. Shu asosda nurlantirish qurilmalari ham ishlaydi.


Hayvonlardagi ultrabinafsha yetishmovchilik qishda va bahorda ultrabinafsha nurlantirish bilan tiklanadi. Natijada tovuqlarning tuxum qilishi 15–17 foiz, sigirlarni sut berishi 10–15 foiz va bo‘rdoqiga boqilayotgan cho‘chqa bolalari semirishi 10–30 foizga oshadi. Nurlantirish shirzada (raxit) kasalligini oldini olishga va davolashga yordam beradi.

Nurlantirishda tovuqlar ratsionidan D vitamini preparatini olib tashlashga imkon beradi, bu esa tuxum yetishtirish tannarxini pasaytirishga imkon tug‘diradi.

Nurlantirish samarasi hayvonlar tomonidan olinayotgan nur me’yoriga bog‘liq. Nur olishning yetishmasligi natijasi bilinmasligi mumkin, lekin belgilangan me’yordan oshib ketsa, nur halokatl shish paydo qilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Nurlantirish odat bo‘yicha kunduzi o’tkaziladi. Ultrabinafsha nuri dozasi antiraxit birliklarida me’yorlanadi.

Bu birlik hayvondagi D vitamini kamchiliginи ultrabinafsha nurlash darajasini aniqlab beradi.

Harakatli ultrabinafsha qurilmasi va yosh buzoqlarni infraqizil



**173-chizma. Harakatli ultrabinafsha qurilmasi:**  
 1—lampani siljitim yurish troslari; 2—karetka;  
 3—kugarib turuvchi sim; 4—kabel; 5—reduktor;  
 6—elektryuritgich; 7—bosqarish shiti;  
 8—armatura; 9—PRK-2 lampasi; 10—armatura eshigi; 11—lampa simi; 12—ushlagach.


nurlar yordamida isitgichlar quyidagi 173, 174-chizmalarda keltirilgan.

Armatura (8) lampa (9) bilan kareta (2)ga osilgan bo'lib, nurlanayotgan obyekt ustiga keltiriladi. Kareta elektryuritgich (6) yordamida ko'tarib turuvchi sim bilan po'lat tros (1) orqali siljiladi. Nurlantirgichga elektr ta'minoti parda osgichi kabi osilgan egiluvchan kabel orqali uzatiladi. Qurilmani oldinga-orqaga harakati avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Nurlatish dozasi nurlash lampalari osmasi baland-pastligi, uning hayvonlar ustida harakat tezligi va lampalarning kundalik o'tish soni bilan me'yoranadi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Isitish elementlari shakli, materiali va elektr energiyasidan ajraladigan issiqlik miqdori qanday topiladi?

2. BЭT-200 qurilmasi vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni to'g'risida nimalarni bilasiz?



**174-chizma. 20 kunlikdan 3 oygacha bo'lgan yosh buzoqlarni infraqizil nurlarida isitish qurilmasi.**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В. Р. Алешкин, М.П. Ро шин. Механизация животноводства. М.: Агропромиздат, 1985.
2. Н.Н. Белянчиков, А.И. Смирнов. Механизация животноводства и кормоприготовления. М.: ВО Агропромиздат, 1990.
3. Н.В. Брагинец, Д.А. П ал и шкин. Курсовое и дипломное проектирование по механизации животноводства. 3-е изд. М.: Агропромиздат, 1991.
4. Г. Бранд. Проектирование животноводческих комплексов. (Перевод с немецкого языка). М.: Стройиздат, 1979.
5. М.И. Егорченков, Н.Г.Шамов. Кормоцехи животноводческих ферм. М.: Колос, 1983.
6. А.М. Завражнов, Д.И. Николаев. Механизация приготовления и хранения кормов. М.: Агропромиздат, 1990.
7. Ю.В. Краснокутский Ю. В. Механизация первичной обработки молока. 2-е изд. М.: Агропромиздат, 1988.
8. Ю.Н. Ковалев. Технология и механизация животноводства. М.: ИРПО: Изд. центр «Академия», 1988.
9. А.П. Конаков, Ю.Н. Юдаев, Р.Б. Козин. Механизация раздачи кормов. М.: Агропромиздат, 1989.
10. Г.М. Кукта. Машины и оборудование для приготовления кормов. М.: Агропромиздат, 1987.
11. И. В. Кулаковский. и др. Машины и оборудование для приготовления кормов. Ч 1, Справочник. М.: Россельхозиздат. 1987.
12. С.В. Мельников. Технологическое оборудование животноводческих ферм и комплексов. 2-изд. Л.: Агропромиздат, 1985.
13. Д.Н. Мурусидзе, А.Б. Левин. Технология производства продукции животноводства. М.: Агропромиздат, 1992.
14. Ш.Н. Нураев. Технологическое оборудование овцеводческих комплексов. Алма-Ата, 1985.
15. В. Н. Риженков. Машины и оборудование для свиноводческих ферм и комплексов. М.: Россельхозиздат, 1982.
16. В.М. Соколов. Комплексная механизация овцеводства. Справочник. М: ВО Агропромиздат, 1987.
17. В. М. Tojiboyev, A.S. Sirojiddinov. Chorvachilik va chorvachilikni mexanizatsiyalashtirishga oid ruscha-uzbekcha lug‘at. T.: Uzgiprozem, 1994.

# MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

## 1-bo'lim. FERMANI LOYIHALASHTIRISH ASOSLARI

1.1. Fermer xo'jaliklari turlari va yo'nalishlari .....	5
1.2. Fermer xo'jaligini loyihalashtirish, xo'jalik uchun joy tanlash .....	14
1.3. Ozuqa saqlash inshootlarini loyihalashtirish va hisoblash .....	29
1.4. Chorva binolarini loyihalashtirish va jihozlash .....	33
1.5. Chorva binolarini shamollatishni hisoblash. Shamollatish tizimi va jihozlari .....	38

## 2-bo'lim. FERMANING SUV TA'MINOTI VA LOYIHALASHTIRISH

2.1. Suv, uning sifati, talabni hisoblash va loyihalashtirish .....	45
2.2. Suv ko'targichlar, nasoslar turi va ulardan foydalanish .....	49
2.3. Suv ta'minoti tizimi, quvurlar, montaj qilish va foydalanish qoidalari .....	52
2.4. Avtosug'orgichlar, ulardan foydalanish va montaj qilish .....	56

## 3-bo'lim. OZUQA TAYYORLASH

3.1. Ozuqa tayyorlashga talavlar. Ozuqaga bo'lgan ehtiyojni hisoblash .....	60
3.2. Ozuqa tayyorlash texnologik tizimi .....	63
3.3. Ozuqalarни yuvish va tozalash mashina jihozlari .....	69
3.4. Ozuqalarни maydalovchi mashina mexanizmlari .....	72
3.5. Ozuqalarни qirqib maydalash mashina jihozlari .....	81
3.6. Ozuqalarga issiqlik bilan ishlov berish mashina jihozlari .....	88
3.7. Ozuqalarни me'yorlash va aralashtirish mashina jihozlari .....	92

## 4-bo'lim. QO'SHIMCHA OZUQA RESURSLARIDAN FOYDALANISH

4.1. Qo'shimcha ozuqa turlari, ularning tasnifi, tayyorlash texnologiyalari ...	105
4.2. Ozuqa qoldiqlariga ishlov berish mashina jihozlari .....	116

## 5-bo'lim. FERMA ICHKI TRANSPORTI. GO'NGDAN TOZALASH MASHINA JIHOZLARI

5.1. Fermadagi yuklar turi, hajmi va yuk tashish, mashina mexanizmlar ish unumini hisoblash. Transport vositalari tasnifi .....	129
5.2. Qo'zg'almas ozuqa tarqatgichlar .....	134

5.3. Harakatlanuvchi ozuqa tarqatgichlar .....	145
5.4. Go'ng tavsifi. Go'ngdan tozalash usullari .....	159
5.5. Go'ng yig'gich moslamalar tasnifi .....	163
5.6. Qo'zg'almas go'ng tozalash qurilmalari .....	165
5.7. Go'ng tozalash gidravlik tizimi .....	175
5.8. Go'ngga ishlov berish tizimi va mashina jihozlari .....	177
5.9. Harakatli go'ng tozalagichlar .....	181
5.10. Go'ng saqlash xandaqlari .....	183

## **6-bo'lim. MEXANIZATSIYA YORDAMIDA SUT SOG'IB OLISH VA UNGA DASTLABKI ISHLOV BERISH**

6.1. Mashina bilan sut sog'ishning fiziologik asoslari va unga qo'yiladigan zootexnik talablar. Siginri sog'ishga tayyorlash .....	184
6.2. Mashina bilan sut sog'ish usullari. Sog'ish apparatlari turlari, tuzilishi va ishlashi .....	188
6.3. Sog'ish apparatlari tuzilishi va ish jarayoni .....	194
6.4. Sog'ish qurilmalari tasnifi, tuzilishi, ularga texnik xizmat ko'rsatish va foydalanish .....	205
6.5. Sutga dastlabki ishlov berish tizimi va mashina jihozlari .....	215
6.6. Sut tozalagichlar, sovutgichlar va saqlagichlar .....	218
6.7. Sut pasterizatorlari va separatorlari .....	228

## **7-bo'lim. MEXANIZATSIYALASHTIRILGAN HOLDA QO'Y JUNINI QIRQISH**

7.1. Mashina bilan qo'y junini qirqishning ahamiyati .....	238
7.2. Jun qirqish shoxobchalari va ularning jihozlanishi .....	241
7.3. Jun qirqish agregatlari va ishlov berish jihozlari .....	243
7.4. Maxsus qurilmalarda qo'y va echkilarni cho'miltirish .....	251
7.5. Jun qirqish shoxobchasida ishni tashkil qilish .....	255
7.6. Qorako'l qo'zilarini so'yish va terisiga ishlov berish ishlarini mekanizatsiyalash .....	259

## **8-bo'lim. CHORVACHILIKDA QO'LLANILADIGAN MASHINA JIHOZLARI**

8.1. Asinxron elektryuritgichlar .....	262
8.2. Elektr isitish qurilmalari .....	265
8.3. Hayvonlarni ultrabinafsha nurlantirish .....	267
Foydalilanlgan adabiyotlar .....	269

**B.M. TOJIBOYEV**

**CHORVACHILIKNI  
MEXANIZATSIYALASHTIRISH  
VA AVTOMATLASHTIRISH**

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

Muharrir: *N. Rustamova*

Badiiy muharrir: *M. Odilov*

Kompyuterda sahifalovchi: *A. Tillaxo'jayev*

Nashr lits. AI № 174, 11.06.2010.

Bosishga ruxsat 22.12.2014da berildi. Bichimi  $60 \times 84^1/_{16}$ .

Ofset qog'ozি №2. Times\_UZ garniturasi.

Shartli b.t. 19,0. Bosma tabog'i 17. Adadi 1609.

Buyurtma № 60.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasida  
rizografiya usulida chop etildi.  
100000, Toshkent, Amir Temur shoxko'chasi, 60<sup>«A»</sup>-uy.